

O'tkir Hoshimov

TUSHDA KECHGAN UMRLAR



ABADIY BARHAYOT ASARLAR

O‘tkir HOSHIMOV

TUSHDA KECHGAN UMRLAR *(roman)*

“Ilm-ziyo-zakovat”
Toshkent – 2019

UDK: 821.136.44

KBK: 84(50)6

H-71

O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar / roman / «Abadiy barhayot asarlar» turkumi. – T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. – 240 b.

Mas'ul muharrir:

Lolaxon QO'ZIBOYEVA

Nashrga tayyorlovchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarorida yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ulug' adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanini mutolaa qilgan yosh kitobxonlar ma'naviy olami shunga yarasha bo'ladi. Ushbu nashrning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, bu nashri hozirgi o'zbek tilining imlo qoidalariga to'liq moslangan shaklda berildi.

UDK: 821.136.44

KBK: 84(50)6

ISBN: 978-9943-5858-6-7

© O'tkir Hoshimov.

© “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019-yil.

**Vatanim Istiqlolga erishmasa, bu asar dunyo yuzini
ko'rmas edi...**

Muallif

RUSTAMNING OXIRGI KUNDALIGIDAN

Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Erta bahordan bo'tana bo'lib, shosha-pisha, qirg'og'iga sig'may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoe ketganini tushunib, olamga ma'yus boqadi... Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, xazon ko'milib yotadi... Yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi. Oq zulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi.

...Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kadi. Sim-sim yomg'ir yog'adi: to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi...

Men necha yoshga chiqdim o'zi? Yigirma ikkiga?! Yo'g'-e, axir men yetmish ikkidaman-ku! Balki, sakson ikkidadir? Nima farqi bor?! «Donolar hayotni kuzaturlar jim...»

QURBONOIY XOLANING HAR KUNGI TASHVISHLARI

Biqini achishib uyg'ondi. «Xudoyim, o'zingning rahming kelsin», – dedi pichirlab. Eski dardi yana qo'zg'adi shekilli. To'rt yildirki, ahvol shu. Sal og'irroq ish qilsa, yoqmasroq ovqat yesa, tamom: o'ng ko'kraging tagi simillab og'riydi.

Bodringdek bir narsa biqiniga botib, to'satdan sanchiq kiradi. Oxiri og'zi taxirlanib, ko'ngli behuzur bo'ladi. Qayt qiladi.

Umida uch-to'rt marta qo'lidan sudragudek bo'lib do'xtirxonaga olib chiqdi. Do'xtir xotin: «Me'dangiz aynigan, xola, gastrit bo'lgansiz», deb qo'ya qoldi. Bannisaga yotqizishga order kerak ekan. Order yo'q emish... Yozda kasali zo'riqib ketdi. Shunaqangi azob berdiki, xudoyo tavba, bundan ko'ra o'nta tuqqan afzal. Umida u yoqqa yugurib, bu yoqqa yugurib order topdi. O'n oltinchi bannisaga, olti kishili palataga joylashtirdi.



Do‘xtirlar ham o‘lmasin! Xo‘p antiqa asboblari o‘ylab chiqaribdimi, baraka topgurlar! Chalqancha yotqizib qo‘ydi-da, qorniga moy surib, qo‘lidagi asbobini u yoqqa yurgizdi, bu yoqqa yurgizdi. Ikki ko‘zi televizorda. «Oshqozoningizda kasal yo‘q, xola, – dedi nihoyat – O‘tqopchangizda tosh bor. G‘ij-g‘ij tosh». Xudoyimdan o‘rgilay! Bandasiga atagan dardiyam ko‘p ekan-da! Tosh qayoqdan keladi? Ataylab tosh yemagandir, axir! «Operatsiya qilish kerak, xola – dedi do‘xtir – boshqa iloji yo‘q».

Aparaysa qilarmish! Aytishga oson. Aslida-ku, har kimning joni Xudoning omonati. Ertami-kechmi oladi omonatini. Boring ana tig‘ning tagidan omon-eson qutulib chiqdi ham... Bir yilgacha yarimjon bo‘lib yuradimi? Ko‘chani kim supuradi? Bir emas, ikkita to‘rt qavatli «do‘m»ning zinasini kim yuvadi? Tag‘in nima deydi, deng? «Sizga engashish mumkin emas, xola. Ishingizni o‘zgartiring», emish. Har kim o‘zidan o‘tganini o‘zi bilarkan-da.

Qurbonoy xola bo‘ynidan achom qilib yotgan nevarasini uyg‘otib yubormaslik uchun sekin qaddini rosladi. Uy ichi sham hidiga to‘lgan edi. Kecha chiroq o‘chib qolgani, yangi qo‘shni – Shahnozadan sham olib chiqqani esiga tushdi. Nimqorong‘ida paypaslab, bolaning butiga qo‘l yubordi: qup-quruq. Mana, siyib qo‘ymabdi-ku! Shu... Umidayam xo‘-o‘p tepsa-tebranmas chiqdi-da. Kap-katta bola har kuni siyib qo‘yadi, deb noligandan ko‘ra yotar chog‘i qovug‘ini jinday yog‘lab qo‘ysa-ku, olam guliston!

Narigi devor tagidagi karavot g‘irchilladi. Qizchasini quchoqlab yotgan Umida ovoz berdi:

– Choy qo‘yib keting, oyi! – Shunday dedi-yu, boshiga ko‘rpa tortdi.

Qurbonoy xola indamay oshxonaga chiqdi. O‘lsin! Chiroq ha-liyam kelmabdi. Vannaxonaga o‘tib shoshilmay tahorat oldi. Gazga choy qo‘yib, uyga qaytib kirdi. Bomdodni o‘qidi. O‘tganlarga Allohning rahmatini, qolganlarga imon tiladi. O‘t balosi, suv balosi, tuhmat balosidan asrashni so‘rab, yuziga fотиha tortdi.

Qorong‘i oshxonada bir burda non kavshab, choy ichgan bo‘ldi. Yo‘lakdagi ilgakda osig‘liq turgan paxtali choponini kiyib, boshiga paxmoq ro‘mol o‘radi. Biqini tag‘in achishib og‘ridi. Birpas ikkilanib turdi-da, choponini yechdi. Tag‘in uyga kirdi. Timirskilanib sandiq ochdi.

Qitir-qitirdan Umida qayta uyg‘onib ketdi, shekilli, norozi



to'ng'illadi:

– Hech tinchimas ekansiz-da!

– Bolalarni vaqtida olib bormasang, bog'cha opasi kirgizmiydi, – dedi Qurbonoy xola o'zini oqlagan ohangda.

Sandiqning bir burchidan eski sharf topdi. To'rko'ylagi ustidan ko'kragiga tang'idi. Yo'lakka chiqib tag'in choponini kiydi. Ro'mol o'radi. Vannaxonada turgan paqirni taraqlatib yubormaslik uchun halqasidan ohista ko'tardi. Bandiga uzun tayoq tiqilgan supurgini qo'ltiqqa qistirib, qorong'i zinalardan pastga tushdi.

Oynasi singan tashqari eshikni ochishi bilan yuziga muzdek havo urildi. Qor yog'yapti shekilli! Yo'q, tuman tushibdi. Quyuq tuman. Yer-u osmon oqish, xira pardaga o'rab tashlangandek. Qiziq, hamma narsa telba-teskari ko'rinadi. O'n qadam naridagi baqaterakdan ko'ra ikki chetidagi simyog'ochlarda chiroqlar yonib turgan ko'cha yaqinroq tuyuladi. Ko'chadan o'tayotgan siyrak mashinalar nur yelpig'ichi bilan tumanni yorib imillaydi. Qurbonoy xola bir qo'lida paqir, qo'ltig'ida supurgi bilan uyni aylanib o'tayotganida «do'm» chekkasidagi baqaterak tagida sharpa ko'ringandek bo'ldi. To'xtab, o'sha tomonga qaragan edi, sharpa terak orqasidan siljib ajraldi-da, shatir-shutur xazon bosib, tumanlik qo'yniga singib ketdi. Qurbonoy xola sharpa boshiga yosh bolalarnikiga o'xshagan cho'qqisimon telpak kiyganini g'irra-shira ilg'adi-yu, yo'lida davom etdi. Avval magazin tomondagi yo'lkani supurish kerak. Jekdagi xo'jayin qattiq tayinlagan: «Bu – katta gastronom, xola, har xil odam keladi, tag'in bitta-yarimta kattalar bu «do'm» kimga qarashli, desa, bizga gap tegib qolmasin, tushundingizmi?»

Tushunadi. Nega tushunmasin!

Pastak non do'konining derazasida chiroq bor. Qizg'ish nur tushib turibdi. Ammo non mashinasi ko'rinmaydi. Bundan chiqdi hali soat yetti bo'lmabdi. Do'kon yonboshida darvoza. U yog'i gastronom. Uning ham derazalarida chiroq yoniq. Lekin gastronom soat sakkizda ochiladi. Eshigi tepasidagi qizil chiroq kulga tushgan cho'g'dek xira yiltiraydi.

Qurbonoy xola paqirini baqaterak tagiga qo'ydi-da, «bismillo», deb yo'lkani supurishga tushdi. Xudoyligini aytganda, ishi og'irmas. Avval ikkita «do'm»ning atrofini supurib chiqadi. Keyin zinalarni yuvadi. Peshingacha ishini bitirib keladi-da, uyidagi

yumushlarga qaraydi. Ovqat qiladi. Nevaralarining kiyimini chayadi.


Birinchi kunlari avval zinalarni yuvib, keyin ko'cha supurayotgan edi. Bo'lmadi: «do'm»dagilar jekka shikoyat yozishibdi. «Ertalabdan taraq-turuq qilib uyqumizni buzadi», deyishibdi. Qurbonoy xola qo'shnilarni bezovta qilmaslikka so'z berdi. Ishni supurishdan boshlaydigan bo'ldi. Nima qipti: xayol sure-eb supuraveradi. Supurgi «shig'g'-shig'g'» qiladi. Bir yo'lkani boshidan oxirigacha supurib bo'lgach, axlatni to'dalaydi. Shunaqa-ku, manavi baqaterak degani o'lgur yomon. Bahorda gullaydimi, nima balo, hamma yoqni popiltiriq bosib ketadi. Osmondan qordek yog'adi-ya, qirg'in kelgur! Suv sepsang, yerga yopishib qoladi. Sepmasang, supurgi urishing bilan to'zg'ab, betingga sapchiydi... Kuzda undan battar. Xazonni to'dalab yoqsang, baloga qolasan. Havoni zaharlayapsan, deydi. Axlat mashina olmaydi... Kim o'ylab topganiykin bu baqaterak jonivorni!..

Bir zamonlar «Qatortol» qandoq joylar edi! O'rikzorlar, uzumzorlar, nokzorlar... Har nashvatilar bo'lardiki, shirasi chak-chak tomib yotardi...

Qurbonoy xola yengil qadam tovushini eshitib, supurishdan to'xtadi. Ortiga burilib qaradi. Egniga «olimpiyka», boshiga cho'qqisimon to'qima qalpoqcha kiygan ikki kishi shitob bilan yugurib, yonidan sharpadek o'tib ketdi. Avval ixchamrog'i, ketidan qorin qo'ygan, hansirab nafas olayotgani... Qurbonoy xola ikkoviniyam taniydi. Qorin qo'ygani – prapisir. Unisi – o'g'li. Esladi: hali daraxt panasida turgan odam shu yigit bo'lishi kerak... Ota-bola qishin-yozin kanda qilmay, har kuni ertalab yugurishadi. Ko'chaning narigi betidagi katta darvozali uchastka prapisirniki. Prapisir otasiga yil oshi berganda Qurbonoy xola borib xizmat qilgan... Ota-bola har safar uning yonidan yugurib o'tishadi. Salomlashmaydियam, gaplashmaydियam... Mayli, har bandai mo'min o'zidan tinsin...

Yana shig'illatib supurishga tushdi. Biqinida og'riq kuchayganiga parvo qilmadi. Bibi lab non mashina keldi. Ichkaridan do'konchi chiqdi. Mashinaning orqa kajavasini ochishdi. Tuman tarqamadi-yu, kun bir qadar yorishgandek bo'ldi. Bir mahal orqa tomondan yo'g'on ovoz keldi:

– Supuryapsanmi?



Qurbonoy xola ovoz egasini tanidi: Komissar. «O'ynayapman!» – deb o'yladi ensasi qotib. Har kuni «supuryapsanmi», deb so'raydi. Ishdan to'xtab, burilib qaradi. Salom berdi. Komissar besh-olti qadam narida turar, boshida qora shlyapa, egnida qora plash, qo'lida sut bidon bor edi.

– Nevaralaring omonmi? – dedi Komissar yoshiga yarashmagan o'ktam tovushda.

– Xudoga shukr, yurishibdi. Yumalab-sumalab.

– O'zing ahmoqsan! – dedi Komissar zarda bilan – Necha marta aytdim: kuyovingni sudga ber! Moyagini bir burasa, qizingga dom olib beradi. Yo uchastkasining yarmini kesib beradi. «Bir kamim qizimning kundosh bilan bir hovlida turishi qoluvdi, bolalarini o'ksitib», – deb o'yladi Qurbonoy xola dili og'rib.

– Mayli, – dedi sekin – Xudoga soldim. Komissar kuldi. Kuli-shi g'alati. Xuddi odamni mayna qilgandek «xex-xex-xex», deydi.

– Xudoning sendan boshqa ishi yo'q! Falonchi bandamning arzi holini eshitaman, deb ko'zi uchib turibdi. «E-e! Tezroq daf bo'lsang-chi! Sen bilan gaplashib yurakni qon qilgandan ko'ra...»

Qurbonoy xola atay gapni boshqa yoqqa burdi:

– Sutga ketyapsizmi?

– Borib keldim. Bugun sut kelmas ekan. Do'kon kecha bayramda ishlagani uchun bugun oddix qipti.

Qurbonoy xola supurgisini changallab, ishni davom ettirmoqchi edi, Komissar ma'noli yo'talib qo'ydi. Chamasi, yana gaplashgisi bor edi.

– Ertalab kasha pishirib yemasam, me'dam og'riydi.

– Keksalik-da! – dedi Qurbonoy xola.

– Meni qari deyapsanmi, xex! – Qurbonoy xola javob bermadi. Shaxt bilan supurishni davom ettirayotgan edi, qulog'iga yana Komissarning ovozi kirdi:

– Anavi kim? Qurbonoy xola Komissar qo'lini bigiz qilib ko'rsatgan tomonga qaradi. Uy yerto'lasining zinasida bir odam g'ujanak bo'lib yotardi.

– Qayoqdan bilay? – dedi Qurbonoy xola beparvolik bilan – Anavi yoqdan kelganlardan bittasidir-da. Bilasiz-ku, qish kelsa, qalang'i-qasang'ilar ko'payadi. Kecha bayram qilib bo'kib ich-



gan bo'lsa...

– Yo'q, unaqaga o'xshamaydi. – Komissar shaxdam qadamlar bilan o'sha tomon yurdi. – Yotishi bejo-ku!

Qurbonoy xolaning ko'ngliga mubham xavotir tushdi. Supurgisini sudrab Komissarga ergashdi.

– Hoy, kimsan? – Komissar engashib, yelkasiga turtgan edi, gavda qimirlamadi. Qurbonoy xola yaqin borib gavda ustiga egildi-yu, dahshat ichida o'zini orqaga tashladi.

– Voy! Voy o'lmasam! – dedi oyoq-qo'lidan mador ketib. Rustamjon-ku! Kuyov-ku! Kechagina o'ynab-kulib o'tiruvdi-ya! Rustam yerto'laning semon zinasi ustida g'ayritabiiy yonbosh-lab yotar, boshidan oqqan qon halqob bo'lib qolgan, ichki kiyim-da, bir oyog'ida latta shippak, ikkinchi shippagi pastki zinada to'ng'irilib yotar edi. O'ng qo'li tagida qolgan, negadir musht bo'lib tugilgan chap qo'li zinaga osilib turar, go'yo o'sha yerdan bir narsa olmoqchi bo'lgan-u, shu alpozda qotib qolganga o'xshardi. Komissar sut bidonini yerga qo'yib cho'kkaladi. Yelkasi-dan tortib sekin ag'dargan edi, Rustamning og'zidan qon sizib chiqib, bo'yniga oqdi. Shunda, Qurbonoy xola uning bilagi ham tilinib ketganini, tirsagidan kaftining orqasigacha qora qonga belanganini ko'rdi.

– Voydod! Kim bor! – deb jonholatda dod sola boshladi. – Yordam beringlar! Xotinini chaqiringlar! Shahnozani chaqiringlar!

Bir zumda odam to'plandi.

– Qaranglar, deraza sinibdi! – dedi kimdir hayajonli qichqirib.

Qurbonoy xola alang-jalang bo'lib tepaga qaradi. To'rtinchi qavatdagi derazaning bir tavaqasi ochiq turar, yerda, Rustamdan nariroqda katta-kichik oyna parchalari sochilib yotardi.

– Do'xtir chaqirsalaring-chi! – dedi Qurbonoy xola izillab. – Xotini qayoqda, xotini!

– Shunaqa bo'lishini bilardim, – dedi kimdir bepisand ohangda.

Qurbonoy xola bu sovuq gap kimdan chiqqanini anglamay alanglagan edi, prapisir o'g'lining yelkasiga musht tushirdi.

– O'chir ovozingni, ahmoq!

Ota-bola hamon o'sha kiyimda edi: boshida cho'qqisimon qalpoq, egnida olimpiyka.

– Do‘xtir qani, do‘xtir? – dedi Qurbonoy xola iltijo bilan. – Insoflaring bormi, chaqiringlar axir!

Komissar Rustamning bilagini ushlab, tomirini tekshirdi.

– Doktorning keragi yo‘q, – dedi sovuqqonlik bilan. – Militsiyaga qo‘ng‘iroq qilish kerak.

TERGOV HUJJATIDAN

Shomatova Shahnoza. Yigirma bir yoshda. Oliygo‘hning to‘rtinchi kurs talabasi. Millati – o‘zbek. Turmush qurgan. Avval sudlanmagan. «Qatortol» mavzesi, 9-uy, 23-xonadonda istiqomat qiladi.

– Siz marhum Shomatov Rustamning xotini ekanligingizni tasdiqlaysizmi?

– Ha.

– To‘yinglar qachon bo‘lgan?

– Shu yili yozda.

– Aniqrog‘i?

– Sakkizinchi avgust kuni.

– Hozir turgan uylaringga qachon ko‘chib kelgansizlar?

– Sentyabrning oxirida.

– Ungacha qayerda turgansizlar?

– Qaynonamnikida. Pskentda.

– Hovlinglar kattamidi?

– Nima desam ekan... El qatori hovli...

– Grajdanka Shomatova, ayting-chi, nima uchun Pskentdagi hovlida turmay, Toshkentga ko‘chib keldingizlar? Qaynonangiz bilan orangiz buzildimi?

– Oyimlar bilan ahil edik.

– Ovsiningiz bilan-chi?

– U kishi bilan ham.

– Bo‘lmasa nega...

– Har kuni oltmish chaqiringga qatnashimiz kerakmidi?

– Bir narsaga kelishib olsak, grajdanka Shomatova... Savolni men beraman! Oltmish chaqiringga qatnash og‘irlik qilgan bo‘lsa, nega talabalar yotog‘idan joy olmadinglar?

– Rustam akam xohlamadilar. Alohida uy olish uchun harakat qildilar.

– Shomatov bir vaqtlar sudda ishlaganidan xabaringiz bormi?..



- Aytgandek bo‘luvdi.
- Ishdan nega ketgan ekan?
- Anig‘ini bilmayman.
- Siz to‘rtinchi kursda o‘qiysiz. Eringiz ikkinchi kursda bo‘lgan...
- Agar Afg‘onistonga olib borib, urushga solishmasa, Rustam akam ham to‘rtinchi kursda bo‘lardilar.
- Tushunarli... Eringiz Afg‘onistonda xizmat qilgan, baynalmilal jangchi sifatida o‘ziga berilgan imtiyozlardan foydalangan... Navbatsiz uy olgan...
- Rustam akam u yoqqa borganlarini dastak qilganlaridan mening xabarim yo‘q.
- Bo‘lishi mumkin... Ayting-chi, eringizning asabi joyidami-di? Kontuziya bo‘lgan, yaralangan ekan... Yig‘lashning hojati yo‘q.
- Jahllari yomon edi... Ammo «u yoq»dagi gaplarni hech gapirmasdilar! Yarador bo‘lganlariniyam tasodifan bilganman. Bellariga o‘q tekkan ekan. «Oyimga aytma, shunchaki, daydi o‘q yalab o‘tdi», deganlar.
- Yig‘lamang... Marhum eringiz bilan ko‘pdan tanishmidingiz?
- Birinchi kursdan beri...

«SOVUQNI YOMON KO‘RARDILAR»

Shahnoza melisaxonaning fayzsiz yo‘laklaridan o‘tib borarkan, hech kimni ko‘rmas, hech nimani eshitmas edi. Guvoh sifatida «povuska» olganidan beri ayasi nuqul qulog‘iga quyadi: «Gapingni bilib gapir, jon bolam, tag‘in seniyam oyog‘ingdan tortib yurmasin!» Dadasi xavotirda. Kecha «nachalnikka qo‘ng‘iroq qilmoqchi edi, ayasi bobillab berdi: «Nima qilasiz podadan oldin chang ko‘tarib! Melisa «gunohi bo‘ynida ekanki, tipirchilab qopti», demaydimi! Nima, Shahnoza erini bo‘g‘ib o‘ldiribdimi?!»

Shahnoza zinalardan tushib borarkan, vujudida allaqanday loqaydlik, karaxtlik sezdi. Duniyolaringga o‘t tushib ketmaydimi Rustam aka bo‘lmaganidan keyin! Eshik oldida turgan melisaga ruxsat qog‘ozini topshirib, tashqariga chiqdi-yu, bir lahza turib qoldi.

Qor yog‘yapti. Birinchi qor... Ertalabdan beri ezib yoqqan yomg‘ir oxiri qorga aylanibdi. Yer-u ko‘kni kafanga o‘rab tash-

lashga qasd qilgandek, shunaqangi shiddat bilan yog'yaptiki, ko'cha chetidagi daraxtlar tabiatning muqarrar hukmi oldida nochor ta'zim bajo qilgandek enkayib qolibdi. Yupun kiyingan odamlar sirpana-sirpana jonsarak yugurgilaydi. Mashinalar g'ildiragi ostidan loy aralash qor sachraydi... Rustam akasi qorni yomon ko'rardi. Devdek gavdali, Alpomishdek baquvvat odam sovuq tushar-tushmas bo'yniga sharf o'rab olar, Shahnoza: «Voy-bo', qorbobo bo'p keting-e!» – desa, «Hayronman, Shahnoz, shu qor degan narsa yog'masa, kimning ko'ngli qolarkin?» – deb gapni hazilga burardi. «Mozori ustini bir qarich qor bosgandir? Qandoq yotganiykin Rustam akam? Bechora Rustam akam! Nega ketdim? Nega ketdim o'sha kuni!» Shahnoza toyg'ona-toyg'ona shoshqin yurib ketdi. Unsiz yig'lab borar, oyog'idan zax o'tib ketganini, muzdek qamchisi bilan ayovsiz savalayotgan qor orasidan lablariga sho'rtang ko'z yoshi sizib kirayotganini his etib turar, biroq hech nimani o'ylagisi kelmas, xayolida qat'iy bir ahd qasamdek charx urardi. Boradi! Piyoda boradi Qozirobod mozoriga! Rustam akasining boshiga yoqqan qorni sidirib tashlaydi. Mana shu qo'llari bilan! Bu dunyoda rohat ko'rmadi, aqalli u yoqda tinch yotsin sho'rlik! O'shanda, birinchi kursda o'zining boshiga qor yoqqanida kurab tashlagan, jonini asrab qolgan Rustam akasi edi-ku!

Shahnoza shahar maktabida o'qigani uchun umrida paxtaga bormagan edi. Institutda «Ertaga paxtaga ketiladi», degan e'lonni eshitib, shoshib qoldi. Barvaqt bormasa, qolib ketadigandek, kechasi bilan ivir-g'avir bo'lib chiqdi. Talabalarning paxta hasharidagi romantik sarguzashtlarini ko'p o'qigan, televizorda muntazam ko'rsatiladigan manzaralar ko'z o'ngida namoyon bo'lar, tezroq dalaga borgisi, paxta tergisi kelardi. Ayasi bo'g'irsoq, pechene pishirdi, xuddi Shahnoza och qoladiganday kattakon sumkaga quyultirilgan sut, konservalar tiqishtirdi. Ko'rpa-to'shagini buklama karavot orqasiga tiqib adasining mashinasida institut oldiga kelishsa, hali odam to'planmagan ekan. Hatto ikki qadam naridagi yotoqda turadigan talabalar ham tushmabdi. Shahnoza ko'cha chetidagi chinor tagida turgan Dilya – Dilfuzani ko'rib, yugurib bordi. Mittigina gavdali Dilfuza ham shaharlik edi. U ham birinchi marta paxtaga borayotgani uchunmi, saharlab kelib

olibdi... Avtobuslar karvoni tushga yaqin yo'lga tushdi. Imillab, uzoq yurdilar. Raqam bilan nomlanadigan sovxozlardan birining markazida taqsimot bo'ldi. Shahnozalarning avtobusi yana ancha yurdi. Nihoyat cho'l-biyobonning qoq o'rtasida, bostirmaga o'xshagan allaqanday pastak, uzun bino oldida to'xtashdi. Binoning beton devorlari sho'rlab ketgan, derazalarning oynasi singan edi. Sal nariroqda atrofi qora qog'oz bilan o'ralgan hojatxona qo'nqayib turardi. Yuz qadamcha olisda esa oppoq popiltiriqlari shamolda silkinayotgan qamishzor shovullar edi.

Yuklarni tushirishdi. Shahnoza qo'rqa-pisa ichkariga bosh suqdi-yu, darrov qaytib chiqdi. Bostirmaning qorayib ketgan pastak shiftida olmadekkina lampochka osilib turardi. Bor-yo'q jihoz shu. Yuzlari oftobda qoraygan, norg'ul gavdali, qoshlari qalin Rustam aka (kursdagilar yoshi kattaroq bo'lgani uchunmi uni shunday deb chaqirishardi) darrov bolalarni ishga soldi.

– Bor, burgan yulib kel! – dedi yigitlardan biriga. – Qizlar, barakni supurib chiqasizlar!

Birpasda ish qizib ketdi. Dilya barakni supurdi. Shahnoza paqir ko'tarib, suvga ketayotgan edi, Rustam yigitlardan biriga bu yurdi:

– Suvga sen bor! Ehtiyot bo'l, quduqqa engashma... Quduq degani semon quvurni tik qilib yerga ko'milgan narsa ekan. Mashinada suv olib kelib, xlor aralashtirib, shu «quduq»qa quyisharkan.

Rustam, ehtiyot bo'l, deb bejiz aytmagan ekan. Bultur qaysidir sovxozda talabalardan biri sirg'anib, quduqqa tushib ketibdi. O'rtoqlari tortib olguncha tamom bo'пти...

Barakning o'rtasiga brezent parda osib, ikkiga bo'ldilar. Bir tomonga bolalar joylashdi, bir tomonga qizlar. O'sha oqshom non-choy qilib yotib qolishdi. Kechqurun Shahnoza Dilya bilan tashqariga chiqqan edi, qamishzor tomondan chaqaloq yig'isi eshitildi.

– Nima bu, Dilya? – dedi qo'rqib.

– Chaqaloq yig'layapti, shekilli... – Ikkovlari barakka yugurib kirdilar.

– Qizlar, anavi qamishzor ichida chaqaloq yig'layapti! – dedi Dilya ovozi titrab. Parda to'siqning narigi tomonidan Rustamning ovozi keldi.

– Chaqaloqmas, shoqol! – dedi vazminlik bilan. – Chiyabo'-

ri... Qo'rqmanglar. – Birpas jim turdi-da, qo'shib qo'ydi: – Tashqariga yolg'iz chiqmanglar...

Shahnoza anchagacha uxlolmay yotdi. Pardaning narigi tomonida chiroq yoniq turar, bolalar, chamasi, qarta o'ynar edi... Bir mahal ko'zi ilingan ekan, bo'ynidan allaqanday sovuq, yumshoq narsa o'rmalab o'tayotganini his qildi. Jonholatda chinqirib yubordi. Qo'li bilan siltab tashlagan edi, boyagi narsa yerga tushganini idrok etdi. Qizlar uyg'onib, hamma yoq qiy-chuv bo'lib ketdi. Kimdir chiroqni yoqdi. Shahnoza qo'rquvdan ko'zlari olay-gancha yig'ma karavotda o'tirar, nuqul bir gapni takrorlar edi:

– Anaqa... yumshoq narsa...

Narigi tomondan Rustam chiqib keldi. Egnida eski jinsi shim, ko'ylakchan.

– Sichqon-ku! – dedi kulib. (Kulganda chehrasida nur porlab ketgandek bo'ldi.) – Qo'rqmang. Hademay o'rganib ketasiz...

To'g'ri aytgan ekan. Bir hafta-o'n kun o'tib, qizlar to'shagi ustida o'rmalab yurgan sichqonni ko'rsa, qo'rqmaydigan bo'lishdi.

... Uchinchi kuni kulliyot komsomoli rahbari – oppoq, duma-loq yuzli, mo'ylovi o'ziga yarashgan Sanjar aka majlis qildi. Aytishiga qaraganda, norma qat'iy ekan. Paxta – yetmish kilo, podbor – yuz ellik kilo. Kim normani bajarmasa, o'qishdan haydala-di!

«Sanjar aka» gapiryapti-yu, Dilya nuqul tirsagi bilan Shahnozaning biqiniga turtadi. «Ha?» – deb jerkib bergan edi, Dilya kulimsiradi. «Chiroyli yigit-a?»

Shahnoza ensasi qotib, yuzini o'girdi. Chiroylimi, balomi, yetmish kilo paxtani qanday teradi? Kun bo'yi beli singudek bo'lib zo'rg'a o'ttiz kiloga olib boryapti-ku! Viloyatlardan kelgan qizlar-ku normani bermalol bajaradi. Avval ham qilib yurgan ishi. Shahnoza bilan Dilyaga qiyin. Bir etakni to'ldirguncha peshin bo'ladi. Yo'q! G'ayrat qilmasa, bo'lmaydi... Bir kuni jon-jahdi bilan ishlashga qasd qildi. Birinchi etak ancha tez to'ldi. Ikkinchisiga kelganda beli qaqshab og'riy boshladi. Teradi. Baribir teradi! Nima, boshqalardan kam joyi bormi? Tushga yaqin ikkinchi etak ham to'ldi. Yuk og'irlik qilganidan ikki buklanib qoldi. Etakni bo'ynidan tushirib, birpas dam oldi. Osmonda qat-qat bulutlar ohista suzib borar, baland-balanddan turnalarning horg'in nolasi eshitilar, ammo o'zi ko'rinmasdi.

Orqa tomondan gursullagan qadam tovushi eshitildi. Shibbalab paxta bosilgan etakni orqalagancha egat oralab Rustam kelar edi. Ko'ylakchan bo'lib, yengini shimarib olgan, oyog'ida etik...

– Hormang! – dedi kulimsirab. Shahnoza horg'in javob qildi: – Salomat...

– Bering, paxtangizni topshirib kelaman.

Shahnoza ikkilanib qoldi. Nima qiladi birovni koyitib. O'zi kamida ellik kilocha yuk orqalab ketyapti-ku...

– Beravering, – Rustam Shahnozaning paxta to'la etagiga qo'l cho'zdi. – Birpas damingizni oling.

– Anavi yoqda yana bor, – dedi Shahnoza iymanib. Rustam yelkasidagi etakni yerga qo'ydi. Ikkovlari Shahnoza terib, marzaga to'kib qo'ygan paxta uyumi tepasiga borishdi. Rustam chaqqon harakatlar bilan paxtani Shahnozaning etagiga zichlab joyladi. Qaytib kelib o'zining paxtasini ham yengilgina ko'tardi-da, yo'l chetida turgan telejka tomon tez-tez yurib ketdi.

– Zo'rsiz-ku! – dedi qaytib kelib. – Ellik ikki kilo chiqdi. Shahnoza tergan paxtasi qanday qilib «ellik ikki» kilo chiqqanini tushundi. Rustam o'zinikidan qo'shgan...

...Bir oyga deb olib kelishgan edi. Ikki oy o'tdi. Shahnozaning dadasi bilan ayasi to'rt marta kelib ketishdi. Issiq to'rko'ylak, kirza etik olib kelishdi. Odamni qon qilib yuboradigan kuz yomg'irlari boshlandi. Barakning shifer tomidan chakka o'tib, hammayoq zaxlab ketdi. Paxta tugul podbor ham qolmagan, ammo yomg'ir tinishi bilan ularni dalaga haydashar, talabalar biydek paxtazorda tentirab yurishar, har qadamda etikka botmon-botmon loy yopishib, marzalarning u yer-bu yerida to'kilib qolgan ko'rak aralash kir paxtani loydan ajratib etakka tiqishar edi. Allaqayerdan cho'yan pechka, zanglab ketgan tunuka karnaylar topib kelishdi. Rustam pechkani qizlarning «bo'lma»siga o'rnatdi. Ko'mir yo'qligi uchun o'tin yoqishar, yomg'irda qolgan o'tin to yonguncha barakni achchiq tutunga to'ldirib yuborardi. Domlalar ikki haftada almashib turar edi. Eng keyin kelgan Muhtabar opa degan yosh domla talabalarning ahvolini ko'rib, yig'lamoqdan beri bo'lar, qaytishga ruxsat yo'q edi. Jumhuriyat olti million tonnali rejani bajarmaguncha paxtazor front maydoni deb e'lon qilinibdi.

... Qor yog'di. Shahnoza birinchi qorning shu qadar shiddat bilan yog'ishini endi ko'rishi edi. Qandaydir biron soat ichida ba-

rak tomini bir qarich qor bosdi. Hamma mung'ayib qoldi. Paxta-zor ham, barak ham, talabalar ham... O'sha kecha bolalar yotgan tomonda allakim tuni bilan quv-quv yo'talib chiqdi. Shahnoza ertalab qarasa, Rustam bo'yniga qalin sharf o'rab olibdi. Nuqul yo'taladi. Yuzlari bo'g'riqib ketgan.

– Shu... qor degan narsani kim o'ylab topganiykin? – dedi hazilga olib. – Sovuqni yomon ko'raman, Shahnoza...

Shahnoza ayasi olib kelgan bir banka quyultirilgan sutni berdi.

– Issiq choyga qo'shib ichsangiz, o'tib ketadi. Shunaqa dediyu, o'zining ham oyoq-qo'llari qaqshab og'riyotganini, boshi g'uvullab borayotganini sezib turardi... Kechga borib isitmasi ko'tarilib ketdi. Dilya olib kelgan makaron sho'rvani ko'rib ko'ngli ag'darildi. Kechasi bilan alahlab chiqdi. Xuddi osmonda uchib yurganga o'xshar, to'satdan chuqurga tushib ketayotgandek bo'lar, cho'chib uyg'onar, «Aya, ayajon!» – deb ingrar edi.

Bir mahal ko'zini ochsa, tepasida Muhtabar opa, Dilya, Rustam turishibdi.

– Ma, ichgin, asal choy! – dedi Dilya uning boshiga egilib. Shahnoza ko'zlarini horg'in yumib yuzini o'girdi. Quruq yo'tal tutdi. Entikib nafas ola boshladi. Tashqarida traktor tarilladi. Shahnozaning qulog'i shang'illar, birov uning miyasiga kirib olib, muttasil to'qmoq bilan urayotganga o'xshar edi. O'sha tomondan shovqin-suron eshitildi.

– Tush! – dedi kimdir baqirib. – Tush bu yoqqa! Birpasdan keyin Muhtabar opa barakka qaytib kirdi:

– Rustam traktor minib sovxoz markaziga ketdi, – dedi o'ylanib. – Qaysar yigit ekan, bir baloni boshlamasa, go'rgaydi.

... Shahnoza kimningdir muzdek kafti peshonasiga tekkanini sezib seskanib ko'zini ochdi. Shiftdagi lampochka o'limtik nur sochar, yonida oq xalat kiygan semiz xotin o'tirar, oyoq tomonida Muhtabar opa, qizlar to'dalashib turishar, yalangbosh sochi, yelkalariga qor qo'ngan Rustam eshikka yaqinroq joyda turgancha Shahnozadan ko'z uzmas edi.

Do'xtir Shahnozaning o'pkasini eshitayotganda Rustam chiqib ketdi. Keyin tag'in qaytib kirdi.

– Pnevmoniya! – dedi do'xtir negadir Rustamga yuzlanib. – O'ng o'pkasi shamollagan. Kasalxonaga olib borish kerak. – Shunday deb o'rnidan turayotgan edi, Rustam qatiy bosh chayqa-

di: – Yo‘q, opa! Siz ketmaysiz!

– Qiziq yigit ekan-ku, bu! – Do‘xtir najot kutgandek atrofiga alangladi. – Yarim kecha bo‘ldi. O‘n besh chaqiringa traktorga bosib opkelgani yetmagandek... Bu nimasi? Men ham bola-chaqali odamman!

– Ketmaysiz! – dedi Rustam ko‘zlari yonib. – Mashina topib kelaman. Shahnozani kasalxonaga o‘zingiz olib borasiz...

Do‘xtir javob qilib ulgurmasdan shitob bilan chiqib ketdi. Tashqarida traktor gurilladi Shahnozani «Niva»ga o‘tqazishayotganida tong yorishib Qolgan edi. Bir yoniga do‘xtir o‘tirdi, bir yoniga Rustam... Isitmasi sakkiz kundan keyin tushdi... Shu orada Dilya, Rustam tuman kasalxonasiga ikki marta kelib-ketishdi. Shahnoza Rustamning soqoli o‘sib ketganini, ko‘zlari kirtayib, rangi bir holatga tushib qolganini ko‘rdi. O‘sha voqeadan keyin barakda majlis bo‘lganini, Rustamni o‘qishdan haydashlariga bir bahya qolganini Dilyadan eshitdi. Rustam uchinchi marta ko‘rgani borganida qo‘lini ancha vaqt ushlab turdi-da, pichirladi:

– Rahmat, Rustam aka...

TERGOV HUJJATIDAN

– Grajdanka Shomatova, yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o‘tar kechasi qayerda edingiz?

– Mana shu... o‘zimizning uyda.

– Kechasi bilanmi?

– Ha...

– Eringiz, mabodo, kechasi tashqariga chiqmadimi?

– Yo‘q.

– Uyingizga biron shubhali odam kelmadimi?

– Yo‘q.

– O‘sha hodisa ro‘y berganida siz qayerda edingiz?

– Ertalab sutga chiqdim. Uzoq kutib qoldim. Sut yetmadi. Qaytib kelsam...

– Yig‘lamang... Yig‘idan naf yo‘q.

– Kelsam... Bu ahvol. Rustam akamni olib ketishgan ekan. Uy to‘la odam. Melisalar...

– O‘ylab ko‘ring-chi, grajdanka Shomatova, eringiz bilan qasdlashgan odamlar bormidi?

– Bilmayman... – «Erimning jahli yomon edi», dedingiz. Ay-

ting-chi, masalan, qanaqa paytda jahli yomonligi bilinardi?

– Qulog‘im sizda!

– Rustam aka nohaqlikni ko‘rsalar, chidab turolmasdilar.

– Masalan...

– Umuman-da...

– Bizga umumiy gap emas, aniq dalil kerak. Ayting-chi, qo‘shnilar bilan munosabatingiz qanday edi? Xususan, eringizning?

– Yangi odammiz. Qo‘ni-qo‘shnilar bilan kirish-chiqishimiz yo‘q hisob. Faqat Qurbonoy xolani tanirdik.

– Kim u, Qurbonoy xola?

– Bir uyda turamiz, farrosh xotin. Yaxshi ayol.

– Birona qo‘shni bilan san-manga bormaganmisizlar?

– Yo‘q.

– Yaxshilab eslab ko‘ring?

– Yo‘q, dedim-ku!

– Menga qarang, grajdanka Shomatova! Biz haqiqatni aniqlashimiz, eringizning qotillarini topishimiz kerak. Tushunarlimi?

– Qo‘ni-qo‘shnilar orasida marhum Shomatov Rustamga qasd qilganlar yo‘q, deb tasdiqlaysizmi?

– Bo‘lmasa, manavi protokolni eshiting:

Shu yil yigirma ikkinchi oktyabr kuni kech soat 23 dan 40 minut o‘tganida Shomatov Rustam 10-uy, 35-kvartirada yashovchi grajdanin Vasilev Grigoriy Stepanovichning eshigini taqillatgan. Vasilev eshikni ochishi bilan karate usulini qo‘llab, uni yerga ag‘dargan va bundan keyin jim yurmasang, so‘yib tashlayman, deb dag‘dag‘a qilgan. Vasilev militsiyaga shikoyat yozgan. Ammo ertasiga da‘vosidan kechib arizasini qaytarib olgan. Bu hangomadan xabaringiz yo‘qmidi?

– Nega xabarim bo‘lmasin! O‘z ko‘zim bilan ko‘rganman! Vasilev dedingizmi? O‘sha kundagi qilg‘i uchun toshbo‘ron qilisa, arziydi! Ishonmasangiz, o‘zini chaqirib so‘rab ko‘ring.

– Bu yog‘i sizning ishingiz emas, grajdanka Shomatova... Ayting-chi, mabodo eringiz keyingi kunlarda Vasilev bilan to‘qnashmaganmidi?

– Yo‘q... Menimcha, yo‘q.

– Marhum Shomatov ko‘p icharmidi?

– Yo‘q, ba‘zan ichardilar...



«HOZIR KECHIRIM SO‘RAYSAN!»

Rustam bilan Shahnoza o‘sha kuni ro‘paradagi uyda to‘y bo‘layotganidan bexabar edilar. Domda it egasini tanimaydi. Ular-ku, yangi qo‘shni. Eskilari ham bir-biri bilan hushiga kelsa, salomlashadi, bo‘lmasa, serrayib, o‘tib ketaveradi. Rosti, to‘yga chiqqilari ham yo‘q edi. Qurbonoy xola qo‘ymadi. «Voy, Xudo urdi-ketdi! Ko‘zdek qo‘shning to‘yiga chiqmasanglar, uyat bo‘lmaydimi? Erta-indin sizlar ham farzand ko‘rasizlar. To‘y qilasizlar», deb dashnom berdi. To‘y shiringina bo‘ldi. Ikki uy o‘rtasidagi maydonchaga Dasturxon yozilgan. To‘rda kelin-kuyov... Ortiga ilib qo‘yilgan gilamga qo‘shaloq nikoh halqasining tasvirini solib, paxta bilan «Xush kelibsiz, aziz mehmonlar!» deb yozilgan. Hamma yoqda gul... Xursandchilik... Shahnoza Rustam akasi bilan etakroq tomonda – qo‘shni uy devori tagida o‘tirishardi... Shahnoza o‘zlarining to‘yi boshqacharoq, fayzliroq bo‘lganini, ashulachilar yanayam sho‘xroq qo‘shiq aytganini, yoshlar yanayam shodonroq raqsga tushganini eslar, Rustam akasiga dam-badam jilmayib qarab qo‘yardi. Faqat bir narsadan ko‘ngli g‘ash edi. Rustam akasi bugun negadir ko‘p ichyapti...

Navbatdagi qo‘shiq tugab, bir lahza jimlik cho‘kdi. Kayvoni mikrofonni «puf-puflab», «Endi tabrik uchun so‘z kelinimiz Zeboxonning dugonasi...» – deb gap boshlagan edi, yuqorida, xuddi Shahnoza bilan Rustam akasining boshi ustida deraza sharaqlab, g‘azabnok hayqiriq eshitildi:

– Ey! Shovqin-suroningni to‘xtatasanmi-yo‘qmi?

To‘yxona suv quygandek jimjit bo‘lib qoldi. Kelinning dugonasiga tantanavor alpozda so‘z berayotgan to‘yboshining dami ichiga tushib ketdi.

Shahnoza boshini ko‘tarib qaradi-yu, shundoq tepasida, to‘rtinchi qavatning ochiq derazasidan engashib turgan maykachan barzangini ko‘rdi.

– Uxlashga qo‘yasanlarmi-yo‘qmi? – dedi barzangi qahr bilan.

Shahnoza Rustam akasi o‘rnidan turib ketganini, o‘sha tomonga qarab, ko‘zlarida g‘azab to‘la o‘t yonayotganini endi ko‘rdi.

– O‘tiring! – dedi bilagiga yopishib. – Iltimos, o‘tiring, Rustam aka!

Deraza taraqlab yopilgani qulog‘iga chalindi. Rustam joyiga o‘tirdi. Shahnoza erining qo‘llari asabiy qaltirayotganini sezib

turardi.

To'ydan fayz ketdi. Hamma mung'ayib qolgan, oppoq ro'mol ostidagi kelin boshini quyi solib o'tirar, egniga zarbof to'n, boshiga do'ppi kiygan kuyov uning qulog'iga shivirlab, allanimani tushuntirar edi.

– Voy onangni!... – Rustam ro'parasida o'tirgan ingichka mo'ylovli yigitga piyola uzatdi. – Quy! – dedi baqirib. – To'latib quy! Dam olmay sipqardi-da, otilib davraga chiqdi. Torini g'ilofga tiqa boshlagan sozandaning oldiga yugurib bordi.

– Chal! – dedi g'ayritabiiy tantana bilan. – Chal deyman! «Lazgi»ni chal!

Mikrofon yana gumburlay boshladi. Shahnoza Rustam akasi-ning raqs tushishini birinchi ko'rishi edi. Butun vujudi o'ynayapti! Shiddat bilan, g'ayrat bilan... Davra yoshlarga to'lib ketdi. Shahnoza yana... shuni sezdiki... Rustam akasi raqs tushayotgani yo'q... nola chekyapti... Alamli, iztirobli nola! Faqat o'zi-yu Shahnoza tushunadigan nola...

Shu payt kutilmagan hodisa ro'y berdi. Shahnoza boshiga, yelkasiga yog'ilgan muzdek suvdan seskanib, o'rnidan sapchib turdi. «Voy!» deb qichqirib yubordi. Nima bo'lganini tushunolmay alang-jalang qarasa, atrofida o'tirganlar ham o'midan turib ketibdi. Birov jiqqa suv bo'lgan sochini silaydi, birov badaniga yopishgan ko'ylagini siypalaydi. Oppoq dasturxon ustida parcha-parcha suv dog'lari yaltirab ko'rinar, laganlardagi gazaklar ham ho'l edi. Shahnoza Rustam akasining adl qomati to'yxona chirog'i yoritib turgan nur ostidan otilib chiqib borayotganini ko'rdiyu, jonholatda qichqirdi: – Rustam aka! Qayting, Rustam aka!

O'sha zahoti erining ketidan qorong'ilikka sho'ng'idi.

Yuragi qinidan chiqqudek bo'lib zinadan ko'tarildi. To'rtinchi qavatda, zina ro'parasidagi ochiq eshik oldida Rustam akasi maykachan ayiqbashara barzangi bilan ro'parama-ro'para turar edi.

– Sen suv sepdingmi?

– Men! – dedi barzangi xotirjam ohangda. – Yarim kecha bo'ldi. To'xtat bozoringni!

Shunday deb eshikni yopmoqchi edi, Rustam oyog'ini tirab qoldi.

– Yo'qol! – dedi ayiqbashara tahdid bilan. – Hozir militsiya

chaqiraman!

– Chaqir!

– Rustam aka, olishmang! – Shahnoza erining yelkasiga osildi.

– Nari tur! Chaqir o'sha militsiyangni!

Barzangi eshik ortiga bir engashdi-yu, qo'lida aroqmi, vinomi shishasi paydo bo'ldi. Shishani Rustamning boshi ustida ko'tardi. Shahnoza nima bo'lganini payqamay qoldi. Bir mahal qarasa, barzangi yerda cho'zilib yotibdi. Shisha bir chetga uchib ketgan. Rustam akasi uning ko'krigiga tizzasini botirib, bo'ynidan bo'g'yapti. Bir zumda barzangining og'zidan ko'pik kela boshladi.

– Rustam aka! Nima qilyapsiz! O'ldirib qo'yasiz! – Shahnoza chirqillab erining yelkasidan tortqilashga tushdi. Qani, kuchi yetsa! – Rustam aka! Qamab qo'yadi! – dedi yig'lab.

Rustam hushini yig'ib oldi chog'i, qo'lini bo'shatdi. Ayiqbashara barzangi xirillab nafas ola boshladi. O'zini o'nglamoqchi edi, Rustam oyog'i bilan yelkasidan bosdi.

– Menga qara! – dedi har so'zini ta'kidlab. – Men sening xutoringga borib to'y qilyapmanmi?

Barzangi tipirchilab, Rustamning oyog'ini surib tashlashga uringan edi, Rustam qattiqroq bosdi.

– Gapir! – dedi tahdid bilan. – To'y qayerda bo'lyapti? – Barzangi ko'zini olaytirib so'kindi.

– Shunaqami? – Rustam qo'lini tag'in bo'g'ziga taqashi bilan barzangi yuvosh tortib qoldi.

– Bilib qo'y! – dedi Rustam tishlari g'ijirlab. – Odamlar xohlagancha to'y qiladi. Xohlasa, ertalabgacha karnay chaladi. Tushundingmi?

Shahnoza shundagina yo'lakka odam to'lib ketganini payqadi. Hech kimdan sado chiqmas, hamma u yog'i nima bo'lishini kutib turganga o'xshar edi.

– Kechirim so'ra! – dedi Rustam tahdid bilan. Barzangi qaddini rostlamoqchi bo'lganida Rustam yelkasidan qattiqroq bosdi.

– Kechirim so'ra!

– Kechirasan... – Barzangi xirillab, yuzini o'girdi. Shahnoza ning qulog'i ostida guldiraqdek qo'rqinchli ovoz yangradi.

– Nega millatchilik qilasan, o'v?!

Yo'q, bu ovoz baland emas, asabiy emas edi. Juda osoyishta, ishonchli va shuning uchun ham xatarli edi. Kim o'zi bu odam?

Zinadagilar orasidan arvohek ozg'in, zahil yuzli chol ajralib chiqdi. Boshida qora shlyapa, egnida qora plash, oyog'ida yap-yangi yaltiroq tufli.

– Millatchilik qilma! – dedi chol toshbaqanikiga o'xshash ingichka bo'ynini cho'zib. – Millatchilik qilma, bola!

Rustam kaltakesakni ko'rib jirkangandek yuzini burdi. Barzangi qaddini rostlab, mayka-ishtonining changini qoqdi.

– Baribir seni qamataman!

– Qamata qol! – Rustam negadir kuldi. – Eshitib qo'y, – dedi ta'kidlab. – Hammaning oldida aytyapman. Yerning tagidan bo'lsayam topaman-da, so'yib ketaman!

– Og'zingga qarab gapir, bola! – Boyagi «arvoh» qo'lini paxsa qildi. – Umring turmada chirydi, ahmoq!

TERGOV HUJJATIDAN

G'aniev Soat G'anievich. Yetmish besh yoshda. Ittifoq miqyosidagi pensioner. Millati – yo'q. So'qqabosh. Avval sudlanmagan. «Qatortol» mavzei, 40-uy, 41-xonadonda istiqomat qiladi. 1941-yildan beri partiya a'zosi. «Qizil Yulduz», «Jangovar Qizil Bayroq» ordenlari, oltita medal nishondori.

– Grajdanin G'aniev! Yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o'tar kechasi qayerda edingiz?

– Birinchidan, o'rtoq tergovchi, men «grajdanin G'aniev» emas, iste'fodagi polkovnik, o'rtoq G'anievman! Marhamat qilib, o'rtoq polkovnik, deb murojaat etishingizni so'rayman. O'rtoq Komissar, desangiz ham roziman. Meni taniganlar «o'rtoq Komissar», deyishadi.

– Biz sizni guvoh sifatida povestka bilan...

– Povestkangizni pishirib yeng! Xohlasam, generalning o'zi bilan gaplashib qo'ya qolaman!

– Marhum Shomatovni birinchi bo'lib siz...

– Ha-ya, men ko'rganman! Takror aytaman. Meni so'roqqa chaqirgan bo'lsangiz, adashasiz. Shunchaki kollega sifatida maslahat so'rasangiz, boshqa gap.

– Siz ko'rganingizda Shomatov o'lganmidi?

– Badani sovub bo'lgandi. Zamonaviy ekspertizangiz Shomatov qachon o'lganini aniqlay olmadimi?

– Savolni men...

– Yig‘ishtiring demagogiyani! So‘roq qilishni bilmas ekansiz. Umuman, sistemangiz aynib ketgan. Tartib yo‘q. Tartib bo‘lsa, Shomatovni organga ishga olmas edinglar.

– Kechirasiz, grajdanin... o‘rtoq Komissar... Bu gaplarni siz qayoqdan bilasiz?

– Men hamma narsani bilaman. Bu sohada ish boshlaganimda sizning otangiz ham tug‘ilmagan edi.

– Shomatov militsiyada emas, sudda ishlagan. Oddiy kurer bo‘lib.

– Farqi yo‘q! Militsiya ham, sud ham – organ! Payti kelib haydaladigan odamni organga ishga olmaslik kerak.

– Shomatov haydalgan emas, o‘z ixtiyori bilan bo‘shagan.

– Ahamiyati yo‘q.

– Ayting-chi, grajdanin... o‘rtoq Komissar... sizning taxminingizcha, marhum Shomatov bilan ro‘y bergan hodisada qaysi taxmin haqiqatga yaqinroq turadi: qotillikmi? Baxtsiz hodisami yo o‘z joniga qasd qilishmi?

– Gapni shundan boshlash kerak edi!.. Hamma narsa bo‘lishi mumkin. Menga qolsa, birontasi avval o‘ldirib, keyin derazadan tashlab yuborgan.

– Ekspertizaning aniqlashicha, marhumga birov pichoq urmagan. Boshi yorilgan, bo‘yin umurtqalari singan. Marhum baland joydan boshi bilan tushsagina bo‘yin umurtqalari shu qadar ezig‘ilanib ketishi mumkin.

– Demak, Shomatov o‘z joniga qasd qilgan, demoqchimi ekspertizangiz?

– Bu – aniq xulosa emas.

– Unaqa bo‘lsa, marhamat qilib, bitta savolga javob bersangiz. Shomatovning atrofida oyna siniqlari sochilib yotgan edi. Ekspertizangiz oyna bo‘laklari to‘rtinchi qavatdagi, Shomatov kvartirasining derazasidagi oynaga mos kelish-kelmasligini aniqladimi, yo shungayam aqli yetmadimi?

– Bizni kamsityapsiz, o‘rtoq Komissar! Yerda sochilib yotgan oyna siniqlari o‘sha derazadan tushgan. Marhumning bilagini ham oyna sinig‘i tilib yuborgan.

– Xex! Bo‘lmasa, ayting-chi, Shomatov joniga qasd qilib, o‘zini yerga tashlagan bo‘lsa, uydagi jihozlarni kim sindirdi? Qaysi ahmoq o‘lishidan oldin oynani sindirib, o‘z bilagini o‘zi kesib

o'tiradi? Shunchaki, derazani ochib, yerga sakrab qo'ya qolmaydimi?

– Demak, siz qotillik ro'y bergan deb tasdiqlaysizmi?

– Men hech nima deganim yo'q, kollega. Ilintirishga urinmay qo'ya qoling.

– Yo'q, men boshqa ma'noda... Ya'ni... birontasidan gumoningiz bo'lsa...

– Gumonmi? Gumonim – hammadan! Eshitdingizmi? Hammadan! Sizga ham shuni maslahat beraman! Yuz foiz hammadan, hatto o'zining xotinidan, bolasidan gumon qilmaydigan odamdan haqiqiy chekist chiqmaydi! Avvalo, Shomatovning o'zidan gumon qilish kerak!

– Ya'ni... Qaysi ma'noda?

– Baloniyam bilmaysanlar! Hayronman, institutlaringda nimaning o'rgatadi senlarga? O'sha bolaning tili bir qarich edi! Tushunarlimi?

– Kechirasiz-ku, qanday qilib marhumning o'zidan...

– O'rtoq Stalin bilan tish do'xtir hangomasini eshitganmisan? Darvoqe, nechanchi yilda tug'ilgansan? Tushunarli... Senlar o'rtoq Stalinni yomonlab o'rganib qolgansan! Agar o'sha zamon bo'lsa... Xex! Bir oydan beri arzimagan ishni ocholmay timirskilaniy yuribsanlar. Xafa bo'ldingmi? Xafa bo'lsang, undan nari! Keyingi ishingda foydasi tegadi. Shunday qilib, o'rtoq Stalinning tishi og'rib qolibdi... Do'xtir chaqiribdi. Do'xtir dohiyning tishini kavlashtirib davolashga kirishibdi. Bir kun o'tibdi, ikki kun o'tibdi... Do'xtir nuqul tishning tuzilishi, necha qatlam bo'lishi, ildizi nechta bo'lishini aytib, vaysarmish... Oxiri dohiy do'xtirdan so'rabdi: «Tish qattiqmi, til qattiqmi?» – «Hazillashyapsizmi, o'rtoq Stalin, – debdi do'xtir. – Tishning emal qatlami shunaqangi qattiqki, po'latni kesib tashlaydi. Til nima? Bir parcha yumshoq muskul-da», – debdi. «Shunaqami?» – debdi o'rtoq Stalin. O'sha kuni o'rtoq Beriyaga buyuribdi. «Lavrentiy Pavlovich, – debdi. – Manavi do'xtirning tili juda yumshoq ekan. Erta men Stalinning tishini davoladim deb vaysab yuradi, javobini beringlar», – debdi. Yarim soatdan keyin do'xtirning «javobini» berishibdi. Chakkasidan otishayotganda ham do'xtir to'xtovsiz vaysarmish: «O'rtoq Stalinning tishini davolashga ulgurmadim-da, nomim tarixda qolardi», – dermish.

- Bu gapni marhum Shomatovga nima daxli bor?
- Xex! Boyadan beri tanbur chertyapman ekan-da! Shomatov ham tarixda qolgisi keladiganlardan edi! Qachon qarasa, masala talashadi. O'zicha haqiqat o'rnatmoqchi bo'ladi. Ko'rganmiz, bunaqalarni!.. Men o'n besh yoshimdan komissar bo'lganman!
- O'n besh yoshdan?
- Ha, o'n besh yoshdan! Senlar nima? Amallab o'qishga kirasan... Amallab bitirasan. Bilaman, kollega, hammasini bilaman! Gapingiz yolg'on deb ko'r-chi! Xex! Chekist – chekist bo'lib tug'ilishi kerak! Vot masala qayerda! Hay, mayli, Shomatovning xotinini tergov qildingmi?
- Albatta!
- Gumoni kimdanmish?
- Unisini aytmadi-ku, qo'shning to'yi kuni bo'lgan voqeani gapirib berdi.
- Xabarim bor! Menga qolsa, ayb Shomatovning o'zida edi. Aytyapman-ku, burnini suqmagan joyi yo'q edi bu bolaning! Sen, kollega, Shomatovning xotinini siquvga ol, uqdingmi? Nima balo, yelkasiga qoqib chiqarib yubordingmi?
- Qiziq odam ekansiz. Qamoqqa tiqishim kerakmidi, sizningcha!
- Bo'lmasa-chi! Ezish kerak bularni. Ezish! Shunaqangi buraginki, dunyoni boshiga ko'tarib dod solsin!
- Aybi isbotlanmagan odamni-ya?!
- Xex! Shu ketishing bo'lsa, ikki dunyoda hech kimning aybini bo'yniga qo'yolmaysan!
- Judayam unchalik emas, o'rtoq Komissar... Bizning ham usullarimiz ko'p...
- Ko'ramiz, qayoqqacha borarkansan o'sha usullaring bilan!

OQIMGA QARSHI SUZGANIM BO'LSIN!

So'tag-ey! Jo'jaxo'roz-ey! Qo'yib bersa, meni so'roq qilmoqchi! Meni-ya! Jangovar Qizil Bayroq, Qizil Yulduz ordenlari kavaleri, kimsan Komissarni-ya! Avval burningni artib ol, mishiqli! Sovet organining kuni shularga qoldimi endi? Qayoqqa qarab ket-yapmiz o'zi? Xo'p zamonlar o'tgan ekan-da? Egningda charm palto. Boshingda shapka. Yoningda nagan. Qaysi eshikni taqillat-

sang, ko'radi-yu, taxta bo'ladi-qoladi. «Grajdanin, falonchi sizmi?» – desang, tili kalimaga kelmaydi, unurning!..

Xrushchev degani chiqib o'rtoq Stalinga yopishib ko'rdi. Jasadini mavzoleydan chiqarib tashladi! O'zi nima bo'ldi! Xor-zor bo'lib o'ldi-ku! O'z ko'ngillarida xalqqa ozodlik berdilar. Ozodlik emish! Kim qo'yibdi tizginsiz olomonga ozodlikni! Keyin boshqasi keldi... Qog'ozga qaramasdan gapirsa, otini aytolmaydi-yu, tag'in bu kishi marshal emish! «Generalissimus» degan so'zni aytishga tili kelishsa, olardi shu yuksak unvonniyam! Nuqul orden ulashish bilan ovora! Oxiri nima bo'ldi? Hammasida orden. Hammasi poraxo'r! Ambartsumyan – malades! Kallavaram o'zbekning nozik joyidan mahkam ushladi! Manaman degan obkomlar-u raykomlarni, raislar-u bug'altirlarni g'ippa yoqasidan oldi! «Marhamat qilib, to'plagan millionlarni cho'zib qo'y! Ochig'ini ayt! Kimdan olding-u kimga cho'zding? Qachon? Qancha?» Mana buni haqiqiy stalincha metod desa bo'ladi! Otangga rahmat-e, shovvoz! Qani, shunaqalardan o'n mingi, boring, ana mingtasi bo'lsa! Hamma yoqda tartib qaror topardi! Zamon aynib ketdi, zamon! Hamma «demokratiya» deb chinqiradi. «Perestroika», deydi! Oshkoralik deydi! Hamma ozod. Hammaning tili bir qarich! Og'ziga kelganini vaysaydi. Ko'ramiz, hali nima bo'larkan... Ertaga demokratiya diktaturasi boshlanadi. Hammasi anarxiyaga aylanib ketadi. Xalq nima? Poda-ku, mol-ku! Qamchingni qarsillatsang-chi! Nima dedi anavi go'dak tergovchi? «Bizdayam yaxshi usullar bor», emish. Bilamiz usulingni! Uyiga bir chimdim nasha tashlab qo'yarsan, saratonda bir hafta suv ichirmassan. Yoki, aksincha, sovuq xonaga olib kirib, miyasidan muzdek suv tomizarsan. Kameraga qamab, retsidivistlarga do'pposlatarsan. «Qani, yigitlar, manavi senlarga sovg'a, xohlagan ishingni qil», deb shipshitib qo'yarsan. Shumi? Hammasi almi-soqdan qolgan metodlar! Mendan so'ramaysanmi? Aytib bermaymanmi, bir chekkadan! Eng jo'nidan eng antiqasigacha!

Do'xtirlar nima uchun qon olganda to'rtinchi barmoqni teshadi? Bilasanmi shuni? Bilmaysan! Nega deganda to'rtinchi barmoqning nerv tolalari nozik bo'lmaydi. Eng yomon og'riydigani qaysi barmoq? Bilasanmi? Bilmaysan. Bosh barmoq, nodon. Bosh barmoq! Mahbusning bosh barmog'ini eshik tirqishiga tiqasanda, seki-in, hafsala bilan qisaverasan. Dod demaguncha! Ke-

yin qo'yib yuborasan. Undan keyin qaytadan boshlaysan. Mayli, tirnog'i ko'chib, maydalanib ketsin! Suyagi qisirlab sinayotgani-ni o'zi eshitsin! Shikoyat qiladimi? Kinga? O'ziga o'zi tan jarohati yetkazgan, deb protokol tuzib qo'yasan. Gunohi yanayam og'irlashadi. Tamom!

Bunisi eng oddiy usul. Yo'g'-e, bundan ham osoni bor. Jo'n-gina. Mahbusning biron joyi tirmalmaydiyam. Prokurorga shikoyat ham qilolmaydi. Qirq sakkizinchi yilda bir adabiyotshunos olim qo'lga olingan edi. Qizzig'arning ikkita kitobi chiqibdi-yu, o'rtoq Stalin haqida bir og'iz so'z yo'q. Nuqul Navoiy... Nuqul Bobur... Poshsholar. Vazirlar. Bobur degan poshsho yozgan-mish: «Jamoling ishqida, yorim, bir oydirki, bedorman!» Qarang-a, Hindistonni bosib olgan zolim poshshoning gaplari ixtiro emish! Poshshoying-ku, o'lib ketgan! Sen-chi? Professor degan unvoni bor ahmoq. Yolg'on-yashiq shig'irlarni maqtashing shartmi? O'tmishni ideallashtirish emasmi bu! Ko'raylik-chi, o'sha Bobur deganingni yozganlari rostmi-yolg'onmi? Qani, burchakka tur! Bir oy emas, aqalli uch kun uxlamay ko'r-chi!

Chiroqni ko'ziga to'g'rilab, savolingni beraverasan. Och qo'yish, suv bermaslik shart emas. Suvniyam ichadi. Miskadagi yuvindiniyam vaqtida berib turasan. Faqat uxlatmaysan. Sheriging bilan almashib turasan, xolos. Bir kecha-kunduz mijja qoqmay tik oyoqda tursin-chi, holi nima kecharkin? Tagidan arra solingan terakdek gup etib ag'dariladi. Suvga ham qaramay qo'yadi, iblis! Ikki ko'zi qizarib, milki osilib ketadi. Yiqildimi, boshidan suv quyib, uyg'otasan-da, tag'in so'roq qilaverasan. Kerak bo'lsa, gugurt cho'pidan «tirgovich» yasab, milkiga tiqib qo'yasan. Ikki kechada sulayib qoladi. Yaxshi! Bizning shoshadigan joyimiz yo'q. Hushingga keltirib, hammasini qaytadan boshlayveramiz. O'rtoq Lenin topib aytgan: «Intelligentlar borib turgan vaysaqi bo'ladi». Professor degani shu bo'lsa, xex! Bo'yi bir qarich. Lili-putning o'zginasi. Ammo chidamli ekan, unsur! Oyoqlari ipdek, puf desang, uchib ketadigan holi bor-ku, miq etmaydi, eshshak!

Nachora, boshqa usulni qo'llashga to'g'ri keldi. Ikkita kalla-kesar yotgan kameraga tiqib qo'ygan edi, bir soat o'tmasdan eshikni mushtlab dod solib qoldi-ku! Bolasi tushmagurlar-ey! Parashadagi najasni yeysan deb boshini paqirga tiqishibdi. O'sha zahoti o'z qo'li bilan yozib berdi: «Men professor falonchi pis-

tonchiev Sovet jamiyatiga ichdan zarba berishni rejalashtirgan yashirin tashkilot a'zosiman. Shuning uchun o'tmishni ulug'laganman. Men O'zbekiston mustaqil bo'lishini xohlaganman. Angliya razvedkasining agenti bo'lganimni tan olaman. Turkiyaga qochib o'tib, undan Londonga bormoqchi edim... Gunohimni to'liq bo'yninga olaman».

Albatta, ba'zi muhim nuqtalarni eslatib turishga to'g'ri keldi. Qizig'i bu emas. Qizig'i shundaki, to'rt kun uyqusizlikka chidagan odam najas yeyishdan or qilibdilar. Xex! Bu kishi O'zbekiston mustaqil bo'lishini xohlab qoptilar! Panturkist! Shpion! Seni deb to'rt kun uyga borolmadim. Ketding endi qiya bo'lib! Yigirma besh yilga! Muzlab yotgan o'rmonda qarag'ay kessang, eshushingni yig'ib olasan. O'ylab turib tutaqib ketasan-da, chort vozmi! Anavi so'tak tergovchiga qo'yib bersa, bir haftada hal bo'ladigan tergovni yillab cho'zadi. Tuvakka o'tqazmaysanmi Shomatovning xotinini! Sayramaydimi bulbuligo'yo bo'lib! To'g'ri, «gorshok» operatsiyasi xotinlardan ko'ra erkak kishida yaxshi effekt beradi. Lekin bu usulni xotin kishiga ham bemalol qo'llasa bo'laveradi. Bunisiyam oddiy metod. Yaqinda qulog'iga chalindi: internatsionalist jangchilar asirga tushib qolsa, afg'onlar ham ishlatayotganmish bu usulni.

Ajab qiladi. Yaxshi jangchi asir tushmaydi!

Xullas, «gorshok» operatsiyasi juda qulay. So'roq berayotgan jinoyatchini qip-yalang'och qilib yechintirasan. Yordamchilaring usti berk tuvakni olib kiradi. Jinoyatchini o'shanga o'tqazasan. Yordamchilaring uning ichidagi kalamushga ko'z-quloq bo'lib tursa, bas. Bundan tashqari, tuvakni jinoyatchining orqasiga shunday yopishtirish kerakki, moyagi uning ichiga kirsin. Besh minutdan keyin kalamush nafas ololmay dimiqib qoladi. Tashqari chiqish uchun sakrayveradi. Har sakraganda moyakni tishlaydi. Dunyoda kalamushning tishidan o'tkir narsa yo'q. Erkak kishining eng nozik joyi ~ moyak. Kalamush har tishlaganda jinoyatchi hayvondek o'kiradi. Manaman degani ham yarim soatda hushidan ketadi. Qarasang, tuvak to'la qon... Kalamushlar ham odam qonini ichishga o'rganib qolarkan. Bora-bora tuvak ichida «ziyofat»ni poylab jimgina yotadigan bo'lib qoladi... Ana shunaqa usullar bor, kollega! Sen, bola, nimani bilarding! Haliyam bo'lsa qo'yib ber bizlarga! Lyuboy jinoyatchining aybini

uch kunda bo'yniga qo'yib bermasak, tuf de!

... Havo sovuq, osmonda zahardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi. Ko'chalarni oynadek muz bosgan, mashinalar emaklagudek qo'rqa-pisa imillaydi. Nafas olsang, og'zingga sovuq olov kirayotgandek bo'g'zingni achishtiradi. Odamlar tayg'onoqqa yiqilib mayib bo'lmaslik uchun ehtiyotlab qadam bosadi. Juda soz-da! Qadamingni bilib bos! Qancha qo'rqsang, shuncha yaxshi! Tartib bo'ladi, intizom bo'ladi...

Komissarning yonidan quyon telpakli kishi shitob bilan o'tib ketdi. Ikki qo'lini paltosining cho'ntagiga suqib olgan... Qo'ltig'ida – archa... Hovliq-a, hovliq! Bitta yiqilsang, archang besh quloch nariga otilib ketadi. Yangi yilni bannisada kutib olasan. Xotining bayramga «peredacha» olib boradi.

...Anavi tergovchi Komissarning gapiga ishonmadi. Xex! O'n besh yoshimdan komissarman, desa, rostdanmi, deydi. Albatta, ishonmaydi-da! Bularda na kasbiga mehr bor, na e'tiqod!

... Tepaqo'rg'on katta qishloq edi... Chor-atrof bog'-rog'lar, uzumzorlar... Soat bahor pallasi xirmontepaga chiqib varrak uchirar, butun qishloq kaftda turgandek ko'rinar, yer-ko'k o'riklar-u shaftolilar guliga ko'milib ketganga o'xshar edi. Har yili somonshuvoq qilinaverib qalin tortib ketgan tomlar ustida qip-qizil lolaqizg'aldoqlar, munis chuchmomalar ochilar, qishloq etagida yo'yilib oqayotgan Qonqus olisdan jigarrang ilondek to'lg'anayotgani ko'zga tashlanardi. Qishloq o'rtasida mezanali machit. Obidxon eshonning to'rt paxsa devorli qo'rg'oni bilan Yunusboyning tunuka tomli qaddi baland uyi oldida Soatlarning kulbasi bostirmadek g'arib ko'rinardi. Holbuki, Soatning dadasi uncha-muncha odam emas, Komissar G'aniev edi! Egniga charm tujurka, boshiga ayvonli shapka kiyib, biqiniga brauning taqib yurar, ko'chako'yda duch kelib qolsa, Yunusboy ham, qozondek sallali Eshon ham ikki bukilib ta'zim qilishardi.

Shunaqa-ku... Soat bir narsaga hech tushunmasdi. Hayit arafasida, Navro'z bayramida Eshonning ko'rgoni oldida ot-aravalar qatorlashib ketar, yuzlab odamlar «piri»ning duosini olib qolishga oshiqar edi.

Hech yodidan chiqmaydi. Bir kuni Soat brauningini moylab o'tirgan dadasidan so'radi:

– Nega Eshonning devori biznikidan baland? Dadasi kuldi.

– Eshon o‘zining qora qilmishlarini eldan yashirish uchun qo‘rg‘onini baland devor bilan o‘rab olgan, o‘g‘lim! Yaqinda hammasiga qiron keltiramiz, Eshon ham bo‘lmaydi, boy ham... Umuman, devor deganning o‘zi bo‘lmaydi. Butun dunyoda proletariat g‘alaba qozonadi.

Soat otasining gapiga yaxshi tushunmasa ham, bir narsani ang-ladi. Yaqinda Eshonning devori buziladi. Yunusboyning tunuka tomli uyi qo‘porib tashlanadi. Keyin hamma teng bo‘ladi...

Dadasi orzusiga yetolmadi. Kuz kunlarining birida o‘ligini aravaga ortib kelishdi.

Tepaqo‘rg‘onda qiyomat bo‘ldi. Qizil choyxonada katta mi-ting bo‘ldi. Shahardan «kattalar» keldi. Miltiq ko‘targan saldatlar hamma yoqni o‘rab oldi. «Inqilob dushmanlariga o‘lim!», «Yo‘-qolsin tekinxo‘r boy va eshonlar!» degan xitoblari yangradi.

Soat dadasining katta odam ekanini o‘shanda aniq his etdi. Otasini ko‘mishayotganida saldatlar gumburlatib o‘q uzdi.

Ertasi qama-qama boshlandi. Tepaqo‘rg‘onda bir-biridan va-himali mish-mishlar tarqaldi. «Komissarni Yunusboyning odam-lari pichoqlagan ekan. Boyni otib tashlashibdi», «Komissarni o‘l-dirishga Obidxon eshon fatvo bergan ekan. Eshon sovet xalqi-ning dushmani ekan. Avval ham machitda «savetskiy vlas – ochiz-dan o‘lasiz», deb karomat qilganini eshitganlar bormish... Eshon-ni yigirma besh yilga kesishibdi. Uyidan olib chiqib ketishayot-ganida Eshon Qur‘onni ko‘ziga surtib, qasam ichibdi. «Kalomul-lo ursin, men bir bandai mo‘‘minning joniga qasd qilishdan qo‘r-qaman, yaratgan Tangrimning o‘zi guvoh», – deb yig‘labdi.

Bir haftada Tepaqo‘rg‘on o‘lat oralagandek huvullab qoldi. Yigirmaga yaqin odam qamaldi. Machit buzib tashlandi...

To‘g‘ri, otasini Tepaqo‘rg‘onda emas, Beshyog‘och yaqinida, Siymonko‘prikda pichoqlashgan ekan... Nima farqi bor? Komis-sar G‘aniev yigirma besh mingchilardan edi. Demak, uni shu yer-lik ichki dushmanlar o‘ldirgan!

Soat bir narsani tushunmas, tushunishni xohlagisi ham kel-masdi: qiziq, o‘sha voqealardan keyin onasi to‘satdan namozxon bo‘lib qoldi. Joynamoz ustida yuziga fotiha tortayotib, baralla ta-vallo qiladi: – Ey poki parvardigor! Yakka-yu yagona bolam haq-qi, iltijo qilaman. Otasining gunohidan o‘t. Mahshar kunida do‘-

zax azobidan o'zing xalos et! Eshon ota! Bilaman, sizda gunoh yo'q. Qayerda bo'lsangiz ham umr-joningizga barakot ato etsin!

Oxiri Soat chidolmadi. Joynamoz ustida o'tirgan onasining boshiga o'dag'aylab bordi: – O'chiring-e! Unsurlar dadamni o'ldirsin-da, siz ularni duo qiling?!

Onasi iltijolarini aytib bo'lib, yuziga fotiha tortdi-da, o'rnidan turdi va: – Meni onam desang, – dedi qat'iyat bilan, – otangni yo'lidan bormaysan! Borsang, oq sutimni ko'kka sovuraman. O'lsam, go'rimda tik turaman!

Soat birpas serrayib turdi-da, uydan chiqib ketdi. Jinni bo'lib qolganmi onasi?!

U tengqur bolalarning munosabati o'zgarib qolganini avval payqamadi. Bora-bora tushundiki, o'rtoqlari undan qo'rqar ekan! To'rttasi gaplashib turgan bo'lsa, Soat yaqin borishi bilan keli-shib olgandek jimib qoladi. Yo'q, gaplashishadi u bilan. Gapla-shadi-yu, begonaligi sezilib turadi. G'alati holat. Soat ham g'u-rurlanadi, ham ko'ngli o'ksiydi.

Hech esidan chiqmaydi. Qish oftobi charaqlab turar edi. Alla-qancha bolalar yong'oqzor chetidagi maydonda qorbo'ron o'yna-yotgan ekan. Soat ham kelib qo'shildi. Kaftida qor zichlab bir ot-gan edi, baxmal kamzul kiygan qizaloq yuzini changallagan ko'-yi chirqillab qoldi. To'g'risi, Soat uni urmoqchi emasdi. Shun-chaki, qorni duch kelgan tomonga otgandi.

Soat yugurib bordi. Qarasa, qizaloq kafti bilan yuzini berkitib, qorda cho'kkalab o'tiribdi. Qizaloqning bilagidan tortgan edi, bir ko'zi Shishib ketganini ko'rdi.

– Yig'lama, – dedi rahmi kelib. – Ataylab qilmadim-ku, jinni! Oting nima?

– Otimni aytsam, nima qilarding! – dedi qizaloq hamon yig'-lab. – Meniyam qamatmoqchimisan? – Tag'in o'kinib-o'kinib yig'lashga tushdi.

– Uv, zo'ravon! Nega urding Potmani?

Soat qulog'i ostida yangragan chiyildoq ovozni eshitib burilib qaradi. Yonida o'zidan besh-olti yosh kichik Husan chakchayib turardi. Soat shundagina tushundi. Bular – Eshonning arzanda egizaklari: Fotima-Husanlar.

Indamay burilib ketayotgan edi, Husan kutilmaganda uning yoqasiga yopishdi.

– Nima yomonlik qildi senga? – dedi big‘illab. Soatning g‘ashi keldi.

– O‘t-e, eshonvachcha! – dedi Husanning qo‘lini yoqasidan olib tashlashga urinib. Husan chillakdek qo‘llari bilan mahkam tirmashib olgan, ko‘zlari mushukdek yonardi.

Soat bir musht solgan edi, Husan qorga chalqancha yiqildi. Labi qonab, qorga tufladi. Shundagina Soat qiy-chuv tinchib qolganini, atrofini katta-kichik bolalar-u qizlar halqadek o‘rab, o‘shshayib turganini ko‘rdi. Dadil borib, halqani yorib o‘tdi. Qulog‘iga rasta bo‘lgan yigitchalarga xos g‘o‘ldiragan ovoz kirdi:

– Menga qara, o‘v Komissar! Agar Husanni yana bir marta ursang...

Soat ortiga burilib qaradi. Hakim tegirmonchining o‘g‘li – o‘zi bilan tengdosh To‘lagan ko‘zini olaytirib turibdi. Buning ham otasi surgun bo‘lgan! To‘lagan boyagi gapini yana qaytardi:

– Bir marta ursang...

Soat bir zum ikkilanib turdi-da, nari ketdi.

* * *

Yozda yana bir voqea bo‘ldi. Ayni saraton edi. Soat Qonqusga cho‘milishga bordi. Anhor chetida tuproqqa belanib yotgan qora-qura bolalar orasida to‘rt-beshta tengqurlari ham borligini uzoqdan ko‘rdi. Tuproqqa dum tushib yotgan bolalar bir nimalarini gaplashib qiyqirib kulishar, har kulganida zavqlanib, tovonini urishtirib qo‘yardi. Bir chekkada, o‘rik tagida yotgan Husanxo‘janing ingichka kulgusi, ayniqsa, jaranglab chiqar edi.

Soat yaqin kelishi bilan hammasi jimib qoldi.

– Cho‘milyapsanlarmi? – dedi Soat boshqa gap topolmay. Bolalar orasida kimdir to‘ng‘illadi:

– Qayish uqalayapmiz!..

Qiyqiriq kulgi ko‘tarildi. Soat Husanxo‘janing ayricha zavqlanib kulganini eshitdi.

– Suv qanaqa? – dedi beparvo gapirishga urinib.

– Tushsang, bilasan.

Soat jahl bilan ko‘ylagini yechib, o‘rik shoxiga ildi-da, Qonqusga kalla tashladi. Suv sovuq edi. Sho‘ng‘ib chiqib, oqimga qarshi suza boshladi. Hov anavi majnuntolga yetmaguncha qo‘ymaydi! Suzishga usta edi. Qiziq, avvalo, urinadiki, qani aqalli bir

quloch surilsa! Ilgari oqimga qarshi hech suzmagan ekan. Qanaqa anhor o'zi bu la'nati? Yuzasi qilt etmaydi. Hovuzga o'xshab jimirlab turibdi-yu, tagi shiddat bilan oqadi. U oldinga intiladi, suv orqaga tortadi! Oyoq-qo'lini tapillatib jon-jahdi bilan suzaveradi. Yetadi! Majnuntolga yetmaguncha qo'ymaydi. Oxiri hansirab ketdi. Bir mahal qarasa, anhor sohilida bolalar qaldirg'ochdek tizilib o'tiribdi. Qorni, tizzasi tuproqqa belangan.

– Ha-a, Komissar! Qani, bir g'ayrat qil-chi, ko'ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo'larkan? Buning otini Qonqus deb qo'yibdi, o'v!

Soat To'laganning ovozini tanidi. Shu gaping uchun ham suzadi, o'lib qolguncha suzaveradi!

Bo'lmadi... Holdan toydi. Qarasa, oqim orqaga – o'ramaga surib ketyapti. Qo'rquv ichida qirg'oqqa talpindi. Qamishlarni changallab sirpana-sirpana yuqori chiqib oldi. Hansirab nafas olar, oyoq-qo'li titrardi. Sohilga chiqishi bilan bolalar baravariga qiyqirib kulishdi.

«Dushman! Hammasi dushman! Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi – chayon!..» – Soat daf'atan xayoliga kelgan gapdan ko'nglida alam va ayni paytda allanechuk yengillik tuydi. Oftobning binafsharang halqachalaridan qamashgan ko'zlarini yumib, uzoq yotdi. Bir mahal qarasa, ko'ylagi osig'liq o'rik shoxida sap-sariq mevalar yaltirab turibdi. Pastda emas, qir uchida. Xayoliga g'alati o'y keldi.

– Husanxo'ja! Husanxo'ja!

– Nima? – degan ingichka ovoz keldi.

– O'rik olib tush. Hov, yuqori shoxdan. Tez bo'l!

– Yiqilib tushaman-da.

– Yiqilmaysan.

Husanxo'ja uzun ishtonini shaloplatib yaqin keldi.

– Kesak otaqolay?

– Mayli, – dedi Soat loqaydlik bilan.

O'rik balandda edi. Husanxo'ja mo'ljallab nuqul kesak otar, kesagi tepa shoxga yetmas edi. Terlab ketdi. Boshqa bolalar indamay tomosha qilib yotibdi. Oxiri, bitta kesak o'rikli shoxga tegdi. Uchta o'rik to'pillab tuproqqa tushdi. Husanxo'ja yugurgilab olib keldi.

– Mang, Soat aka!

– Yuvmaymanmi, ahmoq! – Soat ko‘zini ola-kula qildi. – Tuproqqa qo‘shib yemayman-ku!

Husanxo‘ja anhor sohiliga qorni bilan yotib, o‘rikni chayib keldi.

– Mang, aka!

– Yorilibdi-ku, eshshak! Menga butuni kerak! – Soat O‘riklarini anhorga uloqtirdi. – Chiq shoxga! – dedi o‘dag‘aylab. – Butunidan uzib tush!

Husanxo‘ja birpas angrayib turdi-da, alam bilan chiyilladi:

– Ey, bor! Men sening malayingmanmi?

– Nima? – Soat sapchib o‘rmidan turdi. – Nima deding? – tarsakilab yuborgan edi, Husanxo‘ja ag‘darilib tushdi.

Shunda... kutilmagan hodisa ro‘y berdi. Ovozi do‘rillab qolgan tengdoshlari quyundek yopirilib keldi. To‘rttasi baravar yopishdi. Biri qo‘ltig‘idan oldi, biri oyog‘idan... Suvga uloqtirib yuborishdi. Soat Qonqusning qoq o‘rtasiga shaloplab tushdi. Xuddi qurbaqadek. Sohilga suzay desa, raqiblari tizilib turibdi: hammasi zavqlanib kuladi. Husanxo‘ja tuproq changitib maymundek irg‘ishlaydi. Narigi qirg‘oq – tik. Anhor chetida o‘sgan maymunjonlar, nayzasini qayrab turgan na‘matakklar suvga egilib yotibdi. Soat tag‘in oqimga qarshi suzishga tushdi. Majnuntolga yetsa, narigi betga chiqib oladi... Bora-bora qo‘llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolganini sezdi. Og‘ziga suv kirib o‘qchiy boshladi. Qonqus bilan hazillashib bo‘lmasligini, o‘z yo‘liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi. Ammo boshqa chorasi yo‘q edi. Suv yana ozgina oqizib borsa, bas. Qonqus keskin buriladi-da, o‘ramaga tortib ketadi. Bir lahza tin oldi. Shunda sohildagi bolalar ham jimib qolganini his qildi. Qulog‘iga Husanxo‘janing chinqiroq ovozi kirdi:

– To‘lagan aka! Cho‘kib ketadi, shox sindirish kerak, To‘lagan aka!

Soat butun kuchini to‘plab tag‘in oqimga qarshi suzdi. Biroq endi madori qurib bitgan, qo‘llari ojiz shaloplar edi. Daf‘atan tumshug‘i tagida turgan shoxga ko‘zi tushdi.

– Soat! – dedi sohilda o‘rik shoxining bir uchidan tutib turgan To‘lagan. – Ushla! Cho‘kib ketasan, jinni!

Soat holdan toygan qo‘llarini ojiz tipirlatarkan, qirg‘oq tomonga nafrat bilan qaradi.

– Yo‘qol! – dedi nafasi qaytib. – Menga sening yordaming kerak emas!

Burilib, narigi sohil tomon suzdi... Nihoyat, na‘matak shoxiga chang soldi. Kaftiga tikan kirganini ham, og‘riqni ham sezmedi. Entikib-entikib nafas rosladi. Na‘mataklar changalzori oralab tik sohilga chiqquncha tikanlar a‘zoyi badanini qonatib tashladi. Qarasa, bolalar narigi qirg‘oqda qatorlashib turibdi.

– Eshitib qo‘ylaring! – dedi Soat alam aralash g‘azab bilan. – Men Komissar bo‘laman! Albatta, bo‘laman! Hammangni otaman! Bitta-bittadan otaman!

TERGOV HUJJATIDAN

Vasil‘ev Grigoriy Stepanovich. Yigirma sakkiz yoshda. Makaron zavodining

ishchisi. Millati – rus. So‘qqabosh. Avval sudlanmagan. «Qatortol» mavzei, 10-uy, 35-xonadonda istiqomat qiladi. Partiyasiz.

– Toshkentga qachon ko‘chib kelgansiz?

– Bultur. May oyida.

– Qayerdan?

– Smolenskdan.

– Bir o‘zingiz yashaysizmi?

– Bo‘lmasa, kim bilan turishim kerak?

– Savolga javob bering!

– Bir o‘zim.

– Nima maqsadda kelgansiz?

– Nima maqsadda bo‘lardi. Yashash, ishlash uchun. Kamyob mutaxassis sifatida taklif qilishgan.

– Zavodda nima ish qilasiz?

– Avtopogruzchik haydayman. Umuman, meni «Algitm» zavodiga taklif etishgan. Yaqinda o‘sha yoqqa o‘taman.

– Programmalovchi injenermisiz?

– U nima deganingiz?

– Kasbingizni so‘rayapman?

– Aytdim-ku, avtopogruzchik haydayman.

– Shu kamyob kasbmi?

– Demak, kamyob ekan-da.

– Smolenskda nima ish qilardingiz?

- Zavodda ishlardim.
- Oilangiz bormidi?
- Bor edi.
- Kim bilan turardingiz?
- Xotinim, qaynonam, men...
- Yana?
- Ha-a, gap bu yoqda deng?!
- Yana kim?
- Larisa shikoyat yozibdimi? Ovora bo‘ladi! Qizi avvalgi eridan bo‘lgan. Mendan aliment olishga haqqi yo‘q.
- Xotiningiz bilan rasman ajrashmagan ekansiz-ku.
- To‘g‘ri, ajrashgan emasmiz, ammo u bilan turmayman. Ajrashishga tayyorman.
- Yigirma ikkinchi oktyabrdan yigirma uchinchi oktyabrga o‘tar kechasi nima voqea bo‘lgandi?
- Esimda yo‘q.
- Eslatishim mumkin. O‘sha oqshom to‘y bo‘lgan. Domning pastida.
- E, umi? Shunga meni aybdor sanayapsizmi?
- Savolga javob bering! Nima bo‘luvdi?
- Tinchlik bermasa, nima qilay? Yarim kechagacha g‘at-g‘ut! Quloqni qomatga keltiradi. Qiyqiradi, yovvoyiga o‘xshab!
- Keyin-chi?
- Nima, «Keyin?»...
- Siz nima qildingiz?
- Uch-to‘rt marta ogohlantirdim. Keyin, derazani ochib, suv sepdim. Sal boshi sovusin, dedim.
- Qilgan ishingiz jinoyat ekanini bilasizmi?
- Nega jinoyat bo‘larkan? Rabochiy klass dam olishi kerakmi axir? Gorispolkomning qarori bor. Soat 23 dan keyin shovqin-suron solish mumkin emas.
- Gorispolkomning to‘y qilinmasin, degan qarori yo‘q. Nega odamlarning boshidan suv sepasiz?
- Xo‘p, ana, hazillashdim, deb hisoblay qoling. Nega meni tergov qilasiz-da, uyimga bostirib kirgan bezoriga indamaysiz? Tepib, oyog‘imni sindiray dedi. Oz bo‘lsa, bo‘g‘ib o‘ldirib qo‘yardi. Bu haqda militsiyaga xabar berganman. Surishtirib ko‘rishingiz mumkin.

– Bo‘lmasa, nega arizangizni qaytarib oldingiz? Nima uchun ekspertizaga bormadingiz?

– Klavdiya Sergeevna aytdi. «Bekor qilyapsan shu ishni, undan ko‘ra to‘yda mehmon bo‘lsang, hech kim seni haydamasdi», dedi.

– Kim u Klavdiya Sergeevna?

– Pensioner. Birinchi qavatda turadi. Toshkentga urush paytida kelgan ekan.

– Shuning uchun qaytib oldingizmi arizangizni?

– Shu...

– O‘sha kuni o‘zingiz qancha ichgandingiz?

– Menmi? Tuhmat! Nega icharkanman?

– Eshigingizni taqillatgan grajdanin Shomatovning boshiga aroq shishasi bilan urmoqchi bo‘lgansizmi axir?

– Grajdanin tergovchi, millatchilik qilyapsiz. Ustingizdan arz qilaman!

– Marhamat! Bu – sizning huquqingiz. O‘sha kuni g‘irt mast bo‘lgansiz. Ertasiga militsiyaga ariza olib borganingizda ham kayfingiz tarqamagan. Ekspertizaga borishdan qochgansiz. Kechqurun da‘voyingizdan voz kechish to‘g‘risida boshqa ariza yozib kelgansiz.

– To‘g‘ri, yozib kelganman. Nima bo‘pti shu bilan? Xaqqim bor.

– Grajdanin Shomatovni hozir ko‘rsangiz, taniysizmi?

– Meni ahmoq deb o‘ylayapsiz, shekilli, grajdanin tergovchi? Uni o‘ldirib ketishganini mendan yaxshi bilasiz.

– Nega endi aynan «o‘ldirib ketishgan» deyapsiz? O‘ldirib ketishganini siz qayoqdan bilasiz?

– Qo‘shni domda bironi o‘ldirib ketadi-yu, quloqqa chalinmaydimi?

– Yettinchidan sakkizinchi noyabrga o‘tar kechasi qayerda edingiz?

– H-h-ha! Bu ishni menga yopishtirmoqchimisiz? Ovora bo‘lasiz, grajdanin tergovchi! Xuddi o‘sha kecha men jonajon militsiya panohida edi! Hushyorxonada! Tuman hushyorxonasiga telefon qilsangiz, hamma spravkani olasiz.

«YOVOYILAR»

Rusning ajoyib maqoli bor: «Baxting chopmas edi-ku, baxtsizlik joningga ora kirdi-da». O'sha kuni yaxshiyam hushyorxonaga tushgani. Bo'lmasa, tinch qo'ymasdi bular!

Grisha bayram kuni boshi g'um bo'lib uyg'ondi. Kecha anchagina «olgan» edi. Pastga tushsa, narigi pod'ezdda yashaydigan do'stlari turgan ekan. Lyova bilan Misha. Esida yo'q, qaysi biridan yaxshi taklif chiqdi: «Yuringlar, achchiq lag'mon yeymiz. Eski shaharning lag'moni zo'r bo'ladi. Anavindan ham topiladi». Chorsumi-Morsumi, degan joyga borishdi. Lyova bu yerdagi jinko'chalarni yaxshi bilarkan. Isqirtgina hovliga kirishdi. Dasturxon o'rniga gazeta yozilgan, qo'poldan-qo'pol stol yoniga kelib o'tirishdi. Ovqat chindan ham mazali ekan. Achchiqqina. «Russkaya vodka»dan ham topildi. Qimmatroq ekan-ku, chidasa bo'ladi.

Jinko'chalarni aylanib bozorga tushishdi. Tarvuz yegilari keldi. To'n ustidan belbog' bog'lagan siyrak soqolli cholning tarvuziga xaridor bo'lishdi.

– Uch so'm beraman, boboy! – dedi Lyova kattakon tarvuzni tanlab.

– Taroziga qo'y, bolam, – dedi chol ruschani chaynab gapirib. – Kilosi yetmish tiyin.

– Yetmish tiyin? – Lyova ajablendi. – Kallang ishlaydimi, boboy! Uyalmaysanmi?

Chol indamasdan tarvuzni Lyovaning qo'lidan oldi-da, taroziga qo'ydi.

– O'n ikki kilo, – dedi og'zidagi ko'kimtir narsani tuflab. – Sakkiz sum qirqtiyin... Mayli, sakkiz so'm bera qol.


– Gapini qara, Grisha! – dedi Lyova achchiqlanib. – Bitta tarvuzni sakkiz so'm deydi, spekulyant!

Razm solib qarasa, tarvuzlar tog'dek uyilib yotibdi. Har bittasini sakkiz so'mdan sotsa, millioner bo'lib ketmaydimi bu?

– Ey boboy! – dedi Grisha ensasi qotib. – Spekulyatsiya uchun statya bor. Bilasan-a?

– Men ispikulon emasman! – dedi chol tag'in ruschani rasvo qilib. – Sam, sam ekanman! Sladkiy arbuz... Xohlamasang, ana, boshqa joydan olaver.

Ehtimol, shu bilan gap-so'z tugasa, olam guliston edi. Boya-



dan beri nariroqda turgan bosh yalang, plash kiygan yigitcha kutilmaganda savdoga aralashdi.

– Bu oqsoqol spekulyant emas, -- dedi qandaydir asabiy ohangda. – Mehnat qilganidan keyin sotadi-da molini! Yaxshiroq qara, spekulyantga o‘xshaydimi shu odam?

Allaqanday bir talabaning gapga qo‘shilishi Grishaning g‘ashini keltirdi.

– Quloq sol, – dedi g‘ijinib. – Nega meni senlaysan? Talaba pinagini buzmadi.

– Bo‘lmasa, nega sen otang tengi odamni senlaysan?! Sening yurtiingda tarvuzning bir tishlami sakkiz so‘m. O‘qiganman o‘sha yoqlarda! Hammasini bilaman.

Boyadan beri indamay turgan Misha gapga endi qo‘shildi:

– Juda aqlli bo‘p ketibsanni? Bultur tarvuzning kilosi yigirma tiyin edi!

– Unisi bultur edi, – dedi talaba. – Bu yil boshqacha. O‘sha tomondan keladigan traktorning zapchasti o‘n baravar oshdi. Ni-ma qilsin dehqon!

Grishaning qoni qaynab ketdi.

– Nari tur... Sendaqa «akademikni!»

Bir tepgan edi, tarvuz paqqa yorilib, shimining pochasi-ga qip-qizil sharbat sachradi. Birpasda hamma yoq qiy-chuv bo‘lib ketdi.

– Qoch! – dedi Lyova. – O‘ldiradi bular!

Churullagan hushtak tovushi havoni titratdi. Qomati nimasi bilandir tarvuzga o‘xshab ketadigan militsioner paydo bo‘ldi.

Kamida o‘n besh sutka naqd edi-ku, ertasiga Grisha dejur yigitga yalinib-yolborib, «bir joyga» telefon qilishga ruxsat oldi. Yaxshiyam Dima ishda ekan. Avvaliga qalashtirib so‘kdi. «Sen maxluq qachon ichishni tashlaysan», deb baqirdi. «Shu niyatda Toshkentga olib kelganmidim?» dedi. Baribir, gorispolkom – gorispolkom-da! Kechga tomon uchovidan tilxat olib, qo‘yib yuborishdi. Xuddi o‘sha kuni hushyorxonaga tushgani xo‘p ish bo‘lgan ekan-da. Bo‘lmasa, tergovchi «ho‘l ish»ni shilq etib bo‘yniga ilmoqchi edi. To‘y kuni suv sepganini gapiradi! To‘g‘ri, sepdi. Senlarning shovqin-suroningga ko‘zim uchib turibdimi! Puling ko‘p-da senlarni! Millionerlar! Zavodda ertadan kechgacha ho‘kizdek ishlab, uch yuz so‘m maosh olib ko‘r-chi, ming kishini to‘plab to‘y qila olarmikansan.

Bularning to'yi g'alati bo'larkan. Bir kun oldindan domning tagida kechasi bilan g'ovur-g'uvir. Shovir-shuvir... Terak shoxiga minginchi lampochka osilgan. Birovi go'sht chopyapti. Birovi sabzi tozalayapti. Yana bittasi ketmon bilan yer kovlab yotibdi. Nariroqda qozon! Shunaqangi kattaki, borsh pishirsang, butun boshli polkka yetadi. Kechasi bilan dimog'iga allaqanday notanish hidlar kirib, mijja qoqmay chiqdi.

Endi ko'zi ilingan ekan, allaqanday dahshatli tovushdan uyg'onib ketdi. G'art-g'urt! Zum o'tmay, Afrika qabilalarining tamtamiga o'xshagan tovush ham qo'shildi. Nuqul bang'illaydi!

Grisha yuragi gupullab, deraza oldiga bordi. Ochib qarasa, chiroqlar mash'al. Ustiga oppoq

dasturxon yozilgan uzun-uzun stollar qo'yilgan. Shundoq deraza tagida bittasi ikki quloch keladigan mis trubani g'artillatyapti. Do'ppi kiygan tag'in biri dumaloq patnisga o'xshagan barabanni boshi ustida ko'targancha qarsillatib urib yotibdi. Kechagi qozon o'rnatilgan chuqur atrofida uch kishi. Povar bo'lsa kerak, bittasi oq xalat kiyib olibdi. Yonidagi pastak stolda chinni laganlar taxlab qo'yilgan. Oq xalatlisi qozon ustidagi laganlarni olgan edi, osmonga quyuq bug' ko'tarildi. Qozon to'la sap-sariq palov ko'rindi. Oq xalatlisi katta-katta go'shtlarni uzun bandli lapatka uchiga ilib, yonidagi tog'oraga tashlay boshladi. Hali deraza sharaqlab ochilganida ko'zi tushgan ekanmi, Qozon tepasida turganlardan bittasi qo'l silkib, shang'illadi:

– Tushaver, sosed! Palov tayyor!

Saharmardonlab ko'zi uchib turibdi-da, palovingga!

Grisha boshini sekin ichkari tortdi. Uyqusizlikdan achishgan ko'zlarini ishqalab, endi vannaxonaga kirmoqchi edi, pastdan mashinaning kuchanib gurillagani eshitildi. Ko'nglida qiziqish uyg'onib, derazaga qaytib keldi. Qarasa, ko'cha chetida bir emas, ikkita LAZ turibdi. Avtobuslarning eshigi voshullab ochildi-da, uzun to'n kiygan, boshiga salla o'raganlar tusha boshladi. Munkillab qolgan, hassa tayangan chollar, ayniqsa, ko'p... Oralarida Budyonniy qilichidan bir amallab jon saqlab qolgani qanchaykin?

Dasturxon birpasda noz-ne'matlarga to'lib ketibdi. Olmanorlar. Qahrabodek uzumlar...

Stolda o'tirishini tomosha qilsang bularning! Xudo haqqi, qo-

shiq ushlashni bilmaydi! Oshni qo'lda yeydi. Qo'lda! Chollar-ku, mayli, boshqalar-chi? Boshlarida shlyapa, bo'ynilarida gals-tuk, oshni qo'li bilan yeydilar. Ertalabdan bir lagan palovni urib qorni yorilib ketmagani! Osh yeb bo'lib, yuziga fotihayam tortadi. Naq kinoning o'zi. Xudo haqqi: dekoratsiya kerakmas!

... Kuni bo'yi Grishaning boshi garang bo'lib yurdi. Tushlik ovqat ham tatimadi. Kechqurun horib-charchab uyiga kelsa, yana o'sha shovqin!

Hoy inson! Ertalab-ku, uyquni harom qilishga qilding! Mis karnaying bilan tam-tamingni chalib, butun kvartalni uyg'otding! Palovingni yeyishga – yeding! Bo'ldi-da, endi! Bu azob ham bormidi hali?

Kun botmasidan hammasi qaytadan boshlandi. Stollar bezatilgan. U yoqda konyak, bu yoqda aroq. Shampan... Ichkilikka qarshi kurash degan qonun yo'q ekan-da bularga! Gastronomga kirsang, bir shisha aroq uchun ikki soat ochered turasan. Bular bo'lsa, qatorlashtirib tashlabdi. Yana boshlandi. G'art-g'urt. Ayniqsa, bir asbobi bor ekan. Voy-voy ovozing xunukligi! G'iyt-g'iyt qiladi. Xuddi yig'layotgan xotindek. Asabni parmalab yuboradi. Bir mahal qiy-chuv bo'lib qoldi. Yaltir-yultir ko'ylak kiygan xotinlar, qora-qura, irkit bolalar ko'cha tomon yugurgiladi. Shunchasi qayoqdan paydo bo'ldi? «Mestniylar» kam edi-ku bu uyda? Mahallasi ko'chib keldimi, nima balo? Ha-a! Kelinni olib kelishibdi. Bir emas, beshta yengil mashina. Ikkita avtobus! Qarang, «Chayka»yam bor! Millioner bo'lmasa, «Chayka»ni qayerdan oladi bular! Ana, kuyov yigit kutib oldilar kelinni. Boshidan tanga sochishdimi-ey! Komediya! Kuyovning boshida salla, eg-nida yaltiroq chopon (Kamida ikki ming turar?). Kelin oq libosda. Boshida fata. Haqiqiy komediya! Biri – Yevropa, biri – Osiyo. Nima qilyapti anavi kampir? Olov yoqyaptimi? Bir narsani tutatib yubordi-ku! Boshlandi yana! G'iyt-g'iyt. Dang'ir-dung'ir. Qiyqiriqni qarang, qiyqiriqni!

Grisha derazani yopdiyamki, qulog'i tinchisa qani? Xolodilnikda «Chashma» bor edi, shekilli? Chort! Quribdi buyam, yangisini ochishga to'g'ri keladi. O'l-a, konserva ham tamom bo'lgan ekan-ku. Mayli, tuzlangan bodring ham teshib chiqmaydi! Kechasi deyarli uxlamagani uchunmi, bir zumda boshi g'uvullab ketdi. Ikkinchi qadahdan keyin pastdan kelayotgan shovqin-su-

ron battar asabini qaqshata boshladi. Mikrofonni buncha baland! Bo'lmadi. Grisha derazani shahd bilan ochib qaradi. Kelin-kuyov to'rda o'tiribdi. Orqa tomonida gilam. Yonboshida artistlar. Ashulani vang qo'yyapti. O'rtada yigirma-o'ttiz chog'lisi o'yin tushyapti. Nuqul

sakraydi...

Grisha shovqin-suron bosilishini kutib turdi. Ashula tugashi bilan ovozi boricha hayqirdi:

– Ey! Tinchlik bormi-yo'qmi? Yarim kecha bo'lyapti. Ertalab odamlar ishga boradi.

To'yxonaga jimlik cho'kdi. O'n-o'n beshtasi baravar boshini ko'tarib, deraza tomonga qaradi.

Raqs tushayotganlar pildirpis bo'lib, joy-joyiga tarqala boshladi. «Qo'rqmas ekansan-a!» deb o'yladi Grisha mamnun bo'lib. Qani, ayt gaping bo'lsa, degandek ochiq deraza oldida poylab turdi. Shunda, xuddi deraza tagida o'tirgan bir yigit shoshilmay o'rnidan turdi-da, davra o'rtasiga chiqdi. Boshyalang, gavdali. Xuddi kinodagi hindular sarkardasiga o'xshaydi. Tepaga – Grishaning derazasiga bir zum qarab turdi-da, hokimona ovozda bir nima deb qichqirdi. Artistlar allaqanday sho'x kuy chala boshladi. Boyagi «hindu» yovvoyilardek sakrab o'yinga tusha ketdi. Qiyqiriq, qarsak avjiga chiqdi. Bir zumda davra to'lib ketdi. Muzika boyagidan battar gumburlashga tushdi.

– Shunaqami! – dedi Grisha tahdid bilan. – Ko'ramiz hali! Xushingni joyiga keltirib qo'yamasam, yurgan ekanman! Muzdek-kina dush olsang, o'zingga kelasan hammang!

Qadahni to'latib ichdi. G'archillatib bodring chaynarkan, xayoliga alamli o'y keldi. Men zavodda sakkiz soat ho'kizdek ishlab, bodring g'ajib o'tiray-da, sen – tekinxo'rlar, shashlik yeb, konyakni urlaring!

Yugurib vannaxonaga kirdi. Paqirga limmo-lim suv to'latdi. Deraza oldiga borib, pastga engashdi-da, sepib yubordi. Yaxshi-i! Devor yaqinida o'tirgan besh-o'ntasi qiy-chuv solgancha sapchib o'rnidan turib ketdi. Xax-xa-a!!! Qanaqa bo'larkan! Ovozining o'chmas ekan-a!

Zum o'tmay eshik jiringladi. E-ha, tepishga tushdi-ku! Butilka qayerda edi, bo'shagan butilka? Qani, bir gaplashib qo'yaylik-chi! «Mening uyim – mening qal'am!», «Ostonamdan qadam bo-

sib ko‘r-chi? Ha, senmisan, hindular sardori?»

– Qani, tuyog‘ingni shiqillat-chi! – dedi Grisha tishini g‘ijirlatib. – Hozir militsiya chaqiraman!

Parvo qilmaydi, surbet! Shunaqami? Mana bo‘lmasa! Karatechi, shekilli, svoloch, oyoqni sindirding, ablah! Qo‘yvor!

Bir mahal hushiga kelib qarasa, yosh ayol «hindu»ning bilagidan tortqilab, allanimalar deb chirqillayapti. Yo‘lak to‘la odam.

– Xo‘p, uzr so‘rayman, – dedi Grisha nafasi bo‘g‘ziga tiqilib. Xayriyat, bitta odambasharasi ham bor ekan. «Hindu»ga dashnom berdi.

– Millatchilik qilma! – dedi. Nihoyat, hammasi daf bo‘ldi.

– Adabingni berib qo‘ymasam, – dedi Grisha alamdand titrab. Anchadan keyin eshik yana jiringladi. Yaqin borishga yuragi dov bermay indamay o‘tiraverdi. Eshik esa to‘xtovsiz jiringlar edi.

– Nima kerak senga? – dedi o‘tirgan joyidan. O‘sha tomondan jur‘atsiz ovoz keldi:

– Tashvish qilmang, qo‘shni... Men Ahmadalievman. Uchinchi kvartirada turadigan.

– Hech kimni tanimayman! – dedi Grisha. – Gapingiz bo‘lsa, ertaga keling.

– Qo‘rqmang! – dedi eshik ortidagi odam. – Sizga yomonligim yo‘q. Uzr, bir minutli maslahat bor edi.

Grisha ikkilanibroq o‘rnidan turdi. Yomon tepibdi, ablah! Cho‘loqlanib eshik tomon yurarkan, xayoliga intiqomli o‘y keldi. Bo‘ynim ham ko‘karib ketgandir? Yaxshi! Ertalab, albatta, militsiyaga boraman.

Eshik oldiga kelganida ikkilanib qoldi. Oqsoqlangancha oshxonaga kirdi-da, gaz plita tagida yotgan boltani qo‘liga oldi. «G‘ing desa, chopib tashlayman!»

Ehtiyotkorlik bilan kalitni buradi. Ostonada boshiga do‘ppi, egniga ko‘k to‘n kiygan qariya turar edi. Qo‘lida qappaygan tsellofan xalta. Qiziq, Grishaning qo‘lidagi boltaga qayrilib ham qaramadi.

– Xo‘sh? – dedi Grisha «gapni cho‘zma!» degan ma‘noda.

– Gap bunday, qo‘shni... – Qariya vazminlik bilan muqaddimani uzoqdan boshladi. – Men Ahmadalievman. Bugungi to‘yning egasi. O‘g‘limni uylantirdim.

Grisha zinada birontasi turmaganmikin, degan xavotirda ya-

rim ochiq eshikdan bo'ynini cho'zib, pastga qaradi. Hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilib, istehzoli jilmaydi.

– Tabriklayman!

– To'yxonaga tushib tabriklasangiz ham bo'lardi, – dedi qariya sof rus tilida. – Uch kun avval to'yga aytib chiqsam, yo'q ekansiz.

– Maqsad?

– Boshimda bitta-yu bitta o'g'lim bor. – Qariya gapni yana burdi. – O'qituvchiman. Rus maktabida o'zbek tilidan dars bera-man.

Grishaning xayolidan istehzoli o'y kechdi: «Sening tilingga ko'zim uchib turuvdi!» Daf'atan kayfi butunlay tarqalib ketgani-ni his etdi.

– Shu bolaning to'yini o'tkazay, deb yigirma besh yil yig'ib-terdim.

– Qisqaroq! – dedi Grisha jerkib.

– Yaxshi... – Qariya negadir xo'rsindi. – Yomon ish qildingiz, qo'shni. Men bolalarni internatsionalizm ruhida tarbiyalashga umrimni bag'ishladim. Siz bo'lsangiz...

Grishaning toqati toq bo'la boshladi.

– Men sizning o'quvchingiz emasman! – dedi ezmachuruk qariyaning gapini kesib.

Qariya xafa bo'lmadi.

– Siz – yangi odamsiz, – dedi vazminlik bilan.

– Maqsad! – dedi Grisha tahdid bilan.

– Maqsad shuki, xalqning milliy udumlarini haqorat qilmang!

– Qariya qo'lidagi tselofan qopchasini uzatdi. – Bu – sizning na-sibangiz!

Grisha eskankirab qoldi.

– Pora, deng! – dedi hushini to'plab. – Nima, meni sotib olmoq-chimisiz?

Qariya allanechuk osoyishta kuldi.

– O'zbekda qo'shni haqi degan gap bor. Siz to'yda qatnash-madingiz.

Grishaning ikkilanib turganini ko'rib, qopchiqni ostonaga qo'ydi.

– Xohlasangiz, oling, xohlamasangiz, tashlab yuboring, – de-di-da, sekin-sekin yurib, zinalardan tushib ketdi.

– Meni sotib ololmaysan! – dedi Grisha qo‘lini paxsa qilib. Eshikni qarsillatib yopib, divanga borib yotdi.

«Dima to‘g‘ri aytgan ekan, – deb o‘yladi ijirg‘anib. – Biz – jang qilgani boryapmiz. O‘zbekiston – ikkinchi Afg‘oniston! Hamma yoqni poraxo‘rlar egallab olgan! Qarang-a, itdek savalashadi-da, ketidan pora berib, og‘zini moylamoqchi bo‘ladi! Topibsan ahmoqni! Militsiyaga bunisini ham yozaman!»

U yoqqa ag‘darildi, bu yoqqa ag‘darildi. Qani, uyqu kelsa! Xayolan dunyoning u burchidan kirib, bu burchidan chiqdi. Ko‘zini yumgan edi, shovullab turgan o‘rmonzorga borib qolgandek bo‘ldi.

Bolalik subhidamga o‘xshaydi. Tongdek tiniq, ertakdek go‘zal. Hamma narsa sehrli edi. Yoz pallasi cho‘miladigan turnaning ko‘zidek ko‘llar ham. O‘rmonda qo‘ziqorin terib yurishganida to‘satdan gumburlab qoladigan momaqaldiroqlar-u azamat emalla yaprog‘ini shatirlatib quyib beradigan jalalar ham... Xudo qarag‘agan bu yurtlarda oylab bir tomchi yomg‘irga zor bo‘lasan. U yoqlarda esa yoz bo‘yi yomg‘ir yog‘adi. Shovv etadi-yu, bir zumda olamni yashnatib yuboradi. Ketidan quyosh charaqlab chiqadi. Yomg‘ir tomchilari marvariddek yaltirab turgan yamyashil o‘rmonlarda

yugurging, o‘mbaloq oshib yayraging keladi. Kuz yomg‘iri esa boshqacha bo‘ladi. Xuddi shu pallada, oktyabrning o‘rtalaridan boshlab o‘rmon chetida joylashgan Beryozovka xutori mung‘ayib qoladi. Yo‘llarning atalasi chiqib ketadi. Na mashina yuradi, na brichka. Xutor butun dunyodan ajralgandek, junjikkan ko‘yi ro‘parasidagi zax bosgan o‘rmonga xavotir aralash ma‘yus termuladi. Kechalari xatarlar derazasida xira miltillagan nur tun zulmatiga hadiksirab mo‘ralaydi. Itingni ko‘chaga chiqarishni ravvo ko‘rmaydigan havo deb shuni aytadilar. Beryozovkaning itlari ham bunaqa matalni eshitgandek in-iniga kirib ketadi. Xar bir xatadan mog‘or isiga aralash tuzlangan karam hidi anqib turganga o‘xshaydi. Odamlar tezroq qor yog‘ishini, olam tezroq yorishib ketishini Xudodan iltijo qiladi. Nihoyat, qor yog‘adi. Avval yomg‘ir aralash yakkam-dukkan uchqunlab turadi-da, to‘satdan zap-tiga oladi. Olam oppoq nurga belanadi. Qor ostida o‘ychan mud-roqqa ketgan o‘rmon sirli va jozibali ko‘rinadi. Haqiqiy rus qishi

boshlanadi. Sovuq va jozibali rus qishi!

Nari-berisi bilan bir kecha-kunduzda xarilardan qurilgan xatalarning yarmi beligacha qor ostida qoladi. Yaxshiyam, qor boshlanishidan oldin tevaragiga zichlab poxol bosilgani. Bo'Imasa, ichigacha muz urib ketadi. Albatta, sovuq zaptiga olgan kezlari ba'zi noqulayliklar ham paydo bo'ladi. Shundoq yotoqxonaning o'ziga olib kirilgan megajin «hurq-hurq» qilib, kechasi bilan uyqu bermaydi. Pech ustida yotsang, achimsiq hid dimog'ingni yoradi. Ziyoni yo'q: o'rganib ketadi odam. O'rmonda bir soat chang'i uchsang, muzdek, musaffo havo o'pkangdagi bor g'uborni sug'urib oladi.

Akasi chang'i uchishga usta edi. Har safar Dima o'rmonga ot-lansa, Grisha ham, albatta, ketidan ergashardi. Chang'i ostida qor g'irchillaydi. Havo ochiq kunlari quyosh ko'zni qamashtirib charaqlaydi. Yer oppoq, sovuq. Osmon zangori, undan ham sovuq. Go'yo shishadan yasalgan-u chang'i tayog'i bexosdan tegib ket-sa, sinib qoladigandek... Boshiga oq telpak kiygan qarag'aylar ustidan duv etib qor to'kildimi, bilingki, jonsarak olmaxon shoxdan shoxga sakradi. Hali «Rojdestvo»ga ancha bor. Biroq xatalardan garmonning shodon tovushi, mastona qiyqiriqlar eshitiladi.

Kolxoz-ku, bo'laricha bo'lgan. Nomiga xo'jalik. Xutorning yarmi huvullab qolgan. Yoshlar «baxt izlab» o'zini shaharga urgan. Erkaklar yo'q hisobi. Borlariyam ko'zini ishqalab uyg'onadi-yu qishloq markazidagi do'konga yo'l oladi. Hammasi keli-shib olgandek, sahar-mardondan do'kon oldiga to'planishadi. Qishin-yozin shu! Soqollar o'sgan, asabiy... Tushdan keyin keladigan «bormatuxa»ga ochered kutishadi. Nariroqdagi xarrakning qorini sidirib tashlaydilar-da, tizilib o'tirib, domino o'ynashga tushadilar. Yutqazganni «taka» qilib xarrak tagidan o'tkazadilar. («Vaqtini o'ldirish» kerakmi axir?) Na rais insof-ga keltiradi, na militsiya yo'lga soladi. (Aslida hammasi – ulfat, hammasi – hamshisha!) Tushdan keyin mast-alast qo'shiqlar yana avjiga chiqadi. Ora-chora mushtlashuvlar ham bo'lib turadi. Lekin bugun mushtlashganlar ertaga ertalab apoq-chapoq bo'lib ketaveradi. Bag'ri keng odamlar-da!

Grishaning onasi tadbirli ayol edi. Boshqalarning karami mushtdek bo'lguncha, bularniki choynakdek bo'lib «qaynab ke-

tadi». «Babe leto» boshlanmasidan turib, ularning xatasi yonida tog'dek pichan uyumi paydo bo'ladi. Qishlik o'tinni hammadan avval g'amlab qo'yishadi.

Grishaning esida. Bir yili yarmarkaga borib, sigir sotib olishdi. Yangi tug'ilgan buzog'i bilan.

– Eshitib qo'yinglar! – dedi onasi aka-ukaga. – Mana shu sigir og'ir kunlarda senga asqotadi... Yaylov to'la o't bo'lsa. Qishloqda yashab turib, mol boqmaslik – gunoh-ku!

Sigirni yetaklab o'tib ketishayotganida do'kon oldida domino qarsillatib o'tirgan mujiklardan biri gap otdi:

– Tabriklayman, Marya, sigir olibsan-da! Indamay ketaverishdi. Boshqasi xirillab kuldi.

– Qaranglar, mujiklar! Marya sigirli bo'пти! Har kuni qaymoq bilan siylarkan-da bizni!

Sigir yetaklab ketayotgan onasi taqqa to'xtadi.

– Qaymoqni nima keragi bor senga! Bormatuxa ichib yotaver! – Mujiklar «tomoqni ho'llab olishga» ulgurgan, shekilli, qiyqiriq kulgi eshitildi.

– Sigiring o'zingga buyursin!

– Qaymog'ingga ko'zimiz uchib turgani yo'q!

– Zaharsan-da, Marya, zaharsan! Chaqib-chaqib eringni o'l-dirding!

Dima yigitcha bo'lib qolgandi. O'sha tomonga g'azab bilan chaqchayib qaragan edi, onasi yupatdi:

– Parvo qilma, o'g'lim! Bular – tamom bo'lgan odamlar.

Soqol-mo'ylovi tikanak bo'lib ketgan tag'in bir mujik murosaomuz nasihat qildi:

– Yaxshiyamas, Marya Sergeevna, yaxshiyamas! Yosh avlodni xususiy mulkchilik ruhida tarbiyalayapsan.

Onasi, rangi quv o'chib, tag'in to'xtadi. Yetovda kelayotgan sigir tumshug'i bilan uning yelkasiga urilgudek bo'lib pishqirdi.

– Sen ham odam bo'lding-u! – dedi onasi alam bilan. Yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, shashtidan qaytdi.

Sigirning arqonidan tortdi. – Yuringlar, bolalarim, parvo qilmanglar bularga...

Onasi to'g'ri aytgan ekan. Sigirni qo'yib yuborasan. O'zi o'tlab kelaveradi. Xatadan bir qadam chiqsang, beling baravar o't! Xohlasang, daladan pichan o'r, xohlasang, o'rmondan! Bir emas

o'nta sigirga yetadi!

– Bunaqangi ishyoqmaslarni Xudo urmaganiga hayronman! – dedi onasi bir kuni kuyunib. – Kolxozga-ku besh tiyinlik nafi yo'q. Aqalli o'zining tomorqasini eplasa-chi! Yo'-o'-o'q! Bularga tayyori kerak! Birov naqdlab qo'ysa-da, bular moldek bo'kib, yeb yotaversa!

Onasi kolxoz fermasida ishlar, nihoyatda o'qimishli xotin edi. Uzoq qish kechalari ajoyib she'rlar o'qirdi. Pushkindan, Lermontovdan... Blokdan... Grishaning esidan chiqmaydi. Tashqarida bo'ron uvullar, pastak derazani qor uchqunlari ayovsiz savalar, onasi esa she'r o'qir edi. Grisha akasi bilan pech ustida yotishardi.

– Dima, Grisha! – dedi onasi bir mahal qo'lidagi kitobni yopib. – Ikkalang ham katta bo'lib qolding. Ko'rib turibsanlar: hamma qishloqdan qochyapti. Odamlarning yerdan mehri sovidi. Hech kimning ishlagisi kelmaydi... Senlar ishlashing kerak. Ishlamasang, ochingdan o'lasan! Shaharga borasanmi, undan narigami, hech yerda tekin non yo'q. Quloqlaringga ilib ollaring. Odam bo'laman desang, ichkilikka yaqin yo'lama!

Dima-ku, yo'lini topib ketdi. Shaharga borib, o'qishga kirdi (a'lochi edi o'ziyam). Grisha kolxozda brichka hayday boshladi. Pichan tashiydi. Cho'chqaxona go'ngini tozalaydi. «Kormovoy» lavlagi olib keladi... Bora-bora o'zi ham qishloq markazidagi do'kon oldida navbat kutadigan, mujiklar bilan domino o'ynaydigan odat chiqardi.

...Bir kuni yana gandraklab kelgan edi, onasi sarjin o'tin bilan holdan toyguncha savaladi.

Ertasiga ertalab o'zi yig'lay-yig'lay Grishaning dabdala bo'lib ketgan yuzini silab iltijo qildi:

– Bu yurishingda xarob bo'lasan! Hoziroq shaharga jo'na! Dimaga uchrash. Yalingin-yolborgin... Agar... – dedi ko'zlarida g'azabli uchqun sachrab. – Qaytib kelsang, urib, oyog'ingni sindiraman!

Nachora! Jo'nadi poezdga o'tirib. Akasi o'qishni bitirib, gorkom komsomolda ishlar edi. Yordam berdi. Yordami shu bo'ldiki, zavodga ishga joylab qo'ydi. Zavod yotoqxonasidan hujra ham topib berishdi.

Larisa bilan shu bahona tanishdilar. Larisa kranchi bo'lib ish-larkan. Uch oy o'qib o'zi ham avtopogruzchik haydashni o'rgan-

di. Grisha Larisani bir ko'rishdayoq sevib qolgan, ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerak, Larisani ko'rsa, nuqul ko'zini olib qochar, tiliga biron jo'yali gap kelmas edi. Larisa hammasini sezib yurgan ekan. Sakkizinchi mart kuni o'tirish bo'ldi.

Zavod klubida tantsa tashkil etildi. Uni Larisani o'zi raqsga taklif qildi.

– Tentak! – dedi tantsa tushishayotganda. – Men sendan to'q-qiz yosh kattaman. Qizim bor. Nima qilasan, o'zingni qiynab!

Grisha yaxshigina ichib olgani uchunmi, ko'ngli buzilib ketdimi, to'satdan yig'lab yubordi.

– Sendan boshqasi kerakmas! O'zimni o'ldiraman, – dedi hiqillab.

O'zini o'ldirishga hojat qolmadi. To'yni Larisalarning Uyida o'tkazishdi. Sakkiz kishi yig'ildi. Larisani onasi – Nina Ivanovna, to'rtta dugonasi, kuyov tomondan – Dima... To'y risoladagidek o'tdi. Mehmonlar to'yib ichdi. Avval aroq. Keyin samogon... Tuzlangan karam, marinovka qilingan Qo'ziqorin bilan gazak qilishdi. Nina Ivanovna pazanda ekan. Duxovkada butun boshlig'oz pishirib keldi. Og'zingda erib ketadi! Mehmonlar yoshlarga baxt tilashdi. «Gorko, gorko!» deb qiyqirishdi...

...Turmushi yaxshi edi. Sakkiz yashar Svetochka ham undan begonasiramadi. To'g'ri, «ota», deb emas, «Grigoriy Stepanovich», deb chaqirardi. Nima qipti? «Dada», dedi nima-yu, ismi sharifini aytib chaqirdi nima?

Hamma g'alva Nina Ivanovnadandan chiqdi. Balki, Grisha avvaliga e'tibor bermagandir. Ammo keyinchalik qaynonasini o'ylasa, nuqul yelinlari osilgan sigir ko'z o'ngiga keladigan bo'lib qoldi. Qaynonasi uyda oldi yarim ochiq xalat kiyib yurar, lorsillagan ko'kraklarini ko'z-ko'z qilgandek lapanglab qadam bosar, qalin, yog'li lablari hamisha istehzoli qiyshayib turardi. Ovozi yarim kechalari Beryozovkadan uch chaqirim narida joylashgan stantsiyadagi teplovoz gudogi singari guldirab chiqardi.

– Oyog'ingni artsang-chi, oyog'ingni – derdi Grisha eshikdan kirib kelishi bilan. – Manavi narsaning oti – latta bo'ladi, kuyov! Bu sening xutoring emas, buqaga o'xshab kirib ketaveradigan! Artdingmi! Xayriyat! Endi yo'lakka chiqqin-da, shapkangning qorini qoq! Yelkang-chi, yelkang! Ertalab erib tushgan suvni kim tozalaydi, qishloqi!.. Uni qara, tag'in kirib kelyapti bu, molga o'x-

shab! Oyog'ingni art, dedim-ku!..

Ovqat ustida Grishadan yangi illat topardi:

– Qo'lingdagi narsaning oti nima deyiladi, bilasanmi? Voy, Xudoyim-ey, necha marta tushuntirish kerak bunga, a? Vilka degan matoh chap qo'lda tutiladi, qishloqi! Qaysi go'rdan kavlab chiqarding bu plebeyni, Larisa!

...Bir kuni ertalab Grisha oshxonaga kirsa, muzlatgich ustida xo'qacha to'la sut turibdi. Qishloqda o'rgangan odatiga amal qilib, silkitib ko'rdi. Ichiga qurbaqa tashlab qo'yilgan bo'lsa, tumshug'ini chiqaradi. (Qishloqda sut aynimasin deb ichiga qurbaqa solib qo'yishardi.) Yo'q, qurbaqa ko'rinmadi.

Tag'in silkitib ko'rdi. Sut ko'pirib, qaymog'i yuziga tepdi. Grisha bir ko'tarishda xo'qachani yarimlatdi. Sutning ta'mi g'alati ekanini shunda bildi. Xo'qachani joyiga qo'yib, labini kafti bilan artib turganining ustiga lapanglab qaynonasi kirib keldi. Grishani birinchi marta ko'rayotgandek, ko'zlarini ola-kula qilib birpas qarab turdi-da, teplovoz gudogidek chinqirdi:

– Lari-i-i-i-sa-a-a!

Yarim yalang'och xotini yugurib oshxonaga kirdi.

– Manavini qara! – dedi Nina Ivanovna semiz barmog'ini Grishaga bigiz qilib. – Manavining jinni bo'p qopti. Kraxmal ichib qo'ydi. Choyshabni kraxmallayman deb ivitib qo'yuvdim!

Grisha vannaxonaga yugurdi. Varaqlab qusa boshladi. Enkayib turgan joyida Larisa gardaniga xo'qacha bilan tushirdi. Qolgan-qutgan kraxmal Grishaning yuz-ko'ziga sachradi.

– Hayvon! – dedi Larisa baqirib. – Qachon odam bo'lasan, cho'chqa.

...O'sha kuni oying ikkinchi chislosi – maosh kuni edi. Grisha zavoddagi ulfatlari bilan to'yibgina ichdi. G'ira-shira esida. Yomg'ir yog'ib turgandi. To'g'risi, yo'lda bir-ikki yiqildiyam. Nima qipti, yigitchilik-da.

Eshikni, odatdagidek, qaynonasi ochdi.

– Larisa! – dedi quloqni qomatga keltirib. – Bu yoqqa qara! Tomosha qil manavining ahvolini!

Dilida to'planib yotgan alam Grishaning miyasiga urdi-yu, qaynonasining boshi ustida musht ko'tardi.

– O'ldiraman! – dedi quturib. – Hammangni o'ldiraman! Qiy-chuv, baqiriq-chinqiriq avjiga chiqdi. Bir tomondan qaynonasi,

bir tomondan Larisa yumdalab tashlashdi.

Grisha bolari uyasini kavlab qo'yib, ariga talangan ayiqdek lapanglab qochdi.

– Militsiya! – Qaynonasining o'kirigi yomg'irli havoni titratdi. – Militsiya! O'ldirmoqchi! Yordam beringlar!

...Grisha jonholatda yugurib ketdi. Uzoq yugurdi. Allaqanday archa panasiga yashirinib, cho'nqayib o'tirib qoldi. Hamon yomg'ir yog'ar, oyog'idan zax o'tib ketgan, paralon kurtkasining yoqasidan sizib kirayotgan sovuq tomchilar gardanini muzlatib yuborayotganini his etib turardi... Loy yerga yonboshlab, ko'zini yumdi. Atrof sokin, qorong'i... Olisda ko'chadan o'tib borayotgan mashinalarning bo'g'iq guvullashi eshilib turardi. Negadir xayoliga onasi keldi. Ikki yildan beri xabar olmagani, hatto xat yozmagani esiga tushib, yig'lagisi keldi...

G'ira-shirada uyg'ondi. Birpas garangsib turdi-da, tushundi. Zavodga borib bo'lmaydi. Larisa militsiya chaqiradi. Gorkom komsomolga – akasining oldiga boradi. Boshqa iloj yo'q. Har qalay, Dimaning qo'li uzun! To'g'ri, o'zidan ham o'tdi. Dima so'kadi... Mayli, ursa ham mayli. Boshqa chora yo'q. Pastdagi militSIONERdan-ku, yalinib-yolborib o'tdi. Uchinchi qavat, to'qson birinchi xonani taqillatgan edi, sado chiqmadi. Eshik tepasidagi yozuvni qayta o'qidi. «Vasilev D.S.» Tutqichdan ushlab tortib ko'r-di. Eshik qulf edi.

– Kim kerak sizga, o'rtoq!

Parket polda qars-qurs qadam tovushi eshitildi. Grisha yonboshiga burildi. Poshnasi bir qarich tufl kiygan xushro'ygina qiz ipdek qoshini chimirib ro'parasida turardi.

– Kim kerak sizga? – dedi qiz rasmiy ohangda.

– Dmitriy Stepanovich, – dedi Grisha g'o'ldirab.

Qiz uning loy bosgan kurtkasiga, timdalangan yuziga shubhali qarab qo'ydi.

– Nima ish bilan keldingiz?

– Shaxsiy ish bilan! – dedi Grisha ijirg'anib.

– Qayerga kelganingizni bilasizmi? – Qiz ipdek qoshini zardali chimirdi. – Bu yer gorkom komsomol bo'ladi, o'rtoq! Bu yerda shaxsiy ishlar ko'rilmaydi.

– Men Dimaning ukasiman! – Grisha qo'lini paxsa qildi. – Akam bilan gaplashishga haqqim bormi?

Qiz tag'in unga boshdan-oyoq razm solib chiqdi.

– Dmitriy Stepanovich sekretariatdalar, – dedi yuz ifodasi o'zgar olmay. – Ukasi bo'lsangiz, uyiga boring!

– Bunisi – mening ishim!

Qiz birpas o'ylanib turdi-da, rahmi keldi, shekilli, yo'l ko'rsatdi.

– Yo'lak boshida xoll bor. O'sha yerda o'tirib turing. Grisha qiz imo qilgan tomon yo'l oldi. Xollda jurnal stoli, stol yonida ikkita kursi bor ekan. O'tirdi... Ming la'nat! Papirosi ham qolmabdi. Garangsib, atrofni tomosha qila boshladi. Devorda avlodlar bosib o'tgan shonli yo'lni ifodalovchi plakatlar. Undan pastda har xil e'lonlar... Yirik-yirik bosma harflar bilan yozilgan e'lon alohida ajralib turardi. Grisha beixtiyor o'rnidan turdi. Yaqin borib o'qidi: «O'zbekiston SSRda vujudga kelgan tang ahvolni tuzatish uchun rahbar lavozimlarga ishga borish niyatida bo'lganlar 98-xonaga murojaat qilishi mumkin. Qalb da'vati bilan borganlarga barcha sharoit yaratib beriladi».

Hech baloga tushunmadi. Qaytib kelib joyiga o'tirdi. Har esnaganda ko'zidan mo'ldir-mo'ldir yosh oqib, pinakka ketdi.

Bir mahal gangur-gungur ovozlari, qadam tovushlaridan uyg'ondi. Yo'lakka odam to'lib ketgan, hammasi zina tomon surilar edi. Zipillab borsa, to'qson birinchi xona eshigi g'ira ochiq turibdi.

– Mumkinmi? – dedi mo'ralab.

Dima sigaret tutatib, allaqanday qog'ozlarni titkilab o'tirgan ekan.

– Nima gap? – dedi zarda bilan.

Ukasini ko'rib daf'atan tanimadimi yo tanimaganga oldimi, qayta so'radi:

– Nima gap?

– Hech gap yo'q, – dedi Grisha sun'iy iljayib. – Men uydan ketdim...

Dima sigaretini chuqur-chuqur so'rib, kuldonga uloqtirdi.

– Tabriklayman!

– Yasholmayman! – dedi Grisha yig'lamsirab. – Turolmayman o'sha uyda! Jonimga tegdi xotinim ham, qaynonam ham. Mana bunday jonimga tegdi.

– Xo'sh? – Dima unga o'qrayib qaradi. – Mendan nima xoh-

laysan?

– Ketaman! Turolmayman bu shaharda!

– Qayoqqa?

– Bilmayman! – Grisha rostini aytdi. – Bilmayman! Ammo yasholmayman bu yerda! O‘zimni o‘ldiraman! Mashina tagiga tashlayman. Osaman. Zahar ichaman!

– Isterika qilma xotinga o‘xshab! – Dima qaytadan sigaret oldi. – Gapimni diqqat bilan eshit. Sen yosh bola emassan. Bundan bu yog‘i yelkamda ortmokdab yurolmayman... – Bir zum o‘ylanib turdi-da, qo‘shib qo‘ydi: – Ertadan bu yerda yo‘qman. Oilam bilan ko‘chib ketyapman.

Grisha quloqlariga ishonmadi. «Aldayapti. Bahona qilyapti!»

– Qayoqqa? – dedi talmovsirab.

– O‘zbekistonga! – Dima gugurt chaqdi. – Nima farqi bor senga!

– Olib ket! – Grisha astoydil yalinib iltijo qildi. – Olib ket mening! Va‘da beraman! Boshqa qilmayman. Odam bo‘laman!

Dima shoshilmay o‘rnidan turdi, sekin-sekin yurib tepasiga keldi.

– Ahmoq! – dedi nafrat bilan. – Men o‘ynagani ketayotganim yo‘q! Bilasanmi, O‘zbekiston – hozir ikkinchi Afg‘onistonga aylangan! Kurash ketyapti! Haqiqiy jang! Hamma yoq poraxo‘rlar. Hamma yoq qo‘shib yozuvchilar! Bosmachilar! Tushundingmi?

– Mayli! – Grisha rostmana yig‘lab yubordi. – Bu yerda turgandan ko‘ra bosmachilar qo‘lida o‘lganim yaxshi!

– Qo‘lingdan nima keladi, ablah! – Dima qichqirib yubordi. – O‘zbekistonni saqlab qolish uchun rahbar kadrlar kerak, tushundingmi! Printsipial odamlar. Sen kimsan o‘zi?

– Dima! – dedi Grisha burnini tortib. – Vokzalda yuk ortsam ham mayli. Obket, Dima, obket! Bo‘lmasa, o‘zimni o‘ldiraman! Baribir o‘ldiraman!

...Poezdga ikki sutkadan ortiq yurishgan bo‘lsa, ilondek zahar yangasi Grisha bilan bir og‘iz gaplashmadi. Akasi ham xomush edi. Grisha begona yurtda o‘zlarini nimalar kutayotganini tasavvur qilardi. Aka-ukani yovvoyi tog‘lar orasiga yuborishadi. Har bir qoya orqasida bittadan bosmachi miltiq o‘qtalib turadi... Grisha o‘zi o‘lsa o‘ladiki, akasini himoya qiladi. So‘nggi tomchi qoni qolguncha. Zahar-zaqqum yangasi bilib qo‘ysin: Grisha

akasi qilgan yaxshiliklarni unutadiganlardan em...

Toshkent vokzaliga kelib tushishsa, hamma yoq osoyishta. Odamlarning chehrasi ochiq... Birona «bosmachi» ro'parasidan chiqib, «Sen kimsan, nega kelding?» – demadi...

Dimaning baxti bor ekan. Olis qishloqqa yuborishmadi. Qoq markazda – Toshkentning o'zida qoldi. Tag'in gorispolkomga zampred qilib «saylashdi». Qarang, Grishani ham «kamyob mutaxassis» sifatida darrov ishga olishdi. Uy berishdi...

Grisha avvaliga ehtiyot bo'lib yurdi. Keyin o'zini tamom erkin his etdi. Ko'cha kezadigan, bozor aylanadigan bo'ldi. Smolensk bilan solishtirganda bu yer haqiqiy jannat ekanini tushundi: «Toshkent – non shahri», deganlari rost ekan! Har qadamda non! Har qadamda meva-cheva! Magazinlarda uzun «dum»li navbat yo'q...

Bora-bora o'zini xo'jayindek his eta boshladi. Smolenskda bir kilo uzum – yigirma besh so'm. Bu yerda ikki so'm! U yoqda qovunning kilosi – o'n so'm. Bu yerda – ellik tiyin. Nega shunaqa? O'ylay-o'ylay bir haqiqatga tushunib yetdi: bu yurtning odamlari qallob. Chayqovchilar mevasini Smolenskka oborib o'n baravariga pullaydi! Ana sizga tekin daromad!

...Bugun o'g'lini uylantirgan anavi chol o'qituvchiman, dedimi? O'qituvchi emish! Oddiy pedagog bunaqa to'y qilolmaydi. Demak, bu ham qallob! Qarang, pora bermoqchi bo'ldi-ya!

...U stol ustidagi soatga qarab qo'ydi. Ikkidan oshibdi.

Erinib o'midan turdi. «Uxlash kerak». Chiroqni o'chirayotganida xayoliga g'alati fikr keldi: «Nimaykin, anavi qopchiqdagi? Nima qipti ochib ko'rsa, birov bir nima dermidi? Yaxshisi, militsiyaga olib boradi. Ashyoviy dalil sifatida».

Ikkilanib borib, eshikni ochdi. Yo'lak nimqorong'i, hech zot ko'rinmas, qopchiq ostonada qiyshayib yotardi. Grisha o'g'irlik qilayotgan odamdek olazarak bo'lib, qopchiqni yulqib oldi-da, shosha-pisha eshikni yopdi. Qopchiqni ochsa, ichida bir shisha «Stolichniy» aroq, pishgan go'sht bo'laklari, to'rtta non, besh-oltita olma-anor chiqdi.

– Yaxshi! – dedi u o'ziga-o'zi pichirlab. – Arog'ingni ichaman. Anoringni yeyman... Keyin militsiyaga shikoyat yozaman. Menga pora taklif qildi, deyman!

...Grisha shikoyat arizasini yozib bo'lganida tong otib qolgan,

miyasi g'um edi. Arizani ich cho'ntagiga solib, zinadan tushayotganda chayqalib ketdi.

«Ming la'nat! – deb o'yladi o'zini so'kib. – aroqni oxirigacha ichish shartmidi?»

Pastga tushsa, aksiga olib yo'lak ro'parasidagi xarrakda Klava xola o'tirgan ekan. Grisha uni yoqtirmas edi. O'lgudek ezma kampir!

– Salom, Klavdiya Sergeevna! – dedi qaddini g'oz tutishga urinib.

Klava xola ensasi qotib, yuzini o'girdi.

– Kecha qanaqa «qahramonlik» ko'rsatganingni bilasanmi? – dedi qahr bilan.

– Nima qipman?!

– Ahmoq! – Klava xola olmadek mushti bilan xarrakni urdi. – Nima haqqing bor birovning to'yini buzishga!

– Men? Men buzibmanmi! – Grisha astoydil hayratlandi. – Anavining o'zi urdi-ku meni! Militsiyaga shikoyat qilaman! – Burilib ketayotgan edi, la'nati oyog'i pand berdi. Munkib tushdi.

– Bora qol, – dedi Klava xola achitib. – Ko'ramiz, qo'lingdan nima kelarkan? Odamlarga o'xshab to'yda mehmon bo'lib o'girsang, o'larmiding? Qirq besh yildan beri shular orasida yashayman, ahmoq! Bunaqa bag'ri keng xalq yo'q dunyoda. Men bilan-ku!

– E-e! – Grisha asabiy qo'l siltadi. – Nasihatingizni nevarangizga qiling!

...Militsiyada xayrixohlik bilan qarshi olishdi. Protokol to'ldirib turib muloyimlik

bilan taklif etishdi:

– Ekspertizaga borishga to'g'ri keladi, grajdanin Vasilev! Oyog'ingizni, bo'yningizni tekshirib ko'rish kerak.

Grisha o'midan turib ketdi.

– Kechirasiz! – dedi sarosimaga tushib. – Men ishga borishim kerak...

«QULOG'INGNI DING QILGIN-U, TILINGNI TIY!»

Komissar sut bidonni ko'tarib pastga tushganda tong otmagan, havo sovuq edi. Baqateraklar shoxi qorning og'ir yuki ostida egilib, shu turishda muzlab qolgandek. Bir-ikki kun eruvgarchi-

lik bo'lib, to'satdan yana sovuq tushdi. Shuning uchun, shekilli, tom chekkasida uzun-uzun sumalaklar tahlidli osilib yotibdi. Komissar ikki buklangan cha yo'lkaning qorini kurayotgan Qurbonoyni uzoqdan ko'rdi. Qor qotib qolgani uchun kurak har tekkanida g'ashni keltirib qartillaydi. Egniga qalin paxtalik chopon kiygan, boshiga jun ro'mol o'ragan Qurbonoy kuchana-kuchana qorni yo'lka chetidagi ariqqa surib tushirishga urinadi.

Shu ham odamman, deb yashab yuribdi-da! Saharmardonlab ko'cha supuradi. Qishda qor kuraydi. Besh vaqt enkayib namoz o'qiydi. Boshiga kulfat tushsa, kurashish, haq-huquqini himoya qilish o'rniga Xudoga soldim, deydi-da, bo'zrayib turaveradi. Nachora, ota-bobosidan qolgan meros... Eshonlar eshak bo'ladi, degani shu bo'lsa kerak-da!

Yana qor boshladi, shekilli! Toshkentga Rossiya qishi ko'chib keldimi, nima balo... Moskva atroflarida ham qor ko'p bo'ladi. Bir hafsala qilsa, haftalab yog'adi. Qirq birinchi yil dekabrida shunday bo'lgandi. Sovuq! Gapirgan gaping og'zingdan muz bo'lib tushayotgandek... Fashist Moskva ostonasiga kelib qolgan, qochoqlar, vahimachilar ko'paygan... SMYERShchilar jasorat ko'rsatmasa, kim bilsin, nima bo'lardi bu yog'i! SMYERShning oddiy leytenantini ko'rsa, uncha-muncha polkovnikning quti o'chib ketardi... Hech esidan chiqmaydi. Qor urib turibdi. Butun polkni safga tizishdi. Okopni tashlab qochgan ikkitasini tutib kelishgan ekan. O'sha yerning o'zida dala tribunali bo'ldi.

Bir mahal kapitan Zaxarov chaqirib qoldi:

– Leytenant G'aniyev. Anavi bittasi osiyoliklardanga o'xshaydi. Bilmayman, o'zbekmi, tojikmi... Bittayam gapiga tushunib bo'lmayapti. O'zing tillash.

O'rmon chetidagi yaydoq maydonda saf tortgan askarlar ro'parasida ikkitasi bezrayib turar edi. Ikkalasi ham boshyalang, shinelni yechib olingan, yalang oyoqlari qorda go'shtdek qizarib ketgan... Soat shahdam qadam tashlab borib beriroqda to'xtadi.

– Kimsan? – deb so'radi qora sochligidan. – Qayerdan kelgansan?

Qochoq o'zbekcha so'z eshitib, jonlandi.

– O'zbekman, aka! – dedi yig'lamsirab. – Menda gunoh yo'q. Tepamda Xudo turibdi. Gunohim yo'q, jon aka!

– Savolga javob ber. Nega jangovar postingni tashlab qochding, xoin?!

– Men xoin emasman... – Qochoq shunday dedi-yu, bir zum Soatning yuziga tikilib turib, shodon xitob qildi: – Soat aka! Meni tanimadingizmi, Soat aka? Men-ku, bu men! Husanman, Husan! Tepaqo‘rg‘ondan... Yaratganga ming qatla shukr! Xudo yetkazdi sizni, Soat aka! – U ho‘ngrab yig‘lab yubordi... – Tushuntiring bularga, menda gunoh yo‘q! – Iltijo bilan ikki qo‘lini osmonga cho‘zdi. – Iloyo, dunyo turguncha turing, jon aka! Otabuvalarimning arvohi qo‘llasin! – Yalangoyoq qor kechib yaqin kela boshladi.

– Nari tur, eshonvachcha! – dedi Soat nafrat bilan. – Nega qochding? Nega qurolingni tashlading?

– Qurol? Qanaqa qurol? – Husan irkit qo‘li bilan ko‘z yoshlarini artdi. – Yog‘och miltiq bergandi. Ustimga tank bostirib keldi. Qo‘rqib ketdim.

– Nima deb aljirayapti, G‘aniyev?

Soat yarq etib qaradi-yu, kapitanning shubha bilan chaqchayib turgan ko‘ziga ko‘zi tushdi. Yuragi muzlab ketgandek bo‘ldi. Osobist uchun Vatan xoinini himoya qilishga urindi, degan bitta tamg‘aning o‘zi kifoya!

– Orqamizda Moskva turganini unutdingmi, ilonvachcha! – dedi Soat g‘azab bilan. – Shaxsan o‘rtoq Stalinning o‘zi Kremldan jilmay o‘tiribdi-yu, sening joning shirinlik qilib qoldimi! – Shunday deb pistoletini chiqardi.

– Otmang, jon aka! – Husan tiz cho‘kdi. Qorda toshbaqadek sudralib keldi-da, oyog‘ini quchoqladi. – Tavba qildim. Jon aka, tavba qildim! Aka-a-a!

Soat uning boshini mo‘ljallab o‘q uzdi. Husan chakkasidan tepki yegandek yonboshi bilan qorga ag‘anadi. Og‘zi lang ochiq qolgan, hamon «aka-a-a!» deb chinqirayotganga o‘xshardi.

– O‘rtoq kapitan! – dedi Soat qaddini rostlab. – Xalq dushmanining o‘g‘li ekan. Otasi eshon ekan. Sibirga surgun qilingan. Jang qilishni xohlamay, ataylab qochibdi. O‘zi tan oldi.

...O‘z qo‘li bilan birinchi marta odam o‘ldirgani uchunmi, Husan anchagacha Soatning ko‘z o‘ngidan ketmay qoldi. Nuqul «aka-a-a» deb dod solayotganga o‘xshaydi. Ba‘zan kechalari «aka-a-a» degan chinqiroq ovozdan uyg‘onib ketadi...

Har narsaning boshlanishi qiyin bo'larkan. Keyin-keyin urgani ketdi.

...Ishi og'ir edi. Urushda jasorat bilan qo'rqqoqlik, fidoyilik bilan xoinlik ko'pincha yonma-yon yuradi. Frontni bunaqa marazlardan tozalamasang, yomon yaraga o'xshab, maddalab ketadi...

O'zbekcha xat o'qiydiganlar yo'q hisob edi. Soat kechalari Uxlamay xat titkilab chiqar, o'zbek askarlarining gapiga zimdan quloq solib yurardi. O'zbeklar uni ko'rsa, o'z jigargo'shasini topib olgandek, yayrab ketadi. Og'ziga kelganini qaytarmay vaysaydi. Soatning vazifasi xoin va qo'rqqoqlarni fosh etish... Fakt esa yetarli...

– Xex! Jang qilish yoqmay qoldimi? Xotiningni sog'indingmi!.. Ha-a, gap bu yoqda degin! Nemisning kuchi ko'p ekanmi? Yaxshi-i-i! Qani, marsh «shtrafnoy»ga! Nemisning kuchini yaqindan ko'rasan. Oldinga yursang, fashist otadi, orqaga chekin-sang, o'zimiznikilar. Kerak bo'lsa, ijtimoiy kelib chiqishingni ham tekshirib ko'ramiz. Bitta sen o'lganing bilan askar kamayib qolarmidi! Xotining bir kun yig'laydi. Ikki kun yig'laydi. Cho'loqmi, maymoqmi, topib oladi o'ziga munosibini!

Eh-he! Besh yil urushda yurib nimalarni ko'rmadi bu bosh!

...Yana bir voqea hech esidan chiqmaydi. Aytasang, birov ishonmaydi. Bittasi nemis bilan kartoshka kavlaganini vaysab yurganmish, degan signal keldi. Borsa, siyrak mo'ylovli qozoq. Elliklardan oshgan. Soat sekin gapga soldi:

– Nemis bilan kartoshka qazidingmi?

Soddagina soldat ekan. Ustiga-ustak atrofida ko'pdan beri na qozoqcha, na o'zbekcha gaplashadigan odam bo'lmagani uchunmi, sevinib ketdi.

– Uy-bay! -- dedi ofitser bilan gaplashayotgani ham esidan chiqib. – Nemis-de, odam ekan-g'o'y!

– Qara-ya! Nemis odam ekanmi, qani, bir boshdan aytib berchi!

...Soldat hammasini gapirib berdi. Oldingi liniyaga bir haftacha kuxnya kelmabdi. Neytral zonada kartoshka polizi bor ekan. Kechasi Bondarenko ikkalasini kartoshka kavlab kelishga yuborishibdi. Quyuq tuman ekan. Kartoshka qazishayotganda o'n qadamcha narida nemischa shivir-shivirni eshitib qolishibdi. Nemislar ham och qolib, ikkitasini kartoshka kavlashga yuborgan ekan.

Bondarenko endi otmoqchi bo'lganida nemislardan bittasi «ne shtrlay, ne shtrlay», debdi. Ruschani uncha-muncha bilarkan. Buni qarangki, gapdan-gap chiqib, gurunglashib qolishibdi. Ruschani biladigan boyagi nemis urush joniga tekkanini, uyini, uchta bolasini sog'inganini aytibdi. Qozoq ham sakkizta bolasi borligini, kolxozda «molshi» bo'lib ishlashini aytibdi. Bondarenko onasini sog'inib ketganini gapiribdi. Keyin ular u yoqqa – bular bu yoqqa ketaverishibdi.

– Ular-de ketdi. Biz-de ketdik! Jaxsi nemis ekan, short vozmi!
– dedi qozoq iljayib.

– Qachon qochib o'tadigan bo'lding nemis tomonga? Soldat siyrak kipriklarini pirpiratdi.

– Ne deysin?

– Qachon qochmoqchisan, ablah?

– Men qoshmaymin, jo'ldas nashaynik! Soat sapchib o'rnidan turdi.

– Bondarenkoni hibsga olinglar. Tez!

Bunisi yosh bo'lsa ham quv ekan. Komandirning buyrug'ini bajarib, ikki paqir muzlagan kartoshka kavlab keldik, hech qanaqa nemisni ko'rganimiz yo'q, bu boboy tush ko'ryapti, deb turib oldi.

– Rotadan yana necha kishini qochishga ko'ndirdilaring? Qachon asirga tushmoqchisanlar? – dedi Soat qistovga olib.

Bondarenko «O'laman sattor nemisni ko'rganimiz yo'q», deydi. Sodda qozoq bo'lsa nuqul bir gapni takrorlaydi:

– Biz-de atpadiq, nemis-de atpadi. Atpasa jag'si-g'o'y!.. Soat batalonni safga tizdirdi. Tribunal hukmini o'qib eshittirdi: «Askarlarni fashist tomonga qochib o'tishga da'vat qilgani uchun...»

...Urushda orttirgan tajribasi keyin ham qo'l keldi. Ko'p marta qo'l keldi... Ba'zilar organ deganda nuqul jazo beruvchi tashkilotni tushunadi. Unaqa emas! Organ jamiyatni yot-unsurlardan himoya qiladi. Shunday ekan, uning qo'ligina emas, «qulog'i» ham yaxshi ishlashi shart. Har qanday tashkilotda, hatto yamoqchining do'konida ham «quloq» bo'lsa, ziyon qilmaydi. To'g'rida! Vaqti-vaqti bilan «tozalash» o'tkazib turmasa, eplab bo'ladi mi bu turfa jamiyatni!

Urushdan keyingi «tozalash» ham bejiz qilingani yo'q. Ayniqsa, olifta intelligentlar haddidan oshib ketdi. Gazeta-jurnallarda

sovet jamiyatini masxara qiladigan narsalar paydo bo'la boshladi. Maktab o'qituvchisidan tortib olingacha – hammasi «dono!» Hammasi – «daho!» Xex!

Aniq esida bor. Qirq oltinchi yil edi. Toshkentda Navoiy teatri qurilayotgan kezlar... Tepaqo'rg'ondagi yetti yillik maktabdan signal tushdi. Matematika o'qituvchisi Hakimov katta tanaffusda og'zidan bol tomib yaponlarni maqtabdi. Emishki, Hakimov Piyonbozorga olma sotgani borgan. Qarasa, qurilish ketayotgan joyda, simto'siq ortida oyog'iga yog'och kavush kiygan yapon asiri mo'ltirab turganmish. Hakimov go'yo asirga rahmi kelgan. To'rt-beshta olmani simto'siqdan uzatgan. Go'yo asir rus tilini bilarmish. «Men sizning molingizni tekinga ololmayman, siz uni yetishtirish uchun mehnat qilgansiz», degan. Qorovulxonada turgan soqchi ko'rib qolib, yaponni haydab yuborgan. Hakimovning aytishicha, go'yo yapon jilmayib ta'zim qilgan. «Rahmat sizga, yaxshi odam ekansiz», degan. Hakimov og'iz ko'pirtirib, yaponni ulug'lagan. «Bunaqangi madaniyatli odamni birinchi ko'rishim, hamma xalq orasida ham yaxshilar bo'larkan-da!» degan. Shunaqami hali? Samuray yoqib qoldimi sizga? Bilasizmi, janob Hakimov! Buning otini kamida KRA deydilar! Kontrrevolyutsion tashviqot! Qani, bir tekshirib ko'raylik-chi chiqqan joyingizni! Hakimov... Kim bo'ldi bu qushcha? Tepaqo'rg'onliklarning hammasi tanish edi-ku. Kim bilsin tag'in... Qishloqdan chiqib ketganiga, eh-he, qancha bo'ldi! Toshkentdagi o'qish... Moskvadagi oliy maktab... Onasining ta'ziasiga ham kelolmadi. Ayni imtihon paytlari edi. Aslida gap bunda ham emas. Soat onasi Tepaqo'rg'ondan Toshkentga ko'chib kelganidan xabardor edi. Biroq onasidan kelgan har bir maktubni o'qiganida yuziga sovuq nafas urilayotgandek bo'lardi. Onasi hech kimga zug'um qilmaslikni, hech bir bandaning burnini qonatmaslikni iltimos qilgan, unga sayin Soatning g'ashi kelardi. Mamlakat ichki dushmanlarga to'lib yotibdi-yu, savodsiz bu xotin nasihatgo'ylik qilardi... Orada fin urushi boshlandi... Keyin yana urush...

Xo'-o'sh... Hakimov... Hakimov... Otasi inqilobdan avval tegirmonchi bo'lgan... E-ha! To'lagan-ku bu! Uni Qonqusga cho'k-tirib yubormoqchi bo'lgan og'aynisi. Xex! O'shanda «hammangni otaman!» degan va'da bo'lganmidi? Bittang Vatan xoini sifati-

da nasibangni olding. Endi – senga

navbat... Xo'-o'sh... Xotini – Obidxonova Fotima. Otasi eshon bo'lgan. Sibirga surgun qilingan... Xakimov hozir o'sha eshonning qo'rg'onida yashaydi. Bu yog'i necha puldan tushdi? Demak, sen Eshonga ichkuyov bo'lgan ekansan-da! Fotimaga uylanganman, degin! Ana, hammasi aniqlandi-qoldi. Qismatning hazilini qarang: tag'in eshonzodalar bilan ro'para keldi. Xex!

Yaponga olma berging kelib qoldimi? Olma bahona – diydor g'animat, degin! Samuray imi-jimida uzatgan qog'ozni yapon rezidentiga berishga ulgurdingmi yo'qmi? Balki, rezident o'zing-dirsan!

Shoshilish kerak! Sen shoxida yursang, biz bargida yuramiz, eshonning ichkuyovi!

Yarim kechada yo'lga tushdilar. Qora mashina Tapaqo'rg'on-ga yetib borguncha tong yorishay deb qoldi. Ko'r oydin. Qishloq deyarli o'zgarmagan. O'sha pastak uylar, paxsa devorlar. Faqat buzib tashlangan machit o'rnida klub qurilibdi. Tunuka tomli klub. Devori oqarib turibdi... Kuz salqini sezilib qolgan. Tun osuda... Mashina ortidan itlar ko'ksov bo'lgandek bo'g'iq akillab yuguradi. Chang-to'zon ko'tariladi. Qonqus bo'yidagi tollar qorong'ida hurpayib turibdi.

Soat miyig'ida kulib qo'ydi. Uni anavi yerda cho'ktirib yubormoqchi bo'lishgan edi... O'zlarining uyi hov narida, jinko'channing oxiridaydi. Turganmikin hozir? Turgan bo'lsa nima? Bu yerlar endi unga begona... Allaqachon begona bo'lgan...

Soat haydovchiga buyurdi:

– Chapga bur. Yong'oqzor tomonga... yigitlar, chaqqonroq harakat qilinglar! Tong otyapti...

«Operatsiya»ni saharga yaqin bajarishda ma'no bor. Birinchidan, «ob'ekt» xotining quchog'ida miriqib uxlayotgan bo'ladi. Ikkinchidan, qo'ni-qo'shnilar yopirilib chiqmaydi. Chiqqanida qo'lidan nima kelardi-ku, har qalay, begona ko'zdan xoliroq bo'lgan yaxshi-da!

Darvozani uzoq qoqdilar. O'lib qolganmi bu! Oynani tiqillatay desa, tashqariga qaragan derazaning o'zi yo'q. Eshonning qo'rg'oni-da! Bir zamonlar dadasi aytgan gap Soatning esiga tushdi: «Eshon qora qilmishlarini yashirish uchun baland devor orqasiga berkinib olgan». To'lagan ham shularning bittasi-da!

Eshonzoda Fotimaning eri! Bu devorlar orasida butun boshli antisovet tashkilot shtabi joylashmagan deb kim kafolat beradi!

Nihoyat, yo'lak tomonda shoshqin qadam tovushi eshitildi. Uyqusiragan erkak ovozi keldi.

– Kimdir? – dedi hurkib.

– Oching! Rayonodan xabar bor. – Tamba surildi.

Soat oradan shuncha yillar o'tib ketgan bo'lsa ham fonus tutib turgan To'laganni darrov tanidi. Ko'zidan tanidi! Yillar o'tib, odamning qiyofasi, gavdasi, hatto gapirish ohangi ham o'zgarib ketishi mumkin. Faqat ko'zi o'zgarmaydi. Soatning ro'parasida aynan To'laganning o'zi turar edi. Ulg'ayibdi. Soch qo'yibdi. Voy ilon-ey! Maktabda intelligent bo'lib yurasan-da, uyingda aksilinqilobiy faoliyat olib borasan! Xex!

To'lagan ro'parasida turgan bir emas, uch nafar notanish odamni ko'rib taxta bo'lib qoldi.

– Kechirasizlar, k-k-kim kerak sizlarga? – dedi duduqlanib.

– Ovozingni chiqarma! – Soat plashining cho'ntagidagi pistolet bandini mahkam qisib buyurdi. – Boshla!

To'lagan talmovsirab orqaga chekindi. Qorong'i yo'lakdan o'tib, hovliga chiqishdi. Tong yorishib kelar, hovli o'rtasidagi bir tup tut shoxida chumchuqlar uyqusirab chirqillar edi.

– Sizlarga kim kerak? – dedi To'lagan hammaga bir-bir qarab. U yelkasiga avra to'n tashlab olgan, boshyalang, sarpoychan oyoq'iga kalish ilgan edi. Shu asnoda Soatga uzoq tikilib turdi-da, chehrasi yorishdi.

– Ie, o'zingmisan, o'rtoq? – dedi dadillanib. – Marhamat, qani, ichkariga! Odamning kapalagini uchirib yubording-ku, og'ayni?

Ayvon tomonga qarab «ayasi», deb chaqirgan edi, Soat past, tahdidli ohangda ta'kidladi:

– Men senga og'ayni emasman! Qonun nomi bilan qamoqqa olinding!

– Esing joyidami, Soat?

– Soat emas, Komissar G'aniev bo'laman! Xatni top, unsur! – dedi Soat g'ijinib.

To'laganning rangi bo'zarib ketdi.

– Q-qanaqa xat? – dedi battar duduqlanib. – Yaponning xati, hayvon! Yaponning xati! Qayoqqa tiqding, samuraydan olgan xatni?

– Nima deyapsan, Soat? – To‘lagan ko‘zini ola-kula qildi. – Yo quruq tuhmatingdan! O‘limdan xabarim bor, bunaqa gapdan...

– Mayli, kerakli joyda esingga solib qo‘yamiz. Tezroq, yigitlar! Qani, fonusni ber bu yoqqa!

Zum o‘tmay ichkaridan ayol kishining «Nima qilyapsizlar?» degan qo‘rqinch to‘la xitobi eshitildi. Kimdir «aya, aya», deb yig‘lab yubordi. To‘lagan o‘sha tomonga yura boshlagan edi, Soat qo‘lidan tutdi.

– Qimirlama! Biqiningdan darcha ochib qo‘yaman. Ayvonga avval o‘n to‘rt-o‘n besh yoshlardagi ko‘ylakchan qiz, ketidan nimcha kiygan do‘mboqqina ayol yugurib chiqdi. Ikkalasining ham sochlari to‘zg‘ib ketgan, qiz qo‘rqib yig‘lardi.

– Nima gap? Kimsizlar? – dedi ayol ko‘zlari vahimadan kattalashib.

– Siz, xonim, tek turing! – dedi Soat vazminlik bilan. – Kerak bo‘lsa, sizniyam chaqirtiramiz.

Yo‘q, Fotima uni tanimadi. Yigitlar birpasda uyning tit-pitini chiqarib yuborishdi.

Hovlining burchak-burchaklariga kirib chiqishdi. Kitoblar-u qog‘oz-daftarlarni ayvonga uyib qo‘yishdi. Fotima gap nimadali-gini tushundi, shekilli, qizini bag‘riga bosgan ko‘yi haykaldek qotib qoldi. Tajribasi bor-da! Obisk degani nima ekanini biladi! To‘lagan ham miq etmay bezrayib turar, faqat qizaloq qo‘rquv-dan dag‘-dag‘ titrab, yig‘lar edi.

– Mana, o‘rtoq polkovnik, – yigitlardan biri ayvon peshida turib Soatga ixcham Qur‘onni uzatdi.

– Bolalarga matematika o‘rniga Qur‘on o‘qityapman degin! – Soat To‘laganga qarab istehzoli kuldi. – Xex, xex, xex!

– Ularnikimas! – Fotima quyundek uchib kelib, Qur‘onga yopishdi. – Meniki, otamdan qolgan yodgorlik. Bering bu yoqqa!

– Nari tur, ilonvachcha! – Soat tirsagi bilan bir turtgan edi, Fotima tisarilib borib, ayvon peshiga o‘tirib qoldi. Ikki o‘rim uzun sochi ko‘ksiga yoyilib tushdi. Etagi ko‘tarilib, jiyakli uzun ishton ostidagi bo‘liq sonlari lorsillab ketdi. Soat Fotimaning yuzlari oppoq, silliq ekanini idrok etdi. «Shunaqa chiroyli juvon bo‘pti-da!» degan o‘y xayolidan lip etib o‘tdi.

– Xex! – dedi kulib, Qur‘onni shoshilinch varaqladi. Orasida ortiqcha qoyuz yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, kitobni parcha-

parcha qilib yirtdi. Yerga uloqtirdi-da, tepkilay boshladi. – Mana senga yodgorlik! Mana!

Shaxdam yurib bordi-da, Fotimaning nimchasini tortqilab yecha boshladi. Fotima jonholatda nimchasini changallab Soatga ham qo‘rquv, ham hayrat bilan termildi. Ko‘zlari katta-katta, chiroyli edi. Bir vaqtlar Soat bexosdan qor otganda yig‘lagan ko‘zlar.

Orqa tomondan To‘laganning tahdidli ovozi keldi:

– Nima qilyapsan, Soat?

Soat ijirg‘anib burildi. To‘lagan ko‘zlari g‘azabdan yonib shu tomonga talpindi, yigitlardan biri ro‘parasida to‘pponcha o‘q talib turar edi.

– Qo‘yvor! Qo‘yvor ayamni! – Ayvon burchagida qo‘nishib turgan qizaloq quyundek uchib kelib, Fotimaning yelkasidan quchoqlab oldi. – Dadajon! Ayting, ayamga tegmasin!

Fotima Soatni endi tanidi. Ko‘zidagi qo‘rquv o‘rmini nafrat egalladi.

– Cho‘ntagingni ko‘rsat! – dedi Soat sovuq qat‘iyat bilan. Fotima yelkasiga osilgan qizini kifti bilan nari itardi.

Nimchasini yechayotganda ko‘kraklari dirkillab ketdi. «Kerak bo‘lsa, olaqol!» degandek nimchani yerga uloqtirdi. Nimcha cho‘ntagida hech nima yo‘q ekan. Soat To‘laganga o‘girildi.

– Oldinga tush!

To‘lagan bir qadam yurib to‘xtadi.

– Fotima, – dedi vidolashgandek ohangda. – Qurbonoyni ehtiyot qil. Seni Xudoga, Qurbonoyni senga topshirdim.

«Qurbonoy emish! Xo‘p topibsanmi, qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug‘ilgan. Maktabda o‘qituvchilik qilasan, uyingda Qur‘on o‘qiysan... Ilon! Munofiq!» Qizaloq hamon onasini quchoqlab turar, chamasi, dadasining oldiga uchib borib bo‘yniga osilgisi kelar, ammo notanish «amaki»dan qo‘rqar edi.

– Marsh! – dedi Soat. – Bizni kuch ishlatishga majbur qilma!

Shu payt Fotima o‘tirgan joyida u yoqdan-bu yoqqa tebrana boshladi.

– Ey, poki-parvardigor! – dedi ikki qo‘lini osmonga cho‘zib.

– Bu zolimlargayam boqqan balo bormi, Xudo!

– Aya, turing, ayajon! – Qizaloq yig‘lab Fotimaning qo‘lidan torta boshladi. – Dada, ayting, ayam yig‘lamasinlar!

– Iloyo, Qur'on ursin seni, bildingmi? – Fotima ko'zlari o't-dek yonib Soatga chaqchaydi-da, tizzalariga shapatilab, faryod soldi:
– Qur'on urmasa, rozimasman. Otamning arvohi urmasa, rozimasman! Bolalaring yetim bo'lib, chirqillab qolmasa, rozimasman! Muncha sho'r peshona bo'lmasam, Xudoyim!

Hammasi bir go'r. O'rmon chetida ukasi ham shunaqa sannagan edi. Hammasini otish kerak, bitta qo'ymay!

Soat yo'lakka yetganida beixtiyor burilib qaradi. Fotima ayvon peshida o'tirib hamon ayyuhannos solar, qizi esa bo'ynidan quchib yig'lardi. Fotima shu o'tirishda ham qandaydir... jozibali edi.

Soat miyig'ida kulib qo'ydi.

«Xex. Mayli, qarg'ayver-chi! Ko'ramiz hali, qanday sayrarkinsan? Mana shu qo'llaring bilan yelkamni silab, mana shu tillaring bilan «Soat akajon», deb erkalamasang, otimni boshqa qo'yaman!»

HAMKASBLAR SUHBATIDAN

- Xo'-o'sh, kollega, ishlar qalay?
- Salomatmisiz, o'rtoq Komissar? Marhamat!
- Vasilevning so'rog'idan biron naf chiqdimi?
- Vasilevning yuz foiz alibisi bor, o'rtoq Komissar. Jinoyat sodir bo'lgan kuni u hushyorxonada yotgan.
- Hm... Xo'sh? Xotini-chi? Shomatovning xotini nima deydi?
- Nima derdi? O'sha gap. Ertalab sutga chiqqan. Qaytib kelib, ro'y bergan hodisani ko'rgan. Chindan ham o'sha kuni operativ gruppaga yetib borganida Shomatova uyida edi.
- Uyida degin? Xex! Kechasi qayerda tunagan ekan oyimcha?
- Guvohlik berishicha, tuni bilan uyida bo'lgan.
- Xotin kishining makri qirq eshakka yuk bo'ladi! Ertalab sutga chiqqan emish! O'sha kuni sutga chiqmagan! Chiqsa, men ko'rardim, men!
- Aniqmi shu gap?
- Men noaniq gapirmayman, kollega! Bundan tashqari... Surishtirib ko'rdingmi? Shomatov uyni qanday qilib oldi ekan?
- O'rtoq Komissar... O'lgan odamni malomat qilish...

– Men uchun o‘lik-tirikning ahamiyati yo‘q. Senga ham shuni maslahat beraman.– Shomatov Afg‘onistonda jang qilgan. Navbatsiz uy olishga haqqi bor!

– Jang qilganmish! E‘tiboringiz uchun, o‘rtoq tergovchi, gorispolkomning uy taqsimoti komissiyasida kamina ham borlar! Bir majlisda bu bolaning o‘zini tutishini ko‘rib, aniq xulosaga kelganman. Uy nari tursin, molxonani ham ravo ko‘rib bo‘lmasdi unga...

– O‘rtoq Komissar, Shomatov halol jang qilgan. Kontuziya bo‘lgan, jarohatlangan. «Jasorati uchun» medali bor...

– Jasorat emish! Ko‘rganmiz bunaqalarni! Hozirgi osobistlar-ga hayron qolasan kishi! Bir-biridan landovur! Bo‘pti... Muvaf-faqiyat tilayman! Maslahatim shuki, Shomatovani qattiqroq si-quvga ol. Ha, aytgancha, Qurbonoy degan xotin bor. To‘lagano-va Qurbonoy. Farrosh... Kirmagan eshigi yo‘q. Haqiqiy navod-chitsa! O‘shaniyam... bir obrabotka qilish kerak.

RUSTAMNING BIRINCHI KUNDALIGIDAN

...Kundalik yozish – qizlarning ishi. Qizlarda bunaqa «kasal», shoirlar aytmoqchi, «shudring tomchisidek musaffo qalbiga ilk muhabbat cho‘g‘i tushgach» paydo bo‘ladi. O‘z xayolida muhabbat deb atalmish qasrni bunyod etadi. Xayoliy Malika xayoliy Shahzodasiga aytolmagan gaplarini qog‘ozga tushiradi... Yoza-veradi... Yozaveradi... Bir kuni ko‘z yoshlaridan suyakalib ketgan daftarni sirdosh dugonasiga o‘qib beradi. Ikkovlari bir xonaga ki-rib olib, tongotar pichir-pichir qilishadi...

Shuyam mashg‘ulot bo‘ldi-yu! Tajanning qum barxanlarida Ustingdan qora kombinezon, ichingdan o‘n sakkiz kiloli o‘q o‘t-mas nimcha kiyib yugurishning o‘zi bo‘ladimi? Faqat bir narsani orzu qilasan: to‘yib suv ichsang-da, yotib uxlasang... Qog‘oz qo-ralashni kim qo‘yibdi senga, soldat!

Shunaqa-ku, baribir yozishim kerak. Erta-indin Afg‘oniston-ga «tashlashlari» aniq. Xudo nasib etib, uyga omon eson qayt-sam, esdalik bo‘lib qoladi. Bir narsani aniq bilaman. Daftarni hech kim ko‘rmaydi. Hech kim! Oyim ham, dadamning vaqti yo‘q, akam ham... Shahnoza ham. Umuman, hech kim! Men uni hech kimga ko‘rsatmayman! Nima keragi bor?!

May oyining yigirma uchinchi kuni

Voenkomat degani qassobxonadek gap. Qaysi molni qachon so'yadi, qandoq so'yadi – qassobning ishi. Do'xtirlari ham baayni mol do'xtiri!

Bolalarni trusichan qilib qo'yadi-da, xuddi molning qancha tosh bosishini chamalagandek, tortib ko'radi. Keyin bo'yingni o'lchaydi. Boshingni, belingni, oyog'ingni... Turnaqator turasan.

Bir tomonda do'xtirlar. Bir tomonda yarim yalang'och «prizivnik»lar.

Endi senlar odam emas, hammang bir xilda «prizivnik»san.

Quloqsolib tursang, antiqa savol-javoblarni eshitasan...

– Shikoyating bormi?

– Bor. Boshim og'riydi. Kechalari uxlamay chiqaman, do'xtir!

– Mening boshim yorilib ketay deyapti! Ut! Yaroqli!

– Sen nima deysan?

– Jigarim kasal. Sariq bo'lganman...

– Qachon?

– Uch yil avval.

– Men yaqinda gepatit bo'lib, gospitaldan chiqdim. Yaroqli! Sleduyushiy!

– Bir kasalim bor-u... aytishga uyalib turibman, do'xtir...

– Gapiraver! Bu yer senga xotinlar monastiri emas.

– Shu... kechasi... tagimni ho'llab chiqadigan odatim bor. Bolaligimdan beri shu... Hech tuzalmayapti.

– Zarari yo'q! Men kun ora «kattasini» qilib chiqaman. O't! Yaroqli! Sen-chi! Sen nima deysan?

– Tutqanog'im bor, do'xtir. Rost aytyapman. Ishonmasangiz, gospitalga yotqizib tekshirib ko'ring.

– Shuyam kasal bo'пти-yu! Men kecha jinnixonadan qochib chiqdim. Sleduyushiy!

...Qarab turib ham kulging keladi, ham yig'laging. Bulargayam osonmas. Hamma joyda plan bor. Paxta plani, pilla plani, gazlama plani... Voenkomatniki – odam plani! Bajarish kerakmi axir? Yevropa tomonlarda xotinlar kam tug'adigan bo'lib qolgan. Bundan chiqdi, Vatan himoyachilarining vq so'rmini o'rta Osiyolik bolalar bilan to'ldirish kerak! Plan – qonun degani! Bajarmay ko'rsin-chi?

– Shikoyating bormi?

– Yo‘q!

Do‘xtir qalin gardishli ko‘zoynagi ustidan menga olayib qaradi.

– Hech kasal bo‘lmaganmisan?

– Yo‘q!

– Malades! Sport bilan shug‘ullanasanmi?

– Ha!

– Qaysi turi bilan?

– Karate. Sariq belbog‘im bor.

– Malades. O‘t!

Katalakdek xonaga kirdim. Boyagi «bemorlar» tag‘in so‘roqqa tutildi.

– Hunaring bormi?

– Yo‘q.

– O‘qiysanmi?

– Ha!

– Nechanchi kursdasan?

– Birinchi.

– Sen-chi?

– Ikkinchi.

– Imtihonlaringni topshirganmisan?

– Yo‘q, o‘rtoq kapitan. Bitta qarzim bor.

– Meniki ikkita. Navbat menga keldi.

– Hunaring bormi?

– Sho‘pirman. Kursni bitirganman.

– O‘qiysanmi?

– O‘qiyman.

– Nechanchi kurs?

– Birinchi.

– Imtihonlarni topshirganmisan?

– Topshirganman.

Rangi zahil kapitan hujjatlarim solingan papkaning tepasiga qizil qalam bilan yo‘g‘on qilib «A – 20» deb yozdi.

Indamay turgan edim, tushuntirdi:

– Boraver, bir haftada povuska olasan.

– Ayting-chi, – dedim ko‘nglim g‘ash tortib. – Men qayerga borishim mumkin?

- TurkVO ixtiyoriga.
- Qanaqa qismga? Taxminan qayerga?
- Bilmayman! – Kapitan pashsha qurigandek qo‘lini silkitdi.
- Sleduyushiy!

Yuragim shig‘ etdi. Demak – Afg‘onistonga jo‘natadi. Tashqariga chiqsam, boyagi – mendan oldin navbatga turgan talabalar gurunglashib, sigaret tutatyapti.

– Bir emas, uchta imtihondan qarzim bor, deb qo‘ya qolmading-da, Robert! Bu – saldofonlar bilib o‘tiribdimi!

Indamay nari ketdim. Nuqul o‘zimni so‘kaman. «Ahmoq! Maqtanchoq eshak! Karatega balo bormidi! Haydovchilik guvohnomang borligini aytib nima qilasan? Aqalli bitta zachyotdan qarzim bor, desang-ku, kuzgi chaqiriqqacha tinch qo‘yardi!»

Zahil kapitan «A – 20» deb yozdimi? TurkVO ixtiyoriga o‘tasan, dedimi? Tamom!

Avvallari bolalarni Leningradga borasan, Litvaga yuboramiz, deb laqillatgan-da, shappa bosib, Afg‘onga olib ketgan. Kapitan-ning gapidan ko‘rinib turibdiki, endi aldamay qo‘yishibdi. «Afg‘oniston», demadi-ku, aqling bo‘lsa, tushunib olaver, qabilida gapirdi. «Bir haftada povuska olasan», dedimi? Bundan chiqdi...

Soatga qarasam, to‘rtidan oshibdi. Shahnoza uyiga kelgan bo‘lishi kerak. Metrodan qo‘ng‘iroq qildim. Telefondan odatdagi-dek ingichka, erka ovoz eshitildi.

– Alyo-yo-yo! Kim bu-u-u?

Ovozidan tanidim: Shahnozaning singlisi. Opasini chaqirib berguncha odamni qon qilib yuboradi.

– Iltimos, Shahnozani chaqiring.

– Kim o‘zi bu-u?

Avvallari qizaloqning erkaligiga kulib qo‘ya qolardim. Bu gal g‘ashim keldi. Hali Pskentga ham borib kelishim kerak.

– Chaqir Shahnozani! – dedim zarda bilan.

Baxtinga Shahnoza yaqinroq joyda ekan, shekilli, telefon qu-log‘idan «Ber bu yoqqa, jinni!» degan tovush eshitildi.

– Shahnoza, – dedim iloji boricha vazminlik bilan. – Bir soatdan keyin ko‘rishsak... «O‘zimizning» joyda.

– Tinchlikmi? – Shahnozaning ovozida xavotir bor edi.

– Tinchlik! – dedim kulib. – Judayam ko‘rgim kelyapti sizni.

...Shahnoza atlas ko'ylak kiyib, sochini bejirim turmaklab olibdi. Anhor bo'yida, na'matak tagidagi xarraqda o'tiribmiz. Narigi sohilda kalta ishtoni jiqqa ho'l qora-qura bolalar qiy-chuv solib cho'milyapti. Boshimiz ustida yarim-yorti gulini to'kkan na'matak shoxlari egilib turibdi... Tikanlari hali qotmagan. Yuzingga, bo'yingga urilsa, og'ritmaydi... faqat qitiqlaydi... Erta-indin beozor bu tikanlar nayzadek qayrilib, har bittasi o'qqa aylanishi mumkin... Qiziq, o'q tegsa, qanday ahvolga tusharkin odam?..

– Nima gap? – dedi Shahnoza ko'zimga termulib.

Muncha chiroyli bu ko'zlar! Muncha aqlli! Muncha jozibali bu qayrilma kipriklar! Hozir... Kapalak qanotidek bir-ikki silkinadi-yu... aynan yurakning o'zini so'rab turgan ko'zlardan yosh oqadi...

– Hech gap yo'q... – dedim iljayib. – Shunchaki, sizni sog'indim. Ko'rgim keldi. Yomonmi shu?

Shahnoza anoyi ekan-da! Kaftlari bilan yuzimdan beozor tutib, o'ziga qaratdi.

– Rostini ayting...

– Nimani?

– Rustam aka? – Shahnoza ko'zimga uzoq, sinchkov tikildi. – Yolg'on gapirishni eplolmaysiz. Ayting, nima bo'ldi?

– Chaqirishdi... – dedim xushchaqchaq gapirishga urinib... – Bir haftada ketsak kerak.

Shahnoza kaftini bo'shatdi.

– Qayoqqa? – dedi alamroq o'ychanlik bilan.

Yarq etib qarasam, yelkasini xarrak suyanchig'iga tashlagancha noma'lum nuqtaga, osmonga termilib o'tiribdi. Chehrasi shu qadar xomush, shu qadar ayanchli ediki, qo'rqib ketdim.

– Bilmayman, – dedim rostini aytib. – Bilmayman... Har qalay, chet elga bo'lsa kerak. Germaniyami, Mo'g'ulistonmi...

Shahnoza qilt etmay o'tirar, o'zi yonimda-ku, xayollari uzoq-uzoqlarda kezayotganini his etib turardim.

– Qo'y endi, Shahnoz... – dedim umrimda birinchi bor sensirab. – Ko'rasan, hammasi yaxshi bo'ladi.

Anchadan keyin osoyishta burilib qaradi.

– Aldamang! – dedi ovozi titrab. – Aldamang, Rustam aka! Afg'onistonga yuboradi. – To'satdan o'krab yig'lagancha bo'ynimdan quchoqlab oldi. – O'zingiz xohlagansiz! O'zingiz aytgan-

siz! – dedi chinqirib. – Ahmoqsiz! Ahmoq! Meni O‘ylamadingizmi?

– Jinnimisan? – dedim hansirab. – Rustam aka! Nega unaqa qilasiz, Rustam aka!

Ko‘z yoshi oqib turgan yuzlaridan, yosh ta‘mi anqiyotgan lablaridan o‘parkanman, titrar edim.

Birin-ketin yopirilib kelgan alamli, ayovsiz savollar yuragimni g‘ijimlar, dod deb yuborgim kelardi. «Sen ahmoq, sen galvars, nega qadriga yetmading shunday qizni! Eslab ko‘r! Biron marta, aqalli biron marta aytdingmi? «Seni yaxshi ko‘raman, sensiz menga u dunyo-yu bu dunyo qorong‘i,» dedingmi? Sening nimangni sevadi bu qiz?»

– Shahnoza... – dedim yalinib. – Qo‘y endi, Shahnoz! Xudo ursin! Rost aytyapman. Hali qayoqqa borishimiz ma‘lum emas.

U esa hamon yig‘lar, bo‘ynimdan, yuz-ko‘zimdan, labimdan to‘xtovsiz o‘par edi. Vujudim tarang tortilib ketgan. Xudo haqqi, bunaqa pallada shayton erkak kishini har ko‘yga solishi mumkinligini his etib turardim.

– Shahnoz, – dedim entikib, – Shahnoz... Iltimos. Jon Shahnoz...

– Men sizni kutaman, Rustam aka! Kutaman... – U ilkis quchog‘imdan chiqib yosh to‘la ko‘zlari bilan iltijo qildi: – E, Xudo! Bizga rahming kelsin. Karaming kengligi rost bo‘lsa, shafqat qil bizga!

To‘satdan jimib qoldi-da, menga o‘girildi.

– Agar... – dedi pichirlab. – Agar... sizga bir nima bo‘lsa... – Ko‘z yoshi aralash jilmaydi. Erkalanib yelkamga boshini tashladi. – Men Xudoga ishonaman, – dedi xo‘rsinib. – Ko‘nglim sezib turibdi. Siz sog‘-salomat qaytib kelasiz. – Birpas o‘ylab turdi-da, qo‘shib qo‘ydi: – Rustam aka... Men... kutaman. Keling, bir narsani kelishib olamiz. U yoqdan qaytgan kuningiz mana shu yerda, xuddi shu yerda uchrashamiz. Xo‘p?

May oyining oxirlari

Eng sovuq joy – Oymakon, eng issiq nuqta – Kushka, deyishadi. Bilmadim! Menga qolsa, eng issiq joy – Tajan! Hamma yoq sahro. Qumbarxanlari... Kavushdek jag‘ini osiltirgan ko‘yi so‘lak oqizib yurgan tuyalarni, ro‘parangdan chiqib qolsa, ikki lunjini shishirib odamni qo‘rqitish uchun vishillab qo‘yadigan – «sahro

timsohlari» – echkiemarlarni hisobga qo‘shmasang, tirik jonzod yo‘q hisobi! Shunaqayam Xudo qarg‘agan joy bo‘ladimi? Xayolingda yakkash bir o‘y charx uradi: «Suv!» «Suv!» Qani endi, Toshkentda ko‘cha chetida shovullab oqib turgan jo‘mrakka shundoq labingni bossang-da, to‘yguncha, yorilib ketguncha ichsang! Yoki Pskentdagi soyning ajriqlar qoplab yotgan sohiliga yotib olsang-u, yuz-ko‘zingni suvga botirib, ichaversang... Ichaversang...

Ertalab tomog‘ing qaqrab, ko‘zlaring achishib uyg‘onasan. Suv emas, allaqanday taxir sarg‘ish narsa ichasan. Temur aka tushuntirdi: bu yerning suvini ichib bo‘lmas ekan. Askarlar orasida sariq kasali tarqalganmish. Shuning uchun suvga yantoq qo‘shib qaynatib berarkan. Flyagangdagi suv kun chiqmasdan qizib ketadi. Burama qopqog‘iga bir qultum quyib ichsang-tomog‘ingni achishtirib, battar chanqatadi. Kechqurun yotayotib, tag‘in xayolingda o‘sha gap charx uradi: «Suv! Bir qultum, aqalli bir qultum muzdekkina suv bo‘lsa-chi!»

Iyun oyining boshlari

Tush ko‘rdim. Olma tagidagi so‘rida o‘tirgan emishman. So‘ri ostidan sharqirab suv oqayotganmish. Hovuchlab ichaveribman-ichaveribman. Chanqog‘im hech bosilmasmish. Bir mahal oyim kosa olib chiqibdi. «Voy bolam-ey! Haliyam yosh bolaga o‘xshaysan-a! Kosada icha qolmaysanmi», debdi. Kosani botirsam, suv qumga aylanib qolibdi.

Iyun oyining o‘rtalari

Qumlar orasida «Dushman shaharchasi» bor. Bo‘lajak «dushman ob‘ekti» taxminan shunaqa. Paxsa devorli pastak uylarga «hujum» qilamiz. «Dushman» bizni «o‘qqa tutadi». Biz bostirib boramiz. Hammasi harbiy taktikaga muvofiq qilinadi. Razvedgruppa... Sapyorlar. Zirhli qismlar: T-62 tanklari, BTRlar, keyin piyodalar...

Maktabda o‘qib yurganimda dadamning «Niva»sini haydab, prava olganim yaxshi bo‘lgan ekan. Tankchilikka o‘qityapti. Temur akaning aytishiga qaraganda, «u yoqda», ayniqsa, sapyorlarga qiyin bo‘larmish. Temir qutida o‘ligi kelayotganlarning ko‘pchiligi – sapyorlar emish.

Iyun oyining oxirlari

Zampolit tag'in majlis qildi. Sotsializm dushmanlari Afg'oniston-dagi Savr inqilobini bo'g'ib tashlashga jon-jahdi bilan urinayotganini, o'zining internatsional burchini ado etayotgan sovet jangchilari porloq g'alabalarga erishayotganini aytdi. Afg'oniston biz bilan tarixda birinchi bo'lib do'stlik bitimini tuzgan qar-dosh mamlakat ekanligini, erta-indin biz ham Afg'on tuprog'iga kirib Vatan oldidagi yigitlik burchimizni ado etajagimizni tu-shuntirdi.

Iyun oyining oxirlari

Bir yo'la ikkita xat oldim. Bittasi – akamdan, bittasi – Shahnozdan.

Akam dadamning, oyimning, kelinoyim, jiyanlarimning no-midan qizg'in duoyi salomlar yo'llabdi. «Mabodo u yoqqa olib ketishsa, Mo'g'ulistonga tushdik, deb yozaver, bo'lmasa, oyim-lar Rustam borgan shaharning adresini nega yozmaydi, deb shub-halanadilar», debdi. Akamning gapi jo'yali. Konvertga baribir «poleyvaya pochta» deb yoziladi-ku!

Shahnozaning uzundan-uzoq xatida qayta-qayta takrorlangan bir iltijo bor edi: «O'zingizni asrang! Men sizni kutaman.. Sog'inib-sog'inib kutaman!»

Iyul oyining boshlari

Ekipajimiz to'rt kishi. Men – komandir. Temur aka mexanik haydovchi. Sasha – otuvchi. Xayriddin – o'qlovchi.

Mashq payti tankning ichi do'zaXaek yonib ketadi. Lyukni ochsang, qum to'zoni yopirilib kiradi. To'rt-beshta snaryad otma-singdan tank ichi porox isiga, tutunga to'lib bo'g'ib tashlayot-gandek bo'ladi.

Birov yo'taladi, birov xirillaydi... Faqat Temur aka beparvo.

– Qo'yaver, uka! – deydi nuqul qo'l siltab. – Hali «u yoqda» shunaqangi tutunlarni ko'rasanki...

Temur akaning yoshi hammamizdan katta – baquvvat, chayir yigit. Bir gal yechinganida ko'rsam, ko'kragiga nina bilan o'yib burgutning rasmi solingan ekan. Chap bilagida «Temur» degan ko'kintir yozuv.

– Nima balo, grajdankada rassom bo'lganmisiz? – desam kul-di.

– Har balo bo‘lganman, uka! So‘rama!

Xayriddin – Temur akaning aksi – gavgasi mushtdekkina. Qizlarnikiga o‘xshagan chiroyli ko‘zlari o‘ychan boqadi. Aytishiga qaraganda Forishda turadigan onasidan bo‘lak hech kimi yo‘q ekan. Pedagogika bilim yurtini bitirgan zahoti armiyaga olibdilar. Xayriddin – xudojo‘y bola. Payqashimcha, namoz o‘qigisi keladi-yu, atrofidagilarga kulgi bo‘lishdan istihola qiladi. «Bandasining boshi – olloning toshi, – deydi chollardek salmoqlab. – Xudo xohlasa, yurtimizga omon-eson qaytamiz, jo‘ra... Ko‘nglim sezib turibdi».

«Yog‘ochning bo‘shini qurt yeydi», deganlari rost ekan. Tank ekipajida eng «qora kasb» – o‘qlovchi hisoblanadi. Xayriddin o‘rischani yaxshi bilmagani, yuvoshligi uchun o‘qlovchi bo‘lib qolgan. Biroq o‘z yumushini sidqidildan bajaradi. Ba‘zan mushtdek jasad bilan har biri salkam qirq kiloli snaryadlarni kuchanib tashishini ko‘rib, rahmim keladi. Yordam beray, desam iymanib rad etadi... «Qo‘ying, jo‘ra, siz – komandirsiz...»

Iyul oyining o‘rtalari

Shahnoza ikkalamiz anhor labida, o‘zimizning na‘matak tagida o‘tirgan emishmiz. Suv ichgim kelarmish... «Shahnoza, suv bergin, suv!» – desam, hovuchida suv olib uzatarmish-u, og‘zimga olib kelishi bilan hovuchi orasidan to‘kilib ketarmish... Cho‘chib uyg‘ondim. Tomog‘imda o‘t yonayotganga o‘xshardi.

Avgust oyining oxirlari

Temur aka g‘alati gap aytdi:

– G‘irt ahmoq ekansan, Rustam! Masalan, men ertaga o‘lib ketsam, achinadigan odamim yo‘q. Yetimxonada o‘sganman. Men-ku, mayli! Afg‘onistonda pishirib qo‘yibdimi senga! Ana! Qancha soldatlarning otalari o‘rtaga tushib, bolasini boshqa qismga o‘tkazyapti. Biri «kasal» bo‘lyapti, biri boshqa bahona topyapti... Otang rais bo‘lsa, deputat bo‘lsa, yo‘lini qilolmaydimi? Ofitserda nafs yo‘q deb o‘ylaysanmi?

O‘ylab qarasam, Temur aka rost aytyapti. Qancha bolalar boshqa qismga o‘tib ketdi... Shunaqa-ku, Afg‘onistonga borishimiz mumkinligini faqat akamga aytganman. Basharti bu gapni akamdan eshitgan taqdirda ham dadam bu ishga bosh qo‘shmaydi. Odatini bilaman-ku!

Sentyabr oyining o'rtalari

Xayriddin qiziq gap aytdi:

- Erta-indin «u yoqqa» ketamiz.
- Qayoqdan bilasiz? – desam, ma'yus kulimsiradi.
- Tush ko'rdim, jo'ra... Ketyapman emishman, yo'lning oxiri ko'rinmasmish.

29 sentyabr

«IL-76» samolyoti bunchalik katta bo'lishini bilmagan ekanman. Qanor qopga turshak bosgandek tiqdilar. Birov tik turibdi, birov to'rvasining ustida o'tiribdi. Samolyotning temir «qornida» cho'kkalab o'tirgan Xayriddin bir nimalarni pichirlayapti. Ovozi eshitilmaydi-yu, labi qimirlayotganini ko'rib turibman. Motorning guvullashi quloqni qomatga keltiradi.

Negadir hamma yoq sovib ketdi. Yuragimning tub-tubida qo'r-quv paydo bo'ldi. «Xudo, o'zing panohingda asra!» dedim unsiz iltijo qilib. Bir mahal allakim yelkamga turtgandek bo'ldi. Temur aka! Yonimda turgan ekan. E'tibor bermabman. Kulib nimadir degan edi, eshitmadim. Qulog'imga egilib baqirdi:

– Qo'rqma! Bir boshga bir o'lim!

Anchadan keyin samolyot pasaya boshladi. Quloqlarim shang'illab ketdi. O'sha zahoti dum tomonda g'alati shuvullagan ovoz eshitildi. Samolyot ortidan muttasil mushak otilib chiqa boshladi. Qutimiz o'chib, hammamiz alang-jalang bo'lib qoldik. Xayriyat, samolyot hamon uchib borar edi. Keyin tushundik: qo'nish oldidan uchuvchilar samolyotdan raketa chiqarar ekan. Maqsad – dushman «Stinger»ini chalg'itish: «Stinger» uchib bora turib «issiq ob'ekt» tomonga burilarkan. Agar samolyotdan raketa otilsa, «Stinger» motorga emas, o'sha raketalariga borib urilarkan. Xudoga shukr, omon-eson qo'ndik.

Yerga qadam bosishim bilan Xayriddin ogohlantirdi:

– «Bismillo» deng, jo'ra! Bu tuproqda ajdodlarimiz yotibdi.

Aytganini ixlos bilan ado etdim.

Bunaqangi qattiq shamolni endi ko'rishim. Qo'yib bersang, dumalatib ketadi. Hamma yoq chang-to'zon. Aerodromda samolyotlar, vertolyotlar qatorlashib ketgan. Xuddi pana-panada dushmanlar yashirinib olgandek, avtomatini aynan menga o'qtalib turgandek, boshimni ichimga tortdim. Qarasam, boshqa bolalar ham bilagi bilan shamoldan ko'zini to'sganicha olazarak alanglab

boryapti.

«Ural» mashinalariga o'tqazishdi. Karvon tizilib yo'lga tushdi. Ipdek cho'zilib ketgan ilang-bilang yo'l goh yuqoriga o'rmaylaydi, goh pastga sho'ng'iydi. Hamon shamol guvullaydi. Bir tomon yalang'och tog'lar, bir tomon – cho'l.

– Qarang jo'ra, qarang.

Yonimda o'tirgan Xayriddin yelkamga turti.

Urushning izi qanaqa bo'lishini birinchi bor ko'rdim. Shundoq yo'l chetida majaqlangan «Kamaz»lar, portlab, yonib ketgan benzavoz qoldig'i, tank zanjiri, dabdalasi chiqqan, yonboshlab qolgan BTRlar yotibdi. Hov pastda, jarlik orasida vertolyot bo'laklari ko'zga tashlanadi. Parraklari g'ayritabiyy qiyshayib ketgan...

Qismimiz Farax shahriga yaqin joyda ekan. Manzara deyarli o'sha-o'sha. Bir tomon – qizg'ish qoyali tog'lar, bir tomon qumli sahro. Pastda loyqalanib oqayotgan ilonizi soy ko'rinadi...

Kechasi o'q tovushidan uyg'onib ketdim. Pastda, chamasi, soy tomonda vaqti-vaqti bilan avtomat tarillab qo'yar edi. Sovuq... Uxlashga qo'rqdim.

Oktyabr oyining boshlari

Kazarmalarimiz g'alati: devori fanerdan yasalgan. Ikki qavat faner orasiga qummi, nima balo solingan. Ellik qadamcha narida ofitserlar uchun qurilgan modul. Bu bino ham kazarmadan farq qilmaydi... Askar bolalarga razm solib, bir narsani angladim. Hammasining rangi za'faron. Hammasi badqovoq... Qismda bemalol, yasan-tusan qilib yurgan ayollarni ko'rib, ko'nglimda tas-kin uyg'ongandek bo'ldi. Bundan chiqdi, dushmanning hujum qilish xatari yo'q.

Oktyabr oyining o'ninchi kuni

Temur aka «Oxotnichiy» sigaret chekib o'tiribdi. Bir o'zi emas. Uch kishi. Bular biz bilan kelgan «chijik»larmi, avvaldan xizmat qilayotgan «qariya»larmi, ajratolmadim: hammamiz aralash-quralash bo'lib ketganmiz. Uchov bir sigaretni galma-gal chekyapti.

– Tortasanmi? – dedi Temur aka negadir iljayib.

– Men sigaret chekkan emasman, – degan edim, yana kuldi.

– Sigaret emas bu, chars!

Ertasi kuni

Dunyoda eng qudratli, eng yengilmas, eng inoq... shonli Armiya haqida televizorda haftada bir ko'rsatuv bo'lishini bilasiz. Menga qolsa, o'sha tomoshada «dedovshina» qanaqa bo'lishini ko'rsatgan bo'lardim. Yangi kelgan «churik»larni xo'rlashni, millatchilik qilib do'pposlashlarni... Men-ku, o'zimni himoya qilish qo'limdan keladi. «Qariyalar» Xayriddinni xo'rlay boshlashdi. Goh xalajoy tozalatadi. Goh «bichok» terishga majbur qiladi. Temur aka birinchi kunlardan oq «qariyalar» bilan til topishib olgani yaxshi bo'lgan ekan. Kechqurun Xayriddinga zurg'um qilayotganlardan ikkitasini chaqirib oldi-da, «tushuntirdi»:

– Eshitib qo'y, zemlyak! Men «blatnoy»lardanman. Birinchi jangdayoq otib tashlayman! Ikkalangniyam!

Oktyabr oyining yigirmanchi kuni

Olisda yurgan odamga yurtidan kelgan har bir xat – bitta bayram! Shahnozadan xat oldim. Suratingizni yuboring, sog'indim, debdi.

Ertasi kuni

– Haliyam bo'lsa, chars tortishni o'rgan! – dedi Temur aka. – Ajoyib narsa-da, la'nati!

– Qo'ying, aka, – dedi Xayriddin yalinib. – O'rgatmang shunga.

Chars degani – nasha ekan. Qism atrofida o'ralashgan juldurvoqi afg'on bolalar chars olib kelib, alyumin qoshiqqami, kerosin yoki dudama mushakkami alishib ketarkan.

Ekipajimiz deyarli o'zgarmadi. Xayriddin – o'qlovchi, Sasha – otuvchi... faqat Temur aka rezvedkachilar bataloniga tushib qoldi.

Kombatga iltimos qildim.

– O'rtoq kapitan, ekipajimizda mexanik haydovchi Jo'raev Temur bor edi, – deb gap boshlagan edim, ofitser jerkib berdi:

– Bas qilinsin!

– Parvo qilma! – dedi Temur aka yupatib. – Menga baribir. Keyin o'ylasam, kapitan to'g'ri qilgan ekan. Ekipajimizda jang ko'rgan biron kishi bo'lishi kerak-ku, axir!

Oktyabr oyining oxiri

Bugun ilk bor o'lim sharpasini sezdim. Postga kelganimizga bir hafta bo'ldi. Tankimizni katta yo'l muyulishidagi okopga joylashtirib olganmiz. Atrofimizda qoyalar so'ppayib turibdi. Nariroqda snaryadlar ombori. Yuz yigirma snaryad taxlab qo'yilgan. Tankning o'zida qirqta snaryad. Gardez tomon ketayotgan «ip»ni qo'riqlashimiz, xavfli muyulishdan omon-eson

o'tkazib yuborishimiz kerak. Vazifamiz – ro'paradagi qoyalar orasidan snaryad otilib qolsa, ob'ekt koordinatlarini aniqlab, o't ochish.

Tank lyukidan boshimni chiqarib qarab turibman. Yomg'ir yog'yapti. Olisda, ilang-bilang yo'lda «ip» ko'rindi (karvonni «ip» deyishadi). Birpasdan keyin ro'paradagi tog'dan gumburlagan tovush eshitildi. G'ira-shira ko'rinayotgan qoya ortida tutun burqsidi. Osmonda g'alati tovush eshitildi: mashina suvdan o'tayotganida, g'ildirak qanday voshullasa, o'shanga o'xshagan ovoz. Raketa snaryadi karvon yaqiniga tushib portladi. Chamanda, karvonga shikast yetkazmadi.

Lyukni yopishim bilan shlemofondan komandirning buyrug'i eshitildi:

– Razmax yetmish olti! Koordinat, – dedi tushuntirib. – Ish boshla! Beshta snaryad.

Bu beshta snaryad ot, degan ma'noni bildirardi.

– Beshta snaryaddan o't och! – dedim baqirib.

Tank silkinib, hamma yoqni porox hidi tutib ketdi. Trimpliksdan qarab turibman. Boyagi joyda tag'in tutun burqsidi. Atrofimizda ketma-ket snaryadlar portlab, qoyatoshlar ag'darila boshladi. Tank zirhiga oskolkalarmi, toshlarmi charsillab urilayotganini his etib turardim. Ular xuddi boshimga yog'ilayotganga o'xshar, terlab ketgandim.

– Yana beshta snaryaddan o't och!

«U yoq» tomonda ham toshlar o'pirilyapti. Snaryad tushgan joyda tutun aralash olov osmonga sapchiyapti. «Karvon» shiddat bilan guvullagan ko'yi muyulishdan o'tib, pastga sho'ng'iyotganini trimpliksdan ko'rib turibman. Shu yerdan o'tib olsa, bas, tog' panasiga yashirinib xatarsiz joyga chiqadi.

Mexanik Viktorning hayajonli xitobi eshitildi:

– Komandir! Omborga raketa tushdi!

Lyukni ochish niyatida qo'l cho'zgan edim, Viktor so'kib berdi:

– Esing joyidami, komandir! Snayper Bur bilan poylab turgan bo'lsa, peshonangdan darcha ochib qo'yadi.

Yonbosh tomonda gumburlagan portlash eshitildi. Tank titrab ketdi. Shu zahoti xayolimdan vahimali o'y lip etib o'tdi. «Tamom! Omborda bir yuz yigirmata snaryad bor. Hozir portlaydida, tankni ham, to'rttalamizni ham mayda-mayda qilib tashlaydi». Beixtiyor kombinezon kissasidagi avtomat gilzasini paypaslab qo'ydim. Hamma bajarishi shart bo'lgan qoida bor: o'q o'tmas nimcha kiyish. Ismi sharifi, shaxsiy Qurolining raqami yozilgan qog'ozni gilzaga tiqib, biron joyiga yashirib qo'yish. Mabodo parchalanib ketsang yo kuyib kulga aylansang ham gilza baribir yonmaydi. Otingni bilib, uyingga jasadingni yuborishadi. Bu gaplar xayolimdan bir soniyada kechdi.

Gumburlash tag'in takrorlandi. Shlemofon ratsiyasidan vzvod komandirining tovushi eshitildi:

– Razmax! Tirikmisan?

– Tirikman, o'rtoq komandir!

– Nega ishlamayapsan? Buyruqni beixtiyor takrorladim:

– Yana beshta snaryaddan o't och!.. O'rtoq komandir, omborga raketa tushdi. Snaryadlar portlayapti.

– Qo'rqma! – dedi komandir tasalli berib. – Hammasi birdan portlamaydi. Oxirgi snaryad yorilguncha kutasan. Tankdan chiqish taqiqlanadi.

Karvon o'tib bo'lgan, dushman ham o't ochishdan to'xtagan, ammo biz yonboshimizda portlayotgan snaryadlarning gumburlashi, tankning titrab-qaqshashini kutib o'tirishga majbur edik. Tank ichi porox hidiga to'lib, qizib ketgan, Xayriddin bo'g'ilib yo'talar edi. Snaryadlar esa shoshilmay, bitta-bitta portlashda davom etardi.

– Qancha qoldiykin, Viktor? – dedim ichki aloqada.

– Kim biladi deysan? – Viktor chars chekdi, shekilli, dimog'imga o'tkir hid urildi.

Shlemofonda komandirning ovozi eshitildi:

– Shoshma, Razmax yetmish olti! Kutib tur...

... Yarim kuncha kutdik. So'nggi snaryad portlab bo'lganidan keyin ham yigirma daqiqalar poylab turdik.

Komandirning buyrug‘i bilan lyukni ochmoqchi edim, kuchim yetmadi. Yelkamni titrab ko‘tarsam, qandaydir og‘ir yuk nari surilgandek bo‘ldi. Lyuk qopqog‘ini xarsang bosib qolgan ekan. Yuzimga muzdek havo, yomg‘ir urildi. Qarasam, snaryad omborining o‘rni hovuzga aylanib qolibdi. Zambarakning mis gilzalari betartib sochilib, tutab yotibdi. Tankimiz toshlar uyumi orasiga ko‘milib ketibdi.

Noyabr oyining boshi

Xosiyatsiz tush ko‘rdim. Otam hovlidagi so‘rida yotganmish. Tagida ko‘rpacha ham yo‘q, quruq taxta ustida yotibdi. Dada, ko‘rpacha solib beray, desam, indamaydi. Nuqul yig‘laydi. Dadamning yig‘lashini hech ko‘rgan emasdim. Qo‘rqib ketibman. Yoniga yugurib borsam, dadam g‘oyib bo‘lib qopti.

Yarim kun xomush bo‘lib yurdim. Oxiri Xayriddinga dardimni yordim.

– Qiziqmisiz, jo‘ra! – dedi Xayriddin kulimsirab. – Ko‘z yoshi yorug‘lik bo‘ladi. Niyatni yaxshi qiling, jo‘ra! Yaxshi niyatgayam, yomon niyatgayam farishta omin deydi.

– Aytganingiz kelsin, – dedim yelkasidan quchib. Ajoyib yigit-da Xayriddin! Ko‘zlari shunaqa samimiyki, ichida g‘ubor yo‘qligi shundoq ko‘rinib turadi. Tank o‘qlash emas, boshlang‘ich sinf bolalarini o‘qitish yarashadi Xayriddinga!

Noyabr oyining o‘rtalari

«Gubba»ga tushishimga bir bahya qoldi. Xudo yarlaqab qismga kelgan edim. Onda-sonda postdan qismga kelib-ketishga ruxsat bo‘ladi (o‘shanda ham «karvon»ga qo‘shilishga ijozat tegsa). Postdagilarga pochta, sigaret, lezvie, sovun degandek mayda-chuydalarni olib kelish sening zimmangga tushadi. Menga xat yo‘q ekan. Ruhim tushdi. Shahnozadan-ku, haftada xat kelib turibdi. Qiziq, uydagilar nega yozmaydi? Tinchlikmikan? Garang-sib, magazinga kirdim. Magazin tushgacha ofitserlarga, peshindan keyin soldatlarga xizmat qiladi. Insof bilan aytganda, do‘konda odamning jonidan bo‘lak hamma narsa bor: Yugoslaviya sigaretidan tortib, yapon magnitofonlarigacha, yaltiroq «sim» ro‘moldan tortib, shoda-shoda durlargacha...

Soldatlar o‘ziga tekkan maosh – «chek»larga nima xarid qilardi? Sigaret, zajigalka... Xayriddin quyultirilgan sut so‘ragan

edi (nima qilsin, cho'chqa konservasi yemaydi, nuqul sutga ruju qo'ygan). Sasha bilan Viktor sigaret so'rashgan... Do'kon eshigidan kirishim bilan labini bearmon bo'yagan, sovuq bo'lsa ham ko'ksini yarim yalang'och ochib, bo'ynidagi shoda-shoda durni namoyishkorona yaltiratib turgan sotuvchi bobillab berdi:

– Magazin yopiq, chiq!

– Hozir ochildi-ku, – degan edim, negadir jahli chiqib ketdi.

– Pereuchyot deb yozib qo'yibdi-ku, galvars! – dedi baqirib.

– Rus tilini bilasanmi o'zi? – Generallardek qaddini g'oz tutib buyurdi. – Krugom marsh!

– Ey, baba! – dedim g'azabdan titrab. – Sen kim bo'psanki, menga buyruq berasan!

Kimdir bilagimdan tutdi.

– Yur, tankist, yur!

Jahl bilan burilib qarasam, yonimda bushlat kiygan tankchi yigit turibdi. O'ris yigit. Tanimadim-ku, har qalay, o'zimizning batalondan bo'lishi kerak.

– Yur, zemlyak, yur, – deb tashqari sudradi.

Besh-o'n qadam yurishimiz bilan ro'paradan kelayotgan mayorga ko'zim tushdi. O'lganimning kunidan chest berdim. Shiltillatib qor bosgan nari ketdik.

– Esing joyidami, zemlyak! – dedi tankchi ovozi pasaytirib.

– Olisha. ko'rma bu xotinlar bilan. Eriga bir og'iz, «haqorat qildi», deb shipshib qo'ysa, naq tribunalgacha tushasan, tentak!

– Kimning xotini u? – dedim hamon g'ijinib.

– Qayoqdan bilay! – tankchi yelkasini qisdi. – Bironta kattaroq ofitserning «prokat»ga olgan xotini-da! Bu yerda hamma kattalarning «vaqtincha» xotini bor: sotuvchi, kir yuvuvchi, sanitar-ka... Notanish hamkasbim g'alati iljayib Qo'ydi.

– To'g'ri-da! O'lsinmi, bular ham. – U yelkamga do'stona qoqdi. – Sen jangga kirib, o'lmay chiqsang, Vatan nomidan rahmat eshitasan, katta ofitserning «prokat»ga olgan xotini bo'lsa, Vatan oldidagi «xizmatlari» uchun orden oladi! Bildingmi!

Nimanidir anglagandek bo'ldim.

Yangi kelgan kunlarim kechalari ofitserlar moduli tomonidan qulog'imga bot-bot kirib turgan garmon tovushi, xotinlarning qiyqirig'i, kulgisi esimga tushdi.

– Eh, tankist, tankist! – dedi hamkasbim alamnok iljayib. –

Sodda ekansan. Soldat uyiga tirik qaytsa, diplomatiga bir pachka saqich solib ketadi. O‘shandayam tamojnyada olib qo‘ymasa! Ofitser ta‘tilga borsa, chamadonlarini samolyotga chiqarguncha terlab ketasan. Qayoqdan oladi shuncha narsani? – Notanish tankchi ovozini yanayam pasaytirdi: – Afg‘ondan! Tushundingmi? Afg‘ondan.

Angrayib qolganimni ko‘rib, tag‘in yelkamga qoqdi:

– Urush o‘z yo‘liga, hayot o‘z yo‘liga! Bizda nima ko‘p: diztopliva, kerosin, Kamaz g‘ildiraklari, alyumin qoshiqlar... Afg‘onda nima ko‘p: radiotexnika, yapon soatlari, narkotik, latta-putta... Qarabsanki, savdo avjida. Vositachilar ham topiladi, tarjimonlar ham. Bir aytdim-qo‘ydim, tankist! Ofitserni sen desang ham, «prokat»ga olgan xotinini siz degin!

O‘sha kecha

G‘alati tush ko‘rdim. To‘yimiz bo‘layotganmish. Yonimda Shahnoza o‘tirganmish. Egnida atlas ko‘ylak, bo‘ynida shoda-shoda dur. Negadir labini qizil bo‘yoqqa quyuq chaplab olganmish. To‘yga nuqul soldatlar, ofitserlar kelganmish. Tag‘in hammasi begona odamlar. Muttasil garmon g‘iyqillarmish. Shahnozani bag‘ringa tortsam, qarshilik qilmasmish... Negadir yomg‘ir yog‘ayotgan emish. Qarasam, yonimda hech kim yo‘qmish. Bir o‘zim qolibman. Yolg‘iz o‘zim. Vujudim titrab uyg‘ondim. Sovuq edi. Anchagacha qayerdaligimni bilmay karaxt bo‘lib yotdim. Oxiri, postdagi «uychamiz»ni tanidim. Pechka o‘chib qopti. Sasha, Viktor, Xayriddin uyquni uryapti...

Noyabrning oxiri

Bugun men uchun bayram bo‘ldi. Bir yo‘la uchta xat oldim. Akam uy ichilar tinchligini, dadamdan aslo xavotir olmasligimni tayinlabdi. Shahnoza bo‘lsa, g‘alati gap aytibdi: «Suratingiz juda chiroyli chiqibdi... Pskentda Dilyaning xolasi bor ekan. Yangi yil arafasida borib kelamiz, deb qo‘ymayapti. Maylimi borsam?»

Uchinchi xat ustiga «Jalilov Tursunboydan» deb yozilgan ekan. Hayron bo‘ldim. Qaysi Tursunboy bo‘ldi bu? E-ha! Mendan uch yil oldin maktabni bitirgan Tursunboy aka-ku! Aytmoqchi, u ham Afg‘onistonda edi, shekilli? Bundan chiqdi, sog‘-salomat qaytibdi-da. Xayriyat!

Tursunboy akaning xati og‘ir taassurot qoldirdi.

«Jon ukam, sening oldingda gunohkorman, – deb yozibdi u. – «U yoqda» xizmat qilayotganingni akangdan eshitgan edim. Xolamlardan xabar olay deb kiribman-da, ko'ngillarini ko'taraman, deb qovun tushiribman. «Xola, xafa bo'lmang, hozir Afg'oniston tinchib qoldi, mana, o'zim ham xizmat qilib keldim-ku, hech ko'nglingizni buzmay, erta-indin Rustamjon ham kelib qoladi», debman. Uyga kelsam, onam qattiq koyidilar. Esing bormi, ahmoq, xolang Rustamjonim Mo'g'ulistonda xizmat qilyapti, deb yuribdilar-ku, dedilar. Qaytib chiqdim. Bir narsa hech xayolimdan ketmayapti, jon uka... Hamon o'zimni gunohkor sezaman... Chiqsam, xolam darvoza oldida turibdilar. Oftob botayotgan edi. Xolam qiblaga qarab uzoq iltijo qildilar... Rosti, oldilariga borishga yuzim chidamadi. Rustam! Ukajon! Xolamlarga ko'proq xat yoz. O'zimning boshimdan o'tgan, bilaman-ku! Men uyingdakilardan tez-tez xabar olib turaman... Yana bir gap, uka! Xudo xohlasa, eson-omon qaytib kelsang, to'yingda kuyovjo'ra bo'lmagan nomard!»

Dekabr oyining boshi

Dadam yana tushimga kirdi. Tog'li yo'ldan «Niva» haydab borayotgan emishman. Bir qaragam, o'zimizning Toshkent – Qo'qon yo'liga o'xshaydi, bir qaragam, Afg'onistonga... Dadam yasan-tusan qilib olganmish. Boshida yangi do'ppi... Egnida qora kostyum. Faqat oyog'ida doim kiyib yuradigan, oqarib ketgan jigarrang etigi. Gaplashdikmi, yo'qmi, eslolmayman. Bir mahal osmonda vishillagan ovoz eshitildi. «Dada! Snaryad! Snaryad!» – debman baqirib. Shundoq mashina yonida snaryad portlabdi. Dadam mashina eshigidan otilib ketibdi. Qaragam, toshlar orasida yiqilib yotibdi. «Ketaver, o'g'lim, ketaver», – dermish qo'l siltab. «U yoqda duxlar bor, dada», desam, nuqul qo'l silkitarmish. «Ket, bolam, sen ketaver!» dermish.

Cho'chib uyg'onib ketdim... Akamga xat yozdim: «Dadam nega yozmaydilar? Nima bo'ldi? O'z qo'llari bilan xat yozsinlar!»

Dekabr oyining o'rtalari

Qalin qor yoqqan. Sovuq... Bu yerning tabiati ham, odatlari ham g'alati. Qishi o'lgudek sovuq. Yozi o'lgudek issiq. Boshqa jihatlari ham bor. Masalan: afg'on qishda ko'p hujum qilmaydi. Lekin yo'ldan ularning mashinasi o'tmay qolsa, hushyor bo'lish

kerak: mina qo‘ygan. Mabodo «ular» ikki-uch kun katta yo‘ldan yurmasa, demak, otishma bo‘ladi...

Odatdagi kunlardan biri edi. Kecha qor yoqqan, bugun esa chinnidek tiniq osmonda oftob charaqlab turibdi. Tushga yaqin post ro‘parasida ikkita BMP to‘xtadi. «Shindonga ketyapti», deb o‘yladim tank yonida turganicha. Shu payt BMPdan bushlat kiygan gavdali odam sakrab tushdi. Men tomonga uzoq qarab turdida, qichqirdi:

– Rustammisan? – Ovozidan tanidim.

– Temur aka! «Uycha»mizga otilib kirdim.

– Xayriddin! Temur aka keldi!

Qor bosgan so‘qmoqdan sirg‘ana-sirg‘ana pastga, katta yo‘lga yugurdik. Temur aka bilan quchoqlashib ko‘risharkanman, dimog‘imga chars hidi urildi.

– Bormisiz? – desam, Temur aka bosh barmog‘ini dikkaytirdi.

– Chiki-piki! Razvedkachilar bilan uncha-muncha ofitserlarning ham o‘ylashib gaplashadi. O‘zing qalaysan?

O‘sha zahoti yugurib kelgan Xayriddinni dast ko‘tardi-da, chirpirak qilib aylantirdi.

– Sen bola, o‘zingni asra! – dedi yasama po‘pisa qilib.

Shunda... Temur akaning rangi bir holatga kelib qolganini, ko‘zlarining tagi ko‘karib ketganini payqadim.

– Hamma joy-joyiga! – degan asabiy buyruq yangradi. Temur aka yana menga quchog‘ini ochdi.

– Rustam, – dedi shoshqin pichirlab. – Shu bolani ehtiyot qil! Bilasan-a, imonli yigit!

– Hamma joy-joyiga!

Temur aka o‘rnidan jila boshlagan BMPga tirmashar ekan, hayqirdi:

– Xayriddin, – dedi kulib. – Esingdan chiqmasin, ukam... Mabodo menga biron gap bo‘lsa, bir kalima Qur‘on...

Yuragim shuv etdi. BMPlar qorni to‘zg‘itganicha shiddat bilan uzoqlashdi. Qarasam, Xayriddinning ko‘zlari jiqqa yosh...

Dekabr oyining o‘ttiz birinchi kuni

Post komandiri qismga borib kelishni buyurdi. «Tochka»ga xat-xabarlar, yangi yil dasturxoniga o‘zimizga yarasha noz-ne‘matlar olib kelish kerak ekan. Shindon tomon ketayotgan kolonadagi BMPga chiqib oldim. Postlarning orasi yigirma-yigirma

bash chaqirim. Qor uchqunlab turar, sovuq edi. Qancha yurganimizni bilmayman. Bir mahal karvon to'xtab qoldi. Men o'tirgan BMP karvonning oldirog'ida edi. Nima gap bo'lganini bilolmay mashinadan tushdim. O'sha tomon yurgan edim, karvonning eng boshidagi tankdan ellik qadamcha oldinda turgan BTRni ko'rdim. Hayron bo'lib, yaqin bordim. BTR tomondan kimdir zarda bilan baqirdi:

– ...eb g'o'dayib turibsanmi, yot!

BTR orqasida qorga dum tushib yotgan kapitanga ko'zim tushdi.

– Yot, ahmoq! – dedi kapitan o'dag'aylab.

Beixtiyor o'zimni panaga olib, qorga uzala tushib yotdim.

Shundagina yo'l ustida g'imirlayotgan uch nafar soldat, ularning atrofida g'ingshib aylanayotgan ovcharka itga e'tibor berdim. Xayolimga o'qdek xatarli fikr keldi. «Mina bor ekan!» Shuncha paytdan beri yo'llar tinch edi. Bundan chiqdi, «dux»lar shoraviylarga «bayram sovg'asi» qilishni yaxshi ko'radi, deganlari to'g'ri ekan.

Sapyorlar shoshilmay harakat qilar, ko'rinishidan osoyishta edi. Ikkitasi cho'nqayib o'tiribdi. Bittasi – shuf ushlagani tik turibdi. Hammasining rangi o'chib ketganini, cho'nqayib o'tirganlar dam-badam peshonasidan oqayotgan terni bilagi bilan sidirib tashlayotganini keyin payqadim.

– O'rtoq kapitan, – dedi cho'nqayib o'tirganlardan biri minadan ko'z uzmay. – «Italyanka!» – Zararsizlantir! – BTR panasida yotgan kapitan bo'ynini ichiga tortib buyurdi: – Zararsizlantir!

Sapyorlar ancha urindi. Atrof sokin, qor uchqunlari yuzimga urilayotganini aniq eshitib turgandek edim. Nihoyat, sapyor engashgan ko'yi dadamning «Niva»sidagi havo filtriga o'xshagan, yapasqi kastyulkadek narsani chuqurdan tortib ola boshladi.

To'satgan gumburlagan ovoz yer-u ko'kni larzaga soldi. Tik turgan sapyor bilan it bir tomonga, engashib o'tirganlar boshqa tomonga uchib ketdi.

Jonholatda yugurib bordim. Allanimaga qoqilib ketdim. Qarasam, qor ustida qo'l yotibdi... Qo'l bilakdan cho'rt uzilib ketgan, qon oqayotgan go'sht orasidan oppoq suyak turtib chiqib turar, barmoqlar esa nuqul qorni changallab g'imirlar edi. Dahshat ichida o'zimni orqaga tashladim. Oyog'im ostida odam boshi du-

malab yotardi. Ko'zlari ola-kula, tilini g'archcha... shlab olgan... Bir qarichcha sarg'imtir kekirtak hamon nafas olayotgandek qorda bilanglaydi... Qandaydir yovuz, beshafqat qo'l sho'rlik kallani kekirtagi bilan uzib olgan-u uloqtirib yuborgandek. Chuchmal qon isi dimog'imni yorib yuborgudek bo'ldi.

Ko'z o'ngim qorong'ilashib, cho'kkalab qoldim. Ko'nglim ag'darilar, lekin qusa olmasdim.

Yanvar oyi

Bir hafta uxlolmadim. Ko'zimni yumdim deguncha qorda dumalab yotgan kalla, bilanglayotgan sarg'imtir kekirtakni ko'raman... Xayolimga mudhish o'y keladi. Sen ham o'sha bolaning holiga tushishing mumkin.

Fevral oyining o'rtalari

Nihoyat, dadamdan xat keldi. Akam otamning xatini o'zinikiga qo'shib jo'natibdi.

«Rustamjon! O'g'lim! – debdi dadam. – Sog'-salomatmisan? Nega mendan xavotir olasan, bolam! Xudoga ming qatla shukr, men yaxshiman. Bilasan-ku, ish ko'p. Godoyuy atcho't payti... U yoqlarga ketganing uchun men ham aybdorman. Olib qolishim kerak edi. O'sha paytda qo'limdan kelardi... Mayli, qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi. Bilaman, Rustamjon! Sen – azamat yigitsan... Onangni kuydirma. Tez-tez xat yozgin. Onang sho'rlik bu dunyoga kelib, nima ro'shnolik ko'rdi!..»

Fevral oyining o'rtalari

Postda BTR to'xtadi. Bir guruh yigitlar postdagi «uycha»mizga qora chopon kiygan, salla o'ragan echkisoqol «dux»ni sudrab kirishdi. Post boshlig'i bir yoqqa ketganmidi, ataylab g'oyib bo'ldimi, bilmayman. «Dux»ni suyanchiqli kursiga o'tqazib oyoq-qo'lini chandib bog'lashdi. Allaqayerdan sim topib, bir uchini akkumulyatorga ulashdi-da, bir uchini «dux»ning og'ziga tiqishdi. Afg'on a'zoyi badani qaltirab, o'kirib yubordi. Boshidan salasi uchib ketdi... «Dux» qancha o'kirsa, yigitlar shuncha zavqlanib xaxolar edi. Afg'on hushiga kelganida nuqul bir gapni qaytarardi: «Man – do'st! Man – do'st!»

– Do'st bo'lsang, avtomatni qayoqqa olib ketayotganding? Nega qochding? – Yigitlar shunday deb, simni yana og'ziga tiqadi. «Dux» ko'zi kosasidan chiqib dod soladi.

Xayriddin bunaqa tomoshaga toqat qilolmadi, shekilli, yugurib tashqari chiqib ketdi. Bilaman, Xayriddin pushtunchani ozmi-ko'pmi tushunadi. Ketidan chiqsam, rangi o'chib ketgan, yuziga qor ishqalayapti.

– Nima gap? – degan edim, tushuntirdi.

– Yigitlar tuyada qurol olib ketayotgan «dux»ni qo'lga tushiribdi. – Xayriddin yuzini burdi. – Odam bolasini shunchalik qiy-nash shartmi, jo'ra!

Bir mahal «uycha»dan Sasha chiqib keldi.

– Parvo qilma, komandir! – dedi yelkamga kaftini bosib. – Akkumulyator toki odamni o'ldirmaydi. Birpas «tantsa» tushirishadi-da, «dux»ni sarandoylarga topshirib yuborishadi...

Fevral oyining oxiri

Kechasi bilan tishim og'rib chiqdi. Jag' tishim... Xuddi birov miyamni erinmasdan parmalayotganga o'xshaydi. Shunaqangi azob berdiki, dumalab bo'kirgim kelardi. Xayriddin ham mijja qoqmadi. Goh sochiqni pechka dudburonida isitib, lunjimga bosadi, goh iliq suv ichirib qo'yadi. Viktor tumshug'imga chars tiqishtiradi... «Bitta tortgin, o'tib ketadi», Deydi. «Yo'qot!» deyman...

Ertalab turib siniq ko'zguga qarasam, chap lunjim oqib tushgan nonga o'xshab qopti. Post boshlig'i hazillashdi:

– Ziyoni yo'q, serjant. To'ying bo'lguncha tuzalib ketadi. – «Tuzalib ketarmish! O'zingniki shunaqa og'risin, lunjimdan yaralandim, deb medalga yozdirarsan!»

«Dard ketidan quvonch keladi», deganlari rost ekan. Uydan xat oldim. Ilhom akam oyimning gaplarini so'zma-so'z yozib yuboribdi:

«Rustamjon, jon bolam. Mo'g'ulistonda sovuq qattiq bo'ladi, deyishadi. Qiynalayotganing yo'qmi? (Oyim malades-da! Qayerda yurganimni mendan yaxshi biladi-ku, har xatimni «Qardosh Mo'g'ulistondan salom» deb boshlaganim uchun meni yolg'onchi qilgisi kelmaydi.) Xudodan sog'lig'ingni tilab o'tiribman. Qayerda bo'lsang ham joning omon bo'lsin... Yangi yil arafasi uyimizga mehmonlar keldi: uchta qiz... Bir-biridan chiroyli, bir-biridan odobli. Ayniqsa, bittasi boshqacha ekan. Oti – Shahnoza. Menga nima dedi degin? «Oyijon, – dedi. – Tashvish qilmang, Rustam aka erta-indin kelib qoladilar», dedi. Qaniydi, menga

shundoq kelin ato qilsa. Nasib etsa, kelishing bilan to'yni boshlaymiz. O'sha qiz sen bilan o'qiydimi? Onam rozi bo'lsin desang, har kuni xat yoz Shahnozaga!»

Chehram yorishib, tishimning og'rig'i ham esimdan chiqib ketdi. Voy Shahnoz tushmagur-ey! Voy shum-ey!

Mart oyining oxirlari

Bahor – barchaga baravar! Shohona saroylar oldidagi gulzor nima, go'ristonda ma'yus do'ppaygan qabrlar nima – tanlab o'tirmaydi. Hammasini bir tekis maysalarga burkaydi.

Barchasiga baravar mehr ila chechaklar ulashadi. Kecha pastga, suv bo'yiga tushdim. Katta yo'l chetida qachondir uzilib ketgan tank zanjiri zanglab yotibdi. Xuddi ajdar terisiga o'xshaydi. Qarasam, «ajdar terisi» orasida bir nima qizarib ko'rinyapti. Yaqin bordim... Tank zanjiri orasidan maysalar gurkirab o'sib chiqibdi. Ikkita qizg'aldoq bahor shabadasida silkinib turibdi... Do'zax olovida yongan zanjirni ham, urushni ham, meniyam masxara qilayotgandek... Ajib haqiqatni anglagandek bo'ldim. Bahor uchun barcha baravar. Ko'klam quyoshi ro'parada, dovon tomonda turib bizlarga reaktiv snaryad otayotgan «dux»ning boshidan qancha mo'l-ko'l nur sochsa, dushmani tankdan o'qqa tutayotgan bizning boshimizdan ham shuncha nur sepaveradi. Bahor shabadasini bizning yuzimizni qanchalik erkalab siypalasa, ularniyam shunchalik siylayveradi... Bahor – urushni tan olmaydi!

Aprel oyining boshi

Shahnoza o'rischa, o'zbekcha gazetalardan qirqib olingan maqolalarni xatiga qo'shib yuboribdi. Deyarli hammasida qayta qurish, oshkoralik degan so'zlar... Maqolalardan birida Afg'oniston urushi adolatsiz ekanini yozibdi. Bu gapni judayam aniq qilib aytmagan bo'lsa ham ma'no shunga kelib taqaladi. Hayron bo'ldim. Bu yoqda zampolitlar qahramonlikka undaydi, savr inqilobi dushmanlariga shafqat qilmaslikka chorlaydi. U yoqda...

Aprel oyi

Bilmagan odam urush deganda nuqul otishmalar-u portlashlarni tushunadi. To'g'ri, otishmalar ham bo'lib turadi, portlashlar ham. Biroq eng jonga tegadigani bu emas. Eng yomoni – hamisha ko'ngling g'ash bo'lib yurasan. Negaligini o'zing bilmaysan. Yanayam yomoni – zerikish, o'lik sukunat. Snaryad qutilari-yu tosh-

lardan naridan beri qo'ngaytirib yasalgan «uycha»dan turib, har kuni bir xil manzarani ko'rasan. Kun-u tun bir xil manzara. Shundan ko'ra tezroq otishma bo'lishini yoki ekipajingni «tochka»dan olib, jangga tashlashlarini xohlab qolasan...

O'sha kuni

Tushlik payti Xayriddin ko'rinmay qoldi. Qo'rqib ketdim. Yugurib «uycha»dan chiqsam, qoyatoshlar orasidagi so'qmoqdan bitta-bitta yurib tepaga ko'tariyapti. Qo'lida lolaqizg'aldoqlar, cho'l chuchmomalari...

– E, qayoqda yuribsiz? – desam, ma'yus jilmayib qo'ydi.

– Bilasizmi, jo'ra? – dedi gul terib yurganidan o'zi xijolat bo'lgandek kulimsirab. – O'ylab qarasam, urush teskari haqiqat degani ekan. Odam bo'lging kelsa, shafqatsiz bo'l. O'lging kelmasa, o'ldir. Qiziq-a, jo'ra...

Apriel oyining o'rtalari

Tag'in tishim og'riy boshladi. Og'riq kuchaygandan-kuchayib, DOD deydigan ahvolga keldim. Nima qilay axir! Boshimni devorga urib yorsam, qutulamanmi bu azobdan!..

– Xayriddin! Tankda ombur bor, olib keling, jon do'stim!

Xayriddin xuddi o'zining joni og'riyotgandek yuzimni siladi.

– Sabr qiling, jo'rajon! Dardni bergan Xudo davosiniyam beradi.

Tajanglanib turganimni ko'rib, yupatdi:

– Xafa bo'lmang, jo'ra, nasib etsa, hammasi izga tushib ketadi. Tish og'rig'i, ko'z og'rig'i – qutlug' dard. Uxlang, jo'ra.

Uyqu kelsa, qani! Xayol ming ko'chaga olib kiradi. Uyimiz ko'z o'ngimga keldi. Oyim... Dadam... Shahnoza... O'zimizning anhor... O'zimizning na'matak...

O'rnimdan turdim. Eshik g'iyqillashi bilan Xayriddin uyg'ondi.

– Og'riyaptimi? – dedi uyqu aralash xavotirlanib.

– Yo'q, do'stim, yotavering!..

Tashqari chiqib, xarsang qirrasiga o'tirdim. Salqin shamol esib turibdi. Chigirtkalar mastona nag'ma chaladi. Hamma yoq sokin. Bir mahal Xayriddin yonimga kelib o'tirdi. Ozg'in yelkasi bilagimga tegib turibdi. Osmonda yangi oyning oltindek tiniq, nozik o'rog'i yaltiraydi. Hov narida, ro'paradagi qad kerib turgan

tog'lar g'ira-shira nur qo'ynida mudrab yotibdi. Gavhar donalari-dek yirik-yirik yulduzlar sirli porlaydi. Ana, Oltin Qoziq. Unisi – Katta Ayiq... Hov ana, kunbotar tomonda Zuhro yulduzi miltillab turibdi. Bir vaqtlar Xumsonga – Opoqtog'amnikiga borganimda kechasi xuddi shunaqa manzarani ko'rgan edim... Hammasi tanish, hammasi qadrdon. Va hammasi... senga yot...

– O'sha oy, o'sha yulduzlar... – dedim o'zimga o'zim. – Ammo barchasi begona...

Xayriddin kuldi. Yelkalari silkinib ketdi.

– Shunaqa deng?

Hayron bo'lib burilib qaradim. Qiziq, Xayriddin kamdan kam kular edi.

Hozir bo'lsa, yelkalari silkinib-silkinib kulyapti.

– Begona deng, jo'ra! – dedi hamon kulib. – Ular bizga begona emas, biz ularga begonamiz!

Keyin to'satdan kulgisi kesildi.

– «Donolar hayotni kuzaturlar jim»... – dedi o'ychanlik bilan. – Yozug'imizni qarangi, hayotni idrok etishga ham qo'ymadilar...

Bir haftadan keyin

Baxtinga karvon o'tib qoldi. Post boshlig'i karvonni boshqarib borayotgan kapitandan meni medsanbatga olib borishni iltimos qildi.

– Navbatdagi «ip» bilan qaytasan, – dedi menga. Qismgacha ellik chaqirimdan ko'p. Bir qo'lim bilan jag'imni changallab, bir qo'limda avtomatim solingan safar sumkasini ushlagan ko'yi yo'l-yo'lakay inqillab bordim. (Qoida shunaqa: har qanday vaziyatda ham qo'ldan qurolni qo'ymaslik kerak.) Tish do'xtir, mendan ham naynov, gavdali yigit ekan. Parmalovchi mashinasini ko'rishim bilan og'riq taqa-taq qolsa deng! Do'xtir do'mbira bo'lib ketgan jag'imni siypalab ko'rdi. Og'zimga yaltiroq temir tiqib, tomosha qildi... Bir mahal miyamga birov mix urgandek o'kirib yubordim.

– Tomosha qil! – dedi do'xtir ombirga qisilib turgan, yarmi ko'karib ketgan tishimni burnim tagiga tiqishtirib. – Uch kun furatsilin bilan og'zingni chayib turasan!

... Batalonga yetib kelganimda ruxsat etilgan muddat o'tib bo'lgan edi. Bu yog'i «tochka»ga yigirma chaqirimcha bor. Tank

bataloni komandiriga shundoq-shundoq, deb ahvolni tushuntirdim.

– Bugun-erta yo‘lga chiqadigan karvon yo‘q, – dedi kapitan.
– Mayli, bir yo‘lini qilamiz, yettinchi postdan yana bir soldat bor.

«Yana bir soldat» degani Xayriddin ekan. Ming yil ko‘rishmagandek, quchoqlashib ketdik.

– Tishingiz tuzukmi? – dedi yuzimga tikilib.

– Qutuldim! O‘ziyam lo‘mbozdek ekan. Ildizi uchta!

– Sizens juda siqilib ketdim, – dedi Xayriddin ma‘yuslanib. U postdagilarga pochta olgani kelgan ekan.

– Menga xat yo‘qmi? – desam, aybdorona bosh chayqadi.

– Tashvish qilmang, jo‘ra, – dedi yupatib. – Yanagi safar, albatta, keladi. – Bir zum o‘ylanib turdi-da, yuzimga tezgina qarab oldi. – Post boshlig‘i nega ruxsat berganini bilasizmi? – dedi sirli kulimsirab. – Bugun – mening tug‘ilgan kunim.

Qaytadan quchoqlab, qutladim. Bir mahal kombat chaqirib qoldi.

– Zampotexdan iltimos qildim. Senlarni yo‘ldan tashlab ketadi.

Sochlariga oq oralagan mayor men bilan Xayriddinga Qarab qo‘ydi-da, norozi to‘ng‘illadi:

– Qaysi ahmoq bir ekipajdan bira to‘la ikki kishiga ruxsat berdi?

Biroq kombat bilan olishib o‘tirgisi kelmadi, shekilli, bizlarga buyurdi:

– Chiq ikkalangam bortga!

Shosha-pisha «Ural» mashinasiga chiqib oldik. Mashinada yuk yo‘q edi hisob. Ikkita tank akkumulyatori, bitta eski ballon. Rezina g‘ildirakka yonma-yon o‘tirib, gurunglashib ketdik. Bugun Xayriddin har paytdagidan shod edi, dam-badam jilmayib qo‘yardi.

– Xat keldi, – dedi kulimsirab. – Onam tug‘ilgan kunim bilan tabriklab, suratini yuboribdi. Xuddi shu bugun kelganini qarang...

– Qani? – deb qo‘l cho‘zgan edim, xijolat chekibroq suratni uzatdi.

Boshiga guldor ro‘mol o‘ragan ayol Xayriddinnikiga o‘xshagan o‘ychan ko‘zlari bilan ma‘yus termulib turardi. Qiziq, nima-

sinidir oyimga o'xshatdim... Hamma onalar bir-birlariga o'xshaydi, shekilli. Surat orqasiga notekis harflar bilan yozilgan so'zlarga ko'zim tushdi... «Olloga topshirdim, bolam! O'zingni ehtiyot qil...» Negadir mashina to'xtadi. Ikkalamiz baravar o'rnimizdan turib ketdik. Mashinamiz adir tepasida to'xtagan, pastda, ancha olisda qoya panasidagi muyulishda «Burbuxayka» (afg'onlarning yuk mashinasini shunaqa deymiz) turar edi. O'lisda, qontalash ufqda quyosh og'ib boryapti. Qat'iy qoida bor: afg'on mashinalari katta yo'ldan qorong'ida yurishi taqiqlangan. «Burbuxayka»ning kechga tomon yo'lga chiqqani shubhali ko'ringanmi, bir chekkada to'xtab turishimi, har qalay, keksa mayor «Ural» kabinasining zinasida turganicha o'sha tomondan ko'z uzmas edi. «Burbuxayka»dan besh-o'n qadam narida, yo'l ustida qora cho'ponli bir odam tik turar, yana bittasi cho'nqayib o'tirardi.

«Mina qo'yyapti!» – Xayolimga yashindek urilgan fikrdan seskanib ketdim. Dushmanning kuppa-kunduzi mina qo'yishi aqlga sig'maydigan gap! Lekin ular ham aynan shunaqa – shubhadan xoli paytni tanlagan bo'lishi mumkin. Keyingi kunlarda yo'llar kamqatnov bo'lib qolgan, pasqam joy... Mayor kabinaga o'tirib, eshikni qarsillatib yopdi.

– Hayda!

Boyagi odamlar motor ovozi eshitib, shu tomonga qaradiyu shosha-pisha mashinasiga yugurdi. «Ural» pastlikka sho'ng'idi. «Burbuxayka» o'rnidan jadal jilib, yurib ketdi.

Boyagi joyga yetib kelganimizda yangi kavlangan chuqurga ko'zim tushdi. Ho'l tuproq qorayib turardi. Mayor kabina derazasidan boshini chiqarib, «Burbuxayka» tomonga avtomatdan o'q uzdi. Trassalanuvchi o'qlar olovli iz qoldirib uchib borayotgani ko'rinib turar, bu – to'xta, degan buyruqni bildirardi.

«Burbuxayka» to'xtash o'rniga shiddat bilan yelib borardi. Xayriddin ikkalamiz avtomatlarga yopishdik. Afg'on mashinasi zum o'tmay tepalik ortiga sho'ng'ib, ko'zdan yo'qoldi. «Ural» qir ustiga chiqqanida «Burbuxayka» tag'in ko'rindi. Yo'lning chap! tomonida, bir chaqirimcha narida qishloq ko'zga tashlanardi. Endi hammasi ayon edi. «Dux»lar imi-jimida mina qo'yib qorong'i tushmasdan qishloqqa kirib olishni mo'ljallagan. Ertalab hech nima bo'lmagandek, yana yo'lga ketaveradi.

Mayor o'sha tomonga tag'in o'q uzdi. «Burbuxayka» katta

yo'ldan qishloq tomonga burilib adir tepasiga chiqa boshladi. Ammo yigirma-o'ttiz qadam yurmasdan kechagi yomg'irdan keyin atalasi chiqib ketgan loyda tayg'ona-tayg'ona to'xtab qoldi. Kuchanib vag'illagancha g'ildiraklaridan loy sachratishga tushdi. Bizning mashina ro'paraga kelib to'xtashi bilan «Burbuxayka» kabinasida avtomat tarilladi. «Ural»ning chap eshigi taraqlab ochilganini eshitdim. Haydovchimiz boshini changallagan ko'yi chinqirgancha kabina zinasiga yiqilganini ko'rdim-u, o'zimni yerga tashladim. Qarasam, yonimda Xayriddin yotibdi. Rangi quv o'chib ketgan... Mayor o'ng eshikdan tushdi. Oqsoqlanib kabina oldiga o'tdi-da, «Burbuxayka»ga to'xtovsiz o'q uza boshladi.

«Burbuxayka» eshigi ham ochildi. Sallali bir odam loyda tayg'onib tepalikka qocha boshladi. Aniq ko'rib turibman, «dux» boshini yelkasi orasiga tortib, loyda sirg'ana-sirg'ana qochib borar, qo'lida quroli yo'q edi. Yo otishmada quroli ishdan chiqqan, yo avtomat sherigida qolgan. Hozir buni o'ylab o'tirishga vaqt yo'q edi.

– To'xta! – Xayriddinning ovozida hayajon, aniqrog'i, qo'rquv borligini his etdim.

– To'xta! – dedi Xayriddin adir tomon yugurib. U qandaydir daqiqalar ichida «dux»ga yaqinlashib bordi. Orada besh-olti qadam qoldi. Jonholatda ketidan yugurdim.

– Qo'lingni ko'tar! – dedi Xayriddin qichqirib. «Dux» to'xtadi. Sekin burilib qaradi-da, qo'lini ko'tardi. Boshida salla, qopqora soqoli ko'ksiga tushgan, rangi quv o'chib ketgan edi. Xayriddin hamon yugurib borar, negadir avtomatini o'qталish o'rniga hadeb bir so'zni takrorlardi:

– Qo'lingni ko'tar!

«Dux» yerga engashgandek bo'ldi. Qo'lida pichoq yaraqladi.

– Oting, Xayriddin! Ot! – dedim nafasim bo'g'zimga tiqilib. Shunda kutilmagan ish bo'ldi. «Dux» bir hamla bilan Xayriddinning avtomatini qo'lidan uchirib yubordi. Yetib borganimda Xayriddin chalqanchasiga ag'darila boshlagan edi. «Dux» uning avtomatiga engashganida jag'iga tepdim. Sallasi uchib ketib, taqir boshi yalang'ochlanib qoldi. Qaddini rostlamoqchi edi, yana tepdim. Tomog'idan g'ippa olib, qancha bo'g'ib turganim yodimda yo'q. Xirillab og'zidan ko'pik keldi. Tipirchilamay qo'ydi. Shundagina hushim joyiga keldi. Yo'q, xirillayotgan «dux»

emas, Xayriddin ekan. U shundoq yonimda yotar, qontalash ufqqa tikilib qolgan ko'zlari o'ychan va sokin edi.

– Nega? – dedi ingrab. – Men uni otmoqchi emasdim-ku... Og'zidan qon sizib, labining chetidan oqib tusha boshladi.

Negadir yo'taldi. Og'zidan varaqlab qon keldi.

– Xayriddin! Do'stim! – Ho'ngrab yig'lab yubordim. Qandaydir ichki sezgi bilan «dux» g'imirlay boshlaganini his etdim. Ilkis qarasam, cho'kkalab Xayriddinning yerda yotgan avtomatiga qo'l cho'zyapti. Yoqasidan bo'g'ib silkita boshladim.

– Nima qilding, maraz! Nima qilding! – dedim yig'lab.

– Qo'yib yubor! – U ojiz tipirchilab bilagimga osildi. – Qo'yib yubor!

Shundagina bir narsa shuurimga yetdi: «dux» o'zbekcha gapirayotgan edi.

– Sen... – dedim g'azabdan qaltirab. – Sen... o'zbekmisan? Buyam o'zbek-ku! – Basharasiga kuchim boricha musht tushirdim. – Buyam musulmon bolasi-ku, it! Nima yomonlik qildi senga!

– Senlar o'zbekmi! – «Dux» yorilgan lablari orasidan qon tupurib, tishlarini g'ijirlatdi. – Yo'q! Senlar o'zbekmas! Senlar musulmonmas! – U esdan og'gandek xaxolab kuldi. – Senlar «sho'raviy!» Kim chaqirdi seni bu yerga! O'z yurtिंगni sotib bo'lib, endi Afg'onni ham harom qilmoqchimisani? To'ng'iz!

Xayriddin qattiq xirilladi. Bir lahza ko'zim tushib qoldi. Botib borayotgan quyoshdan madad olmoqchi bo'lgandek o'sha tomonga qo'l cho'zib, qaddini rostlashga uringan edi, yirtilib ketgan kombinezoni ostidan qonga belangan ichaklari qaynab chiqdi. Qorasoqolning ko'kragini mo'ljallab tepkini bosdim. U yotgan joyida bir sapchidi. Tepkini bosib turaverdim. Bosh chanog'i yorilib miyasining qatig'i sachrab ketganini, go'shtlari, suyaklari parcha-parcha bo'lib atrofga otilayotganini ko'rib turardim. «Magazin»dagi o'qlar tugadi, shekilli, avtomatning tarillashi eshitilmay qoldi. Faqat «A-a-a-a! A-a-a-a!» degan vahshiy hayqiriq hamon havoni titratar edi. Keyin bilsam... baqirayotgan o'zim ekanman. Bir mahal hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Oyoq-qo'limdan mador ketib, Xayriddinning yonboshiga cho'kkaladim. U hamon ufqqa tikilib yotar, ochiq ko'zlarida hayratmi, iymanishmi, shunga yaqin ifoda muhrlanib qolgan. Ko'm-ko'k o'tlar ustida ichaklari ayqash-uyqash bo'lib cho'zilib yotganidan

uyalgandek, ularni qorniga qaytib solishga urinayotgandek, nozik barmoqlari bilan changallab olgan edi.

– Bo‘ldi, tankist, bas...

Boshimni ko‘tarib qarasam, o‘n qadamcha narida kekxa mayor turibdi. Boshyalang, oq oralagan sochlari yoyilib chakkasiga tushgan...

– Tur, endi, o‘g‘lim... – dedi yig‘lab. «Burbuxayka» kabinasida yana bir «dux» muk tushib yotar, yo‘l ustida to‘xtab qolgan «Ural»ning oynalari chil-chil bo‘lib ketgan, bizning haydovchi qonga belanib, zinada uzala tushgan ko‘yi qotib qolgan edi.

...Zastavaga kelgan zahoti aytgan birinchi gapim shu bo‘ldi:

– Viktor! Charsdan ol!

...Sasha bilan Viktor uch kungacha Xayriddinning ovqatini to‘shagi boshiga keltirib qo‘yib yurishdi... Odat shu ekan... Men esa do‘stimning ruhiga o‘zim bilgancha duoyi fotiha o‘qidim...

...Xayriddinning o‘rniga boshqa o‘qlovchi yuborishdi: latish bola ekan. Qiziq... Yaxshi yigit edi-ku, negadir hammamiz begonasirab turardik. Keyin bilsam, Xayriddinni butun ekipaj yaxshi ko‘rib qolgan ekan. Viktor ham, Sasha ham...

Iyun oyi

Xayriyat, postga boshqa ekipaj yuborib, bizning tankni qismga qaytarish haqida buyruq bo‘ldi. Albatta, qism ham – jonning huzuri emas. Tez-tez yo‘lga chiqish, kolonnalarni himoya qilib, «ob‘ekt»larga kuzatib qo‘yishga to‘g‘ri keladi. Boshqalarni bilmadim-u, menga «tochka»da turishdan ko‘ra shunisi ko‘proq yoqadi. Har qalay, qismda odam ko‘p... Kuning tezroq o‘tayotganiga o‘xshaydi. Baribir Xayriddin xayolimdan ketmaydi. Qayoqqa qaramay ro‘paramga kelib, ma’yus jilmayib turaveradi. Urush odamning diydasini qotirib yuboradi deyishadi. Bo‘lsa bordir. Ammo kelib-kelib, farishtadek beozor yigitning o‘lishi... O‘ylamay deyman-u, baribir xayolimga kelaveradi. Ana, es-hushini yo‘qotib, telbavash bo‘lib qolgan ona temir tobutni quchoqlab dod solyapti. Tobut ichida yotgan qoraqosh, qorako‘z o‘g‘lini ko‘rib turgandek... Temir tobut nega bunchalik sovuqligini, formalin hidi qayoqdan kelayotganini o‘ylashga holi yo‘q. Bilmaydiki, quti ichida jondan aziz bolasining ichak-chavag‘i ag‘darilib yotibdi...

Iyun oyining yigirma ikkinchi kuni

Chaqcharonga karvon olib bordik... O'q-dori ortilgan Kamazlar, benzavozlar, hatto avtokran ham. Karvonni kuzatishning aniq tartibi bor. Eng oldinda boshqaruvchi tank, ketidan BTR, undan keyin Kamazlar, keyin tag'in tank, ketidan boshqa Kamazlar, benzavozlar, avtokran... orqasidan yana BTR, ularning ketidan bizning tank, ortimizdan yana ikkita BMP... Odatda, boshqaruvchi tankda minaga duch kelsa beshikast portlatadigan moslama bo'ladi. «Tuxum», deydi. Ammo mina degani ham anoyi emas. Ba'zan karvon endi o'tib bo'ldi deganingda to'satdan portlab qoladi. Mexanizmi shunga moslashtirilgan... Xullas, yo'l olis, xatarli edi. Eng xavfli qishloq yaqinidan yoki chakalakzor orasidan o'tish. Xayriyat, manzilga omon-eson yetdik. Qaytishda tag'in o'sha tartibda yo'lga tushdik. Boshlovchi tank, yukini boshatgan benzavozlar, BTR, yukini almashtirgan Kamazlar, BMP, yana Kamazlar, bizning tank, ortimizda ikkita BMP...

Atrof biydek cho'l. Tank ichi changga to'lib ketgan. Nafas olib bo'lmaydi... Bunaqa paytda o'q o'tmas nimcha u yoqda tursin kombinezon ham ortiqchalik qilib qoladi. Ikki kecha uxlamaganmiz. Avtomatim tasmasini lyuk qopqog'iga ilgancha, tuynukdan boshimni chiqarib boryapman. Ko'zim yumilib ketyapti. Bir lahza, aqalli bir soniya uxlab olgim keladi.

Viktorning xavotirli ovozidan cho'chib uyg'ongandek bo'ldim.

– Moy bosimi tushib ketyapti, komandir. Motor qizib ketdi.

Boshlovchi tankka xabar qildim.

– O'rtoq komandir! Yetmish oltinchining motori qizib ketyapti.

Shlemofonda kapitanning horg'in ovozi eshitildi:

– Tushundim... Oltmish bir! Ortingdagi «qutilar» seni kutadi.

Demak, to'xtashim kerak: «oltmish bir», degani – to'xta, dagan ma'noni anglatadi. «Qutilar» esa orqada kelayotgan BMPlar.

Karvon chang ko'tarib, yo'lida davom etdi. Bizlar biydek cho'lda to'xtab qoldik. Orqamizda turgan BMPdagilar xunob bo'lishar, har lahzada «tezroq bo'l, bronya», deb qistashar edi.

Yo'lga tushdik. Uch-to'rt chaqirim yurmasdan tank yana sekinladi.

– Komandir! – dedi Viktor xavotirlanib. – Motor qizib ketdi.

Yana bir chaqirim yursak, dvigatel ishdan chiqadi.

Tank ichi chindan ham do‘zaXaek qizib borar edi. Boshlovchi tankni chaqirib, vaziyatni tushuntirdim. Shlemofondan kapitan-ning norozi to‘ng‘illagani eshitildi:

– Oltmish bir. Sabr qil, shatakka olishadi.

Lyukdan boshimni chiqarib, atrofni kuzatdim. Quyosh ayovsiz qizdirar, ko‘z ilg‘aguncha ketgan qumlar ko‘ngilda g‘ashlik uyg‘otar, olisda, yo‘lning o‘ng tomonida chakalakzor ko‘zga chalinar edi. Bexosiyat joy... Boshqa tank kelishi bilan mashinadagi sim arqonni uning «dumi»ga uladik. Tank vag‘illagancha orqasidan quyuq tutun, chang-to‘zon ko‘tarib sudrab ketdi. Ortimizdagi BMPlar ham yo‘lga tushdi. Hamon lyukdan boshimni chiqarib, kuzatib borardim.

Pinakka ketdim, shekilli... Onamni tushimda ko‘rdimmi – o‘ngimdami, bilmayman. Ammo ovozi qulog‘imga o‘qdek kirdi:

– Ko‘zingga qara, bolam, chuqur bor!

Dahshatli gumburlashdan tank silkinib ketdi. Boshim lyuk qopqog‘iga urilib, hushimni yo‘qotdim. Xayolim joyiga kelganida beixtiyor engashib, pastga qaradim. O‘ng tomondagi zanjir uzilib ketgan, tank mina portlaganda paydo bo‘lgan chuqurga yonboshlab qolgan edi. Narigi tank minadan qanday o‘tib olgan-yu. nega bizniki portlaganiga aqlim yetmasdi. O‘sha zahoti chakalakzor tomonda avtomat tarilladi. Boshim ustidan o‘qlar vizillab o‘tayotganini eshitib beixtiyor lyuk qopqog‘ini yopdim. Tank yana bir silkindi. Viktorning hayajonli xitobi eshitildi:

– Tank yonyapti, komandir. Minomyotdan otyapti! Chindan ham zum o‘tmay mashina ichini achchiq tutun qoplab, hech nima ko‘rinmay qoldi.

– Evakuatsiya lyukiga! – dedim baqirib.

Ekipaj tushib bo‘lishini kutib turdim-da, oxiri o‘zim ham tank tubidagi tuynukdan emaklab yerga tushdim. Tankimiz quyuq tutun ichida qolgan edi. Chakalakzordan muttasil avtomat tarillar, orqadagi BMPlardan biri oyog‘i osmondan bo‘lib yotar, atrofni dod-voy, so‘kinishlar tutib ketgan, narigi tank esa zambaragidan chakalakzor tomonga ketma-ket o‘q otar edi. Atrofdagi o‘qlar chiyillardi. «Uq chiyilladimi, demak, chetga ketgan bo‘ladi, o‘zingga tegadigani ovoz chiqarmaydi», degan eski aqida xayolimning bir chekkasida turgan bo‘lsa-da, tank panasidan chiqishga yura-

gim betlamas edi. BMPdagilar pishiq yigitlar ekan. Chakalakzor tomonga muttasil o'q uzishardi. Tutab yotgan tank oldiga emaklab chiqdim. Chakalakzor tomonga avtomatdan ketma-ket o'q uzdim. Belim jiz etgandek bo'ldi. To'g'risi, og'riq ham, qo'rquv ham sezganim yo'q. Avtomat qo'limga yopishib qolganga o'xshar, hech nimani o'ylamay, nuqul otgim kelardi. O'sha tomon emaklarkanman, yonbosh tomonda birov gapirgandek bo'ldi. Beixtiyor burilib qaradim.

– Mama! Mama!

Dimog'imga kalla kuydirganda chiqadigan isga o'xshagan hid urildi. Qarasam, Sashaning sochlari yonib, jizg'anak bo'lib ketibdi. Kombinezoni kuyib, badaniga yopishib qolgan, yuzlari qorayib ketgan...

– Mama... – dedi alahsirab. – Mamochka...

To'xtovsiz o'q uzgancha, chakalakzorga yugurdim... Otishma qanday kutilmaganda boshlangan bo'lsa, shunday tugadi. Atrof-ga sukunat cho'kdi. Hamon oftob charaqlab turar, chakalakzor tutun va olovga burkangan edi. Ro'paramda Viktor paydo bo'ldi.

– Komandir! – dedi qo'rquvdan ko'zlari olayib. – Hamma yo-g'ing qon-ku, Rustam!


Ajab! Hamon og'riq sezilmasdi. Belimni ushlab ko'rsam, kaf-timga iliq, ho'l narsa unnadi. Jon achchig'ida uch-to'rt qadam yurib ko'rdim. Keyin to'satdan yiqilib tushdim.

... Guvullagan ovozdanda o'zimga keldim... BMPda ketayotga-nimni g'ira-shira angladim. Yo'q, avval dimog'imga achchiq hid urildi. Ko'zimni ochsam, shundoq Sashaning boshiga yuzimni qo'yib yotibman. Chamasi, Sasha tamom bo'lgan, boshi muzdek, hamon kuyindi hidi anqir edi. Qon aralash kuyindi isi... Kimdir qornimga qo'lini tashlab olgan... Belim chidab bo'lmas darajada og'rir, suv ichgim kelardi... Jahl bilan siltab tortgan edim, o'sha – kimningdir qo'li shilq uzildi-da, xuddi sarjin o'tindek, lo'p etib oldimga tushdi... Yana hushdan ketdim.

Kechasi

Medsanbat do'xtiri – sochlari oqargan kishi boshimda jilma-yib turibdi.

– Omading bor ekan, soldat! O'q tank zirhidan sachrab, be-lingga tegibdi. Agar aortaga tegsa, bormi: hozir yashikda yotgan bo'larding... – Go'yo men jarrohlik ilmini suv qilib ichib yubor-



gandek tushuntirdi. – Umurtqa pog'onasining dumg'aza qismidan ikkita aorta tomiri o'tadi. Tushundingmi? O'q o'shanga tegsa, tamom eding! Yo bir santimetr o'ngroqqa – umurtqaga sanchilsa, bir umr invalid bo'lib qolarding.

Og'riq battar kuchaygan, a'zoyi badanim yonib borar, chanoqab ketgan edim.

– Masha! – dedi do'xtir eshik tomonga qarab. – Urolog qayoqqa yo'qoldi?

Oppoq xalat kiygan yoshgina, do'mboqqina juvon kirib keldi.

– Tekshir buni! – dedi keksa do'xtir zarda bilan. – Senga taalluqli joyi borga o'xshaydi. Qarasam, do'mboq juvon bemalol choyshabni ochib, belimdan pastini yalang'ochlayapti. Bir

kamim shu qoluvdi!

– Doktor! – dedim yalinib. – Kerakmas. Men soppa-sog'man! Iltimos!

– Iltimos emish! – keksa do'xtir qalin qoshini chimirdi. – Bular hammasi olifta! Bronjilet kiysa, haqi ketadi! – dedi qovog'ini solib. – Bilaman, o'lmayсан! Ammo eshitib qo'y: uyingga borganingdan keyin ham urologdan maslahat olib turasan! Angladingmi? Urologdan!

Oktyabrning boshlari

Uch oydan beri hech nima yozmadim. Umuman... Hech nimaning qizig'i yo'q menga. Hech nimaga hayron ham qolmayman... Qismda Har haftada yangi gap tarqaladi. «Falon joyda ko'prik portlabdi». Xo'sh, nima bo'пти? Ko'prik bo'lganidan keyin portlaydi-da! «Bitta «dux»ni tutib olib, tank zambaragiga tross bilan osishibdi». Nima qipti! «Dux» bo'lganidan keyin osish kerak-da! Xohlasa, daraxtga osadi, xohlasa, tank zambaragiga!.. Boshimas, oyog'idan ossa, yana yaxshi!

Yolg'iz quvonchim yurtimizdan keladigan xatlar... Shahnoza suratini yuboribdi. Kalta yengli, oppoq ko'ylak kiyib jilmayib turibdi. Sinchiklab qarasam, suratdagi manzara tanish ko'rindi. Axir bu... o'zimizning anhor-ku! Ana o'sha xarrak, o'zimizning na'matak! Voy, Shahnoza tushmagur-ey... Panaga o'tib suratini o'pdim...

Oktyabrning o'n yettinchi kuni

Jangovar trevoga e'lon qilindi. Hamma yoq yugur-yugur bo'lib ketdi. Bundan chiqdi, jang bo'ladi! Kim bilsin, dushman biron ob'ektga hujum qilgandir. Yo'lda borayotgan kolonnaga shoshi-linch yordam kerakdir. Yo bo'lmasa, razvedgruppa qamalda qol-gandir... Hamma narsa bo'lishi mumkin...

Katta kuch tashlanganiga qaraganda jang ham katta bo'ladi-gan ko'rinadi. Tanklar, BTRlar, BMPlar yelib boryapti.

Kun peshindan og'gan... Kuz osmoni tiniq, sokin. Trimpliksdan qizg'ish tog'lar aniq-tiniq ko'rinadi. Olisda, yo'ldan bir cha-qirimcha chekkada qishloq ko'zga tashlanadi. Uzoqdan qaragan odamga afg'on qishloqlari, nima desam ekan, mozoristonga o'xshab ko'rinadi. Paxsa devorli uylarning tomi Toshkent atrofidagi qishloqlarnikiga o'xshab tunuka yoki shiferdan qiyalatib yopil-gan emas. Farg'ona vodiysidagi uylarnikiga o'xshagan tekis tom ham emas... Qandaydir g'alati: har bir uyning tomi loydan qubba-simon qilib yasalgan. Hafsala bilan suvab qo'yilgan qabrdek...

Tanklar, BTRlar shiddat bilan qishloq tomonga burildi. O'sha yoqda quyuqtutun, qizg'ish alanga ko'zga tashlanar, portlash sadolari eshitilar edi. Demak, qishloqda jang boryapti. Yo'l chetida to'xtab turgan BMPga ko'zim tushdi. Maska-xalat kiygan yigit-lar mashina oldida uymalashib turardi. Ustav bo'yicha tankni to'xtatishga haqqim yo'q. Ko'nglimdan nima kechganini o'zim bilmayman. Mexanikka buyruq berdim:

– To'xta, Viktor! Bir minutga...

Lyukdan boshimni chiqarishim bilan qishloq tomonda gum-burlayotgan portlash sadolari, avtomatlarning muttasil tarillashi yana qattiqroq yangragandek bo'ldi. Dimog'imga tutun, porox hidi kirdi. Maska-xalatli yigitlar yo'l chetida to'xtagan BMPga o'lik ortishayotgan ekan. O'liklar negadir yalang'och edi. Uchta jasad mashinaga, plash palatka ustiga qator yotqizib qo'yilgan. Yerda tag'in ikkitasi yotardi. Yigitlar portlash ovozloriga, avto-matlarning tarillashiga parvo qilmay, o'z yumushlarini qandaydir sovuqqonlik, hatto xotirjamlik bilan ado etishar, biri jasadning qo'ltig'idan, ikkinchisi oyoqlaridan olib, mashinaga ortar edi. Navbatdagi jasadning qop-qora sochlarini ko'rib, beixtiyor yerga sakrab tushdim. Yaqin bordim-u, seskanib ketdim. Qip-yalang'och jasadning gavdasi og'ir, shekilli, mashinaga o'lik ortayot-

gan yigitlardan yana biri yugurib kelib, uning belidan quchoqlaganicha do'stlariga ko'maklashdi. Shunda jasadning chap qo'li shilqillab yerga osildi. Bilagiga tatuirovka bilan qing'ir-qiyshiq qilib yozilgan «Temur» degan so'zga ko'zim tushdi.

– Temur aka! – yuragim sirqillab, jasad boshiga egildim. – Temur aka!

– Nari tur, tankist! – dedi yigitlardan biri hansirab. – Undan ko'ra jangga kirsang-chi!

– Temur aka! – dedim ingragudek bo'lib. Harchand tikilib qaramay aftini taniy olmadim. Jasadning yuz-ko'zi, a'zoyi badani qora qonga belangan edi. Shunda... Bir narsani aniq ko'rdim! Temur akaning quloqlari, burni... va... olati kesib olingan edi! Qancha fursat turib qolganimni bilmayman.

Tank zirhiga qanday tirmashdim, lyuqdan qanday kirdim, esimda yo'q.

– Bos, Viktor! – dedim hayqirib.

Shlemofondan komandirning badjahl tovushi eshitildi:

– Razmax Yetmish olti. Nega to'xtab qolding?

– Ketyapman, – dedi xirillab.

– Ob'ektни janub tomondan aylanib o't. Ehtiyot bo'l, mina bo'lishi mumkin...

«Mina emish! Mina tugul atom bombasi bo'lmaydimi!»

– Bos, Viktor!

– Lyukni yop, komandir...

– O'chir ovozingni! Bos!

Pastak devor ortida sallali bosh ko'rindi. Yelkasidagi granatomyotni devorga tirab men tomon ro'para qildi. Vujudimda o'lim sharpasi bir lahza o'rmalab o'tgandek bo'ldi. Qiziq, negadir qo'rqmadim. Tushuntirib berolmayman. Ajal bilan ro'para kelsang-da, qo'rqmasang! Shunisi yodimdaki, xotirjam buyurdim:

– Uchta snaryaddan o't och!

Odamning talqondek mayda-mayda bo'lib ketishini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Tutun tarqalgach, qarasam, devor ham yo'q, boyagi sallali ham... Ro'paradagi qubbasimon uy ichidan avtomat tovushi eshitildi. O'qlar tank zirhiga urilib chiyillaganicha sakrab ketayotganini his etib turar, ammo lyukni yopish xayolimga kelmas edi.

– O‘t och!

Qubba tomli uy xotinlarning upadonidek oppoq kukunga aylandi. Esdan og‘ib qolganga o‘xshardim.

– Viktor! Bos! Bos! – derdim nuqul baqirib.

Tank quturgan buqadek o‘kirar, pulemyotidan to‘xtovsiz o‘q uzgancha yo‘lda duch kelgan narsani payhon qilib borar, qubbasimon tomli uylar, tolmi, qayrag‘ochmi, qandaydir daraxtlar, uzum toklari, dumini xoda qilib, u yoqdan-bu yoqqa yugurayotgan sigir, qanotini jonsarak patirlatgancha uchib-qo‘nayotgan tovuqlar ko‘zga chalinib qolardi.

– Bos! Bos! – derdim baqirib, avtomatdan muttasil o‘q yog‘dirardim.

Bir mahal hamma yoq jimjit bo‘lib qoldi. Holdan toyib, joyimga o‘tirdim. Trimpliksga o‘q tekkan, shekilli, oynasi darz ketgan, tashqari ko‘rinmasdi. Atrofda gumbur-gumburlar tingan, o‘q ovozlari eshitilmaydi... Hatto tankning guvullashi ham...

Tank jim. Avtomatlar jim... Qishloq jim... Go‘yo hech nima bo‘lmagandek.

Qaddimni rostlab, atrofga qaradim. Hamma yoq tutunga to‘lgan, osmonda chang-to‘zon muallaq turib qolgan. Qishloqda sog‘ uyning o‘zi ko‘rinmas, olisda qonga botgan kalladek qip-qizil quyosh ufqqa cho‘kib borardi.

Sinchiklab razm solsam, allaqanday hovli o‘rtasida turibmiz. Ipga ilingan, hali qurib ulgurmagan choyshablar, xotinlarning ko‘ylagi tuproqqa qorishib yotibdi. Tomi o‘pirilib, devori qulagan uy ichidan tutun aralash to‘zon burqsib turibdi. Hovli yuzida qo‘y qumalog‘iga o‘xshash qora narsalar tuproqqa qorishib, yer bilan bitta bo‘lib yotibdi. Garangsib, uzoq tikilib qaradim-da, tushundim: mayiz ekan. Bir chekkada tank zanjiri ezg‘ilab, ilmateshik qilib tashlagan gilam... Odam qonidek qip-qizil... Allaqaysi burchakdan quloqlari shalpaygan, qo‘rquvdan ko‘zlari javdiragan olapar it chiqib keldi. Tankka xavotirli nazar tashladi-da, dumini qisgancha, so‘ritok tomon yurdi. Yaproqlarini chang bosgan so‘ritok tagiga borib, allanimani hidladi. Dor uzilganda ayollarning qizil ko‘ylagi chekkaga otilib ketgan, shekilli, so‘ritok tagidagi ariq ichida beo‘xshov cho‘zilib yotardi. It iltijo qilgandek, g‘ingshib qo‘ydi-da, ko‘ylakni yana hidladi. Cho‘nqayib o‘tirgan ko‘yi, osmonga qarab g‘ayritabiiy ovozda bir-ikki vovulladi. Ke-

yin vovullashi o'z-o'zidan uvlashga aylanib ketdi... Bir daqiqa o'tdi... Besh daqiqa... Umrin bino bo'lib bunaqa nolani eshitgan emasdim.

Yuragimni tushunarsiz vahima g'ijimlayotganga o'xshardi. Sakrab yerga tushdim.

– Ket! – dedim ovozim titrab.

It qayrilib qaramadi. Cho'nqayib o'tirgancha nolali uvlayverdi. Yerdan kesak olib otdim.

– Ket!

It uvlashdan to'xtadi. Men tomonga qarab qo'ydi. Nazarimda, «o'z holimga qo'yasanmi-yo'qmi, nima gunoh qildim senga!» degan iltijo bilan termilgandek bo'ldi.

– Yo'qol! – dedim dag'dag'a bilan.

It dumini qisib nariroqqa bordi, cho'nqayib o'tirgancha, tumshug'ini osmonga cho'zib qaytadan uvlashga tushdi.

Negadir qo'rqibroq yaqin bordim. So'ritok tagida yotgan narsa, ko'ylak emas, odam gavdasi ekan. Xotin kishining gavdasi. So'ritokning panasidan panoh topmoqchi bo'lgandek, yonboshlab yotibdi. Boshida sharfga o'xshagan ro'mol, egnida uzun ko'ylak. Ammo oyoq yalang... Oyoqlari so'ritok tagidagi ariqqa tushib qolgan... Birpas ikkilanib turib qoldim.

– Turing, – dedim qo'rqa-pisa yelkasiga qoqib. – Turing, opa, qo'rqmang.

Ayol qimir etmadi. Xuddi gapimni tushunadigandek dalda berdim:

– Turing, biz sizga tegmaymiz.

Tank tomondan Viktorning ovozi keldi:

– Qaytish kerak, komandir!

Burilib qarasam, haydovchi lyuqdan boshini chiqarib turibdi.

– Qaytishga buyruq bo'ldi, komandir.

It esa hamon uvlar, qulog'ingni teshib, yuragingni o'rta yu-bormaguncha tinchimayman, deb qasd qilgandek nola chekar edi.

Avtomat zatvorining shaqir-shuquri eshitildi. Qarasam, Viktor itni mo'ljalga olyapti.

– Otma! – dedim o'shqirib. Tag'in ayolning boshiga egildim.

– Opa! – Ayolning yelkasidan tortgan edim, chalqancha yotib qoldi. Jonholatda o'zimni orqaga tashladim. Axir bu... Shahnoza-ku! Oppoq yuzi, qop-qora sochlari, qayrilma kipriklari... Yo'q...

Bu – Shahnoza emas. Shahnozaning ko‘zlari Qora. Buniki – zangori... Baribir... Baribir Shahnozaga o‘xshaydi. Yuzining tiniqligi, katta-katta ko‘zlarining hayrat bilan termilishi... Biron yerida jarohat izi ko‘rinmasdi. Faqat ko‘ylagining yoqasi ochilib, oppoq, bo‘liq siynalari yalang‘ochlanib qolgan edi. Gunoh ish qilib qo‘ygan odamdek yana orqaga tisarildim. Shundagina bo‘ynini teshib o‘tgan o‘q o‘rniga ko‘zim tushdi. Teshikdan ipdek oqib qon siza boshladi. Keyin, to‘satdan, qon oqishi tezlashib ketdi. Avval to‘shiga tushdi, keyin siynasiga... Birpasda siynasi qip-qizil qonga belandi... Dahshat ichida gandraklagudek bo‘lib, tank tomon chekindim. Shu payt vayronaga aylangan, tutab yotgan uy ichidan bola yig‘isi eshitildi. Zum o‘tmay vayrona ostonasida nimcha kiygan, ammo ishtonsiz, bir yarim-ikki yoshlardagi o‘g‘il bola ko‘rindi. Qiziq! It uvlashni bas qilib, bolaning oldiga yugurib bordi. G‘ingshib, bolaning burnini yaladi. Bola do‘mboq qo‘lchasi bilan it boshini nari itarib, battar yig‘lay boshladi. It ko‘zlarida mutelik bilan bir zum tikilib turdi-da, ohista burilib ayol tomon lo‘killadi. Bola hamon yig‘lagancha o‘z tilida g‘ujur-g‘ujur qilib, itga ergashdi. Oyoq yalang tuproq kechib, alpang-talpang yurgan ko‘yi ayol tepasiga keldi. Bir zum turib qoldi: yig‘lashdan to‘xtadi. Ammo o‘pkasini tutolmay hiqillagancha «mo‘rjona-mo‘rjona»(onajon-onajon), dedi. Ayolning yoniga cho‘kkaladi-da, yosh to‘la ko‘zlari bilan negadir g‘udranib kuldi. Tuproqqa belangan qo‘lchalari bilan onasining mammasini changalagancha ema boshladi. Birpas emdi-da, ilkis boshini ko‘tardi. Hayron bo‘lib, goh onasiga, goh itga, goh menga mo‘ltiradi. Og‘zini kappa-kappa ochib, chirqillab yig‘lab yubordi. Go‘dakning og‘zidan so‘lak aralash qon oqar edi.

... Avval ich-ichimdan titroq keldi. Keyin qo‘limning barmoqlari muzlay boshlaganini his qildim. Undan keyin oyoqlarim qaltiray boshladi. Tankka qanday yetib bordim, esimda yo‘q.

– Otaman! – dedim o‘kirib. – Hammangni otaman! O‘zimniyam otaman!

...Keyin nima bo‘lganini bilmayman.

Noyabr oyi

Uydan xat keldi. Akam oyimning gaplarini so‘zma-so‘z yozib yuboribdi: «Xudoga shukr, Rustamjon, nurli tushlar ko‘ryapman. Oftob charaqlab turgan dalada chopqillab yuribsan. Sog‘inib ket-

dim-ku, bolam, kel, bitta bag‘ringa bosay, desam, yugurib oldim-
ga kelibsan. Oyijon, sut ichgim kelyapti, sut bering, debsan. Men
senga kosa to‘la sut berdim. Oxirigacha simirib, ichib olding...
Sut–yorug‘lik, jon bolam. Xudo xohlasa, ko‘pi ketib ozi qoldi...»
...Meni nega tug‘dingiz, oyi? Nega tug‘dingiz!!!

TERGOV HUJJATIDAN

To‘laganova Qurbonoy. Ellik besh yoshda. Turarjoylardan
foydalanish boshqarmasining farroshi. Millati – o‘zbek. *Oilali*.
«Qatortol» mavzesi, 9-uy, 44-xonadonda istiqomat qiladi. Parti-
yasiz.

– Grajdanka To‘laganova Qurbonoy siz bo‘lasizmi?

–Ha, men bo‘laman. Nima gunoh qildim, xolang aylansin!

– O‘tiring!

– O‘zing asra, Xudoyim... Gunohim nima? Unaqa odamni
qo‘rqitmagin, jon bolam... Oyoq-qo‘lim titrab ketyapti.

– Birov sizni gunohkor deyaptimi, nega vahima qilasiz, graj-
danka To‘laganova!

– Ana! Tag‘in «grajdanka» deyapsan! Man yurak oldirib
qo‘yganman, xolang qoqindi.

– O‘tiring!

– Xo‘p, o‘g‘lim, xo‘p. Birpas o‘zimga kelib oliy, maylimi?
Iloyo, bola-chaqangni rohatini ko‘rgin.

– Necha yildan beri JEKda ishlaysiz?

– JEKda ishlamiyman, xolang o‘rgilsin, uborshisaman, ko‘-
cha supuraman. Ikki «do‘m»ni ajratib bergan. JEKni xo‘jayini
aytgan. Xola, mana shu do‘mlani atrofi toza bo‘lsin, zinalari ya-
raqlab tursin, degan. Umridan baraka topgur, xo‘jayin yaxshi
odam. Insofli. Bayramda pirmiyalni berdi– o‘ttiz so‘m. Xola, de-
di, biz sizga o‘xshagan po‘ristoy odamlarni hurmat qilamiz, dedi.

– Kimlar bilan turasiz?

– Nima?

– Kvantirangizda kimlar turadi?

– O‘zi bir haftadan buyon mazam yo‘q. Sovuq tushganidan
beri kasalim o‘lgur qo‘zib qoldi. Bo‘yra bo‘yi qorni kuraguncha
harsillab ketaman, bolam. Shu savil qolgur o‘t qopchasini oldirib
tashlab qutulaman, shekilli. Do‘xtir aytdi: qo‘rqmang, xola, dedi,

buyam ko'richakni kestirishdek gap, qiynalib yurasizmi, bunaqa qilib, undan ko'ra kestiring-u, qutuling, dedi.

– Kwartirangizda necha kishi turadi, deyapman?

– Odamni unaqa qo'rqitmagin-da, xolang aylansin. Mana, hamma qog'ozlarni obkeganman. Uyni nalugini vaqtida to'liyman, o'g'lim. Mana, oyma-oy to'laganman.

– Uff, necha kishi turasizlar?

– Nima qiliy, xolaginang aylansin. Bitta-yu bitta qizimni jo'jalarim bilan ko'chaga haydab qo'yaymi? Tor qorninga-siqqan keng uyimga sig'miydimi?.. Boshida etgandim. Umida, jon qizim, esingni yig', bo'ladigan savdo emas, bu bolaning ko'zi bejo, degandim. Hozirgi yoshlarni bilasan-ku! «O'laman sattor, shundan boshqasiga tegmiyman», deb turib oldi. Mana nima bo'ldi!

– Men qizingizni so'rayotganim yo'q, grajdanka To'laganova! Kim bilan turasiz, deyapman. Savol tushunarlimi?

– Bo'lmasa, nega uchaskovoy kun ora kirib siyosat qiladi? Kwartiraning maydoni to'rt kishiga to'g'ri kemaydi, deydi? Kechayam bordi. No'rmaga to'g'ri kemasmish. Bo'lmasa, uy obber, uch xonalimi, to'rt xonalimi, desam, man sizga kvartir beradigan ispolkom emasman, deydi. Komissar necha marta aytdi: kuyovingni sudga ber, qizing bilan nevaralaringga uy olib beradi, didi. Umida bir jahлга mingandi, nasihat qildim. Qo'y, bolam, shaytonga hayf ber, peshonangdagini ko'rib ketarsan, didim. Nima qiladi janjal qo'zg'ab. To'g'rimi? Kuyovim yaxshimi-yomonmi, uyam Xudoni bir bandasi-da! Ikkinchi xotinidan bolasi bor. Umida eriga jabr qilsa, o'sha bolaning ham ko'ngli o'ksiydimi, axir?

– Miyamni qoqib, qo'limga berdingiz-ku, xola. Aytyapman-ku, men boshqa narsani so'ramoqchiman.

– So'rayver, bolam, so'rayver.

– Shomatov Rustamni tanirmidingiz?

– Anavi... kuyovnimi? Albatta, tanirdim. Yaxshi bola edi, rahmatli. Har ko'rganda: «Hormang, xola, charchab qolmadingizmi?» deb so'rardi. «Sizni Pskentga olib borib, bir o'ynatib kelaman», derdi. Bu dunyoga kelib nima ko'rdi, bola sho'rlik! Qandoq yaxshi yigit edi...

– Yig'lashning hojati yo'q. Shomatov bilan kirish-chiqishinglar bormidi?

– Albatta, bor edi! Kelin-kuyov do'mga ko'chib kelgan kun-

lari eng avval man bilan tanishgan...

– Shomatovning oilasi bilan munosabati qanday edi?

– Kelin bilanmi? Qo‘sh kaptardek inoq edi. Qaniydi, mening kuyovim ham Umidaminan shunaqa totuv bo‘lsa, deb orzu qilardim.

– Nahotki, Shomatov xotini bilan hech urish-janjal qilmagan bo‘lsa?

– Begunoh bandasiga tuhmat qilish – odam o‘ldirish bilan teng, jon bolam.

– Har qalay-da! Turmushda nimalar bo‘lmaydi.

– Tavba! Xudoyo tavba! Man ketsam, bo‘ladimi? Halizamon nevaralarimni bog‘chadan olishim kerak. Bu hafta Umida ikkinchi ismenda... Anavi uchastkovoyingga etib qo‘yasanmi? Uyimdan haydab chiqarmaydimi?

– O‘tiring, grajdanka To‘laganova! Soat endi to‘rt yarim bo‘ldi.

– Xo‘p degin, umringdan baraka topgur. Asir namozim qazo bo‘lmasin...

– Namoz o‘qiysizmi? Namoz o‘qiysizmi, deb so‘rayapman. Hozir dindorlarga qarshi qanaqa kurash olib borilayotganini bilasizmi?

– O‘qisam, o‘zim uchun o‘qiyman-da, bolam. Komissarga etmay qo‘ya qol bu gapni.

– Qiziq xotin ekansiz-ku... Ayting-chi, ertalab barvaqt turasizmi?

– Albatta-da! Odamlar ishga ketguncha yo‘lkalarni supurib qo‘yishim kerak-ku!

– Shomatovning xotini ertalablari ko‘chaga chiqqanini ko‘rganmisiz?

– Shahnozami? Ko‘rganman! Xudoyligimni etaman, har kuni bo‘lmasayam kun ora bidon ko‘tarib sutga chiqardi. Sut do‘koni – gastronomni yonboshida. Tong otmasdan turnaqator ochered bo‘lib ketadi. Qarab turib yoqamni ushlayman. Senga yolg‘on, Xudoga chin. U yog‘i Tapaqo‘rg‘on, bu yog‘i «Qatortol» qandoq joylar edi. Hamma yoq – bog‘, hamma yoq – dala. Har xonadonda o‘ldim deganda bittadan sigir bo‘lardi. Beshyog‘ochga sut oborib sotardik. Endi-chi? Ertalabdan sutga ochered...

– Uff! Kelin o‘sha kuni ham sutga chiqdimi?

- Qaysi kuni?
- Eri o‘lgan kuni!
- Ko‘rmadim. Yolg‘on gapirishga Xudodan qo‘rqaman. Tag‘in bilmadim. Tuman edi. Quyuq tuman. Xudo biladi-ku, yo man pastga tushishimdan oldin, yo uyning orqa tomoniga o‘tib ketganimda sutga borgan bo‘lishiyam mumkin.
- Eslab ko‘ring-chi, uy atrofida bironta begona odamni Uchratmadingizmi?
- Yo‘q!.. To‘g‘ri, ancha narida bir sharpa ko‘ringandek bo‘ldi. Nazarimda, mani ko‘rib daraxt panasiga o‘tganga o‘xshadi... Tag‘in, bilmadim. Tuman edi.
- Bo‘y-bastini ilg‘agandirsiz, axir! Kelbati qanaqaydi? Semizmi, oriqmi? Novchami?
- Nazarimda, boshida to‘qima qalpoqcha bordek ko‘rindi. Anavinaqa, yosh bolalar sovukda kiyadigan qalpoqcha bo‘ladi-ku...
- O‘sha odamni hozir ko‘rsangiz, taniysizmi?
- Voy o‘lmasam! Qayoqdan tanirkanman? Etdim-ku, tuman edi. O‘n qadam narini ko‘rib bo‘lmasdi.
- Ayting-chi, Shomatovni oxirgi marta qachon ko‘rgan edingiz? Ya‘ni o‘lmasdan oldin?
- Rustamjonnimi? Bayram kuni ko‘rdim. Kechga tomon do‘kondan nevaralarimga kamput obkelayotgandim. Kichik nevaram kamputga o‘ch. Oshgayam kamput qo‘shib yeydi...
- Rustam nima qilayotgan ekan?
- Rustamjonmi? Ko‘cha bo‘yida turgan ekan. Salom berdi. «Kelinni olib uyga kiringlar, Umida osh damlavotti», disam, «rahmat», didi...
- Keyin-chi?
- Keyin... Umidaga aytdim, «yangi qo‘shnilar mehmonga chiqib qolishi mumkin, achchiq-chuchuk qil, turup to‘g‘ra», didim.
- Chiqishdimi?
- Yo‘q... Aksiga olib, chiroq o‘lgur o‘chib qolsa degin... Uyingga bug‘doy to‘lgur nevaralarim qorong‘idan qo‘rqadi. Chiroq hadeganda yonavermadi. Ikkalasi xarxasha qilishga tushdi. Uyda sham qurmagur tamom bo‘lgan ekan. Pastga tushdim. Qarasam, to‘rtinchi qavat derazasida nur bor. Yangi qo‘shnilarniki-da.

- Shomatovlarnikidami?
- Ha. Chiqdim.
- Eshikni kim ochdi?
- Kelin, Shahnoza. Shunaqa-shunaqa, didim. Bittagina sham berib...
- Shoshmang. Ichkarida kim bor ekan?
- Ichkari kirmadim.
- Hech qanday ovoz ham eshitilmadimi?
- Yo‘q... Nazarimda eshikni taqillatayotganimda ichkaridan Rustamjonning ovozi kelgandek bo‘luvdi.
- Nima dedi Rustam?
- Tavba! Birovning gapiga quloq solish gunoh-ku, xolang aylansin!
- Kelinning kayfiyati qanday edi?
- Qorong‘ida ko‘rib o‘tiribmanmi? Binoyidek edi, shekilli.
- Uyqingiz ziyrakmi?
- Bilmasam... Ba‘zan kechalari o‘t qopim og‘rib, to‘lg‘anib chiqaman.
- O‘sha kecha Shomatovlarning uyi tomonidan shubhali ovoz, baqiriq-chaqiriq eshitilmadimi?
- Yo‘q. Rustamjonlar ikki yo‘lak narida turadi.
- Yaxshi... Bilishimcha, siz hamma qo‘shnilarni yaxshi taniysiz. To‘g‘rimi?
- Yigirma besh yil birga turgandan keyin...
- Odatlariniyam bilasizmi?
- Bu nima deganing?
- Ya‘ni... masalan... Kimnikiga kim kiradi, kim chiqadi. Kim kim bilan yaqin?
- Birovning turmushiga aralashish – shaytonning ishi... Hadisi sharifda etganlarki...
- Xo‘p. Hadisingizni qo‘ya turing. O‘sha kuni ertalab Shomatovlarning pod‘ezdidan birontasi chiqmadimi?
- Xudo shohid: hech kimni ko‘rmadim.
- O‘sha tomondan shovqin-suron, deylik, deraza singani eshitildimi?
- Yo‘q.
- Shomatovning jasadini birinchi bo‘lib siz ko‘rdingizmi?
- Yerto‘la zinasida yotgan Rustamjon ekanini qayoqdan bilib-

man? Esimga tushsa, yuragim tuzdek achiydi! Qandoq yaxshi bola edi! O'n gulidan bir guli ochilmagan yoshgina yigit nima qiluvdi sanlarga, Xudo bexabarlar! Birovning joniga qasd qilishdan og'ir gunoh bormi? U yoqda bola bechoraning yosh joni ketdi. Bu yoqda kelin sho'rlik chirqillab qoldi...

– Jasad ustiga birinchi bo'lib otstavkadagi polkovnik G'aniev bordimi?

– Komissarni aytyapsanmi?

– Ha, o'sha kishini!

– To'g'ri, xudoyligimni aytaman. Avval Komissar bordi, keyin man...

– Ayting-chi, xola... Komissarni yaxshi taniysizmi?

– Taniyman, o'g'lim. Yaxshi taniyman. Hammamiz tepaqo'rg'onlik bo'lganimizdan keyin...

– Nima uchun namoz o'qishimni Komissarga aytma, dedingiz? Sizningcha Komissar qanaqa odam? Nega indamaysiz?

– Nima dey, bolam. Uyam Xudoning bir bandasi...

– Qiziq ekansiz... Mayli, sizga ruxsat. Borib, namozingizni o'qiyvering. Faqat... Bu gapni men aytmadim, siz eshitmadingiz. Tushunarlimi? Manavi propuskni eshikdagi dejurniyga berasiz...

Bormaysizmi, axir?

– Bir narsa so'rasam, maylimi, bolam? Oting nima?

– Bu yog'i qiziq bo'ldi-ku! Tergovchi menmi, sizmi?

– Eta qol, jon bolam.

– Ana! Povestkaga yozilgan-ku: «Starshiy tergovchi Saydaliyev S» deb. Familiyam Saydaliev, otim – Saida'zam.

– Bundan chiqdi, saidlar avlodidan ekansan.

– G'alati gaplarni gapirasiz, xola! Buning nima ahamiyati bor?

– Yana bitta gap etsam, ko'nglingga kelmaydimi?

– Obbo! Boring endi!

– Ketaman, bolam. Hozir ketaman. Xudo haqqi, eshigingdan kirib kelganimda qo'rqan edim. Keyin... qarasam, yuzingda nur bor. Mana endi tushundim. Palaging toza ekan.

– Ja-a, boshni aylantirib yubordingiz-da, xola?

– Bildimki, ruhing toza, bolam! Birovga yomonlik qilish qo'lingdan kelmaydi. Ajdodlaringni arvohi yo'l qo'yimiydi.

– Bo'pti, xayr, grajdanka To'laganova!

- Yana bitta gap aytsam, maylimi?
- Uff! Boring, dedim-ku!
- Bu hunar sanga yarashmiydi, xolang aylansin! Bo‘lak tirik-chilik qil... Bunaqa hunarning nonini yeydiganlar boshqacha bo‘ladi.
- Tergovchilar yomon odam deb kim aytdi sizga?
- Boshimdan o‘tgan, bolajonim! Boshimdan o‘tgan...

QURBONOV XOLANING ERTAKLARIDAN

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda yetti iqlimni so‘raydigan poshsho o‘tgan ekan. Poshshoning Xudodan tilab-tilab olgan yakka-yolg‘iz o‘g‘li bor ekan. Bola – baribir bola-da! Bir kuni sho‘xlik qilib, daraxtga chiqibdi. Yiqilib boshi yorilibdi. Poshsho chopib borib, o‘g‘lini yerdan ko‘tarib olibdi. Qarasa, bolasining yorilgan peshonasida «Nikoh kuni bo‘ri yeydi» degan yozuv bormish. Poshsho bu sinoatni hech kimga aytmabdi. Tabiblar bolani tez kunda tuzatib yuborishibdi. Ammo o‘g‘li katta bo‘lgan sayin poshshoning ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushaveribdi. Yurtidagi jamiki bo‘rilarni qirib tashlashga farmon beribdi. Oradan oy o‘tibdi, yil o‘tibdi. Poshsho shahzodani uylantiradigan bo‘pti. Oy desa yuzi, kun desa ko‘zi bor kelin topishibdi. To‘y kuni poshsho saroyning atrofiga mingta soqchi qo‘yibdi. Kuyov bilan kelin qo‘shiladigan kuni ostonada o‘zi poylab o‘tiribdi. Bir mahal ichkaridan dod-faryod eshitilibdi. Poshsho qilichini yalang‘ochlab kirsam, kelin kuyovning bo‘g‘zini g‘ajib turganmish. Poshsho bu nima qilganing, deb kelinning boshi ustida qilich ko‘tarsam, kelin: «Nima bo‘lganini o‘zim bilmayman, osmondan «sen bo‘risan, yoningdagi qo‘zichoqni yeyishing kerak», degan nido keldi», debdi.

ALLOH HAR NARSANI KO‘RGUVCHIDIR

Qora plash kiygan so‘xtasi sovuq kishilar dadasini olib ketganida Qurbonov o‘n to‘rt-o‘n besh yoshlarga borib, bo‘yi cho‘zilib qolgan edi. Olib chiqib ketishayotganda dadasi yo‘lak boshida turib, «Qizimni ehtiyot qil», degani Qurbonovning qulog‘idan ketmas, kechalari ma’yus kulimsirab turgan otasi tushlariga kirib

chiqar, ayasiga bilintirmay burchak-burchakka borib yum-yum yig'lar edi.

Ayasi bir gapni qayta-qayta takrorlardi:

– Dadangda gunoh yo'q, bolam! Dadang – farishtadek toza odam. Nima qilaylik. Yozig'imiz shu ekan. Buvang qamaldi, tog'ang urushda bedarak ketdi. Dadangni qismati bu bo'ldi... Mayli, yaratgan Egam suygan bandasining boshiga shunaqa sinovlar solar ekan.

Sentyabr oyida odatdagidek o'qish boshlandi. Qurbonoy yetinchiga ko'chgan edi. Odatdagidek, maktabga bordi. O'qituvchilarning muomalasi o'zgarib qolganiga, sinfdoshlarining biri achinib, biri xavotirlanib qarayotganiga e'tibor bermaslikka harakat qilar, dadasidan esa na xat, na xabar bor edi. Qurbonoy iloji boricha yaxshi o'qishga urinar, dadasi qulog'iga qayta-qayta quygan gap esidan chiqmas edi. «Sen, shunchaki o'quvchi emas, muallimning qizisan, bolam, a'lo o'qishga, o'rtoqlaringga namuna bo'lishga majbursan... Biron fandan «to'rt» baho olsang, xafa bo'laman. Faol bo'l, jamoatchilik topshirig'ini sidqidildan bajar!»

Kech kuz kunlaridan birida g'alati voqea ro'y berdi. Qurbonoy sinf bo'yicha navbatchi edi. Katta tanaffusdan keyin lattani ho'llab kelib, doskani hafsala bilan artdi. Keyin...

Dugonalari bilan o'ynab ketdi... Darsga qo'ng'iroq bo'lganida yugurib sinfxonaga kirsam, sinfdosh bolalardan qay biridir shumlik qilib doskaga bo'r bilan chizma-chiziq tortib tashlabdi. Qurbonoy, zir yugurib, latta izlaydiki, topsa qani? Bir mahal g'ishtin «plita-pechka» dudburonining qir uchiga ilib qo'yilgan lattaga ko'zi tushdi (Ko'tarmadagi Stalin nomli maktab «eng katta», «eng namunali» hisoblanar, bu dargohda sinfxonalar jo'n tunuka pechkalar bilan emas, g'ishtin «plita-pech» bilan isitilar edi). Jonholatda plitaga tirmashdi. Oyog'ini pechka qirrasiga, tirab, endi lattaga qo'l cho'zgan edi, «plita» chetidagi g'isht ko'chib ketdi-yu, Qurbonoy yonboshiga yiqildi. Bir amallab qaddini rostladi. Ko'ngli behuzur, chap to'pig'i sirqillab og'rir edi.

Bir mahal qarasa, boshida rus tili muallimi Xayrullin turibdi.

– Svolish! Chujdiy element! – dedi dag'dag'a bilan. – Ni qilding, vrag naroda?! Sovet pechkasini spetsialno lomat itting!

Qiziq... Qurbonoy yig'lagisi keldi-yu, yig'lamadi. Yig'lay olmas edi...

Keyin majlis bo'ldi. Uch kecha... Darsdan keyin... Aynan, darsdan keyin... RayONOdan odamlar keldi. «Nomi aytib bo'lmaydigan» tashkilotdan vakil ishtirok etdi. Uch kun majlis qilib, bir qarorga keldilar. Yettinchi sinf o'quvchisi To'laganova Qurbonoy sovet maktabining pechkasini ataylab sindirdi. Erta-indin sovuq tushsa, o'quvchilar o'rtasida norozilik kayfiyatini tug'dirish uchun qasddan shunday qildi. Bobosi – eshon bo'lgan. Sibirga surgun qilingan. Onasi – Fotima ashaddiy xalq dushmanining qizi. Otasi – Hakimov To'lagan shu maktabda matematikadan dars bergan. Afsuski, maktab pedagogika jamoasi Xakimovning yapon razvedkasi bilan aloqasi borligini o'z vaqtida tushunib yetmagan. «Tegishli tashkilot»larning hushyorligi bilan Hakimov kerakli jazosini olgan. Ammo shunda ham maktab pedagogika jamoasi siyosiy hushyorlik ko'rsatmagan. Ya'ni, o'quvchilarga sobiq matematika o'qituvchisi Hakimov To'lagan xalq dushmani ekanini tushuntirmagan...

Ertasiga maktabda umumiy «sbor» bo'ldi. Yuqori sinf o'quvchilarini safga tizib qo'yib, avval Xakimov To'laganning jinoyatini birma-bir «isbotladilar». Keyin o'sha dushmanning qizi – buzg'unchi Qurbonoyning qismati hal etildi. Xulosa shu bo'ldiki, To'laganova Qurbonoyga sovet maktabida o'rin yo'q. Hushyor bo'lib turilmasa, bu qiz ertaga maktabni portlatib yuborishdan ham toymaydi... Ajab! Onasi ham, o'zi ham bu narsani oddiy haqiqat deb qabul qilishdi. Qo'ni-qo'shnilar u yoqda tursin, qarindoshlaring ham qadamini tortib qo'yganda, maktabdagi muallimlar xalq dushmanining qizini jinoyat ustida qo'lga tushirib, o'qishdan haydasa, nima bo'пти!

...Buni qarangki, «ulug' dohiy» maktab muallimlaridan boshqacharoq fikrlar ekan. «Ota uchun bola aybdor emas!» degan shior bor ekan. Bundan chiqdi – Qurbonoy gunohkor emas! To'g'ri, bobosi – eshon, ya'ni dushman, otasi – yapon razvedkasi agenti, u ham dushman. Biroq Qurbonoy dushman emas. Unsur bo'lsayam ongsiz, tasodifiy unsur. Basharti sovet pechkasini qasddan buzgan taqdirda ham uni tarbiyalash kerak. Ustiga-ustak yetti yillik majburiy ta'lim degan qonun bor. Bundan chiqdi, ko'tarmadagi Stalin nomli namunali maktab o'quvchisi To'laganova Qurbonoy yetti yillik to'liqsiz o'rta ma'lumotni olishi – majburiy!

Baribir, Qurbonoy maktabga bormadi. O'qishdan ko'ngli muz bo'lib ketgan edi.

Qurbonoy ayasiga qo'shilib do'ppi tikishni o'rgandi. Namoz o'qiydigan, ro'za tutadigan bo'ldi. Hayhotday hovlida ona-bola shumshayib qolishgan, ammo ayasi hech qachon hech kimga hasrat qilmas, do'ppi tikib topgan chaqalariga amallab ro'zg'or tebratib turishardi. Eshonbuvadan qolgan qo'rg'onning devorlari baland, hovli sahni keng edi. O'rtadagi bir tup azamat tut hovliga salqin berib turar, etakdagi otxonalar, bostirmalar huvullab yotar-di. Ayasining aytishicha, bir zamonlar otxonalar-u qo'ralar nazr-niyozga to'lib ketarkan. Ammo Eshon buva eldan tushgan nazr-larni elning o'zi bilan baham ko'rar, yetim-esirlarga xayr qilar-kan. Shuning uchun ham muridlar Eshon buvaga ayri-cha ixlos qo'yishar ekan. Qurbonoy ayasining gaplari rostligiga shubha qilmasdi. Buvasi shundoq mashhur eshon bo'lsa ham mol-dunyo to'plamagani aniq. Dunyoga hirs qo'ysa, atigi bir uy, bir ayvonga qanoat qilmay, qo'sha-qo'sha imoratlar soldirgan bo'lardi.

Qurbonoyning esidan chiqmaydi. Dadasi qamalgan yili qish qattiq keldi. Ketma-ket qor yog'ib, sovuq zaptiga oldi. Hovlidagi tut shoxlari qor zalvari ostida egilib turar, musichalar ayvonda pildirab non-ushoq izlar, ona-bola iliq-miliq tanchaga tiqilib, kechalari alla mahalgacha uxlo olmay yotishardi.

Shunday kechalardan birida ko'cha eshik qattiq gursulladi. Qurbonoy sandalning narigi tomonida yotgan onasi «Astag'firullo, o'zing panohingda asra, Xudoyim», deb o'rnidan turganini ko'rdi. Onasi tokchadagi yettinchi lampani yoqdi.

Qurbonoyning yuragi gupullab urar, o'rnidan turishga majoli yo'q edi.

– Kim, aya? – dedi qo'rquvdan titrab. Ko'cha eshik hamon gursullar edi.

– Bilmasam... – Onasi egniga eski kamzulini kiya turib tag'in Allohga tavallo qildi: – O'zing asra, yaratgan Egam!

Qurbonoy lampani kafti bilan pana qilgan ko'yi ayvonga yo'l olgan ayasiga ergashdi. Hovlini qalin qor bosib yotar, ammo ha-vo ochiq, sovuq edi. Ona-bola kalishni poyma-poy kiygancha, katagiga mushuk oralagan kaptardek tipirchilab, eshik-oldiga borishdi.

– Kimdi? – dedi onasi ovozi qaltirab.

Darvoza ortidan erkak kishining dag‘dag‘ali buyrug‘i eshitildi:

– Oching!

Onasi battar titrab–qaqshagan ko‘yi qayta so‘radi:

– Kimsiz o‘zi?

– Qonun nomi bilan buyuraman! Och!

Buyruq shu qadar qatiy ediki, onasining qo‘li qaltirab, lampaning shishasi jiringlab ketdi. Behush bir tarzda tambani sura boshladi.

– Ochmang, aya! – dedi Qurbonoy yig‘lamsirab. – Ochmang, yomon odamlar!

– Bo‘lasanmi-yo‘qmi? – Narigi tomondan yanayam dag‘dag‘ali tovush keldi. – Buyruqqa bo‘ysunmasang, qonun oldida javob berasan!

– Mana, hozir... – Onasi titroq qo‘li bilan amallab tambani surdi.

O‘sha zahoti eshik ochilib qora charm plash, shapka kiygan odam ostona hatlab kirdi.

– O‘lib qolganmisan?! – dedi g‘azabdan tishi g‘ijirlab. Qurbonoy chiroq yorug‘ida tanidi: bu o‘sha! Dadasini olib ketgan odam. Soqoli qirtishlab olingan. Shapkasini quyuq qoshi ustiga bostirib kiygan, ko‘zlari yonib turibdi.

– Kim bor uyingda? – dedi atrofga alanglab.

– O‘zimiz... – onasi shapkalining ketidan boshqalari ham keliishi muqarrardek tag‘in bir lahza turib qoldi. Hamon qo‘llari qaltirar, lampa shishasi nola chekkandek ojiz jiringlardi.

– Boshla! – dedi shapkali iyagi bilan imo qilib. Avval onasi, ketidan shapkali, uning ketidan Qurbonoy qori kuralgan so‘qmoqdan tizilishib ayvonga chiqishdi. Onasi kalishini yechmay kavshandozda turib qoldi.

– Boshla!

Onasi kalovlanib uyga kirdi. Shapkali uning ketidan ergashdi. Ammo ichkari kirmadi. Kavshandozda to‘xtab qoldi.

– Chiroqni qo‘y! – dedi sandalga imo qilib. Qurbonoy ayvon o‘rtasida to‘xtab qolgan, shapkalining niyati nimaligiga aqli yetmas, hamon qo‘rquvdan yuragi gursullab urar, faqat bir narsani aniq bilar edi: bu yomon odam. Dadasini olib ketgan! Onasi talmovsirab, ichkari kirdi. Chiroqni sandal ustiga qo‘ydi, shekilli,

ayvonni yarim zulmat chulg'adi. Faqat ochiq eshikdan chiroqning qizg'ish nuri tushib turardi. Shapkali etigini yechmay, shiddat bilan uyga otilib kirdi. Qurbonoy nima gapligiga hamon tushunolmay, kavshandozga keldi. Onasi sandal yonida qo'rquvdan ko'zlarini katta-katta ochgancha qo'nishib turardi. Shapkali negadir o'ng qo'lini charm paltosining cho'ntagiga suqib, uy to'riga bordi. Chap qo'llab kirpich, dorpechlarni shart-shart uzib tushirdi. Ko'rpa-to'shak yig'ilgan taxmonlarni birma-bir ko'zdan kechirib chiqdi. Ko'rpacha ustiga etikli oyog'i bilan cho'kkalagancha sandal ko'rpasini ham ko'tarib ko'rdi. Qiziq, o'ng qo'li hamon cho'ntagida edi.

Oxiri, ko'ngli bir qadar joyiga tushdi, shekilli, qaddini rostladi.

– Ko'tar! – dedi chiroqqa imo qilib.

Qurbonoy ajdar sehriga duch kelgan quyonday hamon qotib turgan onasiga qaradi-yu, dod solib yig'lagisi keldi. Ajab, negadir yig'lay olmadi. Ich-ichidan otilib kelgan faryod tomog'ida tiqilib qolganga o'xshardi.

– Kimni qidirapsiz? – dedi nihoyat onasi tilga kirib. – Kim kerak o'zi sizga? Shapkalining ko'zlari tag'in chaqnadi.

– Ko'tar! – dedi tahdid bilan.

Onasi chiroqni ko'tarib kavshandozga chiqqanida Qurbonoy beixtiyor chetlab, yo'l berdi. Shapkali unga qayrilib ham qaramadi. Go'yo qadami ostida paydo bo'lgan chuvalchangni ko'rma-gandek.

Qurbonoy sarpoychan kalish kiygan onasining chiroq tutgan-cha g'arch-g'urch qor bosib borayotganini ko'rib turar, achinar, ammo nima qilishini bilmas edi. Shapkali esa uning ketidan ergashib borardi. Bostirmaga, molxonaga, hatto hovli burchagidagi hojatxonaga ham kirib-chiqishdi. Qurbonoy ayvon ustuniga suyanib turar, eski kalishidan zax o'tib, oyoqlari muzlab ketganini His etar, joyidan jilishga qo'r qar edi. Hovlining burchak-burchaklarini aylanib chiqishdi. Oldinda chiroq tutgan onasi, orqasida charm paltosining o'ng cho'ntagiga qo'l solgan, mushukdek ehtiyotkorlik bilan qadam bosayotgan shapkali...

Nihoyat, ayvonga qaytib kelishdi. Onasining es-hushi endi joyiga keldimi, yo qizi sovuqda dirdirab ketganini his etdimi, xiyla dadil, mehribon ohangda koyidi:

–Uyga kirmaysanmi, jon qizim! Muzlab ketding-ku!

Shapkali Qurbonoyga tezgina qarab oldi-yu, hech nima demadi. Kavshandozda engashib, etigini yechdi. Lekin o'ng qo'lini hamon cho'ntagidan olmadi. Sandalga oyog'ini tiqqanidan keyingina Qurbonoy sovuq jon-jonidan o'tib ketganini sezdi. Yelkaları silkinar, a'zoyi badani titrar, negadir nafas olishga qiynalardi. Qiziq, shapkali ham sandalning bir tomoniga cho'kdi. Oyoq'ini sandalga tiqib, bir zum ko'zlarini yumib turdi-da, buyurdi:

– O'tiring! Nega qaqqayib turibsiz? Ajab, bu safar negadir sizlab gapirdi. Tokcha oldida turgan onasi bosh chayqadi.

– Ziyoni yo'q, men turaveraman...

– O'zingiz bilasiz... – Shapkali boshidan shapkasini yechib, sandal ustiga to'nkarib qo'ydi. Ikki chakkasidagi sochlari yoyilib, qulog'iga tushdi. Uch oy oldin dadasini olib ketayotganida bu odam Qurbonoyning ko'ziga Azroildek vahimali ko'ringan edi. Yo'q, hammaga o'xshagan odam ekan. Qalin qoshli, yuzlari qoramag'iz. Lablari yupqa... Faqat soyasi devga, sochlari paxmaygan alvastiga o'xshaydi.

– Sandal – jonning rohati-da, – dedi to'satdan. – Birpasda bading yayraydi.

Shunday deb, jilmaydi. Qarang! Jilmayishi ham odamga o'xsharkan! Yupqa lablari yoyilib,

ko'zlari suzilib ketarkan.

– E, o'tirsangiz-chi, Fotimaxon! – dedi bir qadar samimiyat bilan.

Qurbonoy onasiga iltijo aralash termildi. O'tirsa-chi ayasi! Nima qiladi jahlini chiqarib!

Onasi bir nuqtadan ko'z uzmay turar, sarpoychan oyog'i go'shtdek qizarib ketgan edi.

– Dadası tirikmilar? – dedi nihoyat tilga kirib. – Jonlari omonmi?

– Bunisi sizga bog'liq! – Shapkasini yechib qo'ygan «shapkali» tag'in kulimsiradi.

– Xat-xabar bormi?

– Bunisiyam sizga bog'liq! – «shapkasiz shapkali» sandaldan qo'llarini chiqarib, kaftlarini g'ayrat bilan ishqaladi. – Bizga bir xatni topishda yordam bersangiz, eringizdan xat olishga ruxsat etamiz.

– Nima deganingiz bu? Qanaqa xat? – Onasi ko‘zlari hayratdan kengayib so‘radi: – To‘lagan akamning hamma narsalarini olib ketdinglar-ku, yana nima kerak?..

«Shapkasiz shapkali» qah-qah urib kuldi. Qurbonoyning yuragi zirqirab ketdi. Umrida bunaqa sovuq qahqahani eshitmagan-di. Yo‘q, bu kulgi emas, kaltakesakning xonishiga o‘xshagan mudhish bir tovush edi.

– Voy Fotima-ey! Voy mug‘ambir-ey! – «Shapkasiz shapkali» tag‘in kaltakesakdek chirqilladi: – Sen bizni shunchalik sodda deb o‘ylaysanmi? Xat qani, xat? – to‘satdan vajohati o‘zgarib, shu qadar g‘azab bilan sandalga mushtladiki, lampa piligi lopilab ketdi. – Ering yapon razvedkachisidan olgan xatni qayoqqa tiqding?

Qurbonoy qo‘rquv ichida o‘rnidan turib ketdi. Onasi madori qurigandek sandal chetiga cho‘kkalab qoldi.

– Soat aka! – dedi iltijo qilib. – Bandasi bilmasa, Xudoyi taolo ko‘rib turibdi-ku! Bir joydagi odammiz-ku! Alloh shohid, erimning gunohi yo‘q! – U alam bilan sandal chetidagi ko‘rpachani changalladi. – Yo‘q! Yo‘q! – dedi butun gavdasi bilan tebranib. – Nega buncha qiynaysiz odamni, baraka topgur! – Tizzasi bilan sudralib keldi-da, ko‘zidan duv-duv yosh oqib yolvordi. – Iloyo, martabangiz bundan ham baland bo‘lsin. U dunyo-bu dunyo g‘am ko‘rmang! Dadasini chiqarib yuboring, Soat aka! Bittagina bolamni yetim qilmang!

– Nari tur-e! – «Soat aka» hazar qilgandek, o‘zini chetga oldi. – Xat qani, xat? – dedi o‘kirib.

«Soat aka»ning vajohati shu qadar tahdidli ediki, Qurbonoy onasiga yopishdi.

– Turing, aya! – dedi chirqillab. – Yig‘lamang, ayajon! Shunda... onasining ham qiyofasi birdan qahrli tus oldi.

Qurbonoy ayasini bunaqa alpozda birinchi ko‘rishi edi.

– Qachon qonga to‘yasan, odamxo‘rlar! – dedi o‘tirgan joyida namatni mushtlab. – Otamni o‘ldirdilaring, ukamni bedarak yo‘qotdilaring. Endi bolamniyam yetim qilmoqchimisan, Xudo be-xabar!

– Aya! – Qurbonoy onasining qo‘ltig‘idan ko‘tarishga urinar, ammo kuchi yetmasdi. – Bo‘ldi, ayajon!

– Erim bilan birga o‘qiganding-ku, imonsiz! – Onasi sochlari

yoyilgancha faryod chekdi. – Dushman emasligini bilarding-ku, vijdonsiz! Obkeb ber! Obkeb ber bolamning otasini! – Shunday deb «Soat aka»ning yoqasiga yopishdi.

«Soat aka»ning rangi gezarib ketdi. Kuchi boricha tarsaki tushirgan edi, onasi Qurbonoyning oyogʻi ostiga shilqillab yiqildi.

– Mana senga, unsurvachcha! – «Soat aka» tagʻin musht koʻtargan edi, Qurbonoy chirqillab qoʻliga yopishdi.

– Urmang! Jon amaki, urmang ayamni! Ayajon! Koʻzingizni oching, ayajon!

– Obke, suv-puv! – «Soat aka» koʻzi olayib Qurbonoyga dagʻdagʻa qildi.

Qurbonoy kalish bilan qor kechgancha qorongʻi bostirmaga yugurdi. Paqirdagi suv muzlab qolgan ekan. Yogʻloq bilan urib, muzni sindirguncha talay fursat oʻtdi. Nihoyat, titroq qoʻllari bilan toʻkib-sochib yogʻloqda suv olib keldi.

Onasi koʻzini ochgan, oʻng yuzi momataloq boʻlib ketgan edi. Sandal chetida hud-behud chayqalib oʻtirar, «Soat aka» bir nimalarni gapirardi. Qurbonoy uning soʻnggi soʻzlarini eshitib qoldi:

– Gaping toʻgʻri, Fotima! Bir joydagi odammiz... Lekin nima qilay, men ham davlatning odamiman-da...

Onasi Qurbonoy tutqizgan suvdan bir qultum ichib, yogʻloqni kafti bilan nari surdi. Koʻzidan shashqator yosh oqib yalindi:

– Soat aka! Toʻlagan akam tuhmatga qolganini boshqalar bilmasa, siz bilasiz-ku, baraka topgur!

«Soat aka» bir zum oʻylanib turdi-da, charchab ketgandek xoʻrsindi:

– Bolam yetim boʻlmasin, desang, xatni top!

– Qanaqa xat, tuhmat qilmay, tuhmat balosiga yoʻliqqur, qanaqa xat! – Onasining chehrasida yana cheksiz atash, qaysar qatiyat paydo boʻldi. Qoʻshqoʻllab tizzasiga shapatilay ketdi: – Nima qilay axir! Nima dey? Xudoga ishonmasang! Qurʻonga ishonmasang! Bitta-yu bitta bolamni oʻrtaga qoʻyib ont ichsam, ishonasanmi? Yolgʻon gapirsam, iloyo, yakka-yu yolgʻiz qizimning oʻligini ustida oʻtiray! Maylimi! Agar sen tuhmat qilayotgan boʻlsang, u dunyo-yu bu dunyo kun koʻrgin-u, kuni roʻshnolik koʻrmagin! Xoʻpmi? Bolalaringning oʻligi ustida oʻtirgin, maylimi?

«Soat aka» pinagini buzmadi.

– Xat? – dedi istehzoli kulimsirab. – Xat qani?

– Ana! Xohlagan joyingni qidir! – Onasi qat'iy qarorga keldi, shekilli, Qurbonoyga anchayin osoyishta ohangda buyurdi: – Yot, qizim, uxla!

Qurbonoy hamon qo'lida tutib turgan yog'loqni tokchaga qo'ydi. Endi sandal chetiga o'tirmoqchi edi, «Soat aka» g'udrandi:

– Qizingga ayt, chiqib ketsin. Obisk qilaman. Qo'limda order bor!

– Qizim senga xalaqit bermaydi, – dedi onasi allanechuk vazminlik bilan. – Xohlagan joyingni tekshiraver.

– Chiqsin! – «Soat aka» tishlarini g'ijirlatdi. – Men yosh avlodda sovet organlariga qarshi kayfiyat uyg'otishni xohlamayman! Ayt, chiqib ketsin!

Onasi bir zum ikkilanib turdi-da, egnidagi kamzulni yechib Qurbonoyga uzatdi.

– Kiy, bolam... Mayli, ayvonga chiqib tur. Qurbonoy ayvonga chiqib, ustunga suyandi. Tiniq osmonda yetim oy g'arib mo'ltirar, sovuq yulduzlar diydirar edi. Ichkaridan sado chiqmas, faqat ahyon-ahyonda qog'ozlarning shitir-shitiri eshilib qolardi... Qurbonoy shu ko'yi ancha turdi. Oyog'idan yax o'tib ketdi. Ichichidan muzlatib yuborayotgan sovuq titroqni bosish uchun chuqur-chuqur nafas olib ko'rdi. Tishlari takillab yer tepindi. Oxiri, uyqu bosdi. Ayvon burchagiga borib, gujanak bo'lib o'tirdi. Ko'chada qolgan mushuk boladek... Bir mahal eshik zanjiri shiqillagandek bo'ldi. Umid bilan o'sha tomonga qaradi-yu, negadir ichkaridan nur tushmay qolganini ko'rdi. Nimadan qo'rqayotganini o'zi anglamay, oyoq uchida eshik oldiga bordi.

Qulog'iga hansiragan ovoz kirdi:

– Yechin! Bo'l tez!

– Yo'qol! Qoch, iflos! Hozir dodlayman!

– Dodla! Dodlayver, unsur! Obisk paytida menga pichoq o'qtaldi, deyman-da, otib tashlayman!

– Bu qanaqa bedodlik!

– Yaxshi ko'raman seni, tentak! Esingdami, hov o'shanda qor otganim? Hazillashgan edim, jinni! Yomon qarg'aganding... Men seni... seni... o'shanda yaxshi ko'rib qolganman.

– Qoch! Qoch, imonsiz! Yo Xudo! Bu qanday sharmandalik!

Ayvonda bo'y yetgan qizim turibdi!

Qurbonoy eshikni itargan edi, ochilmadi. Ichkaridan zanjir lab qo'yilgan ekan.

– Aya! – dedi chinqirib. – Ayajon! Oching! Qo'rqib ketyapman!

Eshikni mushtlay boshladi.

Ichkarida bir zum sukut cho'kdi. Keyin «Soat aka»ning g'o'ldiragan ovozi keldi:

– Qizingning bo'yi yetib qolganmi?.. Yaxshi! Chaqira qol, qizingni!

– Aya! – Qurbonoy eshikni tepkiladi. – Ayajon!

– Davay! – «Soat aka» tag'in g'o'ldiradi. – O'zing hal qil. Yo sen, yo qizing...

– Qurbonoy! – Bu onasining ovozi edi. – Qurbonoy! Ket! Ket bu yerdan! Tezroq!

Qurbonoy ketishi kerakligini tushundi. Ammo qayoqqa borsin yarim kechada? Kimnikiga boradi? Eshik oldida turaverdi.

Ichkaridan yana hansiragan tovush keldi:

– Soching muncha uzun, Poti? Ayb o'zingda. Xalq dushmaniga balo bormidi? Menga tegsang-ku... Menga qara, Poti... Yig'lamagin... Haliyam bo'lsa kechmas... «Erim xalq dushmani ekanini bilmagandim, voz kechaman», deb bitta tilxat yozsang, gazetada chiqaramiz. Keyin... Qizingni eng yaxshi institutlarda o'qitamiz, idrokli ko'rinadi. Fotima, bo'ldi endi, yig'lamagin...

Qiziq, Qurbonoy hech nimani o'ylagisi kelmasdi. Endi oyoqlaridan muz o'tmas, sovuqdan yelkalari titramas, faqat uyqusi keldi. Shuursiz bir alpozda ayvon burchagiga bordi. Boshini muzdek devorga bosgan ko'yi uyquga ketdi. Tush ko'ribdi. Gullagan olmazor emish. Qor yog'ib turganmish. Qorlar yog'ib-yog'ib olma shoxlariga qo'narmish-da, gulga aylanib qolarmish. Qurbonoy olma tagida yotgan emish. Bir mahal gullagan olmazor orasidan dadasi chiqib kelibdi. Boshida yangi do'ppi, egnida jujuncha xalat, shim emish. «Qurbonoy, tur, jon qizim, seni sog'inib ketdim-ku», dermish. Qurbonoy o'midan turib dadasining bag'riga otilmoqchi bo'larmish-u, qaddini rostlay desa, oyoq-qo'li qimir-lamasmish.

– Qurbonoy! Tura qol, jon qizim!

Bilmaydi, bu gapni tushida eshitdimi, o'ngidami? Shunisi esi-

daki, onasi – sochlari to‘zg‘ib ketgan onasi qo‘ltig‘idan ko‘targa-nicha sudrab uyga olib kirdi. Sandal chetiga yotqizib oyoqlarini uqaladi, ustiga ko‘rpa tortdi.

– Choy ich, jon bolam, choy ich! – dedi yig‘lab. Qurbonoy ko‘zlarini yarim-yorti ochdi. Shunda ayasining qovoqlari shishib ketganini g‘ira-shira ko‘rdi. Tag‘in uyqu bosdi.

– Uxlayman, aya, – dedi bemajol shivirlab.

Onasi uning boshini siladi, uzoq siladi. Keyin yuzidan o‘pdi. Qurbonoy yuziga issiq yosh tomchilari yog‘ilayotganini elas-elas idrok etar, ammo ko‘zini ochishga madori yo‘q edi.

Qancha yotganini bilmaydi. Bir mahal eti junjikib uyg‘ondi. Sandal sovib qolgan, uy ichi nimqorong‘i edi.

Xayoliga «haliyam tong otmabdi-da», degan o‘y keldi. Yana birpas uxlamochi edi, negadir ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushdi.

– Aya-ya! – dedi yotgan joyida.

Uy ichi jimjit. Tokchadagi mushuk ko‘zli soat shoshqin chiqillar, millari oltini ko‘rsatib turardi. Hech nimaga idroki yetmadi: ertalabmi hozir, kechqurun?

– Aya! – dedi tag‘in. Sado bo‘lmagach, sirg‘alib ko‘rpa ichidan chiqdi. Kalovlanib ayvon tomon yurdi. Vujudida mador yo‘q.

Negadir oyog‘ining barmoqlari achishib og‘rirdi.

– Aya-ya! – tovushi pastak ayvonning shiftiga urilib qaytdi. Hovli o‘rtasidagi tutning qor bosgan novdalari sovuq shamolda titrar, shoxlarning uch-uchida oqshom shafag‘i yaltirardi. «Kun botyapti, shekilli, kechgacha uxlabmanmi?» degan o‘y xayolidan lip etib o‘tdi. Oyog‘iga eski kalish kiyib, hovliga tushdi. Yana onasini chaqirdi.

Kechasi bo‘lgan voqeani eslamaslikka harchand urinmasin ayasining zor qaqshab yig‘lagani, anavi «Soat aka»ning dag‘dag‘alari yodiga tushib, yuragiga vahima o‘rmladi. «Xadicha xolamnikiga chiqqanlar», dedi o‘zini-o‘zi yupatish uchun pichirlab. Muzdek kalish ichida oyog‘ining barmoqlari battar sanchib og‘riy boshladi. Ayvon burchagida g‘ujanak bo‘lib o‘tirgani, onasining anavi kishiga yalinganlari yana esiga tushdi. Yo‘lak tomonga yurdi. Ko‘cha eshik taqa-taq berk, tamba bostirilgan edi. Vahimasi kuchayib ketdi. Oyog‘ining achishgani ham yodidan chiqib, kalishi qorga to‘lgancha hovli burchagidagi molxona eshigiga bordi. Yig‘lamsirab chaqirdi:

– Aya-ya!

Qo‘rqib ichida molxona eshigini ochdi. Nimqorong‘i molxonadan chirigan xazon, eski go‘ng hidi kelar edi. Qor kechib bostirma oldiga bordi. Pastak eshikni tortgan edi, negadir ochilmadi. Eshik halqasidan tutganicha kuch bilan qo‘shqo‘llab siltay boshladi. Zanjir ichkaridan ilib qo‘yilgan, asabiy shiqirlar, ammo ochilmasdi.

– Oching, aya! Qo‘rqib ketyapman! – dedi Qurbonoy baralla yig‘lab.

Jon-jahdi bilan tortgan edi, zanjir uzildi chog‘i, pastak eshik nolali g‘iyqillab ochildi. Ichkaridan ko‘zlari yiltillab turgan bir nima otilib chiqdi-da, shuvullab yonidan o‘tib ketdi. Qurbonoy qo‘rqanidan dodlab yubordi. Ammo ovozi chiqmaganini keyin payqadi. Qarasa, muz bosgan ostonada o‘tiribdi. «Mushuk-ku!» – dedi o‘ziga-o‘zi dalda berib. Mushuk ayvon zinasida to‘xtab, unga yovqarash qilib qo‘ydi. Qip-qizil, yupqa tilini chiqarib labini yaladi-da, unsiz sakrab ayvonga chiqdi. Qurbonoy qorga belangan etagini kafti bilan tozalagan bo‘ldi. Qorong‘i bostirmaga bosh suqdi. Ichkari kirishga yuragi betlamadi, bir zum turib qoldi. Keyin, dadillanib ostonaga hatladi. Ikki qadam bosishi bilan ko‘kragi aralash yuziga muzdek narsa urilib, lopillab ketdi. U boshini ko‘tarib qaradi-yu, shundoq tumshug‘i tagida ikki oyoq shalvirab turganini ko‘rdi. Sarpoychan oyoqlar qorong‘ida sarg‘imtir rangda ko‘rinar, vazmin lopillab u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi. Qurbonoy dahshat ichida orqasiga tisarilar ekan, vassa – juftga ilingan arqonni, arqonda osilib yotgan gavidani ko‘rdi. Qo‘rquvni ham unutib, sarpoychan oyoqlarni changalladi.

– Aya, ayajon! – dedi chinqirib. Shunday qilsa, arqon uzilib, onasi xalos bo‘ladigandek oyoqlarini pastga torta boshladi.

– Unaqa qilmang, ayajon! Jon, ayajon, unaqa qilmang! Onasining oyoqlari muzdek sovuq, tayoqdek qattiq edi.

XUDO URGAN ODAM

Qurbonoy xola odatdagidek erta uyg'ondi. Achom qilib yotgan nevarasini ohista bag'ridan chiqarib, ustiga ko'rpa tortdi. Tahorat oldi. Oshxonaga kirib, gazga choy qo'ydi. Bomdodni o'qib bo'lib, o'tganlarga imon, jumla-mo'min qatori Umidaga, nevaralariga umr tiladi. Quruq tuhmatdan, bevaqt o'limdan saqlashni Tangridan iltijo qildi. Bir qo'lida kurak, bir qo'lida supurgi bilan pastga tushdi. Xayriyat, havo ancha ilibdi.

Gastronomning eshigi tepasida qizil chiroq yonib turibdi... Non do'koni oldiga mashina kelib to'xtadi.

Qurbonoy xola shoshilmasdan qor kuray boshladi. Birpasda terlab ketdi. Orqa tomondan Komissarning yo'g'on ovozi keldi:

– Horma, qizim!

Qurbonoy xola kurakka suyangan ko'yi xotirjam burilib qaradi va: – Salomat bo'ling, – dedi salom berib.

Komissar qora palto kiygan, tomog'ini ola-bula sharf bilan o'rab olgan, qo'lida sut bidoncha ko'tarib turardi.

– Sovqotmadingmi? – dedi mehribonlik bilan.

– Yo'q! – Qurbonoy xola jun ro'moli ostida terlab chakkasiga yopishib qolgan sochini kafti bilan siladi. – Kun tashlabdi-ku, ancha...

Komissar tomoq qirib qo'ydi.

– Xabaring yo'qmi, anavi bolani o'ldirganlar topilibdimi?

– Bilmasam, – Qurbonoy xola yelka qisdi. – Topilar...

– Topiladi! – dedi Komissar ishonch bilan. – Topilmay qayoqqa borardi?

Qurbonoy xola indamadi.

– Kelin qalay, kelin? – Komissar to'rtinchi qavatga, Rustamlarning derazasiga imo qildi.

– Jabr bo'ldi, bechoraga! Qon yig'lab o'tiribdi, sho'rlik...


– Oyoq olishi qalay? Oldiga begonalar kelmayaptimi?

– Voy, manov odamni! – Qurbonoy xola astoydil ajablandi. – Xudodan qo'rqmiysizmi?

Komissar birpas qor tepkilab turdi-da, to'satdan so'radi:

– Qalay, namoz o'qib turibsanzmi?

Qurbonoy xolaning yuragi shig' etdi. Kechagi tergovchi aytgan! Yaxshi bolaga o'xshovdi-ku? Kim bilsin, tag'in...



– Kim aytdi? – dedi shoshilib. – Men namoz o‘qimiyman.
– O‘qiysa-a-a-n! – Komissar barmog‘i bilan po‘pisa qildi. – Bilama-a-an! Men hamma narsani bilaman.

– Sut bor ekanmi? – dedi Qurbonoy xola gapni aylantirib.
– Bor ekan, – Komissar o‘ylanib qoldi. – Endi borib manniy kasha pishiraman.

– Bolalaringiz xabar olmiydimi? – dedi Qurbonoy xola. – O‘g‘lingiz bor... Nevaralaringiz...

– Xex! – Komissar istehzoli kuldi. – Hammasi bir go‘r!

– Unaqa demang, – dedi Qurbonoy xola astoydil ranjib. – Bolaning yomoni bo‘lmiydi.

– Tfu! – Komissar asabiy qo‘l siltadi. – Bola-chaqa boqib rohat ko‘raman, deganning padariga la‘nat!

Qurbonoy xolaning yuragi siqildi. Indamay qor kurashga tushdi. Birpasdan keyin qulog‘i ostida tag‘in Komissarning g‘o‘ldiragan tovushi eshitildi:

– Menga qara, Qurbonoy.

Qurbonoy xola qaddini rosladi. Komissar sut bidonini qor ustiga qo‘yib, allanechuk qo‘nishib turar, zahil yuzi o‘ychan edi.

– Rostingni ayt! – dedi kinoyali iljayib. – Joynamoz ustida har kuni qarg‘asang kerak meni? Ota-onang uchun, o‘zing uchun... Faqat to‘g‘risini ayt!

– O‘zimga nima qipti? – dedi Qurbonoy xola dili og‘rib.

– Xex! – Komissar kaltakesakdek chirqillab kuldi. – O‘zing bo‘lmasa, ota-onang uchun...

– Men hech kimni qarg‘amiyman, – dedi Qurbonoy xola ishonch bilan. – Qur‘onda bitilgan: Alloh har narsani ko‘rguvchidir. Tangrim hammasini ko‘rib turibdi.

Komissar birpas gezarib turdi-da, bidon bandidan ko‘tardi. Indamay nari ketdi.

Qurbonoy xola kurakning muzdek dastasini changallagan ko‘yi uzoq turib qoldi. Nima desa, bo‘ladi bu odamga?! Butun ajdodiga qiron kelti-rishga keltirdi. Buvasini o‘ldirdi, otasini o‘ldirdi, onasidan judo qildi. Ammo o‘zining baxtsiz bo‘lishida bu odamning aybi yo‘q.. Qurbonoy xola eridan ajrashgani uchun o‘kinmiydi. Shuncha-ki, turmushi kelishmadi, xolos.

... Onasi o‘lganidan keyin amakilari ota o‘rnida otalik qildi. O‘rab-chirmab uzatdi. Eri yaxshi yigit edi. Xalol, mehnatkash...

Faqat qaynota-qaynonasi Qurbonoyni hech biri suymadi. Kelin bo'lib tushgan oilasi zamonaviy ekan. Qaynotasi – olim, qaynonasi – injener. Qurbonoy ateizm degan ilm qanaqa bo'lishini bilmas edi. Qaynotasi o'sha ilm bo'yicha olim ekan. Qurbonoy burchak-burchakda yashirib namoz o'qib yurdi-yu, ro'za tutganda qo'lga tushib qoldi. O'shanda Umida ikki yoshga chiqqan edi. Qaynotasi bir kosa suv keltirib, hozir ichasan, deb turib oldi. «O'zim kommunist bo'la turib, ateist bo'la turib, oilamda dindorlik avj olishiga yo'l qo'ymayman», – dedi. Oraga kuyov aralashgan edi, «Feodalizm davridan qolgan bu maxluqni qayoqdan topgansan?» deb o'dag'ayladi... Qurbonoy qarasa, ota-bola yoqalashib ketadigan. Qizchasini ko'tardi-yu, chiqdi-ketdi. Eri so'roqlab kelgan edi, tushuntirdi: «Jon dadasi, men sizdan mingdanming roziman. Xafa bo'lmang, baribir turmushimiz to'g'ri kelmaydi. Man sizga munosib emasman. O'zingiz rozi bo'lib, taloq qo'ying...» Yozug'i shu bo'lsa, nima qilsin!

...Komissar bo'lsa meni qarg'aysanmi, deydi.

Qurbonoy xola hamon kurak dastasidan tutib turarkan, xo'r-sindi: – Xudoning o'zi urib qo'yibdi-ku sani, man nimangni qarg'ay!

QURBONoy XOLANING ERTAKLARIDAN

Bir kuni Haj safaridan qaytayotgan karvon shaharga yaqin joyda to'xtab, dam olibdi. O'sha yerda buloq bor ekan. Suv ichishibdi, salqinlab, hordiq chiqarishibdi... Karvonda uchinchi marta Haj qilgan nuroniy chol ham bor ekan. Chol safar bo'yi hammaning hojatini chiqargan, donishmand odam ekan.

Bir mahal shahar tomondan bitta o'tliq yelib kelibdi. Bo'za ichib olgan, mast yigit otdan sakrab tushibdi-da, yugura kelib, cholni tarsakilab yuboribdi. Karvondagilar yigitni o'rab olishibdi. «Bu odam senga nima yomonlik qildi?» – deyishsa, mast yigit indamasmish. Odamlar uning adabini bermoqchi bo'lib shaylanib turgan ekan, chol ularni shashtidan qaytaribdi. «Tegmanglar, bu – mening o'g'lim bo'ladi», debdi. Odamlar battar g'azabga minibdi. «Bu qanday farzandki, o'z otasiga qo'l ko'tarsa!» «Mayli, – debdi chol shunda. – Bu bolada ayb yo'q. Menda ham gunoh yo'q. Otamning jazosi menga qaytdi. Bolaligimda qulo-

g'imga chalingan edi: bir vaqtlar otam yoshlik qilib buvamni urgan ekan. O'shanda buvam duoyibad qilgan ekan...»

HAYOTNING BOSH MAZMUNI – PRINSIPIALLIK

Qurbonoyga nega unaqa dedi? «Joynamoz ustida meni qar-g'aysanmi?» emish! Shuyam gap bo'ldi-yu! Qarg'ish-parg'ish, duoyibad... Hammasi absurd! Chepuxa! Nega shu eshonvachcha uborshitsa bilan pachakilashdi? U kim-u farrosh kim?

Komissar sut bidonni ko'tarib borarkan, o'zining gapi o'ziga nash'a qilib, g'ijinar edi. Qariyapsan, birodar, qariyapsan. Ko'p gapirish – keksalik belgisi, chekist esa ko'p gapirmasligi kerak...

...O'sha hodisadan keyin uylanishga qaror qildi. Biografiyasi-ga dog' tushib qolishi mumkin edi. Organ bunaqa narsalarni ke-chirmaydi. Albatta, Fotima o'zini osib qo'ygani uchun polkovnik G'anievni ayblaydigan mard yo'q edi. G'ing deb ko'rsin-chi, «xalq dushmani»ni himoya qilgan shubhali shaxs sifatida qiya bo'lib ketadi! Nima qipti, G'aniev «xalq dushmani»ning uyida tintuv o'tqazdi. Hakimovning xotini o'zini osib o'ldirdi. Bunga G'aniyevning nima daxli bor? Eshonzoda Fotima Obidxonova-ni aybi bo'ynidadir-ki, o'ziga o'zi sirtmoq ilgandir! Qizi masa-lasiga kelsak... Yosh qizaloq nimani bilardi? Oila a'zosining gu-vohligi inobatga o'tmaydi. Fakt shuki, G'aniyev Obidxonovaga zug'um qilmadi, tan jarohati yetkazmadi. Har kim o'z joniga o'zi xo'jayin. Obidxonova o'lgisi kelgan bo'lsa, marhamat: o'laver-sin!

Komissar, mabodo ustidan shikoyat tushgudek bo'lsa, dalil-larni qatorlashtirib qo'ygan edi. Hech qanday shikoyat tushmadi. Biroq Soat G'anievich endi uylanmasa bo'lmasligini his etdi. O'ylab qarasa, yoshi ham o'ttiz beshga boribdi... Ana, tengdoshi To'laganning qizi bo'yiga yetib qolibdi. Erta-indin erga tegsa, bolali bo'ladi. Dushmanmi, balomi, ishqilib, uylanibdi, huzur-halovat ko'ribdi. Soat G'anievich nima ko'rdi dunyoga kelib?

Ko'z ochib ko'rgan xotining boshqacha bo'larkan-da! Nazira haliyam tushlariga kiradi. Yuvoshgina edi. Mayingina... To'g'ri, u paytda «Qizil to'y» qilish udum bo'lmagandi. Naziraning otasi «Bir kamim qizimning shuncha mehmon oldida kuyov bilan o'ti-rishini tomosha qilishim qoluvdi!» deb turib oldi. Kuyov uncha-

muncha odam emas, polkovnik ekanini, NKVD bilan hazillashib bo'lmashligini tushuntirib qo'yishdi, shekilli, chol shashtidan qaytdi. Esida, to'y nihoyatda xushchaqchaq o'tdi, hatto generalning o'zi ham keldi. Soat oilaviy baxt deganlari qanaqa bo'lishini ilk bor totib ko'rdi. Yarim kechada keladimi, tongotarmi, osh-ovqati tayyor.

Formasi dazmollangan. Tuflisi yaltiratib artib qo'yilgan. Uyi – chinni-chiroq...

Soat to'yning ertasiga Naziraga masalani ko'ndalang qo'ydi:

– Uydan chiqib ketayotganimda qayoqqa ketyapsiz, qachon kelasiz, demaysan. Kelganimda qayerdan keldingiz, nega shuncha yo'q bo'lib ketdingiz, demaysan. Ishim to'g'risida umuman so'ramaysan. Vazifam shunaqa!

Nazira erining hukmini quloq qoqmay bajaradigan ayollar toifasidan ekan. Soat nima desa, hammasini o'rniga qo'ydi... Soat uyda kam bo'lar, bor paytida ham er-xotin deyarli gaplashishmas edi. Qiziq, ular o'rtasida qandaydir sirli, xatarli devor turganga o'xshar, ikkovi ham o'sha devorga yaqin kelsa, biron kori hol ro'y berishidan hadiksirab turishardi.

Bir kuni Nazira «yorildi». Soat kechasi uyg'onib ketdi. Qarasa, chiroq yoniq. Tepasida xotini termilib o'tiribdi. Yuzini dog' bosgan, qorni katta. Pishillab nafas oladi.

– Nima gap, Nazira? – dedi Soat.

Xotini indamadi. Kiprik qoqmay o'tiraverdi. Baayni haykal! Ko'zi unda-yu, xayoli boshqa joyda.

– Hoy, – dedi Soat turtib, – ko'zingni ochib uxlayapsanmi?

Xotini allanima deb pichirladi.

– Nima? – Soat uning yelkasiga beozor qo'l tashladi. Nazira negadir o'zini chetga oldi.

– Qo'rqaman... – dedi pichirlab. Soat kulib yubordi.

– Nimadan qo'rqasan, ovsar!

– Qo'rqaman... – Nazira tag'in pichirladi. – Sizdan qo'rqaman!

– Mendan? – Soat uning yuzini silamoqchi edi, Nazira tag'in o'zini orqaga tashladi.

– Siz – qo'rqinchli odamsiz! – dedi yuzini o'girib. Soatning jahli chiqib ketdi.

– Nima deyapsan, ahmoq! – dedi zarda bilan. Qaddini rostlab

iyagidan tutgancha xotining ko'ziga chaqchaydi. – Qayoqdan olding bu gapni?

Ajab, Nazira qilcha ham cho'chimadi. Bir nuqtaga tikilib o'tiraverdi. Anchadan keyin o'ychan ohangda so'radi:

– Ko'p qarg'ish olganmisiz?

Soatning xayoliga lop etib Fotima keldi. Yuragi shuvullab ketdi (ajab, hech qachon bunday bo'lmagan edi). O'zining bir lahzalik ojizligidan o'zi g'azabga mindi.

– Kim aytdi? – dedi dag'dag'a bilan.

– Hech kim. – Nazira yuzini devor tomon burdi.

– Yo'q, aytasan! – Soat mushtini tugdi. – Kim o'sha ig'vogar?

– Hech kim! – dedi Nazira uning ko'ziga tik qarab. Keyin to'satdan yig'lab yubordi. – Soat aka! – dedi bo'ynidan quchoqlab. – Tug'ishdan qo'rqyapman... Ko'nglim sezib turibdi. O'lib qolaman!

Soat bir qadar yengil tortdi: ha-a, gap bu yoqda ekan-ku!

– Jinnimisan! – dedi yupatib. – Xotin kishi tug'adi-da! Bitta senmisan?

– Soat aka! – Nazira uning bo'yniga yanayam qattiqroq tarmashdi. – Bo'shang ishingizdan, tezroq bo'shang! Bilaman, bu ishingizda gunohga botasiz, jon Soat aka! Bittasi bo'lmasa, bittasi qarg'aydi. O'zingdan qaytmasa, bola-chaqangdan qaytsin, deydi. Baribir aytadi.

Nazira es-hushini yo'qotib qo'yganga o'xshar, nuqul «Bo'shang! bo'shang!» deb yolvorardi.

– E, o'chir-e! – dedi Soat toqati toq bo'lib. – Birinchidan, o'tavkaga chiqishimga hali ancha bor. Ikkinchidan, men sovet ofitseriman, burchimni bajaryapman. Tushunasanmi shuni, ahmoq xotin!

O'sha kecha xotini tonggacha hiqillab yotdi. Ertalab to'lg'oq boshlandi. Nazira bekorga qo'rqqan ekan... Pahlavondek o'g'il tug'di. Otini Mauzer qo'yishdi.

Ikki yil o'tib, yana bir o'g'il ko'rishdi – Mels!

Soat to'ng'ich o'g'liga ayricha mehr qo'ygan edi. Mauzer o'ziga o'xshagan ofitser bo'lishini xohlardi. Harbiy intizomga o'rgansa, yurganida yer titrasa... Yo'q, Mauzer ota yo'lidan ketmadi. Jurnalist bo'larmishlar. Gazetada ishlarmishlar. Ahmoq! Kolxozma-kolxoz yurib xabar yozishing qoluvdi endi. Otang

ko'rgan bunaqa «yozuvchi»lardan qanchasini! Hamma yerga burnini suqadi. Birovlarning qabulxonasida soatlab o'tiradi...

...Yo'q! Mauzer Soat G'anievichning o'ziga o'xshagan qaysar chiqdi. Jurnalistlikka o'qishga kirdi. Bu paytda Komissar iste'foga chiqqan edi. O'g'lining ra'yiga ko'nishdan o'zga chora topolmadi. Mauzer beshinchi kursni bitirayotganida uylantirishdi. Kelin insofli edi. Xushro'ygina, odobligina. Eng muhimi – kamgap... Nazira ikki gapning birida kelinni maqtar, o'g'lining peshonasi yaraqlaganidan xursand edi... Mauzer o'qishni bitirib respublika gazetasida ishlay boshladi...

...Bir kuni uyni mehmon bosdi: Mauzerning o'rtoqlari. Yarim soat o'tmay kvartirada qadahlar jarangi, qiyqiriq kulgu avjiga chiqdi. Komissarning g'ashi keldi. Bu xonadonda hech kim, hech qachon qiyqirib kulgan emasdi.

– Nima bu, hayvonot bog'ining eshigi ochilib ketdimi?– deb o'dag'aylagan edi, Nazira imlab, oshxonaga chaqirdi.

– Odamni sharmanda qilmang, jon dadasi! – dedi yalinib. – O'g'lingiz o'rtoqlari bilan gap yegan. Bugun Mauzerning navbatlari...

Oraga Mels qo'shildi:

– Qiziqsiz, dada! Akam uyimizga mehmon chaqirsa, yomonmi? Nimani biladi bular? Nimani tushunadi? O'ttizinchi yillarda xuddi shunaqa «gap» tufayli qanchasi qarmoqqa ilingan!

Kishi bilmas quloq soldi. Biri latifa aytadi, boshqasi siyosatdan oladi. Siyosatdan! Komissar Ganievning o'g'li allaqanday qing'ir-qiyshiq ulfatlari bilan siyosat so'qiyapti!

Ziyofat tugaguncha tishini tishiga qo'yib chidadi. Mehmonlar ketgach, Mauzerni siquvga oldi.

– Kim bular?

– Do'stlarim, – dedi o'g'li hayron bo'lib.

– Qayerda ishlaydi? Familiyasi nima? Mauzer ichgan edi. Ko'zlari suzilib, iljaydi.

– Hammasining anketasi kerakmi?

Oraga yana Nazira qo'shildi.

– Jon dadasi, – dedi yolvorib. – Uxlanglar. Kech bo'ldi. Ertalab gaplashasizlar.

Soat Ganievich qarasa, o'g'lidan tuzuk-quruq gap chiqadigan emas. Ertalabgacha kutishga qaror qildi. Tong-saharda Mauzerni

qaytadan so'roqqa tutdi:

– Kechagilar kim edi?

– O'rtoqlarim, – dedi Mauzer oromkursida o'tirgan ko'yi xotirjam sigaret tutatib.

– Nega siyosatga aralashadi?

– Ijtimoiy hayotga aralashmagan jurnalist yo'q, – dedi Mauzer g'o'ldirab.

– Sen ham aralashasanmi ijtimoiy hayotga?

– Albatta!

Komissar urib yuborishdan o'zini arang tiyib, o'ylanib qoldi. Xayoliga g'alati fikr keldi.

– Mayli, – dedi yon berib. – Gapga qo'shilishingga qarshi emasman. Bilaman, yigit kishining ulfati bo'lishi kerak. Faqat... – U yog'ini iloji boricha botmaydigan qilib, osoyishta tushuntirdi. – Bilasanmi, o'g'lim... Senlar yoshsan, hayotni yaxshi bilmaysan... Oralaringda sistemamizning dushmanlari bo'lishi mumkin... – Shunday deb, o'g'lining ko'ziga qattiq tikildi.

Mauzer bo'zrayib qolgan, kipriklarini ovsarlarcha pirpiratar edi.

– Yaxshi! – Komissar uning yelkasiga qoqdi. – Bemalol gapga qatnayver. Hammasining gapini eshit... Bironyasi jamiyatimizga dushman ekanini payqab qolsang...

Mauzerning og'zi lang ochilib, basharasi yanayam ahmoqona tusga kirdi.

– Nima? – dedi nihoyat. – Siz meni... meni... agent qilmoqchimisiz? – O'sha zahoti rangi gezarib ketdi. – Ovora bo'lasiz! – dedi baqirib. Shaxt bilan turdi-da, xonadan chiqib ketdi.

Komissar umrida bunday ayanchli ahvolga tushmagan edi. «Ahmoq!» – dedi ijirg'anib.

Ikki haftagacha uylari suv quygandek sukutga cho'mdi. Otabola gaplashmay yurishdi. Mels bo'lsa, umuman kamgap yigit. Sharqshunoslik kulliyotining urdu bo'limida o'qiydi. Erta ketadi, kech keladi. Ikki haftalik sukunatdan so'ng portlash ro'y berdi. Mauzer navbatdagi gapdan g'irt mast bo'lib keldi. Oyoqda turolmaydi. Kelin qo'ltig'idan olib, yotoqqa boshlayotgan edi, Mauzer nari itardi.

– Shoshma! D-d-dadam bilan g-gaplashib olishim k-k-erak! Nazira kelinning yoniga kirdi. Aylanib-o'rgilib, o'g'lini insofga

chaqirdi.

– Qo‘y, bolam, har qancha gaping bo‘lsa, ertaga gaplashasan.

– Yo‘qqq! – dedi Mauzer og‘zidan ko‘pik sachratib. – Yo hoz-z-zir, yo h-h-hech qachon!

– Ahvolini qara, bu molning! Qo‘yib bersa, Gamlet monologiniyam o‘qib beradi, mishiqli intelligent! Qani, bu yoqqa yur-chi!

– Dadasi, jon dadasi. – Nazira polaponini qo‘riqlagan ona chumchuqdek chirqillab qoldi. – Ko‘rib turibsiz-ku, holini, dada-jonisi!

– Mauzer aka, qo‘ying, – dedi kelin qo‘rqib. – Yuring, damingizni oling.

– Siz nari turing, kelin, – Soat Ganievich g‘azabini tiyib, osoyishta tushuntirdi. – Qani, nima gapi bor ekan? Eshitaylik-chi.

Ota-bola ro‘baro‘ o‘tirishdi. Biri stolning u tomonida, biri bu tomonida.

– Xo‘sh, gapir. Qulog‘im senda! – dedi Komissar.

– Yo‘-o‘q, – dedi Mauzer. – Avval bular chiqib ketsin. Oyi, chiqib turing, il-l-ltimos. Gulya, sen ham chiq-q-qib turgin. J-jon Gulya... O‘z-z-zing aqllisan-ku!

– Bo‘ldimi? Gapir endi!

Mauzer negadir kuldi – og‘zidan so‘lak oqizib, juda xunuk kuldi.

– Dad-d-da! – dedi iljayib. – N-n-nega mening otimni Mauzer qo‘ygansiz? N-n-nima? M-m-men to‘p-p-p-onchamanmi?

Komissar daf‘atan esankirab qoldi. Chindan nega Mauzer? Ikkinchi o‘g‘liga-ku, ulug‘ dohiylar ismini qo‘ygan. Bungachi?

– Shu problema qiziqtirib qoldimi? – dedi qovog‘ini solib.

– Q-q-qiziqtiradi. D-d-doim qiziqtiradi. – Mauzer shimining cho‘ntagidan g‘ijimlangan sigaret olib tutatdi. – N-n-nima? – dedi hamon iljayib. – Men bilan b-b-birovni ot-t-moqchimisiz?

– Ahmoq! – dedi Komissar beozor koyib. – Men sening quroldek kuchli bo‘lishingni xohlayman, bildingmi?

– Sh-shunaqa deng! – O‘g‘li ko‘zlari yumilib-yumilib sigaret tortdi. – O‘z-z-ziga ishongan odam, – dedi duduqlanib, – bir-r-rovga to‘p-p-poncha o‘qtalmaydi. S-s-siz o‘zingizga ishonmay-siz! – Shunday dedi-da, tag‘in kuldi. – Taniysizmi? – dedi to‘satdan. – Faqat r-r-rostini ayting. Hamidov degan ak-k-akademikni taniysizmi?

– Qanaqa Hamidov?
 – Taniysi-i-iz! – Mauzer bosh chayqab barmog‘i bilan po‘pisa qildi. – Yolg‘on gapirma-a-ang! Taniysiz.
 – Men hech qanaqa akademik Hamidovni tanimayman.
 – Bo‘lmasa... – Mauzer mastona ko‘zlari bilan qattiq tikilib ta‘kidladi. – Bo‘lmasa... u sizni taniydi. Bildizmi! u mendan s-so‘radi. S-s-siz o‘sha Komissar G‘anievning o‘g‘limisiz, dedi.
 – Men hech qanaqa Hamidovni tanimayman! – dedi Komissar g‘ijinib.
 – Aldamang! Uni s-s-siz so‘r-r-roq qilgansiz. T-tarixni buzib ko‘rsatding, deb s-s-siz qamagansiz! – Mauzer qo‘lini bigiz qilib cho‘zdi. – S-siz yuborgansiz K-k-kuril orollariga! Yigirma besh yilga s-s-siz jo‘natgansiz.
 – Mana senga Hamidov! – Komissar kuchi boricha musht solgan edi, Mauzer o‘tirgan stuli bilan qo‘shilib ag‘darilib tushdi. Burnidan sharillab qon keldi.
 Xonaga Nazira bilan kelin uchib kirishdi.
 – Voy o‘lay! Voy o‘lmasam! – Nazira titrab-qaqshab Mauzer-ni boshidan ko‘tardi. – Gulnora! Suv obkeling! Tezroq!
 Mauzer kaftining orqasi bilan og‘iz-burnini artdi. Qiziq, bir-pasda kayfi tarqadimi, burro-burro gapira boshladi.
 – Bilib qo‘ying! – dedi tahdid bilan. – Siz o‘sha akademikning timog‘iga arzimaysiz!
 – O‘chir ovozingni! – Komissar stolni bor kuchi bilan musht-ladi. Guldon ag‘darilib, sirenlar sochilib ketdi. Dasturxon ustiga jildirab suv oqdi.
 – Urmoqchimisiz? – Mauzer xotini keltirgan suvga o‘tirgan joyida chala-chulpa yuz chayqadi. – Uring! – dedi achchiq ilja-yib. – Siz urishga ustasiz, Komissar Ganiev! Ammo, bilib qo‘ying, erta-indin hammangni siring ochiladi.
 Komissar stolni shitob bilan aylanib o‘tdi. O‘g‘lining yelkasi-ga tepib yerga mixlab qo‘ymoqchi edi, Nazira dod solib, yo‘lini to‘sdi:
 – Voy o‘lmasam! Bu qanday ko‘rgilik!
 – Qo‘yavering, oyi, uraversin! – dedi Mauzer. So‘ng otasiga tik qaradi-da, dona-dona qilib aytdi: – Siz – qotilsiz! Hammang qotilsan! Yigirma million odamni gumdon qilgan jallodsan!
 – Yo‘qol ko‘zimdan!

– Otlan, Gulya! – Mauzer chayqalib o‘rnidan turdi. – Bu uyda turgandan ko‘ra vahshiy hayvonlar bilan yashagan yaxshi. – Otasidan jirkangandek chetlab o‘tdi-da, eshik tomon yo‘l oldi.

Onasi o‘krab yig‘lagan cha etagiga osildi.

– Unaqa dema, bolam. Otaning yuziga tik qarab bo‘lmaydi, Mauzerjon! Esingni yig‘, jon bolam.

Mauzer onasining qo‘ltig‘idan ko‘tardi.

– Turing, oyi, ketamiz. Yuring biz bilan. – To‘satdan yig‘lab yubordi. – Oyi! Men bu odamning o‘g‘li bo‘lganimdan uyali ketyapman, oyi!

Komissar kechasi bilan to‘lg‘anib chiqdi. Uyda bir o‘zi qolgan. Mels negadir kelmagan. Nazira esa o‘g‘li bilan kelinining ketidan hayhaylab yugurganicha allaqaysi go‘rga g‘oyib bo‘lgan edi. Qarang, bu olifta intelligentni! O‘z otangni tergashni kim qo‘yibdi senga! Zamon qanaqa bo‘lganini sen qayoqdan bilasan! Inqilob g‘alabalarini himoya qilish kerakmidi? Mamlakatni ichki dushmanlardan tozalash kerakmidi? Bundan tashqari harbiy qasamyodga sadoqat, ofitserlik burchi, degan gaplar bor! Nega shuncha yil pisib yurgan ekan o‘sha akademiging! Zamon o‘zgarib, endi tillari chiqib qolibdimi? Kurilga jo‘natilganmi, undan narigami, itdek o‘lib ketmaganiga shukr qilmaydimi! Ko‘ramiz! Hali charxi gardunning g‘ildiragi qayoqqa qarab aylanarkin? Yer yuzida kommunizm to‘la g‘alaba qozonmaguncha dushmanlar bo‘laveradi. Demak, qora kuchlarga qarshi kurashadigan tashkilot ham bo‘laveradi!

...Nazira ertasi kechqurun qaytib keldi. Bir kunda chakkasidagi sochlarining oqi ko‘payganga o‘xshar edi. Uning aytishicha, Mauzer Yunusobodagi so‘qqabosh kampirnikidan ijaraga bu xona olganmish.

– Battar bo‘lsin! – dedi Komissar ensasi qotib. – Burniga ozgina suv kirsin, vaysamaydigan bo‘ladi.

– Dadasi, jon dadasi! – Nazira uning oyog‘iga yiqildi. – Xafa bo‘lmang, o‘g‘lingiz yoshlik qildi. Kayf ustida aljiradi-qo‘ydi, gunohidan o‘ting!

Mauzerning kechagi gaplari esiga tushib Komissarning vujudini yonib ketgandek bo‘ldi.

– Yo‘q! – dedi qat‘iy qilib. – Bu – printsiptial masala! Mening Mauzer degan o‘g‘lim

yo'q! Bu mavzuda boshqa gaplashmaymiz!

...Ikki orada Naziraning kasalga chalinib qolgani chatoq bo'ldi. Yoshi ellikdan o'tib-o'tmay qon bosimi ko'tariladigan odat chiqardi. Komissar o'zini yupatdi. Mayli, Mauzerdan ko'rmaganini Melsdan ko'radi. Mels – esli bola. Kamgap, mulohazali. Maktabni oltin medal bilan bitirdi... O'shanda Nazira g'alati gap aytgan edi.

– Bolalaringiz antiqa chiqdi-da, dadasi! Mauzer o'z kindigini o'zi kesgan xilidan. Qilaman degan ishini qilmay qo'yamaydi. Kichigi bo'lsa ichimdagini top deydi. Yakkash o'y o'ylaydi. Ming yeriga pichoq ursa, bir yeridan qon chiqmaydi. Hayronman...

Xotin kishi xotinha o'ylaydi-da! Mels kam gapirib, ko'p o'y-lasa, yomonmi? O'qishi a'lo, mana, urdudan tashqari ingliz tilini ham mukammal o'rganib oldi. Institutni bitirsa, chet ellarga borib ishlaydi. Jamiyat ravnaqiga hissa qo'shadi. Anavi telba akasiga o'xshab ko'cha-ko'yda vaysab yurmaydi. Komissar G'anievning o'g'li qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yadi.

Ona – baribir ona ekan-da! Nazira kunora Mauzerning oldiga qatnar, har gal yangi gap topib kelar edi. Ishxonasida Mauzerning hurmati zo'r emish. Bir yil ichida uy berisharmish. Gulnoraning anor yegisi kelayotganmish... Ammo biron marta «O'g'lingiz qilmishidan pushaymon, uzr so'radi», degan gap bo'lgani yo'q...

...Komissar o'ylab-o'ylab bir qarorga keldi: Melsni uylantirish kerak. Shunda onasining ko'ngli joyiga tushadi. Anavi ahmoqning oldiga kamroq yuguradigan bo'ladi... Mels yuvosh ko'ringani bilan balo ekan. To'y haqida gap ochilganida onasiga Lola'nikiga sovchi bo'lib borishni tayinlabdi. Lola degani avtodoroj...iy institutida o'qirkan...

To'y risoladagidek o'tdi. Ayni mehmonlar to'planayotgan paytda Nazira yugurgilab kelib qoldi.

– Dadasi! – dedi yayrab-yashnab. – O'g'lingiz keldi! Chiqing, so'rashing mundoq!

Komissar garangsib turgan edi, tushuntirdi:

– Mauzer keldi! Qarang, ukasiga qancha narsa obkepti!

Komissar ensasi qotib, hovliga tushdi, Bir chetda yuk mashinasi to'xtab turar, Mauzer to'yxonadagi yigitlarga ko'maklashib, mashinadan qutiga solingan televizor, muzlatgich tushirar edi. Yonida qorni do'ppayib qolgan Gulnora turardi. Er-xotin baravar

yarq etib shu tomonga qaradilar. Gulnora iymanib, salom berdi. Mauzer iljayib yaqin kelayotgan edi, Komissar yuzini chirillatib o'girdi-da, burilib ketdi...

...Rostini aytganda, Lola Komissarga ma'qul tushdi. Xushchaqchaq, chaqqon. Ishniyam boplaydi, gapniyam! Bir oy o'tmasdan hammaga laqab qo'yib ulguribdi. Nazira aytib qoldi:

– Eshitdingizmi, dadasi, mening otim amortizator emish.

– Nima degani u?

– Uy ichimizning tinchini tutib turgan emishman. Men bo'lmasam, hamma yoq alg'ov-dalg'ov bo'lib ketarmish.

Komissar o'ylab turib, kelinning mulohazasi jo'yali ekaniga tan berdi.

– O'g'lingniyam laqabi bordir?

– Bor! – Nazira kuldi. – Domkrat!

– Nega endi domkrat?

Nazira nechundir qizarib, yelka qisdi.

– Bilmasam...

– O'zi-chi? O'zigayam ot qo'yganmi?

– Bo'lmasam-chi? Lolaxon tushmagur birinchi bo'lib o'ziga laqab topgan-da! Oyna tozalagich emish. Dvornik.

Komissarga nash'a qildi.

– Dvornik? Buni qara-ya! Birov uni cho'ri qilib qo'ygani yo'q, shekilli?

– Men ham shuni so'radim. Yo'q, deydi. Men cho'ri emasman, shunchaki oyna tozalagichman, men

bo'lmasam, bu xonadonga nur kirmasdi, deydi.

Bu gaplar Komissarning esidan chiqib ketgan edi-ku, bir kuni xayoliga g'alati o'y keldi. «Mengayam laqab qo'ygan bo'lsa-chi, bu mahmadona!» Naziradan shuni so'ragan edi, bosh chayqadi:

– O'libdimi? Sizdan qattiq hayiqadi kelin!

Yo'q, biron haftalardan keyin Nazira kulib-kulib aytib berdi:

– Siznikiyam bor ekan: glushitel!

– Rul desin, motor desin... Glushiteli nimasi?

– Mashinaning tutun chiqaradigan joyi bor-ku, o'shanaqa narsa ekan.

– Men shunaqa ekanmanmi? – dedi Komissar azza-bazza ranjib. – Kim qo'yibdi bu jiblabonga...

– Yo'-o'q, dadasi, – Nazira tushuntirdi. – Gap tutundamas.

Siz ovoz o'chiradigan apparat emishsiz. Bu xonadonda faqat shivirlab gaplashish mumkinmish.

...Ayni qish chillasida Nazira eshikdan hovliqib kirdi:

– Suyunchi bering, dadasi, nevarali bo'ldingiz! Gulnora o'g'il tug'di!

Komissarning ko'nglini mubham bir iliqlik silab o'tgandek bo'ldi. Biroq, Mauzerning mast bo'lib aytgan gaplari tag'in esiga tushib, yuragidagi muz yanayam qalinlashdi.

– Xotin bo'lgandan keyin tug'adi-da, – dedi sovuqqina qilib.

Nazira kattakon sumkani divanga qo'yib, ichidan bir quchoq latta-puttalar chiqardi: yo'rgaklar, ko'ylak-ishtonchalar, xalat-chalar...

– Jon dadasi, – dedi yolborib. – Ertaga chaqaloqni tug'ruqxonadan olib chiqishadi. Umrin bino bo'lib sizdan hech nima so'radimmi? Iltimos, bir marta xo'p deng, boraylik... Mayli, ko'p-mas, besh minutga... Bir og'iz, tabriklab chiqing. Buva bo'ldingiz axir.

Komissar xotirjam qo'l siltadi:

– O'zing boraver!

Naziraning ko'zida yosh g'iltilladi.

– Odammisiz o'zi, nimasiz?! – dedi iltijo qilib. – Bir og'iz gap uchun o'z pushtikamaringizdan bo'lgan farzandingizdan kechasizmi?

– Kechaman! – Komissar har so'zini chertib ta'kidladi. – Men printsip uchun onasidan kechgan odamman!

...Dialektika qonunlari qiziq ekan. Bugun yo'qotasan, ertaga topasan... Mauzerning xotini bitta o'g'il tuqqan bo'lsa, Melsning xotini bir yo'la ikkita – egizak tug'ib berdi: Hasan-Husan! Birpasda uylari to'ldi-qoldi... Bolakaylarning bijir-bijir tili chiqdi, yo'lga kirdi. Bora-bora Nazira ham nevaralari bilan andarmon bo'lib, Mauzerni ko'p gapirmay qo'ydi. Nevara yaxshi bo'lar-kan. Xonadonga allanechuk fayz kirdi. Hasan-Husanlar yasli yoshiga yetgach, «dedushka»ga ham ish topildi. Ikkalasini ikki yoniga olib, ertalab yasliga eltadi, kechqurun olib keladi.

...Melsni aspiranturada olib qolishdi. Komissar bunga aslo ajablanmadi. Bilimi chuqur, har tomonlama yetuk... Boshqalarga o'xshab domlalarga pul tiqishtirib o'qimadi.

Bir yildan keyin o'g'li maslahat soldi:

– Pokistonga stajirovkaga yuborishmoqchi. Uch oyga.
– Borib kel! – dedi Komissar. – Tilni tag‘inam mukammal o‘rganasan. Xayotni ko‘rasan...

– Shunaqa-ku... – Mels ko‘zoynagini yiltiratib, xijolatli jilmaydi. – Ba‘zi tashkilotlar...

Komissar darhol tushundi. Xex! Bular Komissar G‘anievning farzandiga ishonmasa...

– Chamadoningni tayyorlayver, – dedi ishonch bilan. ...Biron oylardan keyin «u yoq»dan telefon bo‘ldi.

Ertaga ertalab soat o‘nda «Toshkent» mehmonxonasining falon nomerida ko‘rishsak, deb iltimos qilishdi. Komissar ajablanmadi. Otstavkaga chiqqan bo‘lsa ham tajribali xodim sifatida maslahatga va umuman... «ba‘zi yumush»larga chaqirib turishardi.

Fuqaro kiyimidagi xodim ochiq chehra bilan kutib oldi. Komissar uni birinchi ko‘rishi edi. Xodim komissarni orqavoratdan yaxshi tanishini, hurmat qilishini aytdi. Sog‘lig‘ini surishtirdi, farzandlari, nevaralarining kayfiyatini so‘radi... Daromad cho‘zilib ketganidan Komissarning ko‘ngli g‘ash tortdi. Xayoliga lop etib Mauzer keldi. «Yana bir qiliq qilgan, bu eshshak! Kim bilsin, gazetada qaltis Maqola chiqarganmi? Qachongacha otasini sharmanda qiladi, ahmoq!»

– Bo‘pti, o‘rtoq, – dedi lo‘nda qilib. – Maqsadga o‘taylik!

– Yaxshi, o‘rtoq polkovnik! – xodim tortmani ochib, uning oldiga bir to‘p gazeta tashladi. – Qarab ko‘ring-chi, shular orasida birontasini taniysizmi?

Komissar hayron bo‘lib inglizcha gazetalarni varaqlay boshladi. Deyarli har bittasi-da Melsning ko‘zoynak ortidan iljayib turgan surati bosilgan edi.

– Nima bu? – dedi oyoq-qo‘lidan mador qochganini his etib.

– Nima emas, kim deng? – xodim istehzoli kuldi. – Taniyotgan bo‘lsangiz, eslatib qo‘yishim mumkin: bu kimsa sobiq sovet fuqarosi Mels Soatovich G‘aniev bo‘ladi! Sizning o‘g‘lingiz!

Komissar boshidan hushi uchib borayotganini, hozir yiqilib tushishi muqarrarligini sezib turar, tili kalimaga kelmas edi.

– Tuhmat! – dedi nihoyat butun irodasini yig‘ib. – Bo‘hton! Mening o‘g‘lim unaqa bo‘lishi mumkin emas!

– Mumkin ekan-da! – Xodim allanechuk xotirjam jilmaydi. – Mels Soatovich G‘aniev Karachidagi Angliya konsulxonasiga si-

yosiy boshpana so‘rab borgan. Sovet Ittifoqida inson erki yo‘qligini aytib, rasmiy bayonot bergan, sovet fuqaroligidan voz kechishini aytgan... O‘qib beraymi?

Komissar tush ko‘rayotganga o‘xshar, peshonasidan do‘ldek ter quyilayotgani, o‘tirgan joyida muttasil chayqalayotganini o‘zi bilmas edi. Bir mahal qarasa, yerda cho‘zilib yotibdi.

Xodim uni qo‘ltig‘idan ko‘tarib, og‘ziga stakanda suv tutdi.

– Generalga kiraman! – dedi Komissar xirillab. – Men... boraman! Borib, o‘z qo‘lim bilan otib tashlayman! Otmasam, meni otinglar!

Bu gaplarni sidqidildan aytar, ammo ayni paytda qiynoq kameralari, karderlar, odam boshiga it kunini soladigan, najas yetishga majbur qiladigan retsedivistlar, kalamushli gorshoklar birma-bir ko‘z o‘ngidan o‘tar edi.

– Otaman! – dedi hayqirib. – Mening bunaqa o‘g‘lim yo‘q! Otaman!

Qiziq. Uni qo‘yib yuborishdi. Xatto «Volga»da uyigacha kuzatib ham qo‘yishdi.

«Bu ham bir manyovr! – Komissar shahar markazidagi to‘rt xonali uyiga horg‘in chiqib borarkan, xayolidan alamli o‘y kechdi. – Odatdagi usul. Endi mening kim bilan aloqam borligini kuza-tishadi... Kerak bo‘lsa, kvartiraga eshituvchi apparaturalarni joylab qo‘yishadi... Xex! Allaqachon joylab qo‘ygan bo‘lsa-chi?!»

Eshikni Nazira ochdi. Erining vajohatini ko‘rib qo‘rqib ketdi.

– Nima gap? – dedi quti o‘chib. – Nima bo‘ldi?

– Ul bo‘ldi! Dard bo‘ldi! – Komissar alam ustida xotiniga tarsi-saki soldi. Nazira yuzini changallagancha kavshandozga cho‘k-kalab qoldi.

Ichkaridan yiltiroq xalat kiygan Lola yugurib chiqdi.

– Bolalar uxlayapti, dada! – dedi ta‘naomuz. – Sekinroq gapirish mumkinmi?

– Nima? Bolalar?! – Komissar kvartiraga o‘rnatilishi ehtimol bo‘lgan «quloqlar» yoki pastda, yo‘l chetida poylab turgan ma-shinadagi «lokator» eshitishi uchun ovozi boricha hayqirdi: – It-dan bo‘lgan qurbonliqqa yaramaydi! Eringni nega Pokistonga jo‘natding? Niyating nima edi unsur! Ayt! – dedi Lolaning yoqasiga chang solib. – Hozir aytasan! Ering

Angliya razvedkasiga sotilganini nega yashirding?

Lola ko'zlari ola-kula bo'lib, nuqul talpinar, ammo qaynotasi-ning chayir changalidan chiqib ketolmasdi.

– Dada! – dedi bir mahal chinqirib. – Oyim o'lyaptilar, dada!

Shundagina Komissar changak bo'lib qolgan barmoqlarini kelinining yoqasidan bo'shatdi. Ishtonchan Hasan-Husanlar yo-toq eshigidan mo'ralab turar, negadir ikkalasi ham iljayar edi. Nazira yo'lakda uzala tushib yotar, yuzi qordek oppoq, qimir etmasdi. Nazarida xotini makkorlik qilayotgandek tuyuldi.

– Tur, – dedi xotining yelkasiga nuqib. – Tur, alvasti! Bu hayvonlarni sen tuqqansan! Ularni menga qarshi sen Qayragan-san!

Ajab! Nazira qilt etmadi. Komissar enkayib xotining yuziga kaftini bosdi. Naziraning yuzi muzdek edi. Xuddi muzlatgichda-gi go'shtdek... Qo'rquv ichida qo'lini tortib oldi.

– Chaqir! – dedi baqirib. – Skoriy chaqir! Tezroq! Lola narigi xonaga, telefonga yugurdi. Komissar xotining yoniga muk tushdi.

– Nazira! – dedi yelkasidan silkitib. – Onasi! Ko'zingni och, onasi!

Komissar ko'p o'limlarni ko'rgan, ammo inson bolasi bu qadar tez, bu qadar oson o'lishi mumkinligiga aqli yetmasdi. Nazira hayotida hech kim bilan olishishni istamagani kabi o'limda ham ajal bilan tortishib o'tirgisi kelmagandek osoyishta yotar, lablari-da alamli tabassum qotib qolgan, go'yo oxir-oqibat bu azoblar-dan qutulganiga shukr qilgandek, sen bilan o'tgan umringa ham, dunyoning ishlariga ham pushaymonman, deb ma'yus kulayot-gandek edi...

– Nazira... – Komissar o'krab yig'lab yubordi... – Tashlab ket-ma meni, Nazira!..

Bu – uning umrida birinchi va oxirgi marta yig'lashi edi...

Birpasda tumonat odam yig'ildi. Mauzer bilan Gulnora to'rt yashar o'g'ilchasini yetaklab kelishdi (Komissar nevarasining oti Alisher ekanini endi bildi). Xotin-xalaj, to'n kiygan, salla o'ra-gan chollar, Mauzerning hamkasblari bo'lsa kerak, oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib yugurgilagan yosh-yalanglar to'plandi. Komis-sar eshik tagida garangsib turar, ko'ngil so'raganlarga nima deb javob qilishini bilmas, shunchaki, bosh silkiib qo'ya qolar, nuqul

atrofga alanglar edi. Kim bular? Uni qayoqdan tanishadi? Nega bunchalik mehribonlik qiladi hammasi!

...Tobutni olib ketishayotganida Lola ayniqsa ko'p giryon qildi:

– Onasiz o'sgandim, oyijon! Endi onali bo'ldim, degandim, oyijon!

...Komissar uch kun eshik tagiga xarrak qo'yib o'tirishga majbur bo'ldi. To'n kiyib, bel bog'lamasa ham, har qalay, boshiga do'ppi kiydi.

...Uchinchi kuni kechqurun Mauzer dadasini yupatdi:

– Siqilmang, dada. Biznikiga borib turaverasiz. Men bor, nevarangiz bor...

Komissarning ko'ngli yumshash o'rniga adovatga o'xshagan narsa uyg'ondi. «Shuni kutib yurgan

ekansan-da, ko'namak. Senikiga boramanmi? Senikigaya?!»

Qiziq, Lola bir oy ichida lablarining ikki cheti tirishib qarimsiq bo'lib qoldi. Nazarida, o'zi ham arvohga aylanib qolgandek edi. U xonaga kiradi-chiqadi. Bu xonaga kiradi-chiqadi...

Lola u bilan gaplashmasdi. Go'yo ro'y bergan qo'shaloq falokat uchun qaynotasi aybdordek.

Komissar o'ylab qarasa, umrida bironta ulfatga qo'shilmabdi. Bironta jonkuyar do'st orttirmabdi. U yoqda Mels masalasida joni halak. Qachon chaqirib qolarkin, deb yuragini hovuchlaydi. Yo'q... Uni tinch qo'yishdi. Personalniy pensiyasini oyma-oy olib turadi. Hech kim izidan kuzatmaydi. faqat siqiladi. Oshxonaga kiradimi, vannaxonagami, ro'parasidan Nazira chiqib kelayotgandek bo'lavadi. Bu yoqda kelinning zardasi...

Erkak kishiga yolg'izlik og'ir bo'larkan. Yotishi bor, turishi bor... Nima qibdi? Yoshi endi oltmish to'rtga chiqdi. Yashashi kerakmi axir? Lola tengini topib ketsa, o'zi ham...

Bir kuni kelinini yoniga o'tqizib qo'yib gapni uzoqdan boshladi.

– Anavi xoin endi qaytib kelmaydi, – dedi ishonch bilan. – Basharti kelsa ham o'zim bo'g'ib o'ldiraman... Bir narsaga aqlim yetmaydi. Nima yetishmabdi ekan bu ablahga! Uyi bo'lsa, joyi bo'lsa, guldek xotini bo'lsa...

Lola unga yovqarash qilib mum tishlab o'tiraverdi.

– Siz nima deb o‘ylaysiz, qizim? – dedi Komissar vaziyatni yumshatish niyatida ma’yuslanib. – Nega shunaqa qildiyingiz? Nima yetmagan ekan unga?

Kelin istehzoli kuldi...

– Nima yetmaganini bilmaysizmi? – dedi labini asabiy burib. – Mehr yetishmagan! Tushundingizmi, mehr! Bu odam (Lola «Mels akam» demadi, «otasi» ham demadi, «bu odam» dedi), bu odam umrbod o‘z uyida begona bo‘lgan, tushunasizmi shuni?

Komissarning g‘ashi keldi. Nima balo, kelini oqlayapti, shekilli, o‘sha vatan xoinini?

– Bolalari-chi? – dedi g‘azabdan ko‘zi yonib. – Hech bo‘lmasa, bolalarini o‘ylamaydimi, badbaxt?!

Lola yanayam istehzoli kuldi:

– Qush uyasida ko‘rganini qilarkan-da...

Gap tamom bo‘lgan, Komissar u yog‘ini qanday «ulash»ni bilmasdi. Lola o‘rnidan turib ketayotgan edi, to‘xtatdi.

– Shoshmang, – dedi vazminlik bilan. – Bo‘lar ish bo‘ldi. Siz... yoshsiz. Dunyodan toq o‘tib ketolmaysiz-ku, to‘g‘rimi, Qizim? Zo‘r kelsa, bolalarni internatga beramiz. Yaxshi internatlar ko‘p. Tanishlarim bor.

Lola eshik oldida to‘xtatdi. Ko‘zi g‘azabdan qisilib ketdi.

– Erga tegaman deb ko‘zim uchib turgani yo‘q! O‘zim yetimxonada o‘tib mana bunday bo‘lganman, – dedi kaftining qirrasini tomog‘iga tirab. – Bolalarimni internatga bermayman! O‘zingiz uylanishni xohlab qolgan bo‘lsangiz, katta ko‘cha! – Shaxt bilan xonadan chiqarkan, eshittirib piching qildi: – Betingdan buzilgur, yuzsiz! Oyimning ko‘ziga tuproq to‘lmasdan turib...

O‘sha gapdan keyin Lola butunlay o‘zgardi. Nevaralari «dedushka» deb etagiga yopishsa, bobillab beradi. «Emasanmi dedushkangni? Bor uxla, ko‘milib!» Tovoqni qoshiqqa, qoshiqni tovoqqa urib to‘ng‘illaydi: «Chol odam degani machitga chiqadi, choyxonaga chiqadi, bu nimasi, ertadan kechgacha uyda biqsib o‘tirish!» Xex! Bir kami salla o‘rab namoz o‘qishi qoluvdi. Komissar G‘aniev namoz o‘qisa! Choyxonada pishirib qo‘yibdimi? Noskash chollarning visir-visirini eshitadimi? Komissar qatiy qarorga keldi. Uylanadi! Har kimning joni o‘ziga kerak. Bu jibla-jibon bilan har kuni yuragini qon qilishdan naf yo‘q. Uy o‘zining nomida. G‘ing desa, haydab chiqaradi...

O'sha kecha Nazira tushiga kirdi. Boshiga oppoq ro'mol o'rab olganmish. Xuddi otinoyilarga o'xsharmish. Hech gapirmasmish-da, nuqul yum-yum yig'larmish. «Hech ro'mol o'ramasding-ku, onasi, bu qanaqasi», deb yoniga borsa, Nazira o'zini orqaga tashlabdi. «Qoching! Qo'rqaman sizdan. Mauzerni nega urdingiz?» Komissar ta'bi tirriq bo'lib uyg'ondi. Vannaxona tomondan nevaralarining baravar yig'layotgani, Lolaning bobillashi eshitildi:

– E, avlodingga o't tushsin! Sovunlab yuvin deyaqman!

Yo'q! Bu ahvolda uzoqqa borolmaydi. Yo kelinini chopib tashlaydi, yo o'zi infarkt bo'lib o'ladi! Chala-chulpa choy ichib, ko'chaga chiqib ketdi. Uzoq aylanib yurdi. Havo dilgir, oyoq ostida xazon shitirlaydi... Bir mahal qorni ochgani bilindi. Boshi aylanib, «Lazzat» qahvaxonasiga kirdi. Sosiska olib yedi... Ertasi ham, indini ham... Avvaliga qahvaxonada yangi xizmatchi paydo bo'lganini sezmedi. Aniqrog'i, durust razm solmagan ekan. Kirroq oq xalat kiygan

xushro'ygina do'mboq juvon har kuni stolni artib, sanchqitarelkalarni yig'ishtirib olayotganiga keyin e'tibor berdi. Gapiray desa, qo'rqadi. Bir kuni dasturxon ustidagi non ushoqlarini sidi-rib olayotganida tashakkur bildirdi:

– Rahmat! Ovqatinglar shirin bo'пти.

– Osh bo'lsin! – dedi juvon jilmayib.

– Men har kuni shu yerda tushlik qilaman, – dedi Komissar.

– Bilaman, – juvon yana samimiy jilmaydi.

– Qayerdan kelgansiz?

– Sverdlovskdan.

– Qachon.

– Yaqinda.

– Toshkent yoqdimi? – dedi gapga solib.

– Bo'lmasa-chi!

– Rahmat sizga! – dedi Komissar ayriча mehr bilan. To'g'ri qildi. Bu safar shunisiyam yetarli edi.

Bir hafta ichida Natasha bilan yaqindan tanishib oldi. Toshkentga kelganiga ikki oy bo'пти. O'ttiz bir yoshda ekan. Propiska yo'qmish. Shu boisdan qahvaxonaning o'zida yotib yurarkan.

– Menga erga tegmaysanmi? – Komissar bu gap og'zidan qanday chiqib ketganini o'zi bilmay qoldi. Yumdalab tashlasa,

nima qilaman, deb yuragi po'killab turgan edi, Natasha unday qilmadi.

Otasi (ehtimol bobosi) tengi bu odam nima deyotganini daf'atan tushunolmagandek, bir zum kipriklarini pirpiratib turdida, moviy ko'zlarida tabassum paydo bo'ldi.

– Propiskadan o'tkzsang, tegaman!

Sensiradimi, demak, yaqin olgani shu! Mana buni ochiqcha savdo desa bo'ladi! Dunyoda o'zbek xotinlaridan injiq, kajbahsi yo'q. Go'yo uylanish faqat erkak uchun keraqdek! Uylandingmi, bo'yingga bo'yinturuq qilib osib yurishga majbursan! Oila qurish har ikkala tomon uchun zarurat ekanini o'ylab o'tirmaydi bu oynisalar! Naziraning arvohi chirqillamasin-ku, aslida bor gap shu.

– Natasha! – dedi jiddiy qilib. – Sen nima xohlasang, hammasi bo'ladi. Propiska ham, ZAGS ham... Xotirjam bo'l, o'zimdanda tinchiganman. Yolg'izlik jonimga tegdi.

– Meni ham! – dedi Natasha o'ychan. Bu gapni oddiy va samimiy aytdi...

Lola Natashani ko'rgan zahoti hammasini tushundi. Serrayib qarab turaverdi. Ichkaridan nevaralari chiqib, Komissarning oyoq-oyoq yopishdi.

– Dedushka!

– Dedushkang senlarga yangi babushka olib keldi! – dedi Lola asabiy kulib. – Yaqinda babushkang senlarga dyadya tug'ib beradi. Senlar ko'tarib yurasan!

Komissar mushtini tugib baqirdi:

– O'chir ovozingni, qanjijq!

– Men qanjijq emasman! – dedi Lola dona-dona qilib. – Orqasidan it ergashtirib yurganlarni qanjijq deydi!

– Marsh bu yerdan itvachchalaring bilan! – dedi Komissar oyoq-qo'llari asabiy qaltirab. – Bo'shatib qo'y uyni!

Lola kiprik qoqmay tikilib turaverdi.

– Birinchidan, – dedi osoyishta ohangda. – Oyimlarning suvi to'kilgan uydan ketmayman. Ikkinchidan, bolalarim bilan ko'chama-ko'cha tentirab yurmayman! Men – Gulnora emasman.

Natasha hayron bo'lib qolgan, goh Komissarga, goh Lolaga mo'ltirab qarar edi.

...Komissar uy topmasa bo'lmasligini tushundi. Kelinini ikki-

ta bolasi bilan haydab chiqarolmaydi. Ustiga-ustak Mels masalasi qo'zg'alsa, o'ziga yaxshi bo'lmaydi. Ammo bu alvasti bilan bir xonadonda turishning ham iloji yo'q. Nachora! Yeldi-yugurdi. Vatan oldidagi xizmatlarini hisobga olishdi. Gorispolkoming uy taqsimoti bo'yicha jamoat komissiyasiga a'zo bo'lganligi ham ish berdi. Er-xotin «Qatortol»dagi mana shu bir xonali uyga ko'chib kelishdi.

Natasha chaqqongina ekan. Bir kunda yangi uyga fayz kirdiqoldi. Hamma yoq sarishta. Turmushiyam tartibga tushgandek bo'ldi. Xotini saharlab sutga g'irillatadi. Shirguruch pishirib beradi. Tushda «Sagatchik, yaxshi o'tiribsanmi, kolbasa olib chiqish yodingdan ko'tarilmadimi», deb telefon qiladi. Kechqurun qahvaxonadan kotletmi, bifshteksmi olib keladi. «Sovumasdan yeb olgin», deb og'ziga tutadi. Jinday olsang, qoning yurishadi, deb konyak ham ichiradi...

Buni qarang: umrida qo'liga kapgir ushlamagan Komissar bir oyda binoyidek osh damlashni o'rganib olsa deng! Natasha o'zbekcha palovni xush ko'rarkan.

Albatta, yosh xotin bilan turishning o'ziga yarasha g'alvalari ham bo'larkan. Natasha bir kuni tufli ko'tarib keladi. Oyog'iga kiyib u yoqqa yuradi, bu yoqqa yuradi. «Yarashdimi?» – deydi-da, dirkillab kelib erining yuzidan o'padi. «Yuz ellik so'm». Ertasiga palto olib keladi. Indiniga cho'milganda kiyiladigan kostyumcha. Bafurja qip-yalang'och bo'lib yechinadi-da, kostyumchani kiyib kuladi. «Sagatchik, qalay, yozda Tashmoryaga oborasanmi, jahling chiqmasin, qimmat emas, yuz so'm»...

...Sportchilarda «ikkinchi nafas» degan gap bor. Sillang qurib, tamom endi, yiqilib qolaman, deganingda, to'satdan «ikkinchi nafas» ochiladi-yu, vujudingda yangi kuch, yangi g'ayrat paydo bo'ladi... «Anavinaqa» masalada ham shunaqa holatlar ro'y berarkan. Yoningda oppoqqina, yoshgina, so'lqillagan juvon yot-sa... Bunday pallada Natasha uni qoyilmaqom qilib erkalatar edi.

«Ax, kobel! Ax, parazit! O'n yetti yashar yigitchaga o'xshaysan-a!» Unga sayin Komissar g'ayratga minar, «maqtov»ning birinchi qismi – «itligi», «bitligi»ni emas, o'n yetti yashar yigitchaga o'xshashini o'ylab, o'zidan-o'zi faxrlanib ketar edi: «Molodets Komissar! Badaningda suv bor ekanki, shundoq yosh juvonni eplayapsan! Molodets Natasha! Xotin kishi degani mana buna-

qa bo'ladi! Naziraga o'xshab moldek pishillab yotmaydi. Ming xil «poza»ni biladi!»

...Shunaqa-ku... «ikkinchi nafas» qurg'ur har kuniyam ochilavermas ekan... Natasha bo'lsa, aqalli kun ora eri «o'n yetti yashar yigitga aylanishi»ni xohlaydi... Ustiga ustak, o'zing qari, xotining yosh bo'lsa, huda-behudaga rashking qo'zg'ayverarkan... Oradan bir-ikki oy o'tib, Natasha ishidan allapallada keladigan odat chiqardi. Komissar siquvga ola boshladi. Deyarli kun ora shu g'alva. Komissar so'roqqa tutadi:

– Qayoqda yuribsan? Qara. Soat necha bo'ldi?

– Qiziqmisan, Sagat? – deydi Natasha jo'ngina qilib. – Ishimni bilasan-ku. To'y bo'ldi. O'zbekning nimasi ko'p – to'yi ko'p. Tag'inam erimning jahli yomon, deb shefdan ruxsat olib keldim.

Hammasi risoladagidek ketayotgan edi-yu, yangi yil kechasi xunuk hodisa bo'ldi. Natasha yarim kechagacha qolib ketdi. Yangi yil kirishiga yarim soatcha qolgan edi. Bir mahal eshik jiringladi. Komissar eshikni ochsa, turibdi iljayib: ko'zlari suzilgan. Komissar:

– Ichdingmi? – deb dag'dag'a qilgan edi, Natasha yosh boladek erkalanib yuzidan o'pdi.

– Palov tayyormi? Shampan bormi? Molodets! A, mening senga syurprizim bor. Mehmon olib keldim, – dedi kulib. – Volodya, kelaver. Tanishinglar. Bu – mening erim Sagat Ganiyevich! Volodya sinfdosh do'stim. Yangi yil kutish uchun ataylab Sverdlovskdan kelibdi.

Komissar es-hushini yig'ib olmasidan og'zidan gurkirab aroq hidi anqib turgan, shtanga ko'taradiganlarga o'xshash baquvvat kelbatli yigit surbetlarcha iljayib qo'l uzatdi:

– Salom! Yangi yil bilan!

– Sagat Ganiyevich pishirgan palovni yesang, barmog'ingni yalab qolasan! – dedi Natasha yayrab-yashnab. – Volodya umrida o'zbekcha palov yemagan. Tezroq bo'la qol, Sagatchik!

Palov yegisi keptimi? Ming la'nat mehmoninggayam, o'zinggayam! Komissar ijirg'anib oshxonaga kirdi. Oshning guruchi suv terishini kutdi.

Qozonga tovoq bosib, uyga kirsam, aroqlar ochilgan, shampanlar quyilgan... Qay ko'z bilan ko'rsinki, «shtangachi» divanda Natashani bamaylixotir ezg'ilab o'tiribdi! Komissar g'azabdan

qaltirab qoldi. Tili kalimaga kelsa qani!

– Marsh! – dedi alamroq g‘uldirab. – Yo‘qol ikkoving ham!

– Sekin, qariya, sekin! – dedi Volodya pinagini buzmay.

– Nima qipti! – Natasha xandon otib kuldi. – O‘zing eplolmaganingdan keyin...

– Ma-a-rsh! – Komissar qo‘lidagi kapgirmi otdi. Kapgir devorga urilib, sakrab stolga tushdi. Shampan shishasini baranglatib yorib yubordi. Volodya sapchib o‘midan turayotgan edi, Natasha qo‘lidan tortib qoldi.

– Kerakmas, – dedi yuziga sachragan shampanni kafti bilan sidirib. – Arzimaydi. O‘ldirib qo‘yib, balosiga qolib yurma tag‘in.

Paltosini kiyaturib dona-dona qilib ta‘kidladi:

– Ey, pichanni qo‘riqlab yotgan qari it! Bilib qo‘y, ZAGSdan o‘tganmiz, kvartirada mening ham ulushim bor. Bir oy ichida uy topib bermasang, Volodya bilan ko‘chib kelib, shu yerda turamiz...

Yaxshiyam, Komissar qonun kodeksini suv qilib ichib yuborgani. Bo‘lmasa, enka-tinkasini chiqarib yuborardi bu xotin! Shunda ham uydagi bor bud-shudini shilib ketdi.

Jahonda eng donishmand xalq, bilasizmi, kim? Avstraliya aborigenlari! Og‘ir jinoyat qilganni qamamaydi. Otmaydi. Osmaydi. Yolg‘iz qoldiradi. Bitta o‘zini! Mana, o‘n yildan oshdiki, Komissar tanho... Bitta o‘zi! To‘g‘ri, ora-chora veteranlar yig‘ilishiga, shahar ijroqo‘midagi uy taqsimoti komissiyasi majlisiga chaqirib turishadi. Lekin, majlis degani har kuni bo‘lmaydi-da.

Uch-to‘rt bor Mauzer keldi, xotini bilan. Yuring, dada, bunaqa g‘arib bo‘lib o‘tirmang, dedi. Ochig‘i... Komissarning ko‘ngli suv ichmadi. Biladi, o‘g‘li butunlay boshqa dunyo. Hafta o‘tmay oralarida ixtilof chiqadi.

Sog‘lig‘idan-ku, shikoyati yo‘q. Faqat asablari charchadi, shekilli. Uyga kirgisi kelmaydi.

...Kunduzi-ku, o‘ziga yumush topadi. Saharlab sutga chiqadi (Natasha o‘rgatgan odat). Sut olib qaytayotganida, albatta, Qurbonoyni ko‘radi. Gapga soladi. Arslon qarisa, kuni sichqon tutishga qoladi, deganlari shu bo‘lsa kerak-da! Aqalli shu xotin bilan gaplashsa ham harna-da. Vaqt o‘tadi... Shoshilmasdan yurib uyiga kiradi. Manniy kasha yoki shirguruch qiladi. Ungacha gazeta do‘koni ochiladi. Ochered turib gazeta oladi.

Undan gastronomga kiradi. Ocheredga turadi. Nima beryapti, nima sotyapti, ahamiyati yo'q. Ocheredda tursa bas. Ochered qancha katta bo'lsa, shuncha yaxshi. Odamlarning gapiga sekin quloq solasan. Yangiliklarni eshitasan... Kech kirgan sayin yuragi siqilaveradi. Yolg'iz ovunchog'i – televizor. Yarim kechaga borib, uning ham ovozi o'chadi. Yotishga qo'rqadi. Yotsa, uyqu-sida o'lib qolayotgandek. Hamma yoq jim. Hamma yoq zimiston...

Uni xayol olib qochadi. Keyingi paytlarda har kuni emas-ku, goho-goho ko'nglining bir burchida mavhum savollar g'imirlab qoladi.

(Nega shunaqa bo'layotganini o'zi bilmaydi. Bugun Qurbonoyga «Joynamoz ustida meni qarg'asang kerak», degani ham shundan bo'lsa ehtimol).

Balki, Nazira hov o'shanda – to'ng'ichini tug'ish arafasida ko'p qarg'ish olganmisiz, deb so'ragani bejiz emasdir? Balki, o'zi ham jinday haddidan oshib ketgandir? Shuncha odamning umriga zomin bo'lib to'g'ri qilmagandir?

U xira pashshadek bema'ni g'ing'illagan savollarni o'sha zahoti quvib soladi. Birinchidan, u umrbod ketmon urib, yer kavlab yotadigan allaqanday dehqon emas! Qaysi tomondan iliqroq shamol essa, o'sha yoqqa qarab egiladigan, bir qarasang feodal o't-mishni ulug'laydigan, bir qarasang g'arbga talpinadigan betayin ziyoli ham emas! Komissar G'anievning bukilmas e'tiqodi bor! U o'zi chin dildan ixlos qo'ygan jamiyatni ichki va tashqi dushmanlardan himoya qildi. Kerak bo'lsa, endi ham himoya qiladi. Ikkinchidan esa buyruqni bajardi!

Ofitser deganning bitta-yu bitta huquqi bor: u ham bo'lsa buyruqni bajarish! Yuqoridan falonchini qama, degan buyruq keldimi, o'sha zahoti qamaydi. Surgun qil, desa, surgun qiladi. Ot desa, otadiyam... Basharti erta-birisi kuni falonchi begunoh ekan, oqlansin, degan hukm bo'lsa, oqlaydi! Bu dunyo muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm. Odamlar o'sha mexanizmning kichik bir vintchasi, xolos. Har bitta vintcha o'z vazifasini ado etmog'i kerak. Bittasi ishlaymay qolsa, ko'rasan, nima bo'lishini! Butun boshli mexanizm chok-chokidan so'kilib ketadi... Yo'q, Komissar G'anievning birovdan tili qisiq joyi yo'q. Nimaiki qilsa, burchini ado etdi. Vijdonan ado etdi...

U iliq suv bilan uyqu dori ichadi-da, to'shakka cho'ziladi (nazarida, to'shak la'nati kun sayin sovib borayotganga o'xshaydi). Cho'ziladi-yu, ko'zini yumadi. Tun – yolg'izlarni sinash uchun yuborilgan jazo elchisi. Avval ko'zingni ko'r qiladi. Keyin qulog'ingni shang'illatadi. Undan keyin yuragingni g'ijimlay boshlaydi. Shoshilmasdan... Aloq-chaloq tushlar ko'rasan...

Yana boshlandimi?.. Anavi kim? Basharasi tanish ko'rinadi? Ie, Husanxo'ja-ku! «O'lmaganmiding?» – «O'rik yeysizmi, aka-a-a? Mang o'rik». – «Obor! Obor o'rigingni!» – «Yeng, aka, bitta yeng!» – «Yo'qol deyman». – Kulishini qarang! Kulishi muncha xunuk! Ie, skelet-ku, bu! Husanxo'janing skeleti! Tishlari irjayib turibdi. Og'zini kappa-kappa ochib «aka-a-a» deydi. Yo'qol! Iflos, unsur! Pistoletim qani, pistoletim! Kim bor? Yordam beringlar!..

Uff... Nima bo'ldi? Nega titraydi? Tush ko'rdi-ku, tush. Tushdan ham qo'rqadimi, odam? Yo'q, uxlagani yo'q edi, shekilli. Aniq ko'rdi-ya! Devor orasidan sirg'alib chiqsa bo'ladimi? Validdol qayoqda edi. Uf-f-f...

RUSTAMNING IKKINCHI KUNDALIGIDAN

May oyining o'n oltinchi kuni

«Il-76»da ketyapmiz. U yoqqa olib ketishayotganda soldatlarni qanday «bosishgan» bo'lsa, bu yoqqa kelayotganda ham shunday zichlab joylaganlar. Farqi shuki, u yoqqa borganlar orasida do'stlarim bor edi: Xayriddin, Temur aka, Sasha... Hozir atrofda gi bolalarni deyarli tanimayman: turli qismlardan to'plangan «dembillar». Yana bir farqi bor: u yoqqa sumka ko'tarib ketgan edik. Bu yoqqa har bir soldat bittadan «diplomat» ko'tarib kelyapti.

Motor tovushi gurillab, quloqni qomatga keltiradi. Askar bolalarning hammasi – jim. Hamma bir narsani o'ylab turibdi-yu, aytolmaydi. «Samolyotga «Stinger» tegmasa, bas!»

Xayolimga bema'ni o'y keldi. Samolyotda «ikki yuzinchi» yuk bormikin? Yo'q bo'lsa kerak. O'lik tashiydigan maxsus samolyot bo'ladi, deyishadi. Aslida-ku, temir tobutda yotganlarga baribir. Samolyotda olib keladimi, Hayratondan mashinada olib o'tadimi? Nima farqi bor?

Xo'p, onang sochini yulib dod soladi. Otang kavsharlangan sandiqni quchoqlab, «o'g'lim, jon bolam», deb izillaydi. Qayoqdan bilib o'tiribdi: qutida qonga belangan jasading yotibdimi, bir poy etigingmi, yo shunchaki tuzmi?.. Sevgan qizing (agar bo'lsa) «u yoq»dan yuborgan suratingni yuziga bosib, kechasi bilan un-siz yig'lab chiqadi.

Bir mahal kabina tepasidagi qizil chiroq tahdidli yonib-o'cha boshladi. Hamma beixtiyor o'sha tomonga qaradi. Eshik ochilib, uchuvchi ko'rindi.

– Yigitlar, chegaradan o'tdik! – dedi jilmayib. Samolyot ichi bir zumda shodon shovqinga to'lib ketdi. Birov Toshkentning havosi qanday ekan, desa, boshqasi qulupnay yegisi kelayotgani-ni aytdi. Nariroqqa diplomat ustida omonat o'tirgan bir bola kafti bilan yuzini to'sganча yum-yum yig'layapti...

Aeroport Toshkentga o'xshamas edi. (Boshqa aerodromga qo'nganimizni keyin bildim.) Torgina zalga kirdik. Bojxonaning badqovoq xodimlari xuddi birov Afg'onistondan atom bombasi o'g'irlab kelayotgandek har bitta soldatning diplomatini tit-pit qilib tekshirishga tushdi.

Bir chekkada sigaret chekib turarkanman, qulog'imga juda aziz, juda qadrli kuy eshitildi. Radioda «Munojot»mi, «Cho'li lroq»mi yangrar, nomini eslay olmasdim-u, yig'lagim kelardi.

Tashqari chiqishim bilan surmarang taksi g'irillab kelib shundoq yonboshimda to'xtadi. Yosh bo'lsa ham afti qarimsiq taksichi qo'limdagi diplomatga yopishdi.

– Chamadoning qani, soldat? – dedi shang'illab.

– Chamadon yo'q, – degan edim, shoshirdi.

– O'tir! Tezroq bo'! Bu yerda to'xtash mumkinmas. GAI talonimni teshadi.

Qanaqa odam bu? Men taksi chaqirgan bo'lmasam!

– Avtostantsiyaga! – dedim yoniga o'tirib.

– Uying qayerda o'zi?

– Uzoqda. Avtostantsiyaga oborsangiz, bo'ldi.

– Qayerda turasan? – Taksichi mashinani chaqqon g'izillatib ketdi.

– Pskentda.

– Qiziq ekansan-ku, Hirotga bo'lsayam oborib qo'yarman!

– U yoqqa taksida borishga pulim yetmaydi! – dedim to'g'risi-

ni aytib. – Avtostantsiyaga oborsangiz, bas.

– Puli bilan nima ishing bor! – U qo‘lini paxsa qildi. – Pskentning o‘ziga borasanmi axir?

Indamay bosh irg‘agan edim, so‘radi:

– «Afg‘onmisan?» Xo‘p, deyver, uka! Qalay, omon-eson keldingmi, ishqilib? Suyunganidan uyingdagilarning yuragi qoq yoriladigan bo‘ldi-da! Men-chi, vey, «afg‘onlarni» uzoqdan taniyman. Seniyam ko‘rib, darrov bildim. Shoshma, dedim, shu bolaga bir xizmat qilib qo‘yay, dedim.

Muncha shaqillaydi bu shopir! Toshkent o‘zgarmabdi. O‘sha-o‘sha shahar. O‘sha-o‘sha ko‘chalar. Yo‘l chetida yam-yashil daraxtlar yashnab yotibdi. Mashinalar bir-birini quvib, shamoldek yeladi. Go‘yo o‘n besh qadam oldinda borayotgan mashina minaga duch kelib, portlamaydigandek! Ko‘chada odam muncha ko‘p? Go‘yo olisda, qoyalar orasida biqinib turgan snayper xohlasa, besh minutda yigirmatasini yer tishlatmaydigandek...

– «Suv parisi»dan bormi, soldat? Nima deydi bu?

– Nima?

Taksichi qah-qah urib kuldi.

– Men shoxida yursam, sen bargida yurarkansan, soldat!

Oting nima?

Aytdim.

– Voy, Rustamjon-ey! Voy mug‘ambir-ey! – U navbatdagi mashinani quvib o‘tarkan, signalni bibiblatdi. – Mendan ham quv ekansan. Ko‘rdim, diplomating yengil! Ammo-lekin bitta diplomatga ancha-muncha «suv parisi»ni joylasa bo‘ladi! Bizda bir kiyimi besh yuz turadi! Eshitdingmi, besh yuz! Xo‘p desang, pul-lab beraman! Qurug‘ini arra qilamiz! Kelishdikmi?

– Yo‘lga qarang, aka! – dedim tishimni tishimga qo‘yib. – Menda hech qanaqa «suv parisi» yo‘q!

– Ola-a! – Taksichi ishonqiramay yuzimga qarab qo‘ydi. – O‘tgan hafta bitta kapitanni

Severa Vostokka oborib qo‘ygan edim. Senga o‘xshab gaplashib ketdik. Ammo-lekin malades! Ko‘ngli ochiq odam ekan. O‘ziyam Afg‘onistondan to‘rtta chamadon bilan keldi, azamat. «Men ofitserman, bunaqa ishlarga uquvim yo‘q. Ko‘maklashib yuborsang, biznes qilamiz», dedi...

Shahardan chiqdik. Yam-yashil dalalar boshlandi. Yo‘l cheti-

da xo'ppaygan tollar, osmonga xitob qilgan mirzateraklar... Dimog'imga allanechuk qadrdon is urildi. Avvaliga eslolmadim. Nima bu? Mast qiluvchi hid qayoqdan kelyapti? Bir chaqirimcha yurgach o'ng tomondagi kumush yaproqli jiydalarga ko'zim tushdi-yu, dilim yayrab ketdi. Jiyda gullabdi, jiyda!

– Rostini ayt, uka! – dedi taksichi mashinani shiddat bilan haydab borarkan. – Chindan ham hech nima obkelmadingmi Afg'onistondan?

– Olib keldim! – dedim toqatim toq bo'lib. – Pistolet olib keldim. Cho'ntagimda turibdi.

Xudoga shukr! Uni o'chdi. Yo'l cheti yam-yashil... Bedazorlar, endi qo'shquloq bo'lib chiqqan paxtazorlar. Unda-munda qo'ylar, ola sigirlar o'tlab yuribdi.

Taksichi ko'chamiz boshida mashinani to'xtatdi.

– Qaysi uy? – dedi shang'illab.

– Hov ana! Tol soyasidagi darvoza.

– Bo'pti! Tushaver! – u azza-bazza mashinasini aylanib o'tib, o'ng eshikni ochdi. – Avval suyunchisini cho'zib qo'yishsin-da, mundoq.

Es-hushimni yig'ib olguncha taksi chang ko'tarib, darvozamiz tomon yeldi. Uzoqdan ko'rib turibman. Mashina darvoza oldida to'xtadi. Taksichi jonsaraklik bilan darvozani qo'shqo'llab mushtladi. Zum o'tmay o'zini ichkariga urdi. Birpasdan keyin egnida yangi to'n, boshida do'ppi bilan qaytib chiqdi. Men tomonga imo qilib, bir nimalar dedi. Darvoza oldida turgan Ilhom akamni ko'rdim-u, yuragim orziqqancha yugurdim. Taksichi diplomatni tol tagiga qo'ydi-da, mashinasini shiddat bilan orqaga qaytardi. Akam ham men tomonga chopdi.

Mashina menga ro'para kelganida bir soniya sekinladi.

– Soldat! – dedi taksichi derazadan boshini chiqarib. – Akang bergan uch yuziga rozi bo'lsin.

Yuragim qinidan chiqib ketayotganga o'xshar, jonholatda uyim tomon yugurar edim.

Akamning quchog'idan chiqdim-u bo'ynimga osilgan onamni bag'ringa bosdim. Shunda oyim tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganini og'riq bilan his etdim. Ro'moli yelkasiga sirg'alib tushgan, sochlari duv oqargan, bilaklari kosovdek qorayib, ingichka tortib ketgan. Xiralashgan ko'zlaridan duv-duv yosh oqar,

nuqul «bolam, jon bolam», deb yuzlarimni silar edi.

Dimog'imga rayhon hidi urilib, yuragim qalqib ketdi. Bola-liqdan shuurimga singgan, unutilayozgan qadrdon is... Shunaqa-ku, sochlari nega buncha oqarib ketgan? Ketayotganimda bunaqa emasdi-ku! Gavdasi nega bir tutam bo'lib qoldi. Odamzod shunchalik tez o'zgarishi mumkinmi?

– Yig'lamang, oyi, – dedim kulib. – Mana, men keldim-ku! Oyim hamon bo'ynimga osilgancha hiqillar edi.

– Yig'layotganim yo'q, bolam, – dedi ko'z yoshlarini artib. – Sen kelding, bolajonim. Endi hecham yig'lamayman.

Qiziq, kelinoyim ham allaqanday qarimsiq bo'lib qopti. Peshonamdan o'parkan, horg'in ko'zlarida quvonch porladi.

– Bo'ldi, oyijon! – dedi onamni yupatib. – Xudoga shukr, Rustamjon sog'-salomat qaytdilar. Endi to'y qilamiz.

– Albatta, qilamiz! – Oyim ko'z yoshlari aralash jilmaydi. – Xudo xohlasa, tezlashtiramiz to'yingni, Rustamjon!

Ostona hatlab o'tishim bilan oyim jonsarak alpozda kelinoyimga buyurdi:

– Salimaxon! Tez bo'ling, jon bolam! Patirni olib chiqing! Chaqqon-chaqqon!

Kelinoyim birpas garangsib turdi-da, uyga yugurdi. Zum o'tmay bir chekkasi tishlangan patirni qo'shqo'llab ko'tarib chiqdi. Onam patirni menga tutqizdi.

– Bismillo, deb tishla, bolam! – dedi ovozi qaltirab. Ikki yil avval xuddi shu ostonada turib bir chetini tishlab ketgan patirni qo'limga oldim. Patirning kemtik qirrasida o'zimning tishlarim izi ko'rinib turardi. Bir tomonida ip osilib qolgan. Ajab, ikki yil devorda osig'liq turgan non mog'orlamagan, hatto gard ham qo'nmagandi.

– Ilohi omiin! – Oyim kosovdek qo'llarini fotihaga ochdi. – Omon-eson kelganing rost bo'lsin, bolam! Jumla-mo'minni dildagi niyatiga yetkazsin. U dunyo-yu, bu dunyo urush bo'lmasin! Suv balosidan, o't balosidan, tuhmat balosidan yaratgan Egamning o'zi asrasin!

Hovli o'zgartmabdi. Etakdagi ikki uy, bir ayvon tomiga chiqarib yuborilgan so'ritokda uzum sho'ralari osilib turibdi. Burchakdagi tandir ham, eshigi qiya ochiq molxona ham, chap tomondagi akamning shifer tomli uyi ham o'sha-o'sha. Pastak devor oldi-

dagi ikki tup gilos shig'il meva solibdi. (Pastdagi shoxlarni jiyan-chalar «qiyratgani» aniq.) So'ri yonidagi olma gulini to'kkan, ammo tuggan mevasi hali mayda, shekilli, qalin yaproqlar orasida ko'zga ilinmaydi. Hovli o'rtasida bir vaqtlar dadam ataylabdan Beshariqdan havas qilib oldirib kelgan qo'qongullar yashnab yotibdi. Zangori, qizil, nafarmon... Gulzorning chor atrofi yashil rangga bo'yalgan pastak sim panjara bilan o'ralgan. Panjara ortida rayhonlar...

Kelinoyim birpasda yog'och so'riga joy qildi. Qavat-qavat poyandoz tashladi. Dasturxon yozdi. Oyim so'ri chetiga omonat o'tirgan ko'yi tag'in uzundan-uzoq fotiha o'qidi, kelinoyim hovliga ko'loblatib suv sepayotganda rayhon isi gurkirab ketdi. Ros-tini aytsam, ochiqqan edim. Tandir nonni ishtaha bilan yeb, ko'k choy icharkanman, boyadan beri xayolimda aylanayotgan savolga endi javob topgandek bo'ldim. Hovlida nima yetishmayotganini bildim. Kiraverishda, tepasini yopib, garajga moslashtirilgan yo'lakda odatda sarg'ish «Niva» turardi. Dadam uni deyarli minmas, akam shahargami, tumangami borganda haydar edi. Hozir «garaj» supurib-sidirib qo'yilgan, devor chetida turadigan eski kanistrilar ham ko'rinmasdi. «Dadam minib ketgandir-da!»

– Dadamga xabar qildinglarmi? – dedim choy ho'plab.

– Xabar qildik, ukam, xabar qildik! – dedi akam yelkamga qo'qib. – Qani, nonga qara. Oyimlarning nonlarini sog'ingansan! Oyim maladeslar-da, Rustam! Nonni o'zlari yopmasalar, ko'ngillari joyiga tushmaydi. Bugun ertalab ishga ketayotsam, xamir qorib o'tiribdilar. «Nima zaril, Salimaning o'zi yopadi», desam, nima deydilar degin? Nima dedingiz, oyi, o'zingiz ayting!

Oyim bir akamga, bir menga qarab kulimsirab qo'ydi-yu, indamadi.

– Aytdilarki, – dedi akam tantanavor ohangda, – meni aytdi, dersan, Ilhom, bugun ukangdan yo dilgirom keladi, yo o'zi kirib keladi, xamir uchdi, dedilar. To'g'rimi, oyi?

– Tush ko'rsam... – dedi oyim yoshlangan ko'zlarini dasturxon popugidan uzmay. – Bog' emish. Ka-a-atta bog'... Bir mahal ichida ot ko'rinibdi. Oppoq ot. Qarasam, ot ustida sen o'tiribsan. Voy, bolam, qachon kelding, desam indamay kulib turibsan. Qarasam, otni jilovi yo'q. Qo'rqib ketdim. Tusha qol, bolam, tezroq tush, yiqilib-netib yurmagin tag'in desam, yana indamaysan. Bir

mahal dadang paydo bo'lib qoldilar. Hoy, dadasi, ushlang anavi otni, Rustamjonni opqochib ketmasin, desam... – Oyim to'satdan jimib qoldi. Oshxona tomonga qarab, ojiz, yig'loqi ovozd chaqirdi...

– Salimaxon-u-u! Hoy, Salima! Rustamjonga qatiq bermabsiz-ku!

Oshxona eshigidan kelinoyim mo'raladi.

– Choping! – dedi oyim tayinlab. – Aqidanikiga chiqing. Bir kosa qatiq bersin. Rustamjon keldi, deng.

Kelinoyim oshxonadan chiqib, ko'chaga zing'illadi. Hayron bo'ldim.

– O'zimizning sigir-chi?

– O'lsin! – Oyim shosha-pisha qo'l siltadi. – Qisir qoluvdi, sotib yubordik.

– Yana bittasi bor edi-ku! – dedim hayratlanib.

– Unisini go'shtga topshirdik. – Akam bepisand kuldi. – Qorni shishib ketdi. Jiyanlaring o'yinga andarmon bo'lib, beda oralab ketganini bilmay qolibdi... Sho'x-da shumtakalar!

Rostini aytsam, jahlim chiqdi. Qishloqda turib sigir boqmasa, qanaqa gap bu?

Akam ko'nglimdan o'tganini sezdi chog'i, yelkamga shapatiladi.

– Ey, uka! Shungayam ota go'ri – qozixonami? Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi.

– Salima chiqquncha men ovqatga qaray, – onam inqillab so'ridan tushayotgan edi, darvoza tomondan shodon qiyqiriq eshitildi...

– Ur-re! Kichik dadam keptilar!

Akamning ikki o'g'li hovliga otilib kirdi. O'qday uchib kelib, ikkalasi ikki tomondan yopishdi. Ikkovi allaqayerda rosa futbol tepgan, shekilli, terga botib ketgan.

– Menga nima obkeldiz? – dedi kattasi.

– Menga-chi? – dedi kichigi.

– Senlargami? – dedim dilim yayrab. – Jevachka olib keldim.

Yana g'alva boshlandi:

– Menga o'nta berasiz!

– Menga o'n beshta, xo'p?

– Beradi! Ikkalanggayam beradi! – Oyim bolalarni mendan

nari surdi. – Avval qo‘shnilardan suyunchi olmaysanlarmi? Kichik dadam keldilar, demaysanlarmi?

Jiyanchalar bir zumda butun qishloqqa xabar qilibdimi, kun botmasdan mehmon bosdi. Birinchi bo‘lib Tursunboy aka chiqdi. Belimdan siltab-siltab bag‘riga bosarkan, oyimga xitob qildi:

– Aytmabmidim, xola! Rustamjon biron yeri tinalmasdan keladi, demabmidim! Siz bo‘lsangiz yig‘lab yuribsiz! To‘yni tezlashtiring, to‘yni! Ukamga o‘zim kuyovjo‘ra bo‘laman! – U menga qarab, gapini tasdiqlatib oldi. – To‘g‘rimi gapim? Xatda yozganmidim shuni? Ana! Gap bitta bo‘ladi!

Hovliga katta joy solindi. Sho‘rva tortildi, osh damlandi. Shu paytgacha dadam kelmaganiga jahlim chiqa boshladi. Akam yu-patdi:

– Toshkentda sessiya bor ekan. Hali zamon kelib qoladilar.

...Mehmonlar tarqab, hovli jimjit bo‘lib qoldi. Olma tagidagi so‘rida tag‘in to‘rtovlon qoldik. Oyim, akam, kelinoyim, men... Vaqt allamahal bo‘lib qolgan, darvoza ro‘parasidagi tol tepasida muallaq to‘xtagan to‘lin oy mo‘l-mo‘l nur sochar, chigirtkalar kuyib-yonib chirillar edi.

Oy bunaqa yorug‘ bo‘lishi yomon. Zastavada peshob qilgani ham borolmaysan. Maska-xalat-ku, gavgangni asraydi. Qoyalar panasida ko‘zga ko‘rinmaysan. Ammo soyang bor-ku, soyang! Bir chaqirim narida poylab turgan «dux» snayperi soyangni ko‘r-maydi, deysanmi? BUR tepkisini bitta bossa...

Nima bo‘ldi menga? Afg‘oniston qolib ketdi-ku? Hov olislar-da! Sovuq tog‘lar ortida. «Qiziq, nega dadam yo‘q? Soat necha bo‘ldi, o‘zi? Majlis shuncha cho‘ziladimi?»

– Dadam qachon keladilar, aka? – dedim toqatim toq bo‘lib.

– Keladilar, ukam, keladilar. – Akam g‘ayrat bilan choy qaytarishga kirishdi. – Ba‘zan sessiya uch kunlab cho‘ziladi. Bilasan-ku, deputat bo‘lgandan keyin...

...Ayvonda maykachan jiyanim ko‘rindi. Kichigi.

– A-ya! – dedi yig‘lamsirab. – Siyama-an!

Kelinoyim yugurib ayvonga chiqdi. Bolani hojatxona tomon yetakladi. O‘sha yoqdan «Bo‘l tez, joyingga borib uxla!» degani eshitildi. Kelinoyim qo‘lidan yetaklab ketayotgan edi, bola gulzor ro‘parasida to‘xtadi. So‘ri tomonga burilib qaradi-da, yer tepinib xarxasha qildi:

– Jevachka! Kichik dada, jevachka! – dedi yig‘lamsirab.

– Jinnivoy-ey! Senga jevachka va‘da qiluvdim-ku! – So‘ridan sakrab tushib, ayvonga chiqdim. Burchakda turgan diplomatni ochib, tish cho‘tki, sochiq singari lash-lushlar orasidan bir quti saqichni oldim.

– Ma! – dedim kulib. – Yuzta!

– Bitta o‘zimgami? – Bolakay ko‘zlari hayratdan ochilib so‘radi. – Akamga-chi?

– Akanggayam bor! – dedim mehrim tovlanib. Kelinoyim bolaning boshini siladi.

– Bo‘ldimi, yur endi. Uxla!

Qaytib kelib so‘riga o‘tirishim bilan jiyancham ostonada tag‘in paydo bo‘ldi. Suv sepilgan hovli sahnida dikir-dikir yugurib yonimizga keldi. Chamasi, butunlay uyqusi o‘chib ketgan edi.

– Ochib bering! – dedi saqichni uzatib. – Ochib bering, kichik dada-a!

Bolani tizzamga olib, saqich qog‘ozini ochdim. Bola mazza qilib chaynarkan, so‘lagi oqib iljaydi.

– Voy, kichik dada, qulpnayga o‘xsharkan! – Bir zum qarsilatib chaynab turdi-da, bo‘ynimga osildi. – Kichik dada-a, – dedi qop-qora ko‘zlarini katta-katta ochib. – Siz keldingiz-a?

– Ko‘rib turibsan-ku, keldim, – dedim kulib.

– Endi ketmaysiz-a?

– Yo‘q, – dedim gapi nash‘a qilib. – Ketmayman! Bolakay bir zum o‘ylanib turdi-da, so‘radi:

– Bobojonim qamoqdan chiqadilar-a? Ichimda bir nima uzilib ketgandek bo‘ldi.

Kelinoyim yugurib kelib, bolaning bilagiga chang soldi.

– Yur! – dedi tahdid bilan. – Uxlasang, o‘lasanmi, zumrasha!

– Yo‘-o‘-o‘q! Kichik dadamminan o‘tiranman! – Bola oyoq-qo‘llarini tipirlatib chinqirdi. – Uxlamayman! Uxlamayman!

– O‘chir! – Akam qo‘lini paxsa qilib kelinoyimga o‘dag‘ayladi. – Obkir uyga!

Oyim o‘tirgan joyida tebranib yig‘lab yubordi:

– Xudo urib qoldi bizni, bolam! Xudoga nima yozuvdik, o‘g‘lim! Otang bechora shuncha yil mehnat qilib, ko‘rgan kuni shu bo‘ldimi, Rustamjon?

– Yur, uka, uyga kiraylik. – Akam o‘rnidan turdi. – Oyi, – dedi yupatuvchi ohangda. – Siz damingizni oling. Aka-uka bir otamlashaylik.

Onam indamadi. Ammo yonimizda o‘tirgisi kelayotgani ko‘rinib turardi.

– Xohlasangiz, yuring siz ham... – Akam onamning qo‘lidan tutib, so‘ridan tushishga ko‘maklashdi.

Uchovlashib, ilhom akamning «katta zal»iga kirdik. Akam chiroqni yoqishi bilan garangsib ostonada turib qoldim: uy deyarli shipshiydam edi. Yangim ikkita bolali bo‘lganda ham «katta zal»ni kelinning uyidek bezatib qo‘yadigan odati bor edi. Servantda did bilan terilgan servizlar, taxmonda qo‘sha-qo‘sha baxmal ko‘rpalar, devorda cho‘g‘dek gilamlar... Endi bo‘lsa, uy o‘g‘ri urgandek hangillab qolibdi. O‘rtada xontaxta. Atrofida to‘rtta ko‘rpacha. Burchakda bolaligimda dadam olib kelgan «Elektron» televizor. Bor jihoz – shu. Xatto nafis darpardalar ham qayoqqadir gumdon bo‘lgan. Derazalarning yarmini to‘sgan oddiy sarg‘ish parda g‘arib mung‘ayib turibdi.

– O‘tir, uka. – Akam yuzimdagi savolni o‘qib, xijolatli iljaydi. Shosha-pisha ko‘rpachaga imo qildi. – Yuqori chiqing, oyi.

Oyim qo‘llari qirsillagancha, xontaxta qirrasidan ushlab, to‘rdagi ko‘rpachaga cho‘qdi. Akam tokchadan ochilgan aroq, ikkita piyola oldi.

– Salima! – dedi ayvon tomonga qichqirib. – Obke, rediskapediskadan!

– Shu o‘lgurni ichmasalaring nimaydi-ya? – dedi onam norozi bo‘lib.

– Ko‘pmas, oyi, jinday... Qani? Omon-eson qaytganing uchun!

Birinchi piyoladan keyin akamning ko‘zlari qizarib, pishillab nafas ola boshladi.

– Hayron bo‘lyapsanmi? – dedi shipshiydam uyga qarab. – Sotdik! Qani, ol... Mayli, uka, bosh omon bo‘lsin! Dadam sog‘-salomat kelsalar bas! – Bir nima daf‘atan yodiga tushgandek, kulimsiradi. – Ammo sening to‘yingga atalgan narsalarning ninasi-niyam qimirlatganimiz yo‘q. To‘g‘rimi, oyi?

Onam indamay bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Anavi iskovichlar xo‘p yopishdi, – dedi akam. – «Bu qanaqa

atlas? Qayerdan kelgan? Shuncha adyolni nima qilasan? Kimdan pora olgansan?» O'zbekning to'yi shunaqa bo'ladi, kelinga qilmasa, bo'lmaydi, desak, quloq solsa qani!

Akam yana aroq quydi.

– Qo'ya qol endi, bolam, – dedi oyim tashvishlanib. – Ukanq toliqqan, damini olsin, ertaga gaplasharsanlar.

– Yo'q! – akam alam bilan bosh chayqadi. – Eshitsin! Sen u yoqda dadamdan nega darak yo'q, deb yozasan... Bu yoqda dadamni tiqib qo'ygan. Bir kechada idoraning o'zidan olib ketgan. Qo'shib yozganmish. Pora olganmish... Kun ora so'xtasi sovuqlar uyga bostirib kiradi. Yashirgan tillalaringni top, deydi... Qo'lida mina izlaydigan tayoqqa o'xshagan narsa. Hamma yoqni titkilaydi. Xalajoygacha kavlab ko'rdi, to'g'rimi, oyi?

Onam boshini bir yonga tashlagan ko'yi noma'lum nuqtaga termilib o'tirar, unniqib ketgan moshrang ro'moli sirg'alib yelkasiga tushgan, oppoq sochlari to'zg'igan, ko'zlarida ma'no yo'q edi.

Ich-ichimdan titroq uyg'onib, to'satdan miyamga chidab bo'lmas og'riq turdi. Barmoqlarim muzlay boshladi. Hozir, hozir boshlanadi! Onam! Bechora onamning bir kami shu tomoshani ko'rish edi! Jonholatda aroq shishasini yulqib olib, piyolaga to'ldirib quydin. Girehlanib qolayotgan tishlarim orasiga piyola qirasini zo'rlab tiqib, ichdim... Qancha vaqt o'tganini bilmayman. Nihoyat, ko'z o'ngimni qoplagan sarg'ish tuman tarqalgandek bo'ldi. Xayriyat!

Qarasam, akam ko'zlari hayratdan chaqchayib, yuzimga sinchiklab tikilyapti. Boshimni nimadir tatalayotganini his etib, g'ashim keldi. Oyimning qo'llari ekan. Burilib qaragam, onam orqamda tik turganicha ikki buklanib boshimni uqalayapti. Piyola xontaxtada to'nkarilib yotibdi.

Quti o'chgan kelinoyim tumshug'imga kosa tiqishtirdi.

– Iching, icha qoling, Rustamjon! – dedi yalinib.

Suv ekan. Kosani kaftim bilan nari surdim.

– Kerakmas.

Oyim boshimni uqalashdan to'xtadi.

– Senga nima bo'ldi, bolam! – dedi ikki yuzimni silab. – Onangni nega qo'rqitasan, jonim bolam?

Endi u yig'lamas, qovjirab qolgan ko'zlarida qo'rqinch, xavo-

tir bor edi.

– Hech nima! – dedim iljayishga urinib. – Nega vahima qilasiz!

– Shu o‘lgurni ichma devdim-ku! – Oyim akamga dashnom berdi. – Yur, bolam, – dedi yelkamni silab. – Joyingni solib bera-man. Charchagansan.

Xudoga shukr! Xuruj o‘tib ketdi. Boyagi aroqni ichganim yaxshi bo‘lgan ekan. Titroq bosildi. Qo‘limning muzlashi qoldi.

– Oyi, – dedim yalinib. – Siz kirib yoting. Biz akam bilan gap-lashib olishimiz kerak.

Baribir onam yonimga o‘tirib oldi. Bilaman, endi bir qadam ham jilmaydi.

– Bu hangomalar, – dedi akam xo‘rsinib, – avgustda boshlan-di. Maktab ta‘miri oxirlab qolgandi. Erta-indin avgust kengashi boshlanadi... Direktor uyga odam yuboribdi. Viloyatga

kimni yuborish muhokama qilinishi kerak ekan. Majlisni il-miy mudir o‘tkazdi. Chorak soatchadan keyin direktor kirib keldi.

«O‘rtoq Shomatov, sizni so‘rashyapti», – dedi. «Kim?» – de-sam, «Chiqsangiz, bilasiz», – deydi. O‘shandayam xayolimga yomon o‘y kelgani yo‘q. Faqat hayron bo‘ldim. Direktor doim otimni aytib, Ilhomjon, deb chaqirardi. Chiqsam, maktab hovlisi-da hech kim yo‘q. Darvoza oldiga kelsam, ko‘k «Jiguli» turibdi, nol olti. Sen tengi yigit yonimga kelib: «Siz – Shomatov Ilhom bo‘lasizmi?» – dedi. «Ha», – dedim, mashinaning orqa eshigini ochdi. «Marhamat, o‘tiring, grajdanin Shomatov!» – dedi.

Akam «Polyot»ni tutatib, chuqur-chuqur so‘rdi. Zimdan onamga razm soldim. Oyim pinjimga tiqilib jimgina mung‘ayib o‘tirar, akamning bu hikoyalarini o‘nlab, yuzlab marta eshitgan bo‘lsa kerak, gapga aralashmas, chamasi, eshitishni ham xohla-masdi.

– Shopirdan boshqa yana ikki kishi bor ekan. Bittasiniyam ta-nimayman. Shopir oldida, o‘shalarning xo‘jayini bo‘lsa kerak, bitta semiz kishi o‘tiribdi. Boyagi yigit meni orqa o‘rindiqqqa o‘t-qizdi. Yonboshimga o‘zi o‘tirdi. Xuddi kinolarda ko‘rsatadigan shpionni qo‘lga olgandek. Chap tomonimda bittasi, o‘ng tomo-nimda bittasi.

«Shomatovning uyiga!» – dedi oldingi o‘rindiqdagisi. Yura-gim g‘ash tortdi. Boyagi yigitdan so‘radim. «Tinchlikmi, brat?»

desam, haligina iljayib turgan odam ko'zini ola-kula qildi. «Men senga brat emasman, alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchi Shevelev bo'laman!» deydi. «Otang Shomatov Shomansur propiska qilgani, katta miqdorda pora olib, pora bergani uchun qamoqqa olindi», deydi. Rost, oyoq-qo'lim bo'shashib ketdi. «Sizlar adashyapsiz, mening otam unaqa odammas, bir umr halol ishlagan. Lenin ordeni bor, deputat», dedim. Oldinda o'tirgani men tomonga qarab, mazax qilib kuldi. Qorong'i tushguncha hamma narsani ro'yxatga oldi. Hamma yoqni tit-pit qilib tashladi. «Nima kerak sizlarga, ayting, o'zim topib beraman», desam, «O'chir ovozingni!» deydi. Ammo oyim – malades! – Akam hamon mung'ayib o'tirgan onamga qarab qo'ydi. – Sening to'yingga atalgan ko'rpa-to'shaklarni ag'dar-to'ntar qilayotgan edi, qo'liga yopishdilar. «Kelinning sarposiga tegma, o'g'lim kelsa, uylantiraman, deb, o'z qo'lim bilan tikkanman», dedilar. Baribir, ko'rpalarning paxtasigacha titib chiqdi. «Millioner bo'lmasang, keliningga shuncha padarkani qayoqdan olding?» deydi. Oyim: «Nima qilay bo'lmasa, senlarga o'xshab to'rt shisha aroq bilan o'g'il uylantiraymi? Men bu narsalarni yillab to'plaganman», desalar, masxara qilib kuladi. «Millionni topsang, ering qutulib chiqadi, bo'lmasa, ering ham ketadi, o'g'ling ham xotin ololmay xolostyak o'tadi», deydi.

– aroqdan bormi? – dedim ichimdan tag'in titroq kelayotganini sezib.

Oyim ko'zimga xavotirlanib qarab qo'ydi.

– Topiladi! – Akam ayvon tomonga ovoz berdi. – Sali-i-i! Oshxonani qaragin, yana bitta shisha bor edi.

Onam endi og'iz ochishga shaylangandi, keskin iltimos qildim:

– Qo'rqmang, oyi, ko'p ichmaymiz. Faqat... yo'q demang. Iltimos.

Kelinoyim... Itoatkor va hamisha jilmayib turadigan kelinoyim aroq shishasini keltirib, xontaxtaga qo'ydi.

– Ovqat isitib kelaymi? – dedi mung'ayib.

– Obke! – Akam jonlanib, shisha qopqog'ini buray boshladi. – Boyagi jarkopdan opke.

– Qishloqqa ofat doridi, Rustam! – dedi akam bosh chayqab.

– Bitta «Kommunizm»ning o'zidan yigirma sakkiz kishi qamal-

di. Ishonasanmi, dadamni izlamagan joyimiz qolmadi. Kun ora kennoyning bilan tugun-tersak ko'tarib yo'lga tushamiz. MVDga boramiz, «Kommunizm» kolxozining raisi Shomatov qayerda?» desak, «Bilmaymiz, Toshturmaga bor», deydi. Toshturmaga bor-sak, «KGBga uchrash», deydi. Bu yoqda biz dadamni izlab yuribmiz, u yoqda anavilar har kuni kelib, oyimni qo'rqitadi. «Ering gumdon qilgan millionni topasan!» deydi.

Akam toliqqandek uzoq sukutga cho'mdi.

– Salima! – dedi baqirib. – Nima balo, o'zingam jarkop bo'lib ketdingmi?

Yangam tovoqda qovurdoq ko'tarib keldi.

– Keyin... – Akam yarimta kartoshkani qoshiqqa ilib chaynarkan, bo'ynini cho'zib yutindi.

– Keyin meniyam qamoqqa tiqishdi. Ikki oy ushlashdi... Ichasanmi, yana jinday?! Ikki oy ushlashdi... Qiynashga qiynadi. Ikki kecha-kunduz suv bermadi. Uxlatmadi. Nima? Sen bilmaysanda, uka. Kunduzi tik oyoqda turg'azib qo'yadi. Kechasi bilan so'roq qiladi. Ammo rostini aytishim kerak. Urgani yo'q. Bundan ko'ra urgani yaxshiydi! Savoli nuqul bitta: otang yashirgan xazina qayerda? Qancha tez topsang, shuncha yaxshi, otang ham chiqib ketadi, sen ham! «Hoy, odam! Otamda qanaqa xazina bo'lsin, umrbod halol mehnat qilgan, na kolxozning, na davlatning bir tiyiniga ko'z olaytirmagan», desam, hammasini qaytadan boshlaydi. Buxgalter tan oldi, paxta punkti qabulchisi pokazanie berdi, raykom bo'yniga oldi, obkom tilxat berdi. Hammasini bilamiz, deydi. Otang biridan pora olib, biriga bergan, o'rtada o'ziga ham cho'tal olib qolgan, deydi. Tamom – vassalom!

Bir kuni... – Akam eng muhim narsa esiga kelgandek, kelinoyimni chaqirdi. – Sali-i! Salima! Kelinoyim ostonada sharpadek paydo bo'ldi.

– O'tir! – dedi akam yonboshiga imo qilib. – O'tir! Rustam eshitsin! Hammasini eshitsin! Bir kuni ertalabdan soqolimni haf-sala bilan qirtishlab qoldi. Yuzimga atir sepdi. Mashinaga o'tqizib turmadan shaharga olib keldi. Bitta xonaga obkirdi. Qarasam, stol to'rida burni cho'michdek kimsa o'tiribdi. Keyin bildim. Moskvadan o'zbekni boshiga qiron solish uchun kelgan general Ambartsumyan degani shu ekan. Xo'p muloyim gaplashdi. «Siz – Shomatov, intelligent odam ko'rinasiz, maktabda dars berar-

kansiz», dedi. Indamadim. «Demak, siz yosh avlodni sovet jamiyatining g'alabalari ruhida tarbiyalashingiz kerak», dedi. Indamay turaverdim. «Shundoq odam nega otangiz to'plagan millionlarni yashirasiz, vah-vah-vah», deydi. Otam hech qachon hech kimdan pora olmaganini, qo'shib yozmaganini aytdim. Guvohing bo'lsa, yuzlashtir, dedim. Shunda nima qildi, degin? – Akam entikib nafas ola boshladi. Ko'zlari alang-jalang bo'lib buyurdi.

– Chiq, Sali! Chiqib ket! Oyi, – dedi yolvorib. – Jon oyi! Siz ham chiqib turing! Iltimos! Besh minutga...

Kelinoyim onamning qo'ltig'idan olib, chor-nochor ayvonga yo'naldi.

– Eshikni yop! – dedi akam baqirib. Keyin ovozini pasaytirdi. – Burni cho'michdek o'sha Ambartsumyan guvoh kerakmi senga, dedi-da, tugmachani bosdi. Eshikda ko'ringan soqchiga, Shomatovani olib kir, deb buyurdi. Qarasam, ostonada yangang turibdi. Egnida eski palto, boshida ro'mol... «Ilhom aka», deb men tomonga yurgan edi, armani soqchiga «olib chiq» deb buyurdi. Yangangniyam, meniyam og'zimdagi og'zimda, bo'g'zimdagi bo'g'zimda qolaverdi. Keyin... – akam titroq qo'llari bilan sigaret tutatdi. – Keyin... bilasanmi nima dedi o'sha general! Shomatova Salima sening xotining bo'ladi-a, dedi. Agar otangni ustidan pokazanie bermasang, O'marilgan millionni topmasang, ajoyib tomosha ko'rasan, dedi. Bilasanmi, yana nima dedi? – Akam hiqillab qoldi. Kaftining teskarisi bilan ko'z yoshlarini artirdi. – O'n minutdan keyin xotiningni banditlar zo'rlayotganini ko'rasan, dedi... Bittayam butun joyi qolmaydi, dedi. O'sha xunasa Ambartsumyan, xotini o'nta o'ynash tutsa, hayron bo'lmas. Ammo o'zbek bunaqa gapga chidaydimi, ukam?

Akam unsiz yig'lar edi.

– O'sha gapdan keyin tamom bo'ldim! – Akam yuragi yonib ketayotgandek ko'ksini changalladi.

– Dadam pora olganmas, ammo sizlarga pul kerak bo'lsa, topib beraman, dedim. Ertasiga dadam o'z qo'li bilan yozgan xatni olib kelishdi. O'sha xatni har bitta harfigacha eslayman. «O'g'lim! – deb yozibdi dadam. – Onangga tushuntir. Men-ku, aybsiz aybdor bo'lishga bo'ldim. Bor bisotni topshiringlar! Jon omon bo'lsa, mol topiladi. Onangni ehtiyot qil. Senlar tinch bo'lsang, men ham tinchiyman. Rustam bu gaplarni eshitmasin...» debdi.

Uch kundan keyin meni chiqarib yuborishdi. Bilasanmi, Rustam? – akam alam bilan titradi. – O’sha kuni Salimani ering bilan svi-danie qildiramiz, qaynotangni ham ko’rasan, deb olib borgan ekan. Narigi xonada dadamga ham kennoyingni ko’rsatishibdi. Menga nima degan bo’lsa, dadamga ham shuni aytgan ekan. Ke-lingni banditlar zo’rlayotganini tomosha qilasan, debdi!

Og’ir, chuqur sukunat cho’kdi. Ayvon eshigidan onam jur’at-siz mo’raladi.

– Bo’ldi endi, – dedi mung’ayib. – Qolganini ertaga gapla-sharsizlar.

– Keyin-chi? – dedim g’azabdan tishim g’ijirlab. – Nima bo’l-di?

– Keyinmi? – Akam istehzoli iljaydi. – Sotdik! Hammasini sotdik! Mashinani, sigirlarni, mebelni! Kelinoyingning taqin-choqlarini! Hammasini! Hatto buvamdanda oyimga yodgorlik bo’-lib qolgan bilaguzuklarni ham... Yig’ishtirib kelganda yuz ming-ga bormadi. Millionni topsang, otangni chiqarib yuboraman, de-gan Ambartsumyanning korchaloniga eltib berdim.

Akam yana sigaret tutatdi. Chuqur xo’rsindi.

– Sud Moskvada bo’ldi, – dedi yo’talib. – Ahmoq! Eshshak! – Akam shiddat bilan qo’shqo’llab boshiga mushtladi. To’satdan ho’ngrab yubordi. – Men ahmoqman! Eshshakman! Eshshak! – dedi hansirab. – O’z qo’lim bilan dadamni qamoqqa tiqdim. Ma-na shu qo’llarim bilan. Eshityapsanmi, mana shu qo’llarim bilan! Nima qilay, ukam, chopib tashlasam, qutulamanmi, qo’llarimni! Dadam sudda aytdi: tergovda bergan pokazanelarimni tan olmay-man, meniyam, o’g’limniyam majbur qilishgan, dedi. Hech kim quloq solmadi. Shomatovning o’g’li tergov guruhiga sakson uch ming pul, yana o’ttiz ming atrofida baholangan tilla buyumlar topshirgan. Demak, Shomatov – millioner, deb turib oldi.

May oyining yigirmanchi kuni

Avtostantsiya chekkasidagi avtomat-telefonda raqam terar-kanman, qo’lim titrar edi. Bugun yakshanbami? Universitetga borishdan naf yo’q. Shahnoza – uyda. Anavi qaqajon singlisi das-takni ko’tarib qolsa, yana boshni qotiradi. Xayriyat, Shahnoza-ni o’zi oldi.

– Labbay?

Yuragim gursullab ketdi. Ikki yil kutgandim bu ovozni. Ikki

yil! Sovuq qish kechalari zastavadagi «uycha»da yotganimda, karvoni kuzatib qaytayotib, olis yo'l azobidan toliqib, tank ichida mudrab qolganimda mana shu ovoz bexosdan qulog'imga chalinib, cho'chib uyg'ongan paytlarim ko'p bo'lgan...

– Shahnoza! – tovushim bo'g'iq, ishonchsiz chiqdi. Simning u tomonida bir lahza sukut cho'kdi-yu, hayrat aralash quvonchli xitob eshitildi.

– Voy! – Shahnoza entikib qoldi. – Voy?!

– Bugun soat uchda, o'sha joyda... – dedim-da, dastakni ilib qo'ydim. Hamon yuragim gursullar, shu topda boshqa gapirolmashligimni bilardim. Nariroqqa borgandan keyin, o'zimni so'kdim. «E, o'l, to'nka! Aqalli hol-ahvol so'ramaysanmi? Uydagilar yaxshi o'tirishibdimi, demaysanmi? Bo'lar ish bo'ldi. Voenko-matga borish kerak».

Taxta to'siq ortida o'tirgan novcha kapitan norizo qiyofada o'rmidan turdi.

– Nega chest bermaysan, serjant? – dedi ko'zimga tikandek qadalib.

Yo, Xudo! Xo'p g'alati narsa-da, bu «harbiy intizom» degani! Unvoni o'zingdan bir pog'ona balandmi, qoqqan qoziqdek g'o'daygin-da, chest ber! Tanisang ham chest ber, tanimasang ham. Hurmat qilsang ham chest ber, qilmasang ham! O'zini bir tiyinga olmasliging mumkin. Ammo egnida mundir, yelkasida pogon bor.

– Salom, o'rtoq kapitan! – dedim fuqarochasiga oddiy qilib. Kissamdan hujjatlarimni olib, taxta to'siq ustiga qo'ydim.

– Ustav bo'yicha doklad qil! – dedi kapitan dag'dag'a bilan. Ko'rganmiz bunaqa po'pisalarni! To'g'ri, hali «sovet fuqaro»siga aylanganimcha yo'q. Oddiy «dembil»man, xolos. Ammo qaytadan harbiy xizmatga yuborish qo'lidan kelmaydi. Nari borsa, bir oy «povuska» tashitishga majbur qilishi mumkin. Jazo tariqasida.

Bir-birimizning ko'zimizga uzoq tikilib turdik. Oxiri kapitan hujjatlarimni yulqib oldi.

– Qachon kelding? – dedi qovoq-tumshug'i osilib. Bir qadar jahldan tushgani ovozidan sezilib turardi. – Ekipaj komandiriming?

– Ha!

– Kontuziya bo‘lganmisan? – Kapitan gospitaldan berilgan qog‘ozni sinchiklab ko‘zdan kechira boshladi. – Eh-ha! Jarohat ham olgan ekansan. Endi nima qilmoqchisan?

– O‘qishimni davom ettiraman.

– Men Qandaxorda xizmat qilganman, – dedi kapitan hujjatlarimdan ko‘z uzmay.

Bu ham porox hidini totganlardan ekan-da! Kapitanga hurmatim oshdi.

– Demak, gap bunday! Urush qatnashchisi sifatida tubandagi huquqlaring bor. – Kapitan «afg‘onlar»ga aytaverib yod bo‘lib ketgan so‘zlarni aniq-ravshan qilib takrorladi. – Oliy o‘quv yurtiga kirishda imtiyoz, birinchi navbatda telefon olish, birinchi navbatda kvartira olish, invalid bo‘lsang, navbatsiz xususiy avtomashina olish... Xullas, imtiyozlar to‘g‘risidagi hujjatingni berishadi.

– O‘rtoq kapitan! – dedim tushuntirib. – U yoqdagi harbiy vrach, «Uyingga qaytishing bilan gospitalga borib, mutaxassisga uchrashishing shart», degan edi.

– Bu mumkin! – dedi kapitan keskin ohangda. – Gospitalga yo‘llanma beramiz.

O‘sha kuni

Anhor bo‘yiga piyoda keldim... Odamlarning bunchalik beparvo yurishiga hamon ko‘nika olmasdim. Har bir daraxt orqasida «dux» poylab turgandek edi. Bog‘ yashnab ketibdi. Oppoq gullari teskari o‘sgan uzum boshiga o‘xshab uchini osmonga qaratib turgan kashtanlar, dovuchcha tukkan o‘riklar, yam-yashil archalar shamolda arg‘amchi uchadi. Gulzorda xonaki gunafshalar, siyohrang gulsapsarlar erkalanib chayqaladi. Ammo havoning avzoyi buzuq, osmonda qoramtir bulutlar charx uradi.

Mana, o‘zimizning skameyka. O‘zimizning na‘matak. Nafarmon gullari quyosh tomchisidek yaraqlaydi. Xarrakka o‘tirib, anhorni tomosha qildim. Tog‘ tomonda yomg‘ir yoqqan, shekilli, anhor loyqalanib, to‘lg‘anib oqadi. Suv betida olma shoxchalari, nastarin gullari shitob bilan qalqib boradi. Ana, bir dona lola oqib kelyapti. Gulbarglari yoyilib ketgan. Xuddi zada bo‘lgan yurak parchasidek. To‘lqinlar uni goh erkalab yelkasiga ko‘taradi. Goh bo‘tana girdobiga uloqtiradi. Ermak qilayotgandek... Bulutlar quyuqlashib, shamol kuchaydi. Xarrak yonboshidagi na‘matak

jonsarak chayqala boshladi... Shoshqin qadam tovushini eshitib, yuragim orziqib ketdi.

Qulog'imga qadrdon ovoz kirdi:

– Rustam aka! Rustam aka-a-a!

Shahnoza qushdek uchib kelib, bag'ringa otildi. Dimog'imga gul hidi urildi. O'zgarmabdi! Faqat... yanayam ochilib ketibdi!

Egnida atlas ko'ylak. Sochini chiroyli turmaklab, mittigina atirgul g'unchasini qistirib qo'yibdi.

– Sog'indim, Rustam aka! Sog'inib ketdim. – Ko'zlaridan ikki tomchi yosh silqib chiqib, labiga sizdi.

– Men ham, – dedim bag'ringa bosib. – Tushlarimda ko'rdim. Ko'p, juda ko'p ko'rdim.

– Men ham...

...Ko'zlari... Shahnozaning ko'zlari shunaqangi chiroyli, shunaqangi begunoh, ilhaqlik bilan boqadiki, yuragingni sug'urib olayotganga o'xshaydi...

– O'zgaribsiz... – dedi yuzimni silab. – Ozibsiz. Qorayibsiz.

– Sen o'zgarmabsan! – dedim yelkasidan qattiqroq quchib. – Yanayam chiroyli bo'lib ketibsan.

Shu alpozda ancha o'tirdik.

Bir mahal Shahnoza yuzimga ilkis qarab qo'ydi.

– Rustam aka... – dedi sekin. – U yoqda... odam o'ldirdingizmi?

Yuragim shig' etdi. Ko'z o'ngimga so'ritok tagida yotgan ayol keldi. Qizil ko'ylakli ayol. Yuzlari oppoq, tiniq... Xuddi Shahnozanikiga o'xshagan... Shu payt osmon yaraqlab ketdi. Dahshatli gumburlashdan qulog'im chippa bitib qolgandek bo'ldi. «Er-es!» Raketa portladi! Osmonda raketa portladi! O'rnimdan qanday turib ketganim, qay alpozda na'matak panasiga o'tganimni bilmayman. Peshonamga iliq yomg'ir tomchisi urildi. Tag'in momaqaldiraq gumburladi. Qarasam, Shahnoza ham o'rnidan turib ketibdi, ko'zlari katta-katta ochilgan ko'yi menga hayratlanib tikilyapti.

– Sizga nima bo'ldi? – dedi pichirlab.

– Hech nima... – dedim shuursiz bir tarzda qaytib joyimga o'tirarkanman. – O'zim... Shunchaki...

O'sha zahoti shovullab jala quydi. Shamol avjiga mindi. Na'matak shoxlari shiddatli chayqala boshladi. Nafarmon gullar

shamolda chirpirak bo'lib uchgancha, anhorga tushib, loyqa to'liqlarga ko'milib ketdi. Chaqmoq bulutlar orasida olovli qamchisini o'ynatar, momaqaldiroq muttasil gumburlar edi. Anhor yuzi bir zumda alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Shahnoza yelkamga boshini tashlab hiqillab yig'lab yubordi. Vujudi titrar edi. Atlas ko'ylagi jiqqa suv bo'lib, badaniga yopishib qoldi.

– Shamollab qolasan... – dedim yelkasidan quchib...

May oyining oxiri

Okrug hospitali devorlari qalin, pasqam, qadimiy bino ekan. Keksa do'xtir erinmasdan so'roqqa tutdi:

– Kontuziya bo'lganingda uzoq hushingdan ketganmiding?

– Boshing qattiq og'riydimi? Qanaqa paytda og'riq kuchayadi?

– Asabing tez qo'zg'aydi? Bexosdan cho'chib ketasanmi?

– Boshing og'riganda qusging keladimi? Badaning muzlamaydimi?

– O'shandan keyin hech hushingdan ketdingmi?

Hamma savollarga javob berib bo'lgach, men ham so'radim:

– Kontuziya asorati qachon tuzaladi?

– Aniq ayolmayman, – dedi do'xtir. – Bunaqa dardni vaqt davolaydi. Asabiylashmaslikka harakat qil.

...Urolog esa yosh yigit ekan. Nari borsa, mendan besh-olti yosh katta. Belimga tegib, biqinimdan chiqib ketgan o'q o'rnini uzoq paypasladi. Bu ham u yoqdagi xirurgning gapini qaytardi.

– Omading bor ekan, soldat! O'q aortaga tegsa, tamom eding.

– Keyin to'satdan so'rab qoldi. – Uylanganmisan?

Indamay bosh chayqadim.

– Tanlagan qizing bormi?.. Yaxshi... Tezroq uylan!

Hayron bo'lib turganimni ko'rib, tushuntirdi:

– Bilasanmi, soldat, erkak kishining ikkita yuragi bo'ladi. Bittasi yurak, bittasi erkakligi... Tushuntiroldimmi? Bunaqa jarohatdan keyin limfa, prostata bezlari, jinsiy organlarda funktsional o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Patologiyaga aylanib ketmasligi uchun organlar faoliyatini kuchaytirish kerak. – Shunday deb, yelkamga do'stona shapatilab qo'ydi.

– To'yingga taklif qilasanmi?

Gospitaldan ko'nglim g'ash tortib chiqdim. Do'xtir aytgan gaplarning ko'pini tushunmadim. Anglaganim shuki, to'yni tez-

lashtirish kerak... Mayli, biz tomon-ku tayyor. Onamning orzusi ham shu. Har kuni bir gapni aytadi, to'yingni o'tkazaveramiz, dang omon-eson kelsalar, orzu-havaslarini nevara to'yidan ko'raveradilar, deydi. Faqat... Shahnoza nima derkin? Ota-onasi-chi? Otasi qamoqda yotgan, qo'li qisqa bo'lib qolgan kuyovga rozi bo'larmikan! Bilishimcha, quda tomon katta dargoh... Shahnoza bilan gaplashish kerak! Xotira va qadrlash maydonida.

Iyun oyining boshi

Akam allaqancha gazeta yig'ib qo'ygan ekan. O'qib, hayron bo'ldim. Birida butun mamlakatni qamoqxonalarga aylantirgan tuzum yemirilgani, to'la demokratiya ro'yobga chiqayotgani yoziladi, boshqasida «o'zbek ishi» bo'yicha qamoqqa olingan «tekinxo'rlar» la'natlanadi. Birida odamlarni e'tiqodi uchun tazyiq ostiga olganlar qoralanadi, vijdon erkiga yo'l ochilgani aytiladi, boshqasida otasini dafn etish uchun mozorga borib Qur'on tilovat qilgan kommunist feleton qilinadi... Qiziq...

Iyun oyining o'rtalari

Kechqurun Ilhom akamnikida eski «Elektron»ni ko'rib o'tirgan edik. Moskvadan g'aroyib «tomosha» berildi. SSSR prokuraturasining Ambartsumyan va Petrov boshchiligidagi guruhi jinoyatchilar makoniga aylangan O'zbekistonda haqiqiy qahramonlik namunalarini ko'rsatayotgan emish. Ich-ichidan chirib ketgan bu respublikaga Rossiyadan yana bir guruh eng yaxshi mutaxassislar yordamga kelayotgan emish... Gapirib-gapirib stol ustiga yoyib qo'yilgan tilla buyumlarni namoyish qilishdi. Baldoqlar, oltin zanjirlar, uzuklar... Bular hammasi davlatni, xalqni talash evaziga to'plangan boyliklar ekan. Buvamdan oyimga xotira bo'lib qolgan tilla bilaguzuk ham bormikin shular ichida?

Iyun oyining oxirlari

Uy ichi salqin. Onam deraza pardalarini to'sib qo'ygani uchun tashqaridagi issiq xonada uncha sezilmaydi. Hovli jimjit. Ahyon-ahyonda musicha kukuvlaydi. Issiqdan toliqqan, shekilli, ovozi horg'in. Oyim qalin ko'zoynak taqib, ko'rpacha qavib o'tiribdi. Xudo xohlasa, kelasi oy – to'y...

Onam «oq o'rab» kelganidan beri quda tomonni og'zidan bol tomib maqtaydi. Hozir ham gapni aylantirib, shunga taqadi:

– O'zimam sezuvdim, o'g'lim! Sen u yoqdaligingda, yangi yil

arafasi Toshkentdan kelgan qizlar orasida, ayniqsa, Shahnoza-xonga dilim ketuvdi. «Qani, shundoq qizni kelin qilsam», degandim. Farishta omin degan ekan... Biram shirin, biram odobli... Iloyo, o'z'laringdan ko'payinglar. – U ko'zoynak ustidan menga qarab qo'ydi-da, jimib qoldi.

Bilaman, hozir otamni gapiradi. Aytmadimmi?

– Ikki orzuni bir yetkazmas ekan-da, bolam... Dadang yoningda bo'lganlarida-ku... – So'zlari bemavrid ekanini bilib, darrov xatosini tuzatdi. – Sen ko'nglingni cho'ktirma, – dedi mendan ko'ra-ko'proq o'zini yupatib. – To'yni shunaqangi qars-badabang qilib o'tkazamizki, «falonchi qamalibdi», deb suyunib yurgan og'zi kattalar uyalib qolsin! Akang bor... Qarindosh-urug', el-yurt bor... Xudoga shukr, yurtdan oqibat ko'tarilmagan ekan. Halitdan nechitasi «Bizga nima xizmat bor?» deb kelyapti. Dadang shuncha yil rais bo'lib, birovning ohiga ozor berganmas. Hammasining boshini silagan. To'yi bormi, ma'rakasi bormi, turib bergan.

Hovlida hamon musicha kukuvlaydi. Yozning toliqtirguvchi sukunatini yanayam chuqurlashtirishga ahd qilgandek, osoyishta va horg'in xonish qiladi. O'zbekning o'zidek sodda, beozor... Beozorligi uchun duch kelgan daydi mushukka yem bo'ladigan qushcha...

Oyim bir nimalarni o'ylab, o'zicha jilmayib qo'ydi.

– Kafan kiygan ketadi, kapalak kiygan keladi! – dedi ishonch bilan. – Meni aytdi, dersan! Dadang keladilar. Yarim yil o'tar, bir yil o'tar... Eshikdan kuli-i-b kirib keladilar. Shahnozaxonni cho'g'dek yasantirib salomga olib chiqaman.

Shahnoza ko'z o'ngimga keldi. «Shu hafta sovchilar boradi, tag'in noumid bo'lib qaytib ketishmasin», deganimda iymanib yerga qarab turgan Shahnoza...

Oyim kapalakni gapirdimi? Qiziq... Uyga kapalak kirib qopti. Mittigina. Qanotlari ko'kimtir. Unsiz tipirchilab u devorga uriladi, bu devorga uriladi. Ana! Qanotlarini jonholatda silkib, uchib bordi-da, darpardaga qo'ndi. Xudo bilsin, ertalabdan beri yorug' dunyoga chiqib ketish ilinjida pitirlayverib holdan toygandir... Sinchiklab kuzatib turdim. Bildimki, kapalak nur shu yerdan tushayotganini sezib turibdi. U yoqda, tashqarida oftob bor. Erkinlik bor... Toza havo... Gulzorlar... Sho'rlik! Bilmaydiki, basharti

biron insofli odam deyltik, men pardani bir chetga surib, yo‘l ochib berganim taqdirda ham, kapalak baribir ozodlikka chiqolmaydi. Deraza yopiq... Tashqarida yorug‘ olam ko‘rinib turadi. Ammo derazadan tushayotgan nur – qalbaki narsa... O‘rtada to‘siq bor. Hammasi – yolg‘on! Hammasi – aldov! Nurli kelajak deb odamlarni aldash mumkin-ku! Sen kim bo‘psan, birodar! Oddiygina kapalaksan, xolos!

...Dadam masalasida yugurmagan joyim qolmadi. Advokatura... Prokuratura... Sud... Raykom... Obkom... Markazko‘m... Ming xil amaldorni ko‘rdim. Eshikdan kirishing bilan «hozir suzib tashlayman», deb, buqaga o‘xshab xo‘mrayib o‘tirganini ham, muloyim tabassum bilan qarshi oladiganini ham javobi bir xil. «Mayli, arizangizni tashlab keting, o‘zimiz xabar qilamiz». Ba‘zilari ovozini pastlatib do‘stona maslahat beradi: «Otangiz «paxta ishi» bo‘yicha qamalganmi? Yaxshisi bu ishga aralashmang». Alang-jalang bo‘lib, tovushini yanayam pasaytiradi: «Bilasizmi, uka, bu ish bilan Moskva shug‘ullanyapti. Ehtiyot bo‘ling...» «O‘zi xabar qiladigan»lardan bir tilish xat keladi. «Kommunizm» kolxozining sobiq raisi Shomatov Shomansur asosli ravishda hibsga olingan. Sud o‘n yil qamoq jazosiga hukm qilgan. Mazkur ish bo‘yicha shikoyatingiz bo‘lsa, mamlakat oliy organlariga murojaat qilishingiz mumkin...»

Yopiq deraza! Hammasi ravshan. Barchasi adolatli. Hamma yoq go‘zal! Olam nurga to‘liq! Yolg‘on nur... Yolg‘onchi dunyo va... ojiz kapalak...

Iyul oyining to‘rtinchi kuni

Respublika gazetasida g‘alati sarlavhaga ko‘zim tushib qoldi. «O‘zbek ishi» o‘zbeklarning ishimi?» Shosha-pisha o‘qib chiqdim. Maqola shapaloqdekkin edi. Ammo o‘qishim bilan vujudimda olov yonib ketgandek bo‘ldi. Maqolada «o‘zbek ishi» xalqqa qarshi kampaniyaga aylanib ketgani, minglab odamlar qamalgani, ho‘l-u quruq baravar yonayotgani, gunohkorlar qatori begunohlar ham aziyat chekayotgani, bu masalada redaksiyaga minglab xatlar kelayotgani bayon qilingan edi. Hayajondan qo‘lim titrab, qayta o‘qib chiqdim. Xayriyat! Rost gapni aytadiganlar ham bor ekan-ku! Maqola ostiga «Mauzer G‘aniev, xatlar va shikoyatlar bo‘limi» deb yozilgan edi.

Mauzer! Esda qoladigan ism! Qarasam, gazeta ikki kun oldin

chiqqan ekan.

...Uchinchi qavatdagi uzundan-uzoq yo'laqdan o'tib borarkanman, oxirroqdagi eshikka ilingan yozuvga ko'zim tushdi. «Mauzer Soatovich G'aniev. Mehnatkashlar xatlari va shikoyat bo'limi mudiri». Eshikni taqillatishim bilan ichkaridan «Ha!» degan asabiy ovoz keldi. Kirsam, yoshi qirqlarga borib-bormagan, ammo ko'zlarining tagi osilib ketgan, chakka sochlariga oq oralagan, yuzlari so'lg'in, tepakal odam allanima yozib o'tiribdi. Stol usti betartib. Bir chekkada «Opal» qutisi. Kuldon sigaret qoldiqlariga to'lgan...

– Uzi! – dedi u qog'ozdan ko'z uzmay. – Qaysi xat bo'yicha kelgansiz? Qachon yozgansiz? Faqat tezroq...

Eshik oldida indamay turaverdim. U ham ishini qilaverdi. Ancha vaqt o'tdi. Shu yerda ekanligimni eslatib qo'yish uchun manoli yo'talдим.

– Gapingizni aytavering, – dedi qog'ozdan ko'z uzmay. – Qachon shikoyat yozgansiz?

– Men shikoyat yozgan emasman! – dedim g'ashim kelib. – Yozish niyatim ham yo'q! Og'zaki gapga ishonasizlarmi o'zi?

Mauzer Soatovich yozishdan to'xtadi, tepakal boshini ko'tardi.

– Nima? – dedi ensasi qotib.

– Bu dunyoda qog'ozsiz gapga ham ishonadigan odam bormi-yo'qmi?

Mauzer Soatovich menga o'xshaganlarni ko'raverib jonidan to'yib ketgan, shekilli, ijirg'anib qarab qo'ydi.

– Xo'sh? – dedi chimirilib.

– Maqolangizni o'qidim, – dedim taklif qilsa ham ro'parasiga o'tirib. – Rost gaplarni yozibsiz!

– U maqola endi yo'q! Eshitdingizmi, yo'q! Vassalom! – Mauzer Soatovich sigaret qutisini jahl aralash siltab menga uzatdi. – Chekasizmi?

Qiziq! Qanaqa odam bu? Bir qarasang, do'q qiladi. Bir qarasang, sigaret tutadi.

– Gapiring! – dedi jerkib. – Nima dardingiz bor? Oldindan aytib qo'yay! «Paxta ishi» bilan kelgan bo'lsangiz, gaplashmayman!

Shaxt bilan o'rnimdan turdim-da, xayrlashmasdan eshikka

yo'naldim.

– Shoshmang! – dedi u baqirib. To'xtadim.

– Qayting! – «Opal» qutisidan sigaret olib labiga emas, sarg'ayib ketgan tishlari orasiga asabiy qistirdi. Go'yo g'ajib tashlamochi bo'lgandek.

– Aytaver dardingni! – dedi to'satdan sensirab. Gap boshlashim bilan chehrasi yorishdi. – Shomansur akaning o'g'limisan? Tashla qo'lni! Otang ajoyib odamlar! U kishi to'g'risida ocherk yozganman. Ishning ko'zini biladigan rais edilar... O'zing qayerda ishlaysan?

– O'qiyman, – dedim to'ng'illab. – Jurnalistikada.

– Iya, hamkasb ekanmiz-ku! Qani, bir boshidan gapir-chi, nima bo'ldi o'zi?

Hamma gapimni sabr bilan eshitdi. Shu orada kam deganda o'nta sigaret chekdi. Xona tutunga to'lib ketgan, Mauzer Soatovich diqqat bilan tinglar edi. Nazarimda, hikoyam tugaguncha battar qarimsiq qiyofaga kirib qolgandek bo'ldi.

– Shumi? – dedi oxiri. Keyin negadir kuldi. – Bilasanmi, uka, ikki soat oldin Ikkinchining qabulida edim. – U tamakidan sarg'aygan barmog'ini bigiz qilib shiftni ko'rsatdi. – Shaxsan o'rtoq Ikkinchining qabulida! Qani, ayt-chi, O'zbekistonda Birinchi kattami, Ikkinchimi?

Hech baloga tushunmadim. U angrayib qolganimni ko'rib xirillab kuldi. Yo'talib, simto'rga tufladi.

– Ikkinchi aytdiki... Pistadek qilib yurmasang... Yana hech nimaga tushunmadim.

– Oting Rustanmidi? – Mauzer Soatovich tag'in yo'taldi. – Menga qara, Rustam! Aleksandr Makedonskiy degan poshshoni eshitganmisan? Barakalla! Makedonskiyning eng zo'r taktikasi qanaqa bo'lgan, bilasanmi? – Qovog'i salqigan ko'zlari bilan yuzimga sinovchan qarab turdi-da, davom etdi: – Makedonskiyning zo'rliigi shunda bo'lganki, qaysi yurtni bosib olsa, o'sha yurtdan chiqqan odamni hokim qilib tayinlagan. Yoniga esa Ikkinchi qilib o'z odamini qo'ygan. Eshitdingmi? Ikkinchi qilib! Omi xalq bu yoqda yuravergan: poshsho o'zimizdan chiqdi, deb xursand! U yoqda bo'lsa Ikkinchi Birinchining nozik joyiga ip bog'lab olgan. Birinchi g'iring deb ko'rsin-chi! Ikkinchi ipni tortib qo'yadi. Salgina tortsa, Birinchi voy-voylab qoladi. Qalay? – U tag'in xi-

rillab kuldi. – Jinday haddidan oshsa, go‘rdan olib, go‘rga tiqishdan ham toymaydi... O‘zimizdagiga o‘xshab. Bilasanmi, buning otini nima deydi? – Uning horg‘in ko‘zlarida iztirob paydo bo‘ldi. – Mustamlakachilik! – dedi xo‘rsinib.

Suhbatimiz tamom bo‘lganini tushundim.

– Moskvaga boraman! – dedim o‘rnimdan turib.

– Nima? – Mauzer Soatovichning hozirgina ma‘yus boqib turgan ko‘zlarida o‘t yonib ketgandek bo‘ldi. – Moskvaga? – dedi istehzoli kulib. – Bora qol! Tezroq bor! Rustamjon qachon keladilar, qachon dadalarini olib ketadilar, deb quchog‘ini ochib turibdi.

Beixtiyor qaytib joyimga cho‘kdim.

– Moskva emish! – U asabiylik bilan yangi sigaret pachkasini ochdi. – O‘shalarning o‘zi boshladi-ku bu kampaniyani! – Qo‘llari qaltirab tutatdi. – Ularga qolsa, butun O‘zbekiston qo‘shib yozuvchi! Hammasi haromxo‘r. Hammasi o‘g‘ri, poraxo‘r. O‘t-tiz yettinchi yil qaytib keldi! – Uning ko‘zlari olayib, o‘rnidan sapchib turdi. Alam bilan stolni mushtladi. – «O‘zbek ishi» emish! – dedi ingragudek bo‘lib...

Og‘ir, iztirobli sukut cho‘kdi. Mauzer Soatovich kafti bilan tutun haydab, u yoqdan-bu yoqqa asabiy borib kela boshladi. Bir qadar o‘zini bosib oldi chog‘i, qaytib joyiga o‘tirdi.

– Qo‘shib yozish hamma joyda bo‘lgan, – dedi anchayin vazmin ohangda. – Aybni esa kelib-kelib o‘zbekka yopishtirishdi. Sababi shuki, armaniga osilsa, o‘sha kuni armani ko‘chaga shior ko‘tarib chiqadi. «Arman xalqidan qo‘lingni tort!» deydi. Gurjiga tashlansa, gurji ko‘chaga chiqadi. «Nega xalqni haqorat qilasan?» deydi. Sen bilan biz – o‘zbekimiz. Bittamizni bo‘g‘izlasa, ikkinchimiz me‘rayib turamiz. Navbat o‘zimizga yetgandagina, qo‘yga o‘xshab ma‘raymiz. – U birpas o‘ylanib qoldi. – Hamma narsaning ibtidosi bo‘lganidek, intihosi ham bo‘ladi, – dedi ishonch bilan. – Haqiqat ertami-kechmi ro‘yobga chiqadi.

– Xo‘sh, men nima qilishim kerak? – dedim ijirg‘anib.

– Kutasan! – Mauzer Soatovich xotirjam tushuntirdi. – Boshqa iloj yo‘q. Bu kalavaning uchi uzun. Meni aytdi dersan, kalavaning uchi oxir-oqibat Moskvaga borib taqaladi! Ana o‘shanda hammasi joy-joyiga tushadi. Bunaqa ishning ketidan yugurib yurgandan ko‘ra bizga Afg‘oniston xotiralarini yozib kel, gazeta-

da chiqaramiz.

– Nimani yozay? – dedim ma'yuslanib. – Odam o'ldirish qanaqa bo'lishinimi?

Mauzer Soatovich indamay boshini quyi soldi.

Tutunga to'lib ketgan xonadan chiqib borar ekanman, xayolimni og'ir o'ylar chulg'agan, nochorlikning zildek yuki yelkamdandan bosib, yerga mixlab tashlayotganga o'xshardi. Baribir, bari-bir topaman! Otamning gardaniga yo'q yerdagi ayblarni ilib qamoqqa tiqqan, oilamiz boshiga shuncha kulfat solgan Ambartsumyan guruhidan aqalli bittaginasini topmaguncha, ko'ziga tiki-lib turib, jilla qursa, bir nechta savol bermaguncha tinchimayman. Tin-chi-may-man!!!

Ertasi kuni

Dadamdan xat keldi. Shimoliy Qozog'istondagi «axloq tuza-tish» koloniyasida jazo muddatini o'tayotgan dadamdan.

«Rustamjon, o'g'lim! – deb yozibdi otam. – U yoqdan joning sog' qaytganini o'qib, Xudoga ming qatla shukr qildim. Sen Afg'onistonda yurganingda bu yoqda bunaqa ishlar bo'lib ketdi... Nimayam derdim... Peshonada shu yozug' ham bor ekan... Yoshim bir joyga borganda qamoqqa tushish xayolimga keptimi?.. Mana, endi hammasini bir boshdan o'ylayman. Kechalari uyqim o'chib ketadi. Dunyoning bu burchidan kirib, u burchidan chiqaman. O'ylab o'yimga yetolmayman. Gunohim nima o'zi?.. Ota-onam o'ttizinchi yillardagi ocharchilikda o'lib ketgan g'irt yetim bo'lsam. O'smirligim urush davriga to'g'ri kelgan bo'lsa... Esimni tanibmanki, yelkamning yag'iri chiqib, mehnat qildim. Qo'sh tortdim, mola bosdim, traktor haydadim... Tirishib-tir-mashib o'qidim. O'zlari ko'tarishdi. Avval brigadir qilishdi, keyin hosilot. Undan keyin rais. Partiya hukumatimiz qayoqqa tashlasa, o'sha yerga borib tushdim. To'qayda chivinga yem bo'lib, yer ochdim. Qoloq xo'jalikni ko'tar, desa quloq qoqmay xo'p dedim. Onang sho'rlik ko'rparasini orqalab ketimdan ergashib yurdi. Akang Bekobodda tug'ildi, sen – Pskentda... Bir og'iz aytmadim: «Hoy, men ham odamman-ku, umrim bino bo'lib halovat ko'ramanmi-yo'qmi?» demadim. Bit anavinaqa narsaga semirgandek, bergan temir-tersaklariga, deputatligiga mahliyo bo'lib yurave-ribman... Bir xil raislarga o'xshab pul yig'madim, oq uy – olabar-gaklar solmadim. Nima qilsam, xalq uchun, partiya uchun qil-

dim. O'n yetti yil shu kolxozda ishladim. Duch kelgan odamdan so'rab ko'r, o'g'lim. «Xudoni o'rtaga solib aytinglar-chi, dadam umri bino bo'lib qing'ir ish qildimi, birovning burnini qonatdimi?» degin-chi, imoni bo'lsa aytar, rost gapni! Mana endi kelib-kelib to'xtagan joyim – lager bo'ldi. O'zbekistonda qo'shib yozganlar bo'lmagan, demayman. Aslida o'shalar ham Moskvaning buyrug'i bilan qilgan bu ishni. Osmon baravar plan berib, bajar-masang, onangni uchqo'rg'ondan ko'rsataman, deganidan keyin shu yo'lga kirmay chorasi qolmagan. Mening bo'lsa, Xudo oldida ham, bandasining oldida ham vijdonim pok. Bunaqa harom ishga qo'l urgan emasman. Bitta gunohim shuki, bu savdolar boshlangan zahoti raislikni topshirishim kerak edi... Turib-turib o'zimga nash'a qiladi. «Partiyaning sodiq soldatiman, ordenli raisman», deb yuraveribman. Aqalli seni Afg'onistondan olib qolishga «partiyaviy vijdonim» yo'l qo'ymabdi. Xohlasam, uch kunda Turkmanistondan Toshkentga o'zlari obkeb qo'yardi. Endi bo'lsa, allaqanday millionlarni bo'ynimga ildi. Falonchidan uch yuz ming olgansan, pistonchiga yuz ming bergansan... Bo'hton! Hammasi tuhmat! Onangning yozishiga qaraganda, to'ying yurishib qolganmish. Otam to'yimni ko'rolmadi, deb aslo ko'nglingni cho'ktirma. Xudo xohlasa, omon-eson borsam, nevara to'ylari qilamiz. Iloyo, baxtli bo'l, bolam! Mendan hech xavotir olmanglar. Sog'lig'im yaxshi. Atrofimda hurmat qiladigan imonli odamlar bor... Onangni ehtiyot qil. Duoyi salom bilan dadang. 18 iyun».

Iyul oyining yettinchi kuni

Shahnoza bilan ZAGSga ariza berdik. «Paxtakor» metrosi oldida ancha kutdim. Metroning qubballi binosi afg'on «zelenka»sidagi uylarni eslatadi. To'g'ri, unaqa pastak, loy tomli emas-ku... Har qalay, uzoqdan qaragan odamga shunaqaga o'xshab ko'rinadi. Odamlar qubbaning bir eshigidan yopirilib chiqadi. Ikkinchisidan yopirilib kiradi. Beparvo, bepisand... Rostini aytsam, ularni tomosha qilish yoqimli edi. Avvaliga aqlim yetmadi. Nima qipti? Birov u yoqqa ketyapti, birov bu yoqqa... Nimasi maroqli buning! Keyin to'satdan bir yangilikni angladim: o'zimda ro'y bergan o'zgarishni sezdim: ko'nglimdagi xavotir hissi yo'qola boshlabdi. Men o'z yurtimdaman. Mina portlamaydi, granatomyot otilmaydi. «Er-es» uchmaydi. Men o'z uyimdaman!

...Shahnozani uzoqdan ko'rdim. Qora «Volga» telestudiya ro'parasida to'xtadi. Farishtadek oppoq libos kiygan Shahnoza «Volga»ning orqa eshigidan tushdi. Old eshikka kelib, yaltiroq sumkachasini ochdi. Haydovchiga pul uzatib, allanimalar dedi. Chamamda, haydovchi pulni olmadi. Mashinasini jildirdi. «Volga» mening ro'paramga kelganda, ataylab tezlikni oshirgandek bo'ldi. Rulda o'tirgan haydovchini bir lahza ko'rib qoldim. Sochlari silliq taralgan... Artistlarnikiga o'xshagan oppoq yuzli, xushmo'ylov yigit shu tomonga qarab, istehzoli kulib qo'ygandek tuyuldi. Kim bo'ldi bu tanish bashara! Eslay olmadim.

Hammasi bir lahzada bo'lib o'tdi. Shahnoza chopqillab kelib, bilagimdan tutdi. Salom berdi.

– O'lsin, aksiga bittayam taksi uchramasa! – dedi muloyim jilmayib. Boshini bir tomonga tashlagan ko'yi qop-qora kipriklarini gunohkorona pirpiratib turishi shu qadar samimiy ediki, boyagi «artistnamo» shopirdan rashk qilganimga o'zim uyaldim.

ZAGSdan o'tish katta tantana ekanini bilardim. Bir xillar ari-za berishga ham kelin tomon bir mashina, kuyov tomon bir mashina bo'lib, as'asa-yu dabdabalar bilan kelarkan. So'ppayib kelganim uchun Shahnozadan uyaldim. Ajoyib qiz-da Shahnoza! Meni xijolatdan chiqarish uchunmi, chiroyli ko'zlari suzilib taklif qildi:

– Bilasizmi, Rustam aka, endi «Lolazor»ga borib, muzqaymoq yeymiz! Xo'p?

Shahnoza shunaqangi ochilib ketgan, shunaqangi chiroyli! O'ziga bunchalik oro berganini ko'rgan emasman. Oq ko'yлак, oq tufli. Sochiga oppoq atirgul g'unchasini qistirgan. Ko'zlari, yirik-yirik ko'zlari parpirab turibdi. Xuddi o'zining yuziga o'xshagan pushtirang muzqaymoqqa jajji qoshiq uchini botiradi-da, angishvonadek bejirim og'ziga olib borib, bir lahza ikkilanib qolgandek bo'ladi: «Yesammi-emasammi?»

Bir mahal kipriklari kapalak qanotidek titrab kulib yubordi.

– Ayiq! – dedi qoshiqchasi bilan tahdid qilib. – Xuddi ayiqning o'zisz, Rustam aka! Asal yegan ayiqqa o'xshaysiz! – Kursi suyanchig'iga yelkasini tashlagancha qah-qah urib kuldi. – Ayiqsiz!

O'tirgan kursimni shahd bilan yoniga surdim-da, yelkasidan

quchib muzqaymoq mazasi kelib turgan lablaridan o'pdim.

– Jinnimisiz? – U tipirlab o'zini orqaga tashladi. – Hamma qarab turibdi.

– Qarayversin! – dedim kulib. – Sen mening xotinimsan!

– Jinni! Ayiq! – Shahnoza erkanib qo'lidagi qoshiqchasi bilan yana tahdid qildi. – Yomon bola bo'psiz! Bilib qo'ying, bizdayam qurol bor. Bir ursam! – Shunday deb ro'molchasi bilan mening lablarimni artib qo'ydi.

– Endi, – dedi erkanib, – to'polon qilmasdan, yaxshi bola bo'lib o'tiring-da, gapimga quloq soling! – Negadir ko'zlariga chuqur jiddiyat cho'qdi. – Siz u yoqda yurganingizda tush ko'rdim, – dedi o'ylanib. – Toqqa borganmishmiz. Sijjakka. Xolamlarnikiga... Qalin qor yoqqanmish. «Yur, Shahnoz, sirpanchiq uchamiz», debsiz-da, qo'limdan ushlab tortibsiz. Qarasam, pastda jarlik bormish. «Jinnilik qilmang, Rustam aka», desam, qo'limni qo'yib yubormasmishsiz. Ikkalamiz jarlikka qarab ketayotganmishmiz. Qo'lingizdan shuncha tortsam, kuchim yetmasmish... – Shahnoza tushining ta'birini bilmoqchi bo'lgandek, ko'zimga tikilib uzoq jimib qoldi.

– Keyin nima bo'пти? – dedim xushchaqchaq gapirishga urinib.

– Bir mahal qo'limdan chiqib ketdingiz... – U o'sha tush dahshatini qaytadan ko'z o'ngida aniq tasavvur qildi, shekilli, qandaydir so'nik alpozda boshini quyi soldi.

– Keyin-chi? – dedim o'smoqchilab. Bema'ni savol berayotganimni tushunib turardim-u, har qalay, Shahnozaning tushi nima bilan tugashini bilgim kelardi.


– Keyinmi? – Shahnoza jilmaydi. – Qarasam, jar yoqasida bir tup archa bormish. Yugurib borsam, archa tagida kuli-i-b yotganmishsiz. «Yiqildingizmi?» desam, «Hazillashdim, jinni», debsiz. Shunaqa deb nuqul kappalab qor yeyotganmishsiz. «Qor yemang, shamollab qolasiz», desam, «Chanqab ketdim, ichim yonib ketyapti», dermishsiz...

Iyul oyining o'rtalari

Nonushta ustida akam aytib qoldi:

– Ro'zimat otanikiga borib, ko'ngil so'rab kel. – Tushunmadim.

– Qaysi Ro'zimat ota, nima gap o'zi?



– To‘rtinchi bo‘limdagi Ro‘zimat ota bor-ku, bir oyog‘i oqsoq suvchi! O‘shanikida ta‘ziya bor. Bugun uchinchi kuni. Sen shaharda o‘z tashvishlaring bilan bo‘lib, xabar ololmading. Ko‘ngil so‘rab qo‘y, ukam.

Esladim! Hovlisida nuqul bedana sayrab turadigan kishi.

– Nima bo‘pti? – dedim xavotirlanib. – Ro‘zimat ota kasal emasdi, shekilli...

– O‘zimas, o‘g‘li... Yaxshi bola edi rahmatli... O‘ligini yaxshikka solib obkelishibdi. Hamma yoq to‘polon bo‘lib ketdi... – Akam o‘rnidan turarkan, qattiq tayinladi: – Albatta, borgin, ukam! Ko‘ngil so‘ra, yupat... Tobutkashmiz axir!

Bundan chiqdi, Afg‘onistondan yana bitta «ikki yuzinchi» yuk kepti-da!

Ro‘zimat otani uzoqdan tanidim. Shifer tomli, pastak uy salqinida o‘zi tengi ikkita qariya bilan o‘tiribdi. Qo‘lida hassa. Yonboshida «otam zamonidan qolgan» suyanchig‘i yoysimon kursilar qatorlashib turibdi. Chollardan biri ingichka, yig‘loqi ovozda uzundan-uzoq tilovat qildi. Shahid ketganlarga va xususan ko‘zi ochiq ketgan Azamatjonga jannatdan joy tiladi. Qolganlarga imon, sog‘-salomatlik, yurtimizga tinchlik, davlatimizga omad chorlab, fotiha tortdi.

Azamat dedimi? E, bo‘ldi, esimga tushdi! Ro‘zimat otaning bitta-yu bitta o‘g‘li-ku! Maktabda bizdan bir sinf keyin o‘qigan yuvoshgina bola...

– Xudoga shukr, o‘g‘lim, u yoqdan joning sog‘ qaytibsan, – dedi Ro‘zimat ota sovib qolgan choydan yarim piyola uzatib. Chollarning qulog‘i og‘irroq, shekilli, ovozini balandlatib meni tanishtirdi. – Bu yigit – Rustamjon. Shomansurning kenjasi.

Chollar biri olib biri qo‘yib dadamni maqtab ketishdi:

– Dadang yaxshi odam, bolam. Nasib etsa, erta-indin chiqib qoladi.

– Xafa bo‘lmang, ota, – dedim yerdan ko‘z uzmay. – Bandalik.

– Allohning irodasi... – chollardan biri bosh chayqab cho‘qqi soqolini tutamladi. – Birov har kuni yaratgan egamdan omonatingni olsang-chi, deb iltijo qiladi. Birovni o‘n gulidan bir guli ochilmasidan olib ketadi. Taqdiri azal deb shuni aytadi-da...

Oraga vazmin sukunat cho‘kdi. Likopchadagi qand ustida ari

aylanib, uzoq g' o'ng'illadi.

– Ota, – dedim nihoyat yurak yutib. – Azamatjon qachon ketuvdi afg'onga?

Ro'zimat ota ko'zimga diqqat bilan tikildi.

Shunda... ko'zlariga ko'zim tushib, yuragim seskanib ketdi. Ro'zimat otaning ko'zida na alam, na yosh bor edi. Nigohi muzlab qolganga o'xshar, ko'z qorachilari torayib ketgan, dunyoning jamiki g'am-anduhlarini chekaverib olamga ma'nosiz qarashga moslashib qolgan horg'in qorachilarda armon bor edi: tubsiz armon!

– O'zim aybdorman, bolam, – dedi xuddi og'ir gunohiga iqrор bo'lgan odamdek ishonch bilan. – Afg'onistonga yuborsam bo'larkan. Qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi. Mana, sen... – u yuzimga xayolchan qarab qo'ydi-da, negadir kulimsiradi. – Xudoga ming qatla shukr, to'rt muchang sog' qaytib kelding. Men bo'lsa... – Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqadi. Biroq ovozi o'zgarmadi. Go'yo birov eshitsa, rohatlanadigan hangomani hikoya qilayotgandek, xotirjam davom etdi: – Qarasam, yoshim ellikdan o'tib, shartim ketib, partim qopti. Xolang bilan maslahat qildik. Shundoq-shundoq dedim. Men-ku, girmon bilan urushib, tamom bo'lganimni bilmabman, endi sen ham bola ko'rmay o'tasanmi, dedim... Er-xotin azza-bazza Toshkanga borib, shu bolani – Azamatjonni xatlab, o'g'il qilib oldik.

– Allohning irodasi... – dedi cho'qqisoqol chol taskin berib. – Iloj qancha, shukr deng, taqsir...

– Ming qatla shukr... – Ro'zimat ota xo'rsindi. – O'g'lim imonli bola chiqdi. Begonaligi bilinmadi. Ming rahmat, el-yurt ham befarzandsan, deb yuzimga solmadi... Tengqurlariyam Azamatjondan begonasiramadi...

Rosti, Azamat Ro'zimat otaning asrandi o'g'li ekanini men ham birinchi marta eshitib turishim edi. Yuragim ezilgancha boshimni quyi solib o'tiraverdim.

– Povuska kelganida, – dedi Ro'zimat ota, – voenkomatga yugurdim. Peshonamdagi bitta-yu bitta bolam shu, afg'onga yubor-manglar, dedim. Stroybatga jo'natinglar, deb yalindim.

Shirinkomasiniyam berdim... Mana, oqibati! To'rt oydan keyin Vladivostokdan temir tobutda o'ligi keldi. Ro'zimat ota negadir kuldi. Lablari titrab ketdi.

– Uch kun oldin komandiridan xat keluvdi. Hurmatli o‘rtoq Xolmatip, o‘g‘lingiz Azamat Vatan oldidagi burchini halol ado etyapti, deпти. Shundoq farzand o‘stirganingiz uchun sizdek frontovikka ming rahmat deпти... Uch kundan keyin eshikdan temir tobut ko‘tarib kirdi. Voenkomatdan ikki kishi bilan chastidan bitasi... «Tezroq ko‘minglar», deydi. To‘g‘ri aytadi: marhumni mahtal qilib qo‘yish gunoh! «O‘g‘lingiz ehtiyotsizlik qildi, tok urib o‘ldi, mana do‘xtir xulosasi», deydi.

– Ro‘zimatjon, uka, qo‘ying bu gaplarni, – siyrak soqolli jikkak chol choy quyib tutdi. – Xudo shohid, Azamatjon shahid ketdi. Hur-u g‘ilmonlar orasida yuribdi hozir.

– Inshoolloh! – Ro‘zimat ota choy ho‘plab piyolani joyiga qo‘ydi. – Men bir nima deyotganim yo‘q. Ammo... onasi chidolmadi... Aqalli bolamning sovuq diydorini ko‘rib qolay deb olamni buzib tashladi. Shuncha aytaman: «Hoy onasi, o‘likning badaniga gul tushsa, gurzi bilan urgandek bo‘ladi, Xudoning qahri keladi», desam, qani, ko‘nsa! Haligi voenniy oxiri po‘pisa qildi... «Kim tobutga tegsa, harbiy tribunal oldida javob beradi», dedi. Ana o‘shandan keyin ko‘nglimga shubha tushdi.

– Qo‘ying endi, taqsir! – chollardan biri Ro‘zimat otaga yumshoq dashnom berdi. – Kavlamang shu gaplarni! Yaratgan Egamning o‘zi biladi yomonlarni qandoq jazolashni...

Ro‘zimat ota parvo qilmay, so‘zida davom etdi:

– Avval ochmasam ham endi ochaman yashigingni, dedim. Men urushda qon kechib, «Slava» ordeni olgan prontovikman, dedim. Qochib ketdi hammasi! Ochib ko‘rsak... temir tobutni ochib ko‘rsak... – Ro‘zimat otaning ovozi titrab ketdi. Ammo yig‘lamadi. – Tok urgan odam bilan boltada chopilgan odamning farqi bo‘ladi-ku, to‘g‘rimi?

...Oyoqlarim muzlay boshladi. Qo‘llarimga titroq kirdi. Ro‘zimat ota hamon bir nimalarni gapirar, lablari qimirlayotgani ko‘rinib turar, ammo nima deyotganini eshitmasdim. Boshimda chidab bo‘lmas og‘riq turdi. Xudo! O‘zing asra! Hozir... Hozir yiqilib tushaman! O‘zing sharmanda qilma, Xudo!

Iyul oyining oxiri

Bu dargohga uncha-muncha odam o‘z ixtiyori bilan kelmasa kerak. Birovni povuska bilan chaqirib oladilar. Birovni melisa olib keladi. Albatta, najot izlab yoki ko‘mak istab kelganlar ham

uchraydi. Ammo ular ham mana shu marmar zinalardan chiqib borayotganida ko'nglida mavhum xavotir hissini tuysa, ajabmas.

Yo'lakdan o'tib borarkanman, Mauzer Soatovichning gapi esimga tushdi. Tabiiyki, bu yerda ham ikkinchilar asosiy shaxslar bo'lsa kerak. Yo'q, bu dargohda «u yoqdan» kelganlar Ikkinchilikka qanoat qilmay, bir yo'la birinchi bo'lib qo'ya qolgan ekan. Hayhotdek xona, devori yaltiroq, jigarrang panel bilan qoplangan. Hamma yoq sarishta. Ozoda, salqin. Kattakon «T» harfiga o'xshagan stolning narigi boshida u o'tiribdi. «T»ning qoq peshonasida. Berigi tomonda – «T»ning qoqdumida men o'tiribman. O'zimni bosishga harchand urinmay, ichimni kemirayotgan noaniq xavotir hissi yelkamdan bosib turganga o'xshayveradi. U qog'ozlarni shoshilmay, ayni paytda e'tibor ham bermay varaqlashga tushdi. Devorda mashhur «Inqilob chavandozi»ning yarim belidan tushgan kattakon surati osig'liq. «Chavandoz» nima-si bilandir Don-Kixotga o'xshab ketadi. Boshi kichkinagina, cho'qqisoqol, bo'yni uzun. Faqat boshiga shapka kiygan: ayvoni qiyshiqroq shapka. «Chavandoz»ning shundoq ostida U o'tiribdi. Xuddi chavandozning beli tagiga osilib turgandek. Yarashiqli kiyingan. Bo'ynida bo'yinbog'. Soqoli qirtishlab olingan. Nihoyatda madaniyatli odam ekani ko'rinib turibdi.

– Siz, grajdanin Shomatov, – dedi qog'ozdan bosh ko'tarib. – Yanglishib bizga murojaat qilibsiz. Otangiz Shomatov ishini sud ko'rib hukm chiqargan. Ajrim xulosasi bilan tanishmisiz?

– Tanishman!

– Hukmdan norozi bo'lsangiz, SSSR Oliy Sudiga murojaat qilishingiz mumkin. Bu – sizning grajdanlik huquqingiz, – dedi xayrixoh ohangda.

Qiziq, ayblanuvchilarni so'roq qilayotganda ham shunaqa gaplasharmiki?

– Oliy Sudga murojaat qilmayman, – dedim ishonch bilan (yaxshi! Hali kirib kelgan paytimdagi hayajon yo'qolib, ko'nglimni allanechuk xotirjamlik, hatto o'zimning haqligimga ishonch hissi egalladi). – Arizabozlik qilib Moskvaga bormayman. Ruxsatingiz bilan sizdan ba'zi narsalarni so'ramoqchi edim.

Uning kulrang ko'zlarida bir lahza istehzoli tabassum paydo bo'lganini ko'rib, qo'shib qo'ydim:

– Bilaman! Bu dargohda savolni siz berasiz. Shunga qara-

may...

– Shoshib turibman. – U soatiga qarab qo‘ydi.

– O‘n yetti kundan beri navbat kutaman, – dedim ovozimni balandlatmaslikka urinib. – Ko‘p vaqtingizni olmayman. Narisi bilan o‘n minut.

U allaqanday «peshka» bilan pachakilashib o‘tirish kerakmi-yo‘qmi, deb ikkilandi, bir zum o‘ylanib qoldi.

– Yaxshi! – dedi qatiy qilib. – Faqat o‘n minut!

– Otamning tergovida siz ham qatnashganmisiz?

– Esimda yo‘q. Ikki yil ichida minglab «ishlar»ni ko‘rdik.

Maqsad?

– Otam jinoyatchi ekaniga shaxsan siz ishonasizmi? Uning ko‘zlari qisilib, muloyim tabassum g‘oyib bo‘ldi.

– Savolingizga javob bermasam maylimi, grajdanin... Shomatorov?

– Ayting-chi, o‘rtoq prokuror! Respublika Oliy Sovetining kamida yuz ming odam saylagan deputatini, saylovchilar chaqirib olmasdan turib, shunchaki, bir kechada KPZga tiqib qo‘yish mumkinmi?

Bu go‘dakka qonun-qoidani kim o‘rgatdi, degandek ko‘zimga diqqat bilan tikilib turdi-da, dona-dona qilib tushuntirdi:

– Mumkin! Deputatidan tortib rahbarlarigacha qo‘shib yozishni, poraxo‘rlikni kasb qilib olgan respublikada hamma narsa qilish mumkin!

Ajab! Uning qancha jahli chiqsa, kulrang ko‘zlari qancha yonsa, men o‘zimni shuncha xotirjam his eta boshladim.

– O‘zbekiston shunchalik aynib ketgan ekan, – dedim kinoya bilan. – Markazga tola o‘rniga vagonda havo, samolyotda diplomat to‘la pul borgan ekan, nega u yoqdagilar indamabdi? Nega «Bizga pul emas, tola kerak?» demabdi? Nega bu yoqdan turib pora uzatganlarni qamoqqa tiqasizlar-u, u yoqdan turib pora olgan kazo-kazolar bilan ishingiz yo‘q?

U shoshilmay o‘rnidan turdi. Boshi «inqilob chavandozi»ning kindigiga taqalib qolgandek bo‘ldi.

Ikkalamizning hozirgi holatimiz g‘alati edi. Shoshilib ketayotganingizda oyog‘ingiz ostida allaqayoqdan sakrab tushgan chigirtka paydo bo‘ladi. Bosib ezg‘ilab tashlasammi, indamay o‘tib ketsammi, deb bir soniya ikkilanib qolasiz. Chigirtka esa

o'chakishgandek qilt etmay turaveradi, surbet! Shu topda U ham ikkilanib turardi. Men – chigirtkani bossammi-yo'qmi? O'ladigan ho'kiz boltadan toymaydi, deyishadi. Endi menga hammasi baribir edi. Qo'lidan kelsa, otib tashlasin. Gapimni aytib bo'lma-guncha qimir etmayman!

– Agar shuncha odamdan, boringki, mingtasi nohaq qamalgan bo'lsa, – dedim dilimdagini aytib olish uchun shoshilib. – Mingta odam bir yildan nohaq «o'tirsa» ming yil bo'ladimi! O'sha ming yilni kim to'laydi? Sizmi? Ambartsumyanmi? Hammangizni yig'ishtirib kelganda ham umringiz yetmaydi-ku!

Uning kulrang ko'zlarida bo'rinikiga o'xshash o't yonib ketdi. Ha, mana, endi qaytding asl qiyofangga! Qurbonining bo'yniga xanjar botirayotgan jallodning ko'zlari shunaqa bo'lsa, ajabmas!

Qiziq... U stolni mushtlamadi. Soqchi chaqirmadi. Sichqon bolasiga tikilgan mushukdek sekin labini yalab qo'ydi.

– Sopyak! – dedi istehzoli kulib. – Men seni qabul qilmasligim mumkin edi. Afg'onistonda xizmat qilganing hurmati...

– Afg'onistonni qo'ya turaylik, o'rtoq prokuror! – dedim horg'in ohangda. – «Ikki yuzinchi» yuk faqat Afg'onistondan emas, mamlakat ichkarisidan ham yog'ilib kelyapti. Ularning xunini kim to'laydi? O'zbek xalqini butun mamlakatga badnom qilganlar emasmi?

Stul suyanchig'iga tirsagimni tayab, o'rnimdan turdim. Oyoqlarimda mador yo'qligini endi sezdim. U bo'lsa, ko'zlaridan o't sohib qilt etmay turardi.

– Oxirgi gap, – dedim kursi suyanchig'ini changallab. – Oxirgi savol: nega «o'zbek ishi!» Nega «arman ishi» emas, nega «o'ris ishi» emas! O'zbek nima gunoh qildi sizlarga?!

Eshik tomon uch-to'rt qadam yurdim-da, qaytib keldim. Ikki-lanib kissamdan gazeta qog'oziga o'ralgan temirtakni olib stol ustiga qo'ydim. Bunga ham qanoat qilmay qog'oz qatini ochdim. Lenin ordenini kaftimning orqasi bilan turtib yuborgan edim, silliq taxta ustida sirg'anib, nari bordi.

– Ambartsumyanga berib qo'ying! – dedim uning ko'ziga chaqchayib. – Onamning bor bisotini shilib olgan ekan. Bobomdan qolgan bilaguzukkacha! Bundayam oltin moddasi bor deyi-

shadi. Har qalay, kolleksiyasiga besh-o'n gramm tilla qo'shildi!

Madorsiz oyoqlarimni arang bosib, eshik tomon yurarkanman, vujudim bo'm-bo'sh bo'lib qolgan edi. Aniq idrok qilib turibman. Boshim g'uvullayotgani yo'q. Gardanim ham qotmayapti. Faqat vujudim bo'm-bo'sh.

– Grajdanim! – Eshik tutqichini ushlagan chog'im uning hokimona buyrug'i yangradi.

To'xtadim. Qamoqqa tiqmoqchimi! Marhamat! Nari borsa, to'yim o'n yil kechikar! Menga baribir.

Osoyishta burilib qaradim. U hamon stol ortida «chavandoz»ning beliga osilgancha turar edi.

– Kim bilan gaplashayotganingni bilasanmi?

– Bilaman! – dedim kiprik qoqmay.

– Psix! – U negadir kulimsiradi. – Kontuziyadan keyin savdoyi bo'lib qolgan ko'rinasan. Sening to'g'ringdagi hamma ma'lumotlar qo'limizda... Agar... – Uning kulrang ko'zlarida yana bo'rinikidek sovuq o't yondi. – Agar tag'in bir marta ro'para kel-sang, shu yerdan to'ppa-to'g'ri jinnixonaga jo'naysan!

Avgustning sakkizinchi kuni

Bugun mening eng baxtli kuyim! To'yimiz bo'ldi! Shahnoza-ni ko'zlarida shu qadar cheksiz quvonch porlayaptiki, ko'rgan sayin o'zimning ham yuragim shodlikdan yorilib ketgudek tipirchilaydi. Yonimda, harir parda yopinib o'tirgancha zimdan shu qadar teran mehr bilan boqadiki, bu nigohlar menga, faqat menga nasib etayotganidan olamga sig'mayman. Bilmadim, Shahnoza menga bunchalar mehr ato etgan damlar, o'zimni shu qadar qudratli his etgan onlarim avval ham bo'lganmidi? Necha marta tuygan edim bunday holatni? Balki, to'rt yil avval, qor yog'ib turgan kechada Shahnozani barakdan tuman markazidagi kasalxonaga olib borganimda, isitma aralash «Rahmat, Rustam aka», deb qo'limdan tutganidadir? Balki, arzimagan bitta tarvuz ko'tarib ko'rgani borganimda, muloyim jilmayib qo'yganidadir! Ehtimol, Toshkentga qaytgach, kinoga tushgan kunimiz, birinchi marta o'pganimda, Shahnoza «unaqa qilmang», deb yig'lab yuborganidadir?

Bugun men dunyoda eng baxtli odamman! Onam orzu qilganidek qars-badabang to'y qildik. Bazm kechasi oxirlaganda, ay-

niqsa, qiziq bo'ldi. Oyim bilan Shahnozaning ayasi «Munojot»ga o'ynashdi. Oyim donolar-da! Shuncha kundan beri «Dadang to'yingni ko'rolmadi», deb ma'yus tortib yurgan odam shunaqayam ochilib ketdilar, shunaqayam o'ynadilarki! Balo ekanlar-ku!

HAMKASBLAR SUHBATIDAN

– Keling, o'rtoq Komissar!

– Xo'sh, ishlarning jilishi qalay, kollega? To'laganovani so'roq qildingmi? «Uch og'ayni botirlar».

– Qildik. Guvohlik berishiga qaraganda, er-xotin Shomatovlar juda inoq yashagan.

– Xex! Sen o'sha fanatichkaning gapiga laqqa tushding? To'g'rimi? G'irt jinni-ku, bu xotin! Enkayib namoz o'qiyotganda dumbasini qovog'ari chaqsa, bu ham Xudoning bir maxluqi-da, deb silaydigan ahmoq! Butun avlod-ajdodi dindor o'tgan!

– Qiziqsiz, o'rtoq Komissar! To'laganovada nima ayb? Men bu xotinga to'la ishonaman!

– Senga qolsa, Vasilevning alibisi qo'lida! To'laganova qo'y og'zidan cho'p olmagan farishta. Kelin-chi? Kelin?! Balki, u ham sutdek oppoq, musichadek beozordir! Xotin kishi xohlasa, bir emas, o'nta erkakni bemalol o'ldirtirib yuboradi. Tushundingmi, o'ldirib emas, o'ldirtirib yuboradi!

– Eringni qaysi o'ynashing o'ldirdi, deb yoqasidan olaymi endi? Asos qani?

– Nega mendan so'raysan? Surishtir o'zidan! Siquvga ol!

RUSTAMNING UCHINCHI KUNDALIGIDAN

Avgustning to'qqizinchi kuni

Kecha mening eng baxtli kunim edi. Bugun – eng badbaxt kunim...

Avgustning o'ninchi kuni

Menga nima bo'ldi o'zi? Yangasi nega ketmaydi? Eshik tagida qorovul bo'lib o'tirishi shartmi?

Avgustning o'n birinchi kuni

Ertalab chiqib ketayotganimda onam qattiq tayinladi. «Chillalisan, jon bolam, kun botmasdan uyga kel...» ...Oyog'im tortma-

yapti... Nega buncha hayajonlanaman?

Avgustning o‘n ikkinchi kuni

Ichib keldim... Shahnoza avval hayron bo‘ldi. Keyin... yig‘ladi. O‘zimning ham xo‘rligim kelyapti.

Nonushta ustida oyim menga yettita, Shahnozaga yettita mayiz yedirdi. Sedana sepilgan bitta shirmoy nonni ikkiga bo‘lib, yarmini Shahnozaga, yarmini menga uzatdi. Yalpizmi, isiriqmi hidi anqib turgan choy quydi. «Bismillo deb yenglar, ixlos bilan ichinglar, jon bolalarim», – dedi. Shahnoza uyalib yerga qaradi, ammo oyimning aytganini qilib shirmoyni yedi, choyni ixlos bilan ichdi.

Avgustning o‘n to‘rtinchi kuni

Yotar oldidan Shahnoza shirin jilmaydi.

– Bugun uyimizga mehmon keldi... Hayron bo‘ldim.

– Qanaqa mehmon?

– Toping-chi? – Indamay yelkamni qisdim.

– Topolmaysizam! – Shahnoza mening yostig‘imni quchoqlab turib, bolalarcha sodda quvlik bilan kuldi. – Uzoq qarindoshlaringiz orasida xushtoringiz bormidi? – Erkalanib burnimni beozor chimchiladi. – Qani, eslab ko‘rsinlar-chi!

– Jinnimisan! – dedim kulib.

– Shunaqasiz-da! – U shodon qah-qah urdi. – Demak, bor ekan-da!

Betoqat qarab turganimni ko‘rib tushuntirdi:

– Bugun folbin keldi. Xolavachchangizmi-ey, ammovachchangizmi-ey... uzoq qarindoshingizning qizi bor ekan. Sizdan umidvor ekan... Siz bevafoqlik qilib, tashlab ketibsiz. Shunga... «bog‘lab» qo‘yganmish... Yaxshimas-da, bir bechorani kuydirib, boshqasiga uylanish...

Shahnoza yana kuldi. Kulgisi yig‘iga o‘xshab ketdi.

Avgustning o‘n beshinchi kuni

Maykamni almashtirayotgan edim, Shahnozaning hayajonli xitobini eshitdim:

– Voy, nima bu, Rustam aka?

Qarasam, ko‘zlari qo‘rquvdan katta-katta ochilib tikilib turibdi.

Maykamni shosha-pisha kiyayotgandim, Shahnoza yugurib

kelib, belimni siladi.

– Og‘riyaptimi? – dedi xuddi o‘zi azob chekayotgandek iztirob bilan.

Kuldim.

– Qiziqmisan! Esimdan ham chiqib ketgan. Shunchaki, daydi o‘q.

Shahnoza gapimga ishonmadi. Chandiqli silab, ko‘zimga shunchalar qo‘rqib termuldiki, jahlim chiqdi.

– Esing joyidami? Hech gap yo‘q, dedim-ku... Oyimlarga aytib yurma.

Avgustning o‘n oltinchi kuni

Nonushta ustida Tursunboy aka kelib qoldi. Shahnoza shoshi-lib uyga kirdi-da, boshiga harir ro‘mol yopib chiqdi. Kuyovjo‘raga uch marta ta‘zim bajo aylab, «kelin salom» qildi. Tursunboy aka «Baxtli bo‘ling, singlim, qo‘sha qaringlar», deb kissasidan yigirma besh so‘mlik chiqardi.

– Shahnoza, qizim, – dedi oyim. – Tursunboy begona emas. Rustamjonning kuyovjo‘rasi. O‘zingizning akangizdek gap.

Shahnoza boshidan harir ro‘molini yechdi. Tursunboy akaga barmoqlarining uchiga piyola qo‘ndirib choy uzatdi.

– Xola! – dedi Tursunboy aka dilkash shang‘illab. – Kuyovto‘rani bir o‘ynatib kelsam, nima deysiz. Maylimi, kelin? – dedi Shahnozaga yuzlanib. – Bi-ir shamollab kelsin-da, kuyovto‘ra! Qani, otlan, uka!

Ko‘chaga chiqqanimizda dashnom berdi:

– Shunga shuncha motammi? Kim aytadi seni urush ko‘rgan yigit deb!

Yuragim shuvullab ketdi.

– Nima «shunga shuncha?» – dedim xavotirlanib.

Bir kamim endi butun qishloqqa ovoza bo‘lishim qoluvdi. Tursunboy aka ko‘zimga birpas qarab turdi-da, tovushini pasaytirdi:

– Kuyovjo‘ra bo‘lganimdan keyin maslahat berishga haqqim bormi axir? G‘irt jinni ekansan-ku! Ichib kelishga balo bormi, chillasi chiqmagan kelinning yoniga!

Endi og‘iz ochmoqchi edim, jerkib berdi.

– Nima qilasan, yo‘q joydan gap chiqarib! Mana, o‘zim ham...

– Bir zum chaynalib turdi-da, ishonch bilan davom etdi. – Men ham bir haftagacha qo‘shilolmaganman yangang bilan. Eshikdan kirsam, oyoq qistaloq qaltiraydi... Yostiqa bosh qo‘ydim deguncha «u yoqdagi» o‘liklar xayolimga kelaveradi. – Tursunboy aka ko‘zimga sinchkov qarab qo‘ydi. – Eng zo‘r do‘xtirga olib boraman. Tashvish qilma, begonamas, o‘zimning pochcham. Manaman degan urolog!

...Yangi ToshMIning past-baland yo‘laklaridan o‘tib, Tursunboy akaning pochchasini topguncha talay vaqt o‘tdi...

Dotsent yorug‘ chehrali odam ekan. Iymanib turganimni ko‘rib, Tursunboy akaga imo qildi:

– Tomosha bormi senga? Chiq-chi, qani!

Dotsent yarador belimni uzoq tekshirdi. Kaftining qirrasi bilan biqinimga urib ko‘rdi.

– Peshob paytida achishmaydimi? Bosh chayqadim.

– Peshob ravon tushadimi?

– Ha, – deb bosh irg‘adim.

– Yolg‘on «vizov» bo‘lmaydimi? Gapini anglamagan edim, tushuntirdi:

– Ya‘ni... Peshobga borgingiz keladi-yu, bir-ikki tomchi tushib...

– Unaqasi yo‘q.

– Yaxshi... – Dotsent chaqqon harakat bilan belimdan sonimgacha paypaslab chiqdi.

– Bolaligingizda «svinka» bo‘lmaganmisiz? – Asabiylasha boshladim.

– Nima u?

– Bizda «tepki» deydi. Tomog‘ingizga bez kelib, moyak shishmaganmi?

– Yo‘q!

U o‘ylanib qoldi.

– Avval xotin kishi bilan bo‘lganmisiz? – dedi to‘satdan. Qarasam, mutlaqo jiddiy gapiryapti.

Nachora, e‘tirof etdim. – Ha, bo‘lgan bunaqangi gunoh ishlar. Sudda ishlab yurganimda...

– O‘shanda jarayon normal kechganmidi?

– Ha! – dedim qo‘rslik bilan. – Risoladagidek bo‘lgan! Dotsent ranjimadi.

– Gap bunday, uka! – dedi samimiyat bilan. – Jo‘n tilda qanday tushuntirsam ekan? Umurtqa pog‘onasining dumg‘aza qismida pastki organlar faoliyatini boshqaruvchi shoxchalar bo‘ladi. Prostata bezlari, siydik qopchasi, moyak singari organlarni o‘sha shaxobchalar boshqarib turadi. Sizda shaxobchaning asab tolasi shikastlangan. O‘q asab tolasiga tekkan. Miq etmay, ko‘ziga tikiilib turganimni ko‘rib, qayta boshdan tushuntira ketdi:

– Nerv sistemasi shunaqa nozik narsaki... Ayniqsa, aloqa paytida... Arzimagan shovqin bir og‘iz ko‘ngilsizroq gap, yomon xotira... shunga o‘xshagan narsalar tormozlanish jarayonini kuchaytirib yuboradi.

Kiyinayotganimda ishonch bilan taskin berdi:

– Jiddiy xavf yo‘q. Hammasi yaxshi bo‘ladi. Bu narsaga, ya‘ni er-xotin orasidagi intim munosabatga tabiiy hol deb qarang. Hadeb shuni o‘ylayversangiz, o‘zingizga ishonch yo‘qoladi. Zanjirli reaksiya boshlanib ketadi.

Bir dasta dori qog‘ozlar yozib, qo‘limga tutqazdi.

– Ovqatga alohida e‘tibor berasiz. Qazi, yong‘oq, qizil sabzi, topilsa, baliq ikrasini ko‘proq iste‘mol qilasiz. Achchiq, sho‘r narsalardan o‘zingizni tiying. Ichkilik ichmaysiz.

Eshik g‘iyqillab ochilib, Tursunboy akaning do‘ppili boshi ko‘rindi.

– Yop! – dedi dotsent negadir asabiylashib. Chiqib ketayotganimda alohida ta‘kidladi:

– Rustamjon! Yana bir gap. Iloji bo‘lsa, muhitni o‘zgartirish kerak. Yashash muhitini. Hali aytdim-ku, sizda patologiya yo‘q. Ereksiyaning ro‘y berishi asab osoyishtaligiga bog‘liq.

Tag‘in hech baloga tushunmadim.

– Kelin ikkovingiz boshqa muhitda bo‘lishingizga to‘g‘ri keladi. Vaqtincha bo‘lsa ham... Yevropaliklar «nikoh sayli» degan gapni bekorga o‘ylab topmagan...

Avgustning o‘n yettinchi kuni

Ilang-bilang yo‘l emish. Bir tomon qumli cho‘l. Bir tomon – «zelyonka». «Zelyonka»dan o‘q otilayotganmish. Qiziq, avtomat tovushi kelmasmish-da, yonimdan hushtak chalib o‘tayotgan o‘qlar ovozi aniq eshitarmishman. «Zelyonka»ga otay desam, avtomatim yo‘q. Qochay, desam pana joy ko‘rinmaydi. Bor bo‘yincham o‘zimni yerga otibman... Bir mahal katta yo‘ldan BMP

yelib keldi. Qarasam, yonimdan shitob bilan o'tib ketyapti. «Olib ketinglar, meni olib ketinglar!» – dedim sapchib turib. BMP to'xtamadi. «Obket! – dedim baqirib. – Obket meni!» BMP to'xtadi. Yetib borsam, Xayriddin qo'l cho'zib turibdi. «Chiqing, jo'ra, chiqing tezroq!» – dedi. BMPga tortib chiqardi.

Cho'chib uyg'ondim... Uy ichi qorong'u. To'shakda o'tiribman. Yuragim gursullab uryapti.

– Nima bo'ldi? – dedi Shahnoza ovozi qo'rquvdan titrab.

– Hech nima. – O'zimni majbur qilib iljaydim. – Chanqadim. Bir piyola suv ber, Shahnoz...

Avgustning o'n sakkizinchi kuni

Uyg'onsam, derazadan g'ira-shira tong nuri tushyapti. Shahnoza toshoyna oldida o'tiribdi. Ich kiyimda. Qo'lida mittigina kiprik bo'yagich... Indamay kuzatib yotaverdim. U ham qopqora ko'zlarini bir nuqtaga tikkancha qilt etmay o'tiraverdi. Go'zal va jonsiz haykaldek. Qaysi kelin o'ziga oro bermaydi. Qaysi kelin kuyovga yoqqisi, qo'ni-qo'shnilariga chiroyli ko'ringisi kelmaydi? Xayolimdan iztirobli o'y kechdi. Shahnoza pardoza o'tirgan-u, ikkilanib qolgan. Kim uchun pardoz qilsin? Nima uchun?..

Bir mahal tikilib yotganimni ichki sezgi bilan his etdi, shekil-li, yarq etib qaradi.

– Voy, uyg'ondingizmi? – dedi jilmayib. Jilmayishi allaqanday ayanchli ko'rindi.

Hovli tomondan paqir bandining daranglagani eshitildi. Oyimmi, kelinoyimmi «signal» beryapti. Shahnoza – yangi kelin. Kelin degan kun yoyilguncha yalpayib yotsa, uyat bo'ladi. Qo'ni-qo'shnilar kuyov charchatib qo'yibdi-da, noz uyqudan turmabdi, deb gap qiladi. Kelin hovliga suv sepishi kerak. Ko'cha eshik oldini supurishi kerak. «Nima bo'lganda ham!» Shahnoza kiprik bo'yagichni toshoyna peshtaxtasiga qo'ydi-da, ildam o'rnidan turdi. Tezgina guldor xalatini kiyib, oyog'iga shippak ildi, hovliga shoshildi.

Kun botdi. Qorong'u tushyapti. Uyga borgim kelmayapti. Shahnozaning yuziga qarashdan qo'rqyapman!

Avgustning yigirmanchi kuni

Ko'chada Tursunboy akaga duch keldim. Velosiped minib

ketayotgan ekan...

– Yaxshimisan, ukam, xursandchilikmi? – deb so‘radi. Hech kim bizning gap-so‘zimizni tinglamayaptimi, degan andishada atrofga alangladim. Nazarimda Tursunboy aka ataylab ovozini baralla qo‘yib gapirayotgandek, butun qishloq biri derazadan, biri darvozadan mo‘ralab turgandek tuyuldi. Turmayman bu yerda! Har birining ko‘zi lazer nuriga, har birining qulog‘i lokatorga aylangan, bekorchilikdan birovning to‘shagida nima bo‘layotganini surishtiradigan maydakash odamlar orasida turolmayman! Uy talab qilaman! Jilla qursa, kaftdek boshpana bersin menga. Men uchun emas, aqalli oilam uchun, Shahnoza uchun!

O‘sha kuni

Talabalar shaharchasi arining uyasiga o‘xshaydi. Mandat degan serg‘alva tadbir avj pallasiga chiqqani uchunmi, tumonat odam. Hali shahar havosiga ko‘nikib ulgurmagan, ko‘ylak-shimi g‘ijimlangan yigitlar, uzun lozim kiygan, sochini maydalab o‘rgan qizaloqlar... Baqateraklar soyasida O‘zbekistonning ming bir burchagidan kelgan mashinalar... Oynaband eshiklar oldi qiy-chuv. Biri yalinib, biri po‘pisa qilayotgan otalar, atlas ko‘ylagining yoqasiga «Qahramon ona» medalini taqib olgan onalar... Hay-hay-hay! Qo‘rqadi medalingdan! «Ie, onaxon, siz Qahramonmisiz? O‘nta bola tuqqanmisiz, marhamat, kiring! – deydi. – O‘g‘lingiz kim bo‘lmoqchi? Injenermi? Kimyogarmi? Yuristmi? Bosh ustiga, ilmi bormi, ishqilib? Bo‘pti-da! Sizning bolangiz o‘qimasa, kim o‘qiydi?» Ovora bo‘lasan! O‘qishga kiradiganlarning ro‘yxati ikki oy oldin tayyorlab qo‘yilgan. Men ham yurist bo‘lmoqchi edim. Shu niyatda sakkiz oy sudda dastyorlik qilganman. Yaxshisiniyam ko‘rdim, yomoniniyam... Oxir-oqibat haf-salam ham sovidi... Tag‘inam o‘zimizning fakultetda adolat bor ekan. Bo‘lmasa, bungayam kirolmasdim.

Bilagiga qizil latta o‘ragan ikkitasi yo‘limni to‘sdi. Qiyin shulargayam, vositachi bo‘lish osonmi?

– Nari tursang-chi, uka! O‘qishga olib kiradigan odamim yo‘q. Boshqa ish bilan keldim.

Yo‘laklar kimsasiz. Iflos. Qog‘oz parchalari sochilib yotibdi.

Eshigiga «mestkom» degan yozuv ilingan xonada o‘tirgan, sochi kalta qilib qirqilgan qiz achinib bosh chayqadi.

– Sanjar Olloberganovich hozirgina chiqib ketuvdilar. Nima

deb qo'yay?

– O'zi bilan gaplashishim kerak, – dedim hafsalam pir bo'lib.
– Zaril ishim bor edi.

– Endi yanagi jumaga keladilar. – Qiz astoydil yordam bergisi kelayotgani ko'rinib turardi. – Bilasizmi, – dedi deraza oldiga borib. – Hov anavi qayrag'och soyasida turgan qora «Volga» Sanjar Olloberganovichniki. Yo'ldan dekanatga kirmoqchi edilar. Mashina oldida poylab tursangiz, tushib qoladilar.

– Nomeri nechchi?

– Nimaning nomeri? – dedi qiz tushunmay.

– Mashinaning.

– Bilmasam... – Qiz bir zum o'ylanib turdi-da, qo'shib qo'ydi:
– Menimcha, boshlanishi o'n bir.

«Boshlanishi o'n bir» «Volga» oldida uzoq turib qoldim. Shaharcha hamon g'ujg'on o'ynar, oynaband eshik tarafdan shovqin-suron eshitalardi. Nihoyat, yarashiqli kiyingan, qizlarnikiga o'xshash lo'ppi, oppoq yuzlarida o'ziga ishonch, xotirjamlik aks etib turgan xushmo'ylov yigit vazmin qadamlar bilan yaqin kela boshladi.

Tanidim! Axir bu – o'zimizning «vojak»-ku! Paxtadagi voqeadan keyin meni o'qishdan haydashga va'da bergan komsomol sardori Sanjar! O'zgarmabdi. Faqat sal to'lishibdi. Yanayam salobatli bo'p qopti.

Men tomonga shubhali qarab qo'ydi-da, mashina eshigiga kalit soldi.

– Sizni kutib turuvdim, – dedim yaqin borib.

U menga boshdan-oyoq razm solib chiqdi-da, elas-elas tanidi, shekilli, samimiy jilmayib, qo'l uzatdi.

– Siz bizda o'qirdingiz-a! – dedi hamon jilmayib. Qo'lga tutqazgan arizamni sinchiklab o'qib chiqdi.

– Problema yo'q! – dedi ishonch bilan. – Yotoqxonadan alohida xona ajratamiz. O'qishni bitirguncha kelin bilan turaversizlar.

Hammasi ayon! Endi Shahnoza yotoq yo'lagida tursichan yurgan talabalar orasidan o'tib, burchakdagi oshxonaga borib, choy qaynatishi qoluvdi.

– Tushunmadingiz, – dedim sovuqqonlik bilan. – Bizga yotoqxonona emas, uy kerak. Alohida kvartira...

U astoydil ajablandi:

– O‘ylab gapiryapsizmi, Rustambek! Domlalarning o‘zidan yuzga yaqin odam navbatda turibdi. Sizga, kechirasiz-ku, aspirantlar uyidan ham joy berolmaymiz.

– Menga aspirantlar uyi kerakmas, – dedim qaysarlik qilib.

Sanjar Olloberganovich tag‘in boshimdan oyog‘imgacha qarab chiqdi.

– To‘g‘ri, – dedi qo‘lidagi arizani silkitib. – Afg‘onistonda bo‘lgan ekansiz. Lekin u yoqqa sizni biz yuborgan emasmiz. Qolaversa, bizda «afg‘on» bolalar ko‘p. Har bittasiga alohida kvartirani qayerdan olamiz?

– Men «bola» emasman! – dedim g‘ashim kelib. – Gap shu, Sanjarbek! Arizamni qabul qildingiz, deb hisoblayman. Kelasi juma kuni nechanchi navbatda turganimni tasdiqlovchi qog‘oz yozib berasiz. U yog‘i mening ishim!

Chamasi, turqi tarovatim qo‘rqquvli edi, shekilli, «mestkom» yelka qisgancha mashinaga o‘tirdi-da, osoyishta haydab ketdi. Shunda... qora «Volga»ni avval ham ko‘rganim yodimga tushgandek bo‘ldi. ZAGSga ariza topshiradigan kunimiz «Paxtakor» metrosi oldida Shahnoza shu mashinadan tushgandi... Tag‘in bilmadim...

Avgustning yigirma birinchi kuni

Shahnozaning yuzi allaqanday notekis bo‘lib borayotganini birinchi marta payqadim. Sinchiklab qarasam, husnbuzar toshib ketibdi. Moyupa surib shuncha urinadi, la‘nati husn-buzar qasd qilgandek battar ko‘payadi.

Avgustning yigirma uchinchi kuni

Eski shahardan chars sotib oldim. Yaxshi! Faqat... Uyga bor-gim kelmayapti. Qorong‘i tushishidan qo‘rqyapman.

O‘sha kuni kechasi

Qop-qora soqolli «dux» meni bo‘g‘yapti. Boshida salla. Qiziq, qo‘lida ham salla. Sallani sirtmoq qilib, bo‘ynimga soldi-da, ko‘zlari olayib, torta boshladi. Uray desam, qo‘lim yetmaydi. Nafasim qaytib, xirillab qoldim. «Dux» esa tishlarini g‘ijirlatib, sirtmoq uchini tortadi.

– Avtomat! Avtomatim qani? – ... Sapchib turib ketdim. – Avtomat! – dedim xirillab.

Ko'zimni ochsam, karavot yonida; yerda yotibman. Shahnoza piyolada sovuq choy tutyapti.

– Iching, – dedi dag'-dag' titrab. – Sizga nima bo'ldi, Rustam aka?

Peshonamdan sovuq ter chiqib, Shahnozaning oyog'idan quchdim.

– Qo'rqma, Shahnoz, – dedim yupatib. – Hozir... hozir o'tib ketadi... Shunchaki, tush ko'rdim...

Avgustning yigirma to'rtinchi kuni

...Ko'zlari... hayrat aralash mehr bilan yonib turadigan ko'zlari qovjirab ketibdi. Ming yil uyqudan qolgan odamdek. Kelin degani to'ydan keyin yayrab-yashnab, ochilib ketguvchi edi. Shahnoza ko'z o'ngimda so'lib boryapti.

Avgustning yigirma beshinchi kuni

Kechqurun uyga kelsam, Shahnoza hovliga suv sepayotgan ekan. Egnida xalat, jiyakli atlas lozim.

– Ayam keldilar, – dedi qulog'imga pichirlab. – Kirib, so'rashing.

Ko'zida quvonch, ovozi xushchaqchaq edi.

Qaynonam oyimning oldida juda yosh ko'rinadi. Aylanib-o'rgilib so'rashdi. Peshonamdan o'pib ko'risharkan, ko'zimga xavotirlanib qarab qo'yganini aniq sezdim.

Yotoqqa kirsam, Shahnoza divan oldida turibdi.

– Ko'zingizni yuming! – dedi erkalanib. – Yo'-o'q, unaqasi ketmaydi. Yaxshilab yuming. Ana shunaqa! Mana bu sizga! Adamlardan – kuyovlariga!

Ko'zimni ochgan edim, qo'limga guldor salofan qopchiq tutqazdi.

«Montano» sport kastyumchasi ekan.

– Qani, dadasining qizini bitta o'pib qo'ysinlar-chi! – Shahnoza kulimsirab yuzini tutdi... Yuzlari lovullab turibdi.

Avgustning yigirma oltinchi kuni

Dotsent ochiq chehra bilan kutib oldi. Nima o'zgarish bo'layotganini so'radi.

– Eng muhimi – qo'rqmang! – dedi bir boshdan tushuntirib. – O'sha pallada shoshmang. Hayajonlanmang. Kasalman, degan gapni xayolingizdan chiqarib tashlang. – Barmoqlari bilan stolni

chertib o'tirdi-o'tirdi-da, o'ziga o'zi gapirayotgandek qo'shib qo'ydi: – Bunaqa paytda ko'p narsa ayolning mahoratiga bog'liq. «Mahorat?» Qanaqa mahorat? Nima, Shahnoza j...midiki, «mahorat»ni namoyish qilsa?

Dotsent vajohatimni ko'rib, ko'zini olib qochdi.

– Meni aytdi dersiz, uka, – dedi yupatib. – Hali qo'sha-qo'sha farzandlar ko'rasiz. O'g'lingizning to'yida o'zim borib oshning eng shirin joyidan yeyman. Kelishdikmi?

Avgustning yigirma to'qqizinchi kuni

Shahar ijroqo'mining uy taqsimoti bo'yicha komissiyasi tergovga o'xshagan narsa bo'larkan. Uzun stol to'rida kalta yengli ko'ylak kiygan, jingalaksoch kishi o'tiribdi. Stol atrofida yigirma chog'li odam. Erkak-ayol aralash. Negadir hammasining qiyofasi bir xil: tund, loqayd. Faqat bir odam – majlis raisining o'ng tarafida o'tirgan kishi boshqalarga o'xshamaydi. Yuzi shunaqangi ozg'in, shunaqangi zahilki, birov eski o'likni go'rdan sug'urib chiqib, kalla chanog'iga teri yopishtirib qo'ygandek. Chakaklari ich-ichiga kirib ketgan, bo'yni ingichka, qiltiriq. Ammo toshbaqaning bo'ynidek sertomir, chayir... Yupqa lablari asabiy titraydi. Shunday issiqda qora kostyum kiyib, bo'yinbog' taqib olgan, ko'kragi to'la orden, medallar. «Qizil yulduz», «Jangovar Qizil bayroq», «Vatan urushi»... Gap bunda ham emas. Ko'zlari g'alati, ko'zlari... Chor atrofga, odamlarga, olamga, boringki, o'ziga ham shu qadar cheksiz qahr bilan boqadiki, qarasa, etingni seskantirib yuboradi. Baayni Yovuz Ruhning o'zginasi!

– Familiyangiz? – dedi Jingalaksoch men tomonga qaramay. Aytdim.

– Odamlarga nima bo'lgan o'zi, Soat Ganievich! – Jingalaksoch qo'lidagi «delo»ni Yovuz Ruh oldiga tashladi. – Shuncha egoizmni kimdan o'rgangan bu yoshlar! – dedi afsus-nadomat bilan.

Yovuz Ruh qog'oz titkilarkan, men tomonga qarab qo'ydi. O'zining haqligi-yu, mening nohaqligimga, o'zining qudrati-yu, mening ojizligimga ishonch bilan to'lib-toshgan bu nigohda yana bir narsa – nafrat bor edi! Hatto «inqilob chavandozi»ning beliga «osilib» turgan prokuratura «bossi» ham menga bunchalik jirkanib qaramagandi. Beixtiyor ko'zimni olib qochdim.

– Uy kerakmi senga?

Xudo haqqi! Sharti ketib, parti qolgan keksa odamning ovozi shu qadar gumburlashini birinchi ko'rishim. Xuddi go'rdan chiqqan sadodek!

– Uy kerak bo'lib qoldimi? – dedi Yovuz Ruh tag'in tahdidli gumburlab.

Tamom! Hammasi tushunarli! Bulardan hech qachon, hech qanday najot yo'qligini angladim-u, vujudimda ajib yengillik sezdim. Nima qipti, birinchi marta ko'ryapmanmi bunaqa Hangomalarni!

– Ha! – dedim o'zimni bosishga urinib. – Uy kerak!

– Domlalariga yo'q uyni senga qayoqdan topib bersin?

– Unisini bilmadim, – dedim rostini aytib. – Ammo menga uy kerak. Xotinim bilan yotoqxonada turolmayman!

Yovuz Ruh ko'zimga teshib yuborgudek uzoq tikildi.

– Biografiyangda yozibsani! – dedi qog'oz varaqlab. – Shahar sudida ishlagan ekansan. Bir yil ishladingmi?

– Sakkiz oy...

– Nega haydashdi?

– Haydashgani yo'q, – dedim xotirjamlik bilan. – Ishlagim kelmadi.

– Eshitingizmi, Dmitriy Stepanovich! – Yovuz Ruh Jingalaksochga qarab kuldi. Kulgisi g'alati ekan. Xuddi kaltakesakning tomoq qoqishiga o'xshaydi. – Sud organida ishlagilari kelmabdi... Xex! Jingalaksoch indamadi. Charchoq qiyofada boshini kaftiga qo'yganicha tirsagi bilan stolga tayandi. Bir chekkada yotgan «Malboro» sigaretidan olib, yaltiroq chaqmoqtosh yoqdi. Uzun stol atrofida o'tirgan bir xil qiyofadagilar bir xilda sukut saqlashar, hayhotdek xona jimjit, Yovuz Ruh varaqlayotgan qog'ozlar g'ayritabiiy baland ovozda shitirlar edi.

– Afg'onida xizmat qilgan ekan, – dedi Yovuz Ruh. – Bosh argumenti shu.

– Nachora? – Jingalaksoch tutun qaytardi. Yuzimga tikilib turib, anchayin osoyishta ohangda tushuntirdi: – Sizni Afg'onistonga biz yuborgan emasmiz, yigitcha.

– U yoqqa borganimga men ham afsuslanaman! – dedim sovuqqina qilib.

– Qo'yib bersa, dushman tomoniga ham o'tib ketadi bunaqalar. – Yovuz Ruh o'yib yuborgudek chaqchaydi. – Shoshma! –

dedi navbatdagi qog'oz varag'ini ajratib olib. – Otang kolxoz raisi

ekan-ku! To'g'rimi shu gap?..

– To'g'ri.

– Rais bo'lsa bitta o'g'liga Toshkentdan uchastkani, kooperativ uyini olib berishga kuchi yetmaydimi?

Kuldim.

– Bundan chiqdi... Rais otam menga uchastka yoki kooperativ uy olib bersa, hammasi o'zidan-o'zi hal bo'ladi. Shunaqami?

– Pajalsta! – dedi Yovuz Ruh qo'l do'lg'ab. Jingalaksoch uning xulosasini darhol quvvatladi:

– Shaxsiy mulk sotib olishga har bir grajdanning haqqi bor.

– Shunaqa-ku... – dedim kinoya bilan. – Otam endi rais emas-da! Lagerda yotibdi. Shimoliy Qozog'istonda! «O'zbek ishi» bilan qamalgan.

Yovuz Ruhning ko'zlari yonib ketdi.

– Ax, da! – dedi g'o'ldirab. – Ko'rdingizmi, Dmitriy Stepanich! Bu... – ipdek barmog'ini bigiz qilib meni ko'rsatdi. – Bu – shubhali shaxs! Biografiyasini yolg'on yozgan. Otasi qamalganini ataylab yashirgan. Jamoatchilikni chalg'itmoqchi bo'lgan.

– Qiziq... – dedim yasama loqaydlik bilan. – Otam raisligidan foydalanib, menga uy olib bersa, qonunga xilof emas. Dadamning qamalganini yozmasam, jinoyat ekan-da!

– Sen... sen... gapni chalg'itma, unsur! – Yovuz Ruh o'rnidan turib ketdi. Toshbaqanikidek ingichka bo'yni battar tirishib, boshi asabiy qaltiradi. Ko'ksidagi ordenlari jiringlab ketdi. – Bo'shatib qo'y kabinetni!

– Hayajonlanmang, Soat G'anievich! – Jingalaksoch Yovuz Ruhni yupatdi. – O'tiring!.. Yigitcha! – dedi murosaga chorlovchi ohangda. – Sizga kvartira berolmaymiz. Bo'пти, sizga ruxsat.

– Uy kerakmish bunga! – Yovuz Ruh hamon g'azabini bosib ololmasdi. – Ana, xotiningnikiga borib tur!

Chiqib ketardim-u, gapi nash'a qildi.

– Musulmonmisiz? – dedim qonim qaynab. – Musulmonchilik qoidalarini tushunasizmi?

– Men hech qanaqa musulmonchilik-pusulmonchilikni bilmayman! – Yovuz Ruhning boshi soat kapgiridek likilladi.

– Men bilaman! – dedim qaysarlik bilan. – Ichkuyov bo'lishni

xohlamayman!

– Bo‘lmasa, xotining bilan ko‘chada yotib yuraver! – Boyadandan beri tilimni tiyib turgan edim. Yovuz Ruhning gapni jonimdan o‘tib ketdi. Aytmasligim kerak bo‘lgan gapni aytib yubordim:

– Nega shu tuproqda tug‘ilib o‘sganlar shahar chekkasiga chiqib, loy changallaydi-da, kecha kelganlarga uy tayyor?

– Nima? – Jinalaksochning ko‘zlari tahdidli qisildi. – Nima dedingiz?

– Aniqroq qilib aytaymi? – dedim g‘azabdan ovozim qaltirab. – Nima uchun o‘zbekka uy yo‘q-da, kecha vagondan tushganlarga uy tayyor?

– Shunaqa deng? – Jinalaksoch labining bir cheti bilan kinoyali iljaydi. – Demak, siz Toshkent faqat tub aholiniki, g‘ayrimillatlar ketsin, demoqchisiz? To‘g‘ri tushundimmi?

– Yo‘q! – dedim bosh chayqab. – Ilgari kelganlar ketsin, demoqchi emasman. Endi kelayotganlar kelmasin, demoqchiman. Aholi o‘zimizda ham...

U yog‘ini aytolmadim. Stol atrofida o‘tirgan bir xil qiyofalilar to‘satdan har xil qiyofaga kirdi. Har xil ovozda hayqira boshladi. Biri ko‘zi olayib baqirdi, biri chinqirdi, yana biri hayratdan yoqasini ushladi. Faqat aybnomasi bir xil edi. Millatchi! Xalqlar do‘stligining dushmani!

– Jim! – Guvullab turgan yo‘g‘on-ingichka tovushlarni gumburlagan sado taqqa to‘xtatdi. – Jim bo‘l! – dedi Yovuz Ruh o‘kirib.

Qaltiroq qo‘lini paxsa qilib qichqirdi:

– Unsur! – dedi og‘-zidan ko‘pik sachratib. – Seni o‘z qo‘lim bilan otib tashlashga tayyorman! – Keyin Jinalaksochga yuzlandi. – Militsiya bormi bu dargohda, Dmitriy Stepanich! Bunaqa banditlarni tiyib qo‘yadiganlar bormi-yo‘qmi ispolkomda!

Jinalaksoch vazmin odam ekan. Shoshilmay o‘rnidan turdi.

– Qo‘ying, Soat Ganievich! – dedi tasalli berib. – Asabingizni asrang.

Sekin-sekin yurib yonimga keldi.

– O‘rtoq Shomatov, – dedi quruq va rasmiy ohangda. – Sovet grajdani sifatida davlatdan kvartira olishga haqlisiz. Navbatingiz kelsa, olasiz. Siz – ozodsiz!

Qarang, qanday yaxshi! Menga ozodlik hadya etyapti! Mana,

maynavozchilik tomoshasi tugayapti. Hammasi joyida. Hammasi risoladagidek.

– Ruxsatingiz bilan bir narsani so‘rasam, – dedim iloji boricha muloyim qilib. – Navbatim qachon keladi?

Jingalaksoch mendan ham muloyim jilmaydi:

– Yuz yildan keyin!

O‘sha kuni

Garangsib ko‘chaga chiqdim. Chars chekkim kelardi. Mayli, biz kambag‘allarga «Prima» ham teshib chiqmaydi! Endi sigaret tutatsam, yonbosh tomondan g‘o‘ldiragan ovoz keldi:

– Chekishdan ol, uka!

Ensam qotib burilib qaradim. Kim bo‘ldi bu? Avvaliga eslolmay turdim-u, tamakidan sarg‘ayib ketgan tishlarini ko‘rsatib, iljayganidan tanib qoldim.

– Ie, Mauzer aka!

– Qalaysan? – dedi u qo‘limni qisib. – Shomansur akadan xabar bormi?

– Xat keldi. Yurganmishlar...

– Mayli, uka, sabr qilinglar! – dedi u sigaret tutatib. – Meni aytdi, dersan, bu olatasirlar bosiladi. Narisi bilan uch-to‘rt yil. Jim yuribsanmi, ishqilib? Hech qayoqqa bormadingmi?

– Bordim. Respublika prokuraturasiga.

– KPZga tiqmadimi?

– Yana bir marta kelsang, jinnixonaga jo‘nataman, dedi.

– To‘g‘ri aytibdi! – Mauzer Soatovich iljayib qo‘ydi. – Jo‘natadiyam! Ularga cheklanmagan huquq berilgan.

– Dadamning ordenini topshirdim. Ambartsumyanga berib qo‘ysin.

– Bekor qipsan! – U keskin bosh chayqadi. – Dadang ordenni halol mehnat qilib olganlar.

– Bo‘lmasa, halol mehnat qilgan odamni qamoqqa tiqmasin.

Mauzer aka «shu gapni menga aytyapsanmi?» degandek ta‘naomuz qarab qo‘ydi. Birpas sukut saqlab turdi-da, so‘radi:

– Bu yerda nima qilib yuribsan?

– Uy masalasida kelgandim.

– Uyni nima qilasan?

– Uyladim, – dedim xushlamay.

– Zarilmidi? Nima qilarding yosh boshingga bo‘yinturuq ilib‘

G'ashim kela boshlaganini sezib, yelkamga qoqdi.

– Men-ku, ovqatlanib oldim, – dedi kulimsirab. – Qorning qalay? Bu yerning oshxonasida lag'monni boplaydi. Yeysanmi?

Indamay bosh chayqadim.

– Yur, bo'lmasa, salqinroqqa boraylik.

Ro'paradagi boqqa kirdik. Kamalakrang xarrakka borib o'tirdik. Bog' ichi dim, bolalar qiy-chuv solib oto'yin uchar edi.

– Komissiya majlisi bo'ldimi? – dedi u menga qaramay. – Zampred boshqargandir yig'ilishni? Sochlari jingalak Vasilev?

Bosh irg'adim.

– Nima dedi?

– Yuz yildan keyin navbatim kelarkan.

– To'g'ri aytibdi! – Mauzer aka xunuk xirillab kuldi. – Bu o'rtoq, – dedi tushuntirib.

– O'zbekistonga yordam berish uchun Markazdan kelganlardan.

Menga nima? Markazdan keladimi, Amerikadanmi? Mauzer aka mung'ayib o'tirganimni ko'rib, yelkamga qo'l tashladi.

– O'zbekning maqolini eshitganmisan? – dedi ko'zimga tikiilib, salqigan qovoqlari lipillab ketdi. – Mehmon – otangdan ulug'. Zo'r maqol-a? – Tag'in kulgan edi, yo'tal tutdi.

– Shunaqa! – dedi tuflab. – Uyingni to'rini bo'shatib berasan. Oxirgi ko'yilagingni sotib bo'lsa ham dasturxon yozasan. Nozne'matlarni to'ldirib tashlaysan. Mehmon, iya, bular jannatda yasharkan-ku, deb o'ylab qoladi. Ketayotganida yelkasiga to'n yopasan. Xotiniga bir jo'ra atlas berasan. Bolalariga meva-cheva... Mehmon yana o'ylab qoladi. Ie, pora beryapti-ku, bundan chiqdi, bir balosi bor, deydi... Keyin mazaxo'rak bo'ladi. Ertasiga o'nta mehmon keladi. Senga poygak ham tegmay qoladi. Hovliga chiqasan. Indiniga yuztasi keladi. Hovligayam ega chiqadi. Ko'chaga chiqib ketasan. Ko'chayam torlik qilib qolsa, «fish-sh-sht!» – U hushtak chalgan edi, og'zidan tupuk sachrab ketdi. – Uchasan, kosmosga!

Mauzer Soatovich jimib qoldi. Salqigan qovoqlari orasida miltirab turgan ko'zlarida g'ussa bor edi.

– Xalqlar birodarligi degan narsa – muqaddas tushuncha, – dedi xo'rsinib. – Ammo bir yurt ikkinchi yurtni azbaroyi baxtli qilish uchun bosib olmas ekan. Bundan o'ttiz yil, qirq yil avval

yurtimizga kelgan birodarlarimizda insof bor edi... Endi bo'lsa...
– U hafsalasizlik bilan qo'l siltadi. – O'zimizda yuz minglab ish-sizlar yuribdi salanglab, ittifoq tasarrufidagi korxonani quradida, yigirma ming-o'ttiz ming «mutaxassis» olib keladi. Qurgan zavodi respublikaga shimildiriq ham bermaydi. Havo bilan suvni zaharlagani qoladi.

– Birpas jim qoldi-da, o'rnidan turdi. – Bo'пти, ketdik, ukam, seniyam yuragingni siqib yubordim...

Katta ko'chani kesib o'tayotganimizda, istehzoli iljaydi.

– Markaz nega shunaqa qilayotganini bilasanmi? Xalqaro qonun bor: qaysi yurtda tub aholi soni ellik foizdan kam bo'lsa, «milliy ozchilikka» aylanib qoladi, ya'ni o'sha yurtga egalik huquqini yo'qotishi mumkin. Mana, maqsad qayerda yotibdi! Bo'пти, xayr! – U asabiy qaltirayotgan qo'lini cho'zdi. – Sening uying masalasi bo'yicha, albatta, maqola yozaman! – dedi ishontirib. – Yana ellik uchta «afg'on»ning xati qo'limda turibdi!

Sentyabrning birinchi kuni

O'qishlar boshlandi. Ikkinchi kursga kirib, uyalib ketdim. Ukam tengi oltita bola o'tiribdi. Qolgani qizlar. Hammasi oftobda erkanib sho'xlik qilayotgan mushuk bolaga o'xshaydi. O'n ikki nafar yigit armiyaga ketibdi... «Mushukchalar» menga-ku uncha e'tibor berishmadi. Ammo hammasi oxirgi qatorda o'tirgan, bir ko'zi ko'r, og'zi qiyshayib ketgan yigitga xavotirlanib, hatto irganib qarayotganini auditoriyaga kirgan zahoti his qildim.

Bildimki, «afg'onlar»dan. Yoniga borib o'tirdim.

– O-o-otim T-s-solijon... – dedi duduqlanib. («S»ga «T»ni qo'shib gapirmasa, tili aylanmas ekan.)

Solijonning yuzi chindan ham qo'rqquvli edi. Chap ko'zi ko'r, og'zi qiyshiq, chap yuzi olovga tushgan mahsidek g'ijimlanib ketgan. Tutilib-tutilib aytgan hikoyasidan shuni angladim-ki, Qobul tomonlarda benzavoz haydagan ekan... U yoqqa ketishdan oldin matematika kulliyotida o'qirkan. U yerdagi fanlar og'ir bo'lgani, miyasi muttasil og'rishini hisobga olib, bizga o'tkazishibdi.

– U yoqda nima bo'ldi? – desam, duduqlanib tushuntirdi:

– Fu-fu-fugas portladi... – Yelkasidan quchib, yuzidan silagim keldi.

Sentyabrning yettinchi kuni

Respublika gazetasida «Afg'oniston jangchilariga munosabat shumi?» degan maqola chiqibdi. O'zim bexabar edim. Tanaffusda Shahnoza qo'limga gazeta tutqazdi. (Xotining to'rtinchi kursda, o'zing ikkinchida o'qisang, qiziq bo'larkan.) Maqolada shahar ijroqo'mi, xususan, rais o'rinbosari D. S. Vasilev Afg'onda jarohatlangan askarlar qismatiga befarq qarayotgani, bu masalada shikoyatlar ko'pligi aytilgan edi. Biri telefon, biri uy, tag'in bittasi oddiy tabobat yordamiga muhtoj bo'lib yurganlarning uzundan-uzoq ro'yxatida mening ham ismi sharifim bor edi. Qiziq odam-da, Mauzer aka! «Bular bilan olishishdan naf yo'q», deb menga nasihat qiladi-da, tag'in o'zini o'tga uradi! Nima foydasi bor!

Sentyabrning sakkizinchi kuni

Shahnoza «ayamni sog'indim, ko'rib kelamiz», deb turib oldi. Avvaliga tushunmadim. Muncha tiqilinch? Keyin birdan yodimga tushdi. Axir bugun sakkizinchi-ku! To'yimizga rosa 1 oy bo'ldi. Voy, Shahnoza-ey! Voy, shum-ey! Yo'ldan gul, tort oldik. ...Bu ko'cha menga yaxshi tanish. Bir vaqtlar mana shu tol tagigacha kuzatib qo'yardim. U yog'i Shahnozaning ta'biri bilan aytganda, «taqiqlangan zona» edi: qo'ni-qo'shnilar ko'rsa, gap-so'z ko'payadi... Bir oy ilgari shu ko'chadan jo'ralarim bilan qiy-chuv qilib kirib bordik. Hozir ham qulog'im ostida nog'ora sadosi, karnayning tantanavor ovozi yangrab ketgandek bo'ldi. Endi bu ko'cha – mening ham ko'cham. Anavi kungurador, darvozali uy – mening ham uyim! Kuyovman... Har qalay! Darvozani Dilnoza ochdi: Shahnozaning qaqajon singlisi. Opasining bo'yniga osilib, ikki yuzidan cho'lpillatib o'pdi.

– Rustam aka, salom! – dedi katta qizlardek qo'l cho'zib.

– Pochcha degin, jinni! – Shahnoza dashnom berib ulgurmasidanoq Dilnoza hovliga yugurdi.

– Ayajon! Shahnoza opam bilan Rustam akamlar kelishdi! Shahnozaning «qiz o'tirishi»da kelganimda odam ko'pligi uchunmi, hovli tordek ko'ringan edi. Endi razm solsam, kengmo'l ekan. Hovli o'rtasida gulzor yashnab yotibdi. Marmar favvorachadan suv zarralari otiladi. Did bilan gir aylantirib solingan uylar yaraqlaydi. Ochiq ayvon nafis pardalar bilan to'silgan.

Qaynonam yugurib ayvondan tushdi. Avval mening pesho-

namdan o'pdi. Keyin Shahnozani quchog'iga oldi. Aylanib-o'rgilib ko'risharkan, Shahnozaga termulib turgan ko'zlarida «qalay, yangiliklar bormi?» degan unsiz savolni uqqandek bo'ldim. Ko'nglim cho'kib turib qoldim.

– Qani, ichkari kiringlar! – Qaynonam yelkamga qoqib iltifot qildi. – Qudam yaxshimilar? Quda buvamlardan xushxabar bormi? Hammanglar yaxshi o'tiribsizlarmi? – Ayvonga chiqayotganimizda ichkariga qarab, ovoz berdi: – Adajonisi! Qizingiz bilan o'g'lingiz keldi!

Ichkaridan qaynotam chiqdi. «Adidas» kiyib olgan, sochlari qop-qora, harakatlari yoshlardek chaqqon... Ikkovimiz ko'rishayotganimizda qaynonam beozor koyidi:

– Voy o'lmasam, bu qanaqa yurish kuyovingizni oldida, allakimlarga o'xshab... Boring, kostyum kiyib chiqing!

– Nima qipti, Rustam o'zimning o'g'lim! – dedi qaynotam do'stona jilmayib.

Shahnoza qo'ng'iroq qilib qo'ygan, shekilli, dasturxon noz-nematlar bilan bezatilgan, o'rtada «Napoleon» konyagi, «Zolotoe koltso» arog'i turardi. Qaynotam dadamdan qanday xabar borligini surishtirdi.

– Xafa bo'lmanglar! – dedi dalda berib. – Buyam yurt boshiga tushgan to'y-da. Ko'rasiz, hammasi izga tushib ketadi.

Shahnoza birpasda yelib-yugurib xizmat qilishga kirishdi. Avval choy, ketidan sho'rva keltirdi. Qaynotam shokoladning zar qog'ozini yirtib, oldimdagi likopchaga qo'ydi. Konyak po'kagini ocha boshladi. Shahnoza menga ta'naomuz qarab turganini sezib, iltimos qildim:

– Qo'ying, ada, men ichmayman.

– To'g'ri qilasizlar! – dedi Shahnoza jilmayib. – Issiq kunda...

– Sen erkaklarning ishiga aralashma, xo'pmi, qizim! – dedi qaynotam erkalovchi ohangda. – Yaxshisi, ayangga qarash...

Mittigina billur qadahdagi bir qultum ichkilikdan terlab ketdim.

– Vasilevning po'stagini qoqishibdi-ku! – dedi qaynotam sho'rva icha turib.

Tushunmadim.

– Kechagi gazetani aytaman! – Qaynotam kulimsirab bosh chayqadi. – O'zimga aysangiz ham bo'lardi, Rustamjon. Dmit-

riy Stepanovich bilan yaxshi tanishmiz.

Bundan chiqdi qaynotam Jingalaksoch bilan... Ha, darvoqe, shahardagi kattakon «torg»ning boshlig'i bo'lganidan keyin taniydi-da.

– Bu yog'ini o'ylamagan ekanman, – dedim qimtinib. – Mauzer Soatovich bilan tasodifan...

– Kim u Mauzer Soatovich? – dedi qaynotam gapimni bo'lib.

– Redaktsiyada ishlaydi.

– Umuman, to'g'ri yozgan, – dedi qaynotam yana konyak quyib.

– Baribir bizga uy bermaydi, – dedim ishonch bilan.

– Nega bermas ekan? Beradi! Qani, oldik! Salomatlik bo'lsin!

– Qaynotam samimiy iltifot qildi. – Olavering, Rustamjon. Nima qipti, jinday-jinday...

Iymanib sho'rva ho'playotganimda o'rnidan turdi.

– Bemalol yozilib o'tiravering, men hozir... – dedi-da, ayvonga chiqdi. Zum o'tmay o'sha tomondan telefonni g'irillatib raqam terayotgani eshitildi.

Xonaga gunafsharang baxmal muqovali albom ko'tarib Dilnoza kirdi. Niholdek nozik. Qosh-ko'zlari Shahnozaga o'xshab ketadi.

– Rustam aka, – dedi sirli qilib. – Bitta narsa ko'rsataymi?

Yonimdagi stulga o'tirdi-da, albomni ochdi.

– Mana! – dedi ko'zlarida bolalarcha tabassum yonib. – Qarang!

Bu o'zimning Afg'onistondan yuborgan suratim edi. Egnimda bushlat, boshimda shlemofon, yelkamda avtomat...

– Dilnoz!.. – Ostonada paydo bo'lgan Shahnoza albomga ko'zi tushdi-yu, yugurib keldi. Albomga qo'l cho'zgan edi, Dilnoza chaqqonlik qilib, shappa yopdi.


– Yig'lagansiz! – dedi kattakon sirni ochayotgandek boshini sarak-sarak qilib. – O'zim ko'rganman, Rustam akamning suratini tomosha qilib, har kuni yig'lagansiz!

Shahnoza duv qizarib ketdi.

– Xoin! – dedi mushti bilan yasama dag'dag'a qilib.

– Yig'lagansiz! Yig'lagansiz! – Dilnoza kula-kula ayvonga qochib chiqdi.

O'sha tomondan qaynotamning ovozi keldi:



– Barnoshka! Men – Rasulevman. Dmitriy Stepanovichni ulagin... Stepanich! Salom! Anavi masala bo'yicha indinga borsa bo'ladimi? Ha, Shomatov Rustam... Kelishdik, soat uchga!

Birpasdan keyin qaytib kirdi.

– Rustamjon! – dedi tushuntirib. – Indin soat uchga ijroqo'mga borasiz. Ikkinchi qavat, zampred qabulxonasi...

– Vasilev degani o'sha odam bo'lsa, – deb boshlagan edim, qaynotam kulib, so'zimni kesdi:

– Bemalol boravering. Yordam berishadi. Gazeta tanqididan xulosa chiqarsin-da, mundoq! Siz o'zingizning qonuniy haqqingizni talab qilyapsiz!

Sentyabrning o'ninchi kuni

Eshikni ikkilanib ochdim. Mayli, Jingalaksoch qaynotamning so'zini yerda qoldirmaslik uchun meni qabul qilishga-ku qilar. Ammo o'sha odam men ekanimni qayoqdan bilsin? Ko'radi-yu, haydab chiqaradi. Yuz yildan keyin ko'rishishga va'dalashganimiz, axir!

Qabulxonada oyog'ini chalishtirib sigaret chekib o'tirgan kotiba qizdan bo'lak hech kim yo'q edi. Qiz ismi sharifimni so'radi.

– Bir minutga! – dedi-da, sigaretni kuldonga bosib o'chirdi. Shoshilmay o'rnidan turdi. Jinsi yubkasi shunaqangi kalta ekan-ki, xayolimga bema'ni o'y keldi: tabiiy zarurat yuzasidan anavinaqa joyga borsa, yubkasini ko'tarib ham o'tirmaasa kerak. U charm qoplangan eshik ortida g'oyib bo'ldi-da, darhol qaytib chiqdi. Oppoq, lo'mbillagan sonlarini namoyish qilib, dik-dik yurib kelib, joyiga o'tirarkan, muloyim jilmaydi:

– Marhamat, o'rtoq Shomatov.

Xona unchalik katta emasdi. Ortiqcha hashamlar yo'q. Devor-da «Partiya – davrimizning aql-idroki va vijdonidir» degan shior osig'liq turibdi. Kirib borganimda Jingalaksoch xona o'rtasida turgan ekan. Osoyishta yurib kelib, ko'rishish uchun qo'l cho'zdi.

– Dmitriy Stepanovich! – dedi o'zini tanishtirib. Angrayib qoldim. Nahot tanimagan bo'lsa? Ikki hafta oldingi dahanaki «jang» nahot yodida bo'lmasa!

– Shomatov, – dedim ming'illab.

– O'tiring, o'rtoq Shomatov. – U to'rdagi stoldan g'ijimlanib ketgan tanish papkani olib keldi. Stol qirrasidagi kursiga, yonim-

ga o'tirdi. – Qani, ko'raylik-chi, nima gap o'zi? – dedi vazminlik bilan.

Qog'ozlarni shoshmasdan varaqlashini kuzatib o'tiribman-u, xayolimda nuqul bir gap aylanadi. «Mazax qilyapti! Hozir muloymim jilmayadi-da, uzr, yigitcha, yuz yildan keyin kelasiz, deydi».

– O'rtoq Shomatov! – dedi u hujjatlarni obdan tekshirib bo'lgach. – Garchand qonunni chetlab o'tishga to'g'ri kelsa-da, sizga yordam beramiz. Internatsionalist jangchilarga ko'maklashish – bizning burchimiz. Hozircha eski fondan ajratib turamiz. Keyin o'ylashib ko'ramiz...

– Nima? – dedim o'z qulog'imga ishonmay.

Dmitriy Stepanovichning moviy ko'zlarida tabassum paydo bo'ldi.

– Eski fondan, – dedi tushuntirib. – Chilonzorda bir xonali kvartira bo'shagan. Anglashimcha, siz juda ham muhtoj. Yangi uy qurilib bitishini kutolmaysiz.

Gap ohangida «Xafa bo'lmaysiz-da, birodar», degan ma'no bor edi.

– Orderni kelar chorshanba kuni Chilonzor ijroqo'midan olasiz! – U xayrlashayotib qo'limni samimiy qisdi. – Uy to'yiga taklif qilsangiz, albatta, boraman!

Garangsib eshik oldiga borganimda qo'shib qo'ydi:

– Redaksiyaga rasmiy javob xati qilamiz. Ungacha o'zingiz Ham ishim ijobiy hal bo'ldi, deb aytib qo'ysangiz, yomon bo'lmasdi.

Eshik tutqichidan ushlagancha uzoq turib qoldim. Demak, tanib turibdi. Maqolani ham o'qigan. O'sha kungi «bezoriligimni» bir og'iz yuzimga solmadi.

– Rahmat, Dmitriy Stepanovich! – dedim hayajonlanib.

– Arzimaydi. Biron problema tug'ilsa, bermalol kelavering.

Tashqari chiqib, ro'parasidagi qayrag'ochga suyanib qoldim. Uzoq turdim. Kurant soati tantanavor zang urar, yaproqlari erta sarg'aygan qayrag'och kuz shamolida ohista shovullar edi. Yuragim shodon gursullardi. Bor ekan-ku adolat! Bu dunyoda haqiqat degan narsa ham bor ekan-ku!

«Mauzer akaning oldiga boraman. Hozir! Hoziroq! Keyin Shahnozadan suyunchi olaman. Adamga telefon qilamiz! Rahmat, deymiz! Rahmat, ada, haqiqatni tiklashga yordam bergani-

ngiz uchun ming rahmat!»

O'sha kuni kechqurun

Er-xotin avtomat telefonda qo'ng'iroq qildik. Adam vazminlik bilan qutladi.

– Hali senlar ko'rganingni hech kim ko'rmaydi, bolalarim, inoq bo'linglar, senlarning baxtingni ko'rsam, bas, – dedi. Shahnoza ikkovimiz «Guliston»ga kirdik. Shahnoza jinday shampan ichdi. Yuzlari yonib ketdi. Xursandmiz!

Sentyabrning o'n uchinchi kuni

Shahnozaning yuziga yana husnbuzar toshdi. Chinnidek tiniq chehrasi g'adir-budir bo'lib ketyapti.

Sentyabrning o'n oltinchi kuni. Kechasi

G'alati tovushdan uyg'onib ketdim. Nima gapligini tushunolmay uzoq garangsib yotdim. Hushim joyiga kelganida anglab yetdim: Shahnoza teskari qarab yig'lab yotibdi. Unini chiqar-maslik uchun yostiqli tishlab olgan. O'kinch bilan, alam bilan yig'layapti. Har hiqillaganida gavdasi silkinib-silkinib ketadi... O'zimni uxlaganga solib yotaverdim. ...Yoningda jondan suygan odaming yig'lab yotsa-yu, sen aqalli bir og'iz shirin so'z bilan yupatolmasang, og'ir bo'larkan. ...O'lgim kelyapti...

Sentyabrning o'ttizinchi kuni

Ko'chib o'tdik. To'g'ri, Shahnozaning yarim jihozlari Pskentda qolib ketdi. Ammo endi bizning o'z boshpanamiz bor! Har kuni oltmish chaqirimga qatnab yurmaymiz. Dmitriy Stepanovich «eski fond» deganda vayronaga aylangan uyni tasavvur qilgan edim. Yo'q, bir xonali bo'lsa ham yaxshi ta'mirlangan, qutidek-kina uy ekan... Kechqurun uyimiz mehmonga to'ldi. Oyim, akam, kelinoyim, bu yoqdan qaynotam bilan qaynonam, Dilnoza... Shahnoza o'z qo'li bilan osh damladi. Oyim «Tup qo'yib, palak yozinglar, o'zlaringdan ko'payinglar», deb oq fotiha berdi. Uch erkak ikkita aroqni bo'shatdik. Xullas, hamma yoq bayram! Eng muhimi, eng... eng muhimi – dotsent aytganidek, muhit o'zgardi. Shoyad endi...

Oktyabrning boshlari

Qarasam, bufet tokchasida qo'g'irchoq turibdi. Qo'p-qora sochi ikkita qilib o'rtilgan. Atlas ko'ylak, atlas lozim kiygizib qo'-

yilgan... Ko'zlari munchoqdek. «Qayoqdan keldi», desam, Shahnoza qo'g'irchoqni olib, bag'riga bosdi.

– Chiroylimi? – dedi jilmayib.

Qo'g'irchoq sochini silarkan, ko'zining tub-tubida yashirinib yotgan mung yuzaga qalqib chiqqandek bo'ldi. Qiz bola nimaga esini tanimasdan turib qo'g'irchoq o'ynaydi? Nima uchun «bolasini»ning sochini taraydi. Yuvintiradi, allalab uxlatadi? Shaxnoza hamon qo'g'irchoq sochini silar, mendan ko'z uzmas edi. Indamay ko'chaga yo'l oldim. Chars chekkim kelyapti!

Ertasi kuni

Bu gal dotsent ancha xomush muomala qildi.

– Bilasizmi, uka, nuqul shuni o'ylab, yaxshi qilmayapsiz. Aytdim-ku, xayolingizda faqat bir narsa aylanaversa, tormozlanish kuchayib ketadi.

Qonim qaynab ketdi.

– Nima qilay bo'lmasa! – dedim baqirib. – O'ylamagin deb kallamni uzib tashlaymi?

Dotsent yelkamga kaftini bosib, ko'zimga hamdardlik bilan uzoq tikildi. – Axir xotinim

tirik odam-ku, – dedim titrab. – Qo'g'irchoq emas-ku, do'xtir! Ikki oy bo'ldi!

Dotsent bir lahza o'ylanib qoldi.

– Tushingiz buzilib, eakulyatsiya bo'lib turadimi? Daf'atan gapini tushunmadim. Keyin borib yetdi kallamga.

– Nimaydi? – dedim g'ashim kelib.

– Bir gap aytsam, ko'nglingizga kelmaydimi? – dedi hardam-xayol alpozda.

– Aytavering! Menda ko'ngil qoptimi?

Dotsent ro'paramga o'tirdi.

– Avval ham gapirmoqchi bo'lgandim-u, tilim bormagan-di. – Uzoq jim qoldi-da, ikkilanibroq davom etdi:– O'zbekka o'zbek sifatida bu gapni aytishim noqulay. Vrach sifatida gapirishga ham haqqim yo'q. – Tag'in, birpas chaynalib turdi-da, qat'iy qarorga keldi, shekilli, ishonch bilan dedi: – Agar mayl sezsangiz, boshqa ayol bilan bo'lib ko'rasiz! Yo'q, kelin bilan ajrashing, demayman. Shunchaki, ko'nglingiz tusagan biron ayol bilan... Ko'p emas, bir-ikki marta. Hayotda bunday holatlar ko'p bo'ladi, Rustamjon. Bir ayolga munosabatda ro'y bergan tormozlanish

boshqasi bilan bo'lganda yo'qolishi, ya'ni uyg'onish jarayoni normal izga tushib ketishi mumkin. Bilasizmi... – Boshini ko'tarib, ko'zimga qaradi-yu, dami ichiga tushib ketdi.

– Men farishta emasman, do'xtir, – dedim ezilib. – Lekin Shahnozaning sadoqatiga javobim shu bo'ladimi?

Dotsent yerga qarab, xo'rsindi:

– Uzi, ukajon...

Oktyabrning o'rtalari

Domimizda Qurbonoy xola degan xotin bor. Farrosh. Koptokdek dumaloq, qachon qarasa, qo'lidan supurgi tushmaydi. Allaqayerini onamga o'xshataman. Mehribonligimi, har gapda aylanib-o'rgilishimi...

Kechqurun eshik jiringlab qoldi. Chiqsam, Qurbonoy xola turibdi.

– Akang keldi, xolang tasadduq! – dedi yelkanga qoqib. – Peshinda kelgan edi. Biznikiga kirib o'tirib tura qoling, Rustamjon bilan kelin hali-zamon kep qolishadi, desam ko'nmadi.

Shoshib turgan ekan, xat tashlab ketdi. – Qurbonoy xola konvertiga Pskent adresi yozilgan xatni uzatdi. Dadamdan.

– Uyga kiring, xola. Kelingizning ovqati tayyor bo'p qoldi, – deb harchand qistamay, rozi bo'lmadi.

– Umidaxon ikkinchi ismenda, xolagingang o'rgilsin. Nevaralarim yolg'iz. Xudo xohlasa, oyinglar kelganlarida, albatta, kiraman! – dedi-yu shosha-pisha tushib ketdi.

...Shahnoza ovqat keltirguncha divanga yonboshlab, xatni ikki marta o'qib chiqdim.

«Rustamjon, – deb yozibdi dadam. – To'ying bo'lganini o'qib, o'zimda yo'q sevindim. Mendan kelinga salom ayt. Nasib etsa, o'z yurtimga omon-eson borsam, Shahnoza qizimning qo'lidan, albatta, osh yeyman. «Sizning masalangiz bo'yicha oyoqg'im yetgan joygacha boraveraman», debsan. Kalta o'ylama, jon bolam! Fe'lingni bilaman-ku, Rustamjon! Arzimagan narsaga lo-villab ketasan. Shundoq yuvosh akangni boshiga qay kunlarni solmadi bular! Dadam tinch bo'lsin, bir azobi ikki bo'lmasin, desang, hech kimning eshigini taqillatma! Hech kimga yalinma! Turgan-bitgani yolg'on-yashiqqa, zo'ravonlikka qurilgan bu yurtda adolat degan narsaning o'zi yo'q! Ammo bu gapni aytol-maysan. G'iring desang, urib belingni sindiradi! Yoshim oltmish-

dan o'tib, ko'p narsalarga endi-endi tushunyapman, xom sut emgan banda! O'ylab qaragam, o'tgan umrim – umr emas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u, tush ko'rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko'rib. O'sha «birov» qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Uyg'onishga esa qo'rqqanman... Mana endi, uyg'onib, yon-verimga qaragam, menga o'xshaganlar ko'p ekan... Ishonasanmi, o'g'lim: ba'zan qarab turib kulgim keladi. Xo'p, men-ku, «gunohkor-man», «jinoyatchiman». Bizdaqa «yomonlar»ni «yaxshi» yo'lga soladiganlar-chi? Ular kim? Murodi nima? Razm solib qaragam, ular ham uzzukun tush ko'rib yurganga o'xshaydi. Vazifasi bitta: buyruqni bajarish... Ko'zida ma'no yo'q. Men ularni yomon ko'raman. Ammo qarab turib ba'zan shularga ham rahmim keladi. O'lganining kunidan, azbaroyi bola-chaqasini boqish uchun shu yumushni bajarib yurganga o'xshaydi, bechoralar... Xudo haqqi, aqlim yetmaydi: bu qanaqa hayot?

Avvallari lagerdagi ba'zi og'ziga kuchi yetmaganlar meni «bosmachi» desa, xafa bo'lardim. Endi parvo qilmayman. Bosmachi kim? Qaysi bosmachi qaysi yurtga bosib boribdi? O'z yurtini himoya qilgan odam bosmachi bo'ladimi? Yigirma-yigirma besh yil avval tug'ilmaganimga afsuslanaman, o'g'lim! Yigirma besh yil oldin, asr boshida tug'ilganimda edi, «bosmachilar» qatorida turib, haqiqiy bosmachilarning dodini bergan bo'lardim. Tog'-toshlarda o'lib ketsam, rozi edim. O'shanda onang bechora meni uchratmasdi. Sen ham tug'ilmasding. Afg'onistonga borib, o'zing ham azob chekmasding. O'zgalarga ham o'q otmasding! Yana bir karra aytaman: Rustamjon, jon bolam! Militsiya, tergov, prokuratura degan idoralarning eshigiga yo'lay ko'rma! G'ing deb ovozing chiqdimi, milyon xil aybni bo'yningga shilq etib iladi-da, KPZga tiqadi. Keyin, dodingni Xudoga aytasan! Bularning qo'lga tushishni dushmanimga ham ravo ko'rmayman, o'g'lim! Shunaqangi makkorki, qilayotgan hunarlarini ko'rsa, Shaytonning og'zi ochilib qoladi. Shunaqangi beshafqatki, qo'llayotgan usullarini ko'rsa, fashistning labiga uchuq toshadi! Adolat, haqiqat degan narsalarni izlab ovora bo'lma. Bunaqa gaplar qorga yozib, oftobda quritilgan. Yaxshisi, o'zingni o'yla. Onangni ehtiyot qil. Sen u yoqdasan, men – qamoqdaman...

Onang shoʻrlik ikkalamizning dardimizda adoyi tamom boʻldi-ku! Lager nachalnigi durust odam koʻrinadi. Oktyabr oyida posil-kaga ruxsat bergan. Iloji boʻlsa, jun paypoq, qoʻlqop yuboringlar. (Akannga ham yozganman bu gapni.) Bu yurtlar sovuq... Nachal-nik dekabrda svidanie beramiz, deb vaʼda qilgan. Gapida tursa, yana xabar qilaman. Onang kelib, ovora boʻlib yurmasin. Ilhom ikkaloving kelsang, bas. Mendan Shahnozaxonga salom ayt. Xu-do nasibamni qoʻshib omon-eson borsam, kelinimni peshonasi-dan oʻpib, yana bir karra oq fotiha beraman. Duoyi salom bilan, dadang. 23 sentyabr».

Oktyabrning oʻrtalari

Bugun Yovuz Ruhni koʻrdim. Gastronomda goʻshtga navbat kutib turgandim, qarasam, oldinroqda u ham turibdi. Koʻzlari olovdek yonib, menga uzoq tikildi. Salom berishimni kutdi. Koʻ-ziga tik qarab turaverdim.

– Yoshlar aynib ketdi, – dedi yonidagi kampirga hasrat qilib.
– Kattalarni izzat qilmaydi. Hasrat qilyapti-yu, ovozi oʻktam, qahrli.

Qariganda ahvoli shu boʻlsa, yoshligida qanaqa boʻlganiykin? Xayolimga kelgan gapdan ichimda kulib qoʻydim: «Qari boʻri!» Bundan chiqdi Yovuz Ruh shu atrofda turadi.

Oktyabrning yigirmanchi kuni

«Qoʻlga tushishim»ga sal qoldi. Kundaligimni «oʻz joyi»ga – balkondagi eski qaqir-ququrlar solingan shkafning eng pastki tortmasiga yashirayotganimda Shahnoza chiqib qoldi. «Nima qi-diryapsiz?» degan edi, sigaret chekishga chiqqanimni aytdim. Maʼniliroq bahona topolmasam, nima qilay? Shahnoza koʻzimga uzoq tikilib turdi-da, indamay uyga kirib ketdi. Shunaqangi sinchkovki, xohlasang, nima tush koʻrganinggacha aytib beradi...

Oktyabrning yigirma ikkinchi kuni

Roʻparadagi domda turadigan qoʻshnimiz oʻgʻlini uylantirdi. Ular bilan kirish-chiqishimiz yoʻq... Umuman, domda turish gʻa-lati... Qishloqda, boringki, shahardagi mahallalarda ham qoʻni-qoʻshni bir-birining issiq-sovugʻidan xabar olib turadi. Yon qoʻshnilar birov-biroviga bir kosa ovqat uzatadi. Erkaklar kech-qurunlari choyxonaga chiqib gurunglashishadi. Birovnikida yax-shi toʻy, yomon oʻlim boʻlsa, hamma yopirilib keladi... Domda-

gilar... Nima desam ekan... toshbaqaga o'xshaydi. Ahyon-ahyonda zinadami, eshigingiz ro'parasidami, qo'shningizga duch kelasiz. Boshini kosasi ichidan chiqarib, xo'mrayib qarab qo'yadi. Na salom bor, na alik... Birpas qarab turadi-da, o'rmalab iniga kirib ketadi...

...To'yga chiqmoqchi emasdik-ku, Qurbonoy xola koyib berdi:

– Voy, xudo urdi-ketdi, Rustamjon bolam! Ko'zdek qo'shning to'yiga chiqmaydimi odam degan? Shahnoz kelinimgayam ayt: xolam tayinladilar, degin, silkinib-silkinib xizmat qilsin! To'y degani ko'pchilik bilan bo'ladi-da, xolang qoqindiq! Xudo xohlasa, ertaga senlar ham beshik to'yi qilasan, o'g'il to'yi ko'rasan...

Xo'p, dedim. Shahnoza ertalabdan chiqib «silkinib-silkinib» xizmat qildi. Men ham nahorgi oshda lagan tashidim. Kechqurun ikki dom o'rtasiga yozilgan nikoh dasturxonini bezatishda ko'maklashdim... Qiziq, to'y degan narsaning Xudo nazar solgan g'alati fayzi bo'ladi, shekilli. O'zimning ruhimda ham ajib yengillik sezdim...

To'y kechasi ochiq deb e'lon qilinganida ro'paramizga ingichka mo'ylovli sumakdek ozg'in yigit bilan atlas ko'ylak kiygan, qorni qappayib, yuzini sezilar-sezilmas dog' bosgan ayol kelib o'tirdi. Kelin-kuyov sha'niga aytilgan birinchi tabrikdan keyin ro'paramizda o'tirgan ayol jilmaygan ko'yi menga gap otdi:

– Tanimadingiz-a, Rustam aka! – Yonidagi yigitga o'girilib, tanishtirdi. – Bu kishi – Baxtiyor akam...

Bir zum tikilib turdim-da, esladim.

– Ie, Habiba?

«Siz» deyishni ham, «sen» deyishni ham bilmay, kalovlanib qoldim.

Axir bu – Habiba-ku! O'ninchi sinfda o'qiyotganimda sakkinchida edi. Menga zamondosh shoirlarning she'rlari qo'shilgan ishqiy maktublar yozaverib, boshimni qotirib yuborgan qizaloq! Boyadan beri tanimay o'tirganimga o'zim hayron bo'ldim. Judayam o'zgarib ketibdi.

– Yaxshi yuribsizmi, Habibaxon? – dedim boshqa gap topolmay.

– Nishtyakman! – Habiba sho'x jilmayib «Baxtiyor akasi»ga

yuzlandi. – Rustam aka bilan maktabdoshmiz... Kelinoyimizni tanishtirmaysizmi, mundoq, Rustam aka!

Shahnozani tanishtirarkanman, xayolimga noxush o'ylar keldi. Nazarimda, Habiba, ko'rib qo'y, sen pisand qilmaganding, tengimni topdim, yaqinda farzandli bo'lamiz, deytogandek, Shahnozaga istehzo aralash tikilib-tikilib qarayotgandek edi... Xudoga shukr! It egasini tanimaydigan Toshkentdek shahri azimda ham yana bir hamqishlog'im topildi... Kim bilsin, qishloqdagi visir-visirlar Habibaning ham qulog'iga yetgandir. Hammasi jonga tegdi! Ichgim kelyapti!

...Bazm ayni qiziganda to'rtinchi qavat derazasi ochilib maykachan bo'lib olgan ayiqbashara barzangi «o'chir darang-durungingni» deb hokimona buyruq berganda vujudimga titroq kirdi. Qarasam, to'yxonadagi uch yuzga yaqin odam dami ichiga tushib, mung'ayib turibdi. Kuyov bilan kelin sarosimada, mashshoklar sozini g'ilofiga soladigan... Bu qandoq gap! To'y qilish gunohmi? Kimdan qo'rqasan? Nimaga qo'rqasan, qo'yga o'xshagan ovsarlar! Umrin bino bo'lib, qo'limni ko'targan bola emasdim. Ataylab «Lazgi»ga o'ynadim. Devor tagidagi stolda qiy-chuv ko'tarilganini, besh-olti xotin-xalaj orasida Shahnoza ham sapchib o'rnidan turib ketganini, jiqqa ho'l bo'lib, badaniga yopishib qolgan ko'ylagining yoqasini g'ijimlayotganini ko'rib, tepaga qaradim. Barzangi derazani lang ochgancha qo'lida yashil plastmassa paqir ushlab turibdi.

...To'rtinchi qavatga qanday chiqqanim esimda yo'q. Xudo haqqi, men unga qo'l ko'tarmoqchi emasdim. Qo'lidagi vino shishasini boshim ustida ko'targanidan keyin... u yog'i nima bo'lgani yodimda yo'q. Shahnozaning «O'ldirib qo'yasiz!» degan chinqirig'idan o'zimga keldim... Kim nima dedi, nima qildi, bunisiniyam eslolmayman. Faqat go'rdan chiqqandek gulduragan sado qulog'imga aniq-ravshan kirdi:

– G'irt millatchi ekansan, bola! Umring turmada chirib ketadi!

...Bu – Yovuz Ruhning ovozi edi.

Oktyabrning yigirma uchinchi kuni

Farhod bozoridan mayda-chuyda xarid qilib kelayotsam, domning pastida Qurbonoy xola o'ris kampir Klava xola bilan g'aplashib turibdi. Salom berdim. Ruschalab.

– San, o‘g‘lim, xapa bo‘ma! – dedi Klava xola sof toshkentcha shevada. – Ichvoganidan keyin ko‘ngliga kegan qilg‘iliqni qilgan-de, anu cho‘chqa! Esi bo‘sa, mundoq pastga tushmiydimi, o‘tirmiydimi, odamga o‘xshab... Kechagi voqea yodimga tushdi.

– Qo‘yavering, xola, – dedim kulib. – Shunchaki gap-da! Esimdan ham chiqib ketdi...

– Kelinni obkir manikigayam, – Klava xola sidqidildan tayinladi.– Mundoq kirish-chiqish qiliylik, bolam, ko‘zday qo‘shnimiz...

– Rahmat, xola, – dedim mehrim iyib. – O‘zingiz chiqing biznikiga!

– Nasib etsa, chiqaman, bolam... – Klava xola Qurbonoy xolaga yuzlanib tag‘in o‘z dardlaridan hasratlasha ketdi.

O‘sha kuni kechqurun

Uyimizga Yovuz Ruh keldi. Yurakni siqadigan oqshom edi. Peshindan keyin osmonni mag‘zavadek kir bulutlar qopladi. Quyosh botganmi-yo‘qmi, bilib bo‘lmaydi. Diltang qorong‘ilik cho‘kdi. Tashqarida kuz shamoli ingraydi. Deraza ro‘parasidagi baqateraklar shoxi ayqash-uyqash bo‘lib, bandidan uzilgan xazonlar ko‘rshapalakdek jonsarak parvoz qiladi.

Shahnoza tushdan keyin «ayamlardan xabar olib kelay», deb uyga ketgancha hamon daragi yo‘q, ko‘nglim alag‘da edi. Eshik jiringladi. Yo‘q, bu Shahnoza emas. Shahnozada kalit bor, ochib kiraveradi. Hayron bo‘lib, eshikni ochsam, ostonada Yovuz Ruh turibdi. Boshida qora shlyapa. Egnida uzun, qora plash. Ko‘zlari yonib turibdi.

– Ikki og‘iz gap bor! – dedi-da, ruxsat so‘rab o‘tirmay, ichkari kirdi.

Beixtiyor ortga chekinib, yo‘l bo‘shatdim.

Yovuz Ruh yo‘lakka kirib atrofni sinchkov kuzata boshladi. Xuddi bu xonadonda allaqanday shubhali shaxslar yashirinib yotgandek... O‘zimga nash‘a qildi. «Nega kirgizdim uyimga!»

– Xizmat? – dedim g‘ashim kelganini yashirmay.

– Gap bor! – U shlyapasini yechayotgan edi, bilagidan tutdim.

– Yechinishingiz shartmas.

– Chiroqni yoq! – dedi u g‘uddirab. Asabiylashdim.

– Qorong‘idan qo‘rqasizmi?

– Men hech nimadan qo‘rqmayman. Yoq chirog‘ingni! Uning

zahil yuzi nimqorong'ida yana ham oqarib ketgandek bo'ldi.

Nega buyruq qiladi bu menga? Nega sensiraydi? Men uning o'g'li bo'lmasam, nevarasi bo'lmasam! Xayolingga g'alati savol keldi. «Qiziq, shuning ham bolalari bormikin?»

– Menga qarang! – dedim tahdidiga tahdid bilan. – Gapingiz bo'lsa, ayting-da, chiqib keting.

Bu arvozni Shahnoza ko'rishini xohlamasdim.

– Xex! – Yovuz Ruh kaltakesaqdek tomoq qoqdi. – Kechagi qilig'ing bilan bir emas, to'rtta statya sotib olganingni bilasanmi?

– U ipdek barmoqlarini b.rib, sanay ketdi. – Birovning uyiga bostirib kirding – bir! Urrib, mayib qilding – ikki! Millatchilik qilding – uch... Ispolkomdagi majlisda ham millatchilikka oid gaplar aytgan eding...

Bir qo'lim bilan eshikni ochib, ikkinchisi bilan yelkasidan tutdim.

– Chiqing! – Yovuz Ruhning boshi soat kapgiridek likillab ketdi. – Jo'nang! – dedim tahdid bilan. Tag'in bir daqiqa, atigi bir daqiqa o'tsa, o'zimni idrok etolmay qolishimni sezib turardim.

– Ko'ramiz! – U zina maydonchasiga chiqdi-da, qorong'ida ko'zlari yonib, gumburladi. – Otangni yoniga badarg'a qilmasam... Unsur!

Oktyabrning yigirma beshinchi kuni

Kunduz kunlari metroda odam siyrak bo'ladi. Darsdan qaytayotgandik. Shahnoza o'rtaroqdagi o'rindiqlarda o'tirar, men yonida tik turgan edim. Metromi, avtobusmi, bo'sh joy bo'lsa ham o'tirmaslikka odatlanganman. «Yoshlik» bekatida besh-o'n odam chiqdi. Ichib olgan, shekilli, barkashdek basharasi qizarib ketgan yigit iljayib kelib, Shahnozaning yoniga o'tirdi. Surbetlarcha qarab-qarab qo'ydi-da, gapga soldi:

– Soatingiz nechchi bo'ldi, yaxshi qiz?

Shahnoza ensasi qotib yuzini o'girgan edi, yigit shappa bilagidan ushladi.

– Ayta qoling, jonidan!

Yoqasidan olib bir siltagandim, yaponcha kurtkasining zanjiri tirillab uzildi.

– Qo'yvor! – dedi tipirchilab.

Keyin nima bo'lgani esimda yo'q. Shunisi yodimdaki, navbatdagi bekatda poezd to'xtashi bilan itqitib yubordim. U vagon-

ga yopirilib kirayotgan odamlarga turtingancha gandraklab bo-
rib, marmar skameykaga urildi, o'nbaloq oshib ketdi... Tashqari
chiqsak, yomg'ir shivalayotgan ekan... Sovuq va zeriktiruvchi
kuz yomg'irining debochasi. O'zimni qo'lga olishga. harchand
urinmay, hamon titrog'im bosilmas, g'azabdan tishlarim g'ijirla-
yotganini sezib turardim.

– Yomg'irpo'sh olmagan ekansan-da, – dedim o'zimniyam,
Shahnoza ham yupatish uchun.

Shahnoza yuzini o'girdi. Rangi o'chib ketgan, lablari pirpirab
turardi.

Uygacha gaplashmay ketdik. Eshikdan kirishimiz bilan
Shahnoza tuflisini yechib uloqtirdi.

– Qanaqa odamsiz? – dedi to'satdan. – Qanaqa odamsiz o'zi?
Bugun bittasini urasiz! Ertaga boshqasini bo'g'asiz! Kuniga bir
karra yuragimni yormasangiz, ko'nglingiz joyiga tushmaydi! – U
yig'lab yubordi. – Basharangizga qarang! Banditning o'zisiz!

Miyam zirqirab ketdi.

– Ha! – dedim baqirib. – Banditman! Kallakesarman! Chida-
sang – shu!

Shahnoza yuzimga yarq etib qaradi.

– Mushtlashishdan boshqa narsaniyam bilasizmi? – dedi ko'z-
lari g'azabdan yonib.

Yuragimda bir nima uzilib ketgandek bo'ldi.

– Balki, bilagingdan ushlagani xush yoqqandir? – dedim o'ki-
rib.

– Ha! – Shahnoza alam bilan yer tepindi. – Yoqdi! Bildingiz-
mi, yoqdi! – dedi chinqirib. O'zining gapidan o'zi qo'rqib ket-
gandek, birdan jimib qoldi. Kafti bilan og'zini to'sib, yuzimga
termilib turdi-da, ho'ngrab yubordi.

– Rustam aka! – dedi bo'ynimga osilib. – Kechiring, jon
Rustam aka... – So'nggi so'zlarini yig'idan bo'g'ilib, pichirlab
aytdi. – Qiynalib ketdim. Qiynalib ketdi-im!

O'sha kecha

Toshoyna tokchasida tunchiroq miltirab turibdi. Goh o'chadi,
goh yonadi... Shahnoza allaqaysi «Sovg'alar magazini»dan topib
kelgan tunchiroq... Jimjiloqning uchidek keladigan, shamga o'x-
shagan mitgi chiroqcha goh yonadi, goh o'chadi. Muttasil qizil
nur taratadi... Qizil nur!

Bilaman, Shahnoza uyg' oq... Shunchaki, o'zini uxlaganga so-
lib yotibdi... Hali to'g'ri aytdi: mushtlashishdan boshqa nima-
yam kelardi qo'limdan! Rost aytdi. Tag'inam insofli ekan. Bosh-
qa qiz bo'lsa...

– Shahnoz, – dedim bosqlik bilan. – Seniyam qiynab yubor-
dim. Rahmat, shuncha chidading...

U javob bermadi. Ammo bir lahza nafas olishdan to'xtagan-
dek bo'ldi.

Qarorimni iloji boricha osoyishta tushuntirishim kerak: sekin,
janjal-suronsiz...

– Bunday qilamiz, Shahnoz, – dedim osoyishta va qat'iy
ohangda. – Men ketaman. Ertaga...

Shahnoza qaddini rostladi. Yalang'och tizzalarini quchoqla-
gancha yuzimga ham taajjub, ham xavotir bilan tikildi.–
Qo'limda yaxshimi-yomonmi, hunarim bor. Shopir hamma
yerda kerak, – dedim ko'ziga qaramay. – Qo'rqma! Uzoqqa keta-
man. Seni bezovta qilmayman...

Shahnoza yuzimga yana birpas termulib turdi-da, to'satdan
ustimga o'zini otdi.

– Rustam aka! – dedi ingrab. O'pkasini tutolmay entikib-enti-
kib yig'lab yubordi. – O'lib qolaman, Rustam aka! Sizsiz o'lib
qolaman! – Yuz-ko'zimdan o'pa boshladi. Yelkamga, bo'ynim-
ga qaynoq ko'z yoshlari tomar, nuqul bitta gapni takrorlar edi: –
O'lib qolaman! O'lib qolaman! – Butun vujudi qaltirab nola qil-
di: – Kerakmas! Kerakmas menga «o'sha narsa», Rustam aka!
Menga... o'zingiz keraksiz! Eshityapsizmi, o'zingiz.

...Shu kecha... shu kecha Shahnoza menga... «yordam berish-
ga» urindi... Sho'rlik Shahnoz!

KERAKLI DALIL KERAKLI PAYTDA AYTIлади

Komissar karaxt bo'lib uyg'ondi. Uyg'ondi emas, uxladimi-
yo'qmi, o'zi bilmasdi. Tuni bilan aloq-chaloq tushlar ko'rib chiq-
di. Fenobarbital ichganidan keyin qulog'i shang'illab, ko'z o'n-
gida qumdek mayda, yaltiroq zarrachalar ko'rina boshladi. Boshi
g'uvullab, endi ko'zi ilingan edi, qarasa, yonida Nazira yotibdi.
Sekin qo'lidan ushladi. «Qo'yvor! – dedi Nazira sansirab. –
Qo'yvor, benomus!» Ie, Nazira emas, Fotima-ku! «Qo'yvor!» –

dedi Fotima g'azabdan afti qiyshayib... Komissar yuragi gursullab uyg'ondi. Anchagacha qorong'i shiftga qarab yotdi. Bora-bora tag'in boshi guvullay boshladi. Shunda... devor orasidan qandaydir sharpa sirg'alib chiqdi. Bir qarasa, Husanxo'jaga o'xshaydi, bir qarasa, To'laganga. Nuqul irshayib, unsiz kuladi... Bo'l-madi... Komissar o'rnidan turib, validol shimdi. Birpas ikkilanib turdi-da, vannaxonaga kirib, iliq dush oldi. Adyolga o'ranib yotgan joyida «Spidola» qulog'ini buradi. Allanechuk huzurbaxsh kuy vujudini yoqimli siypalab o'tdi. Anchagacha eshitib yotdi. Oxiri kuy tugab, diktor bir nimalarni gapira boshladi. Komissar «Islomobod» degan so'zni tushundi, xolos. Bundan chiqdi, Pokiston ekan... Mels yodiga tushib, darrov radio qulog'ini boshqa to'lqinga oldi. «Amerika ovozi» SSSRda bo'layotgan demokratik jarayonlarni gapirar edi. Nihoyat, derazada tong bo'zara boshladi. U shoshilmasdan kiyindi. Plashini, shlyapasini... Sut bidonini olib, pastga tushdi. Qish hali tugamagan, ammo ko'klam nafasi sezilib turardi. Qorlar erib bitgan, baqateraklar shoxida bo'rtishga moyil kurtaklar ko'z ochsammi-yo'qmi, deb ikkilanib turgandek, shabadada ohista silkinardi. Orqa tomondan kimdir hansirab nafas olgani eshitildi. Egniga «olimpiyka», boshiga chang'ichilar telpagini kiygan ikki kishi yugurib o'tib ketdi. Otabola Olloberganovlar!

«Yugura-yugur! – deb o'yladi Komissar ensasi qotib. – Umringni uzaytirmoqchimisan? Xex! Ko'chani kesib o'tayotganingda paq etib mashina urib ketsa, tamom! Qarabsanki, eshiging oldida qo'shaloq tobut turibdi! Ikki qavatli uchastkang xotiningga qoladi». Darvoqe, ikki qavatli koshonani qanday qurdiykin, bu? Xo'p, professorsan. Xo'p, ana, oyliging sakkiz yuzdir. Sakkiz yuz so'm maosh bilan yuz ellik minglik qasr solib bo'ladimi? Poraxo'r! Hammasi poraxo'r! Tag'in bular yoshlarga adolatdan va'z o'qiydi. Mauzerni yo'ldan urganlar ham shunaqa domlalar! Yoshsan, professor, yoshsan! Aqalli o'n besh yosh kattaroq bo'lganingdami! Elliginchi yillarda bir marta so'roq bersang, sich-qonning inini ming tangaga sotib olgan bo'larding. O'n yil oldin ro'y bergan hangoma Komissarning yodiga tushdi. G'irt komediya! Yo'q, o'n yilmas, avvalroq bo'lgan ekan. Unda Nazira tirik edi.

Markazdagi uyda qo'shni turadigan Sovmin xodimi iltimos

qildi:

– Ertalab osh bor, Soat G‘anievich. Dorilfununda ishlaydigan domlam nevara to‘yi qilyapti.

Komissar xushlamayroq turganini ko‘rib tushuntirdi:

– Bilaman, siz oshga borishni yoqtirmaysiz. Shunaqa-ku, odamlarga qo‘shilsangiz, yomon bo‘lmaydi.

Taxminan shunday fasl edi. Fevralning oxirlari. Qorlar erib, qish chekina boshlagan, ammo hali ko‘klam kelmagan...

Qo‘shni xizmat mashinasini chaqirib qo‘ygan ekan, tong otmasdan yo‘lga tushdilar.

– Domla Saidiyni olib ketsak, – dedi qo‘shni. – Shundoq, yo‘l ustida.

Qo‘shnining aytishiga qaraganda, domla Saidiy degani – shoir ekan. To‘y qilayotgan olim bilan eski qadrdon emish.

Komissar menga baribir, degandek qo‘l siltadi. Nima farqi bor: shoirmi, yozuvchimi? U shoir-poirlarni tanimas, adabiy kitob o‘qishga toqati yo‘q edi.

Mashina tor ko‘chaga kirdi. Allaqanday darvoza oldida to‘xtadilar. Sovmin xodimi qo‘ng‘iroqni bosdi. Ichkaridan hadeganda ovoz kelavermagach, darvozani taqillata boshladi. Komissar toqati toq bo‘lib, mashinadan tushdi. Uyg‘otishning oddiy usulini ham bilmaydi, bu galvars! Derazani mushtlash kerak! Mana bunday! Ha, barakalla! Darrov chiroq yondi.

Darvoza ortida sho‘ltillagan qadam tovushi eshitildi.

– Kim? – dedi erkak kishi xavotirlanib. Komissar ko‘nglida g‘urur hissini tuydi. Senga hisob berib o‘tirish qoluvdi endi!

– Oching! – dedi dag‘dag‘a aralash.

Kalit shiqirladi. Darvoza ostonasida yelkasiga to‘n tashlagat, oppoq sochli boshiga yap-yangi do‘ppi kiygan ixcham gavdali odam paydo bo‘ldi. To‘satdan bir qalqidi-yu, chalqanchasiga yerga quladi. Do‘ppisi bir tomonga, kalishi ikkinchi tomonga uchib, oyog‘i tarvaqaylab qoldi.

– Domla! – Sovmin xodimining kapalagi uchib, shoirning boshiga egildi. – Sizga nima bo‘ldi, domla? Ko‘zingizni oching!

Bunaqa paytda gardanini ishqalash kerak. Shunday qilishdi. Shoir ko‘zini ochdi.

– Nima ga-ap? – dedi inqillab. – Tinchlikmi?

– Tinchlik, domlajon, sizni oshga aytib keldik. – Sovmin xo-

dimi mehribonlik bilan shoirni qo'ltig'idan ko'tardi. Shoirning shimi ho'l, tizzalari loy edi.

Hovli bir zumda yugur-yugur bo'lib ketdi. Erkag-u ayol, bola-chaqa aralash-quralash yopirilib keldi. O'g'il-kelinlari, nevarachevaralari shoirni avaylab uyga yetaklashdi.

– Dadajon, nima bo'ldi?

– Bobojon, nima qildi?

Jo'jaga o'xshamay o'l hammang! Nima bo'lardi? Otang qo'rqqanidan siyib yubordi. Tamom – vassalom! Sovmin xodimi ham ichkari kirib ketgancha zim-ziyo bo'ldi. Ancha kutishdi. Komissar mashinada o'tiraverib, zerikib ketdi. Nima zaril edi, shu la'nati oshga borib? Nahorlab mechkay qoringa osh yeyishdan boshqasini bilmaydi bular!

Nihoyat, Sovmin xodimi domla Saidiyni suyagudek bo'lib olib chiqdi.

– Oldinga o'tira qoling, domlajon! – dedi mehribonlik bilan.

Komissar orqa o'rindiqqa o'tayotganda qo'shnisi o'ziga naf-rat bilan qarab qo'yganini sezdi... To'yxonaga yetguncha bir og'iz gaplashmadilar. Shoir ortiga burilib qaramas, o'qtin-o'qtin xo'rsinib qo'yar edi.

Osh tugamagan ekan. Dasturxonda turp bo'laklari, guruch qoldiqlari sochilib yotgan issiq uyga olib kirishdi. Buni qarangki, Sovmin xodimi bilan shopirga bir lagan, shoir bilan Komissarga bir lagan osh keldi. Shoir oshga qo'l ham urmadi. Yemasang, zaharingga! Komissar ta'bi tortgancha yedi.

– Oshdan olmadingiz-ku, domla! – dedi choy ho'plab. Bir nuqtaga tikilib o'tirgan shoir seskanib o'ziga keldi. Ko'zi chaqchaydi. Past ovozda dona-dona qilib ta'kidladi:

– Sen bilan osh yeymanmi? Sen bilan-a?

Xonada o'tirgan o'n chog'li odam yarq etib shu tomonga qaradi...

Qaytishda mashinaga yana o'sha tartibda joylashdilar: oldinda shoir, orqada Sovmin xodimi bilan Komissar. Hech kimdan sado chiqmadi. Sovmin xodimi shoirni darvozagacha suyab olib bordi. Komissar uning oxirgi gapini eshitdi:

– Meni kechiring, domla... Bilmabman... Bilsam... – Komissarning xayolidan istehzoli o'y kechdi. «Xex! Bilganda nima qilarding?»

Sovmin xodimi qaytib kelib, oldingi o'rindiqlarga o'tirdi.

– Ishxonaga! – dedi qat'iy ohangda.

Komissar miyig'ida kulib qo'ydi. «Demak, meni duch kelgan metro bekatiga tashlab ketasan! Gapir, Sovmin! Nega indamaysan? – dedi xayolan xitob qilib. – Xex! Albatta, indamaysan-da! Yaxshilab titkilab ko'rilsa, o'zingning biografiyangdan ham xohlaganCHA illat topiladi!»

Sut do'konida ochered ko'p ekan. Uzoq turib qoldi. Qaytayotganida kun yorishib ketgan edi. Egniga paxtalik kiygan Qurbonoy yo'lka supuryapti. Do'konga non tushyapti... Ota-bola Olloberganovlar tag'in yugurgilab yonidan o'tib ketishdi. Qani, chopaver-chi, qayoqqa borarkansan. Erta-indin o'g'lingga peredacha tashiysan. Toshturmaga. O'g'ling anavi Shomatovning o'ligi ustida aytgan gap esingdan chiqdimi? Tergov praktikasining o'z qonunlari bor. Eng zalvarli dalil eng oxirida aytiladi. O'nnglanmas zarba berish uchun... Anavi so'tak tergovchiga aytib qo'yish kerak. Shomatovni mana shuning o'g'li o'ldirgan!

HAMKASBLAR SUHBATIDAN

– Xo'sh, kollega, kelin nima deydi?

– Shomatova kasal edi. Stenokardiya bo'lib, shifoxonada bir yarim oy yotdi. Chiqqaniga uch kun bo'ldi.

– Shuning o'zi eng katta argument! So'roq beruvchi o'zini kasalga soldimi, demak, aybi – bo'ynida.

– Sizga qolsa, hamma jinoyatchi!

– Senga qolsa, hamma oppoq! Yaxshisi, bu tohani tashlaginda, bog'chaga borib, qo'g'irchoq o'yna!

– Tashlasam, tashlayveraman, o'rtoq Komissar!

– Qochmoqchiman, degin? Ovora bo'lasan! Davlat seni shuncha yil bekorga o'qitdimi?

– O'rtoq Komissar! Rostini aytsam, jonga tegdingiz...

– Xex! Avval mana bu ishni oxiriga yetkazgin-da, keyin katta ko'cha! U quloq, bu qulog'ing bilan eshitib qo'y! Senga oxirgi fakti aytyapman. O'lib yotgan Shomatovning boshida to'planganlar orasida bittasi bor edi. Bilasanmi, nima dedi? «Shunaqa bo'lishini bilardim», deb aytdi. O'z og'zi bilan!

– Aspirant Olloberganovni aytmoqchimisiz? Ro'yxatimizda

turibdi.

- Operativ ishlashni bilar ekansanlar-ku! Xex! Bu yog'ini eshit! Bayram kuni, ya'nikim Shomatov o'ldirilishidan bir kun oldin kechki payt gastronomda konfet sotishdi. Ocheredda turgan edim. Ko'chada shovqin-suron bo'lib qoldi. Chiqsam, yo'l chetida qora «Volga» turibdi. Anavi oyimcha bo'lsa, ikkitasining itdek irillashini tomosha qilib turibdi. Shomatov «Volga» shopiri bilan yoqa bo'g'ishyapti.

- Kim ekan o'sha shopir?

- Shopir emas, «Volga»ning egasi! Olloberganov Sanjar! Professor Olloberganovning o'g'li! O'lik tepasiga birinchi bo'lib yugurgilab kelganlar ham shular edi. Shomatovning qotili o'sha yigit bo'ladi!

- Aybi isbotlanmaguncha hech kimni qotil deyolmayman, Komissar!

- Bilganingni qil! Ustingdan generalga raport yozaman! Sendaqa landovurlarni haydash kerak organdan!

- Iltimos, chiqing bu yerdan.

TERGOV HUJJATIDAN

Olloberganov Sanjar. Yigirma olti yoshda. Oliygoah aspiranti. Millati – o'zbek. Ota-onasi bilan Baxt ko'chasidagi xususiy uyda istiqomat qiladi. Uylanmagan. Avval sudlanmagan. Komsomol a'zosi.

- Shomatovni tanirmidingiz?

- Qaysi Shomatov?

- Shomatov Kustam. Siz aspirant bo'lgan oliygoahda o'qigan. Birinchi kursni bitirib, harbiy xizmatga ketgan. Afg'onistonda bo'lgan.

- E, bo'ldi, anavi yigitmi?

- Qaysi ma'noda «anavi yigit?»

- Bayramning ertasi kuni halok bo'lgan...

- Xuddi o'sha! Tanirmidingiz?

- Umuman, tanirdim. O'qish boshlanmasidan oldin uy olishim kerak, ma'lumotnoma bering, deb bordi. Yozib berdim.

- Nega ma'lumotnomani sizdan so'raydi?

- Menga jamoatchilik vazifasi sifatida kulliyot mestkomligini

yuklab qo'yishgan.

– Tushunarli. Shomatov bilan oralaringda gap qochmaganmidi?

– Mening Shomatovga nima xusumatim bo'lishi mumkin?

– Shomatova Shahnozani taniysizmi?

– Nima desam ekan...

– Borini aytavering.

– Umuman... taniyman. Qo'shni bo'lgandan keyin...

– O'shanda Shomatovlar oilasi Chilonzorga ko'chib kelganiga ikki oy ham bo'lmagan edi.

– Birovning xotini bilan tanishib olish uchun anchayin qisqa muddat emasmi bu?

– Nega endi? Shahnoza o'zimizda o'qiydi... Taniyman-da!

– Qancha odam o'qiydi o'sha dargohda?

– Fakultetdami? Aniq bilmayman-ku... besh yuzdan ortiq.

– Besh yuzdan ortiq talaba orasida nega aynan Shahnozani taniysiz?

– Qulog'im sizda.

– Gap shundaki, Shahnoza – Dilyaning dugonasi. Ikkalasi kursdosh.

– Kim u Dilya?

– Dilfuza... Iltimos qilaman, o'rtoq tergovchi, bu ishga Dilyani aralash-tirmang! Yaqinda to'yimiz bo'lishi kerak. Va'da bera-sizmi?

– O'ylab ko'ramiz... Shomatova siz aytayotgan Dilya bilan dugona ekanini kim isbotlaydi?

– Marhamat, Shahnozaning o'zidan so'rang! Dilfuza Shahnozaning ZAGSiga borgan, to'yida qatnashgan. Ikkalasi sirdosh o'rtoq...

– Yaxshi, grajdanin Olloberganov! Faqat... Ba'zi detallarga aniqlik kiritishga to'g'ri keladi. Shomatov halok bo'lgan kuni, ertalab siz o'sha atrofda yugurib yurganingizni ko'rgan odamlar bor.

– To'g'ri! Har kuni o'sha yerda yuguraman!

– O'sha kuni aynan Shomatovning pod'ezdi ro'parasida nima qilayotgan edingiz?

– Menmi?

– Siz!

- Esimda yo‘q.
- Eslab ko‘ring! Baqaterak panasida turgan odam siz edingiz.
- E-ha, bo‘ldi! Noqulay bo‘lsa ham aytaveraymi?
- Bemalol!
- Qistab qoldi. Tuman edi... Daraxt panasiga o‘tib...
- Nima uchun Shomatovning o‘ligi tepasiga kelib, «Shunaqa bo‘lishini bilardim!» dedingiz?
- Kim? Menmi?
- Siz!
- Gapiring!
- O‘rtoq tergovchi! Bordi-yu, men Shomatovning joniga qasd qilgan bo‘lsam, shunaqa gapni aytarmidim?
- Aytgansiz-ku!
- Qaysi ahmoq birovni o‘ldiradi-da, tepasiga kelib, hammaga eshittirib, «ajab bo‘pti», deydi? Qani mantiq!
- Qaysi ahmoq xuddi shunaqa, mantiqqa sig‘maydigan mantiqdan foydalanmaydi?
- Siz meni... meni...
- Hayajonlanmang, grajdanin Olloberganov!
- Chaqiring Shahnozani! Hozir chaqiring! Men nima yomonlik qipman ularga!
- Har qalay, «shunaqa bo‘lishini bilardim», deganda nimani nazarda tutgandingiz?
- Rustanning o‘zi janjalni pulga sotib oladigan yigit edi. Yo‘q yerdan bag‘is topardi. Shu fe‘li uchun universitetdan haydalishiga oz qolgan. Birinchi kursda... Uy masalasida anavi ma‘lumotnomani olguncha ham jonimdan to‘ydirdi. Qo‘yib bersam, so‘yib tashlaydigan vajohati bor edi...
- Yettinchi noyabr, bayram kuni kechqurun soat oltilar atrofi-da qayerda edingiz?
- Nima?
- Eslab ko‘ring, grajdanin Olloberganov. Shomatov bilan nega yoqalashdingiz?
- Bo‘ldi! Esladim! Men u bilan emas, u men bilan yoqalashdi! Shahnozani qo‘lida og‘ir yuki bor ekan. Uyiga eltib qo‘yganim uchun gunohkor bo‘ldimmi?..

MUHABBATNING SAROYI KENG...

Sanjar tashqari chiqdi-yu yuziga muzdek havo urilib, nafasi qaytib ketgandek bo'ldi. Ko'klam nafasi sezilib qolgan bo'lsa ham, havoda qish zahri hamon saqlanib turar, oftob ro'yada quyosh tafti badanni ilitgandek bo'lar, ammo salqin joyda bir zum tursangiz, etingiz junjekar edi. Sanjar ko'ngli g'ash tortib uyga piyoda ketdi. Atrofdagi odamlarga parvo qilmas, mashinalar shovqini qulog'iga kirmas edi. Quruq tuhmatga qoladi, shekilli! Ha, aytdi! O'sha kuni yerto'la zinasida cho'zilib yotgan Rustamni ko'rib: «Shunaqa bo'lishini bilardim!» dedi. O'lganini qayoqdan bilibdi? Birov bilan urishgan bo'lsa, ta'zirini berib qo'yishgandir, deb o'ylagandi-da!

Qiziq, Shahnoza nimasini yoqtirgan bu bolaning! O'lgudek qo'rs bo'lsa, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otsa... Shundoq chiroyli, shundoq aqlli qiz... Muhabbatning saroyi keng, deb shuni aytsa kerak-da! O'sha kuni Dilya bilan kontsertga tushmoqchi edilar. Sanjar Farhod bozoridan gul xarid qildi. Mashinasini jildirib bozor darvozasidan chiqayotsa, Shahnoza turibdi. Qo'lida kattakon xo'jalik sumkasi... Sanjar mashinani to'xtatdi. Shahnoza ikkilanibroq orqa o'rindiqqa o'tirdi. Sumkasi Qo'polligidan xijolat chekib, oyoq ostiga qo'yayotgan edi, Sanjar mashinadan tushib, yukxonani ochdi. Sumka og'ir edi: turp, kartoshka, olma, sabzi, balo-battarlar...

Sanjarning g'ashi keldi. Guldek xotiniga sumka ko'tartirib qo'yganidan ko'ra bozor-o'charni o'zi qilsa, o'ladimi, anavi ho'kiz! Xirsdek kuchi bor. Motorga kalit solayotib ro'paradagi oynachadan Shahnozaga razm soldi. Qizning rangi siniqqan, xomush ko'rinardi.

– Bozorni xo'jayin qilmaydimi? – dedi Sanjar yarim hazil ohangida.

– Qiladilar... – Shahnoza siniq jilmaydi. – Qishloqdan oyim kelgandilar, Rustam akam kuzatgani avtostantsiyaga ketdilar... Dilya yaxshi yuribdimi?

Sanjar samimiy kuldi.

– O'rtog'ingizni ming yil ko'rmagandek gapirasiz...

– Shunaqa-ku... – Shahnoza tag'in ma'yus kulimsiradi. –

Dilyaning kayfiyati ko'p jihatdan sizga ham bog'liq-da...

– Tashvishlanmang, – dedi Sanjar. – O'rtog'ingizni kayfiyati

zo‘r. Bugun kontsertga tushamiz.

Mashinani simyog‘ochlarga bayroqchalar ilingan, uylar pesh-toqiga «Yashasin Ulug‘ Oktyabr!» degan qizil alvonlar osib qo‘yilgan ko‘chadan haydab ketdi.

– Salom ayting, – dedi Shahnoza. – Bayram bilan tabriklab qo‘ying...

Sanjar «Volga»ni g‘izillatib borarkan, esiga tushgan gapni aytdi:

– Dilya aytdi. Shu tomonlarga ko‘chib kelibsizlarmi?

– Shunaqa... – Shahnoza qayoqqa yurish kerakligini tushuntirdi.

Deyarli qo‘shni turisharkan. Katta ko‘chaning bu beti – mahalla, u beti Shahnozalarining domi...

– Qo‘shni ekanmiz-ku! – Sanjar astoydil ajablendi. – Nega hech ko‘rmayman sizni?

– Men sizni ko‘rib turaman! – dedi Shahnoza mashinadan tushayotib.

– Qayerda?

– Shu yerda! – Shahnozaning ko‘zlari boyadan beri ilk bora sho‘x porladi. – Har kuni ertalab yugurib yurasiz. Sherigingiz bilan.

– Sherigim emas, dadam, – dedi Sanjar kulib. – Rustamga ayting: xohlasa, u ham yugursin. – Yukxonani ochib, sumkani tushirdi. Orqa oyna tagida yotgan guldastadan uchta chinnigul olib Shahnozaga uzatdi.

– Bayramingiz muborak bo‘lsin. Baxtli bo‘ling...

...Xuddi shuning ustiga anavi ahmoq kelib qolsa bo‘ladimi? Poylab turgan ekanmi, nima balo... Mashinaning orqa oynasini chil-chil qildi. Sanjar olishib o‘tirish befovdaligini bilib, mashinaga o‘tirarkan, Shahnozaning rangi quv o‘chib ketganini, ko‘zida jiqqa yosh bilan erining bilagiga osilganini ko‘rdi.

Aslida Sanjarning Dilya bilan tanishishiga Rustam sabab bo‘lgan. Sabab emas-ku, bahonamikin... U paytda paxta kompaniyasi siyosiy masala hisoblanar edi. O‘shanda Sanjar beshinchi kursda o‘qir, ayni paytda kulliyot komsomol tashkilotining kotibi edi. Shtabda har kecha majlis, har kecha hisobot... Shunday kun-

lardan birida ChP ro'y berdi. Birinchi kurs talabalaridan bittasi bezorilik qilibdi. Barakka non olib borgan traktorchi hoziroq sovxoz markaziga borib, do'xtir topib kelasan, deb dag'dag'a qilibdi. Traktorchi ko'nmagan ekan, yoqasidan sudrab yerga tushiribdi-da, traktorni o'zi haydab ketibdi. Kech kirib, poliklinika yo-pilgan ekan. Yarim kechasi do'xtirning uyiga bostirib boribdi. Xotin kishini traktorga o'tqazib, barakka oboribdi. Bir qiz shamollab qolgan ekan... Eng yomoni, ertasiga butun kurs dalaga chiqishdan bosh tortibdi. Kaltakning yo'g'oni Sanjarning boshida sindi. «Komsomol vojakligini eplolmayapsiz», deyishdi. «Talabalarni erkalatib yuborgansiz», deyishdi.

Kechasi olmadek lampochka xira yoritib turgan, sichqon hidi bilan to'lgan barakda umumiy komsomol yig'ilishi bo'ldi. Birinchi kurslar eng chekkada, qamishzorga tutashib ketgan uchastkada edi (odat shu: birinchi kurslarni «Kamchatka»ga yuborishadi). To'polon tashkilotchisi – Rustam degan yigit ekan. Basketbolchilarga o'xshagan baland bo'yli, gavdali...

Sanjar yosh rahbarlarga xos vazminlik bilan paxta xalqimizning boyligi ekanini tushuntirdi. Pavel Korchaginlar bundan ham qiyin sharoitda temir yo'l qurganini eslatdi.

Keksa dekan yarim kechada xotin kishini sovukda diydiratib traktorda olib kelish yaxshi ish bo'lmaganini, sovxoz rahbariyati rektoratdan o'sha bolani o'qishdan haydashni talab qilayotganini aytdi.

– Vrach bo'lganidan keyin burchini bajarsin! – dedi Rustam pinagini buzmay.

Sanjarning jahli chiqdi.

– O'zing-chi! – dedi baqirib. – O'zing nega burchingni ado etmaysan? Nega paxta termaysan? Bolalarni yo'ldan urib, nega sabotaj qilasan?

Sanjar Rustamning uzr so'rashini kutgan edi. G'alati ish qildi, yaramas! Kat tagiga qo'l suqib, loyga belangan ikkita etak oldi. Bittasini o'zining beliga bog'ladi. Ikkinchisini Sanjarga uzatdi. – Taqing! – dedi labi istehzoli qiyshayib. – Yuring, dalaga chiqamiz. Ikkalamiz bir bo'lib, ertalabgacha yarim etak podbor tersak, betimga tuf deng! Qani o'sha paxta! Qor bosib yotibdi-ku!

...Hamma yoq qiy-chuv bo'lib ketdi. Qirqtasi baravar gapirsa, yomon bo'larkan.

Sochi qirqilgan, sovuqdan lablari yorilib ketgan, ammo nihoyatda koʻhlik ekanligi koʻrinib

turgan qiz, ayniqsa, koʻp gapirdi.

– Domla! – dedi dekanga qarab. – Boyadan beri paxtani gapirasizlar. Nima gap oʻzi, deb soʻradinglarmi! Kasal boʻlgan kim, dedinglarmi? – U toʻsatdan yigʻlab yubordi. – Kecha Shahnoza-ning oldiga borib keldik. Isitmasi qirqdan tushmayapti. Sizning ham qizingiz bordir axir!

Yosh toʻla koʻzlari bilan Sanjarga chaqchaydi.

– Korchagingiz yoʻq paxtani termagandir! Chaqirib keling, koʻrsin ahvolimizni!

Qiz qorayib ketgan qoʻlini silkita-silkita, alam bilan gapirar, Sanjar xafa boʻlmas, aksincha, qizaloqning gaplari yoqar edi unga... Bu – Dilya edi...

TERGOV HUJJATIDAN

– Shunday qilib, grajdanka Shomatova, siz yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga oʻtar kechasi eringiz bilan bir uyda boʻlganingizni tasdiqlaysiz. Shunaqami?

– Ha.

– Demak, siz sakkizinchi noyabr kuni ertalab, eringiz Shomatov Rustam uxlab yotganida sutga chiqqansiz?

– Ha.

– Navbat kutgansiz. Sut yetmagan.

– Ha.

– Aytinchchi, ertalab chiqib ketayotganingizda tashqari eshikni qulflaganmidingiz?

– Avval ham aytuvdim-ku, eshik yopilsa, oʻzi qulflanib qoladi, deb.

– Aytgansiz. Aynan oʻsha kuni eshik qulflanib qolganmidioʻqmi?

– Bilmayman, esimda yoʻq.

– Demak, siz sutga bordingiz. Navbat kutdingiz. Sut yetmadi. Qaytib keldingiz. Soat necha edi?

– Esimda yoʻq.

– Eslab koʻring.

– Bilmayman. Tong yorishgan edi. Kelsam, Rustam akamni olib ketishgan ekan.

– Mushuk-sichqon o'yinini bas qiling, Shomatova! Mana, ekspertiza xulosasi! O'zingiz o'qiysizmi yo o'qib beraymi? «O'lim hodisasi tungi soat o'n ikki bilan ikki o'rtasida ro'y bergan. Sud tibbiy tekshiruvida shu narsa aniqlandiki, yurak faoliyati...» Yig'lashning hojati yo'q! Agar siz o'sha kecha eringizning yonida bo'lganingizda, uyda chinni idishlar, deraza oynasi singanini eshitmasligingiz mumkin emas edi! Stolga yozilgan dasturxonga oqqan qonni ko'radingiz... Ertalab sutga chiqqaningiz yolg'on! O'sha kuni sut do'koniga bormagansiz! Umuman, do'konga sut olib kelinmagan! Binobarin, o'sha kecha uyda bo'lmagansiz.

– Rustam akam... Rustam akam har kuni tushimga kiradilar. Nima qilay? Nima qil-a-ay? Jonimdan to'yib ketdim!

– Yig'lashdan foyda yo'q. O'sha kecha qayerda tunadingiz?

– Uyimda! Ayamning yonida... Ertalab... ertalab... adam bilan ayam nasihat qilishdi. «Oshsiz uy bor, urishsiz uy yo'q, arzimagan narsani bahona qilib, arazlab kelishga o'rganma», deyishdi. O'zim ham kechasi bilan uxlolmay to'lg'anib chiqdim. Bir mahal...

– Yig'lamang... Marhamat... Suv iching...

– Bir mahal ko'zim ilingan ekan... Bilmayman, tushimmi, o'ngimmi...

– Yig'lamang, Shomatova...

– Daryo emish... Yo'q, daryomas, anhormish. Gagarin bog'idagi anhor. O'zimizning skameykada, o'zimizning na'matak tagida o'tirgan emishman. Qarasam, suvning u betida Rustam akam turibdilar. Kulib turibdilar. Kel, deb imlarmishlar. «Suzishni bilmayman-ku!» desam, kiyimlarini yechmay, anhorga kalla tashlabdilar... Munday qarasam... Qarasam...

– O'zingizni bosing...

– Qarasam, anhorda suv emas, suv emas... qon oqayotganmish... Rustam akam qon ichida oqib ketibdilar... Rustam akam... Qon ichida... Bilasizmi, qip-qizil qon ichida... Ishonsangiz... Uyganda qandoq yetib kelganimni bilmayman. Qarasam, uy to'la odam. Militsiyalar... Qora kiyimlilar...

– Sizga ishongim keladi, singlim... Ishongim keladi-yu... Ne-

ga bu gaplarni boshida aytmadingiz?

– Qo‘rqdim... Nima qilay, qo‘rqib ketdim!

– Balki, bu yog‘iga ochiq gaplasharmiz. Ayting-chi, bir kun oldin, ya‘ni bayram kuni er-xotin janjallashganmidinglar ?

– Ha...

– Nima masalada? Rostini ayting! Tushunaman... Eringizning jahli tez bo‘lgan. Har qalay, kontuziya ta‘siri... Lekin to‘g‘risini ayting! Bunisi juda muhim, bilyapsizmi, judayam muhim... O‘rtaga rashk aralashganmidi?

– Tushunarli... Eringiz 11-24 raqamli «Volga»ning oynasini nega sindirdi? Takror aytaman, faqat to‘g‘ri gapirishingizni talab qilaman!

– Bola-chaqangizning rohatini ko‘ring! Yolboraman! U odamni tinch qo‘ying! Gunoh menda bo‘lsa, qamay qoling! Unga tegmanglar! Yaqinda uylanadi. Sirdosh dugonamga uylanadi! Biryo‘la ikki begunohning uvoliga qolmang...

– Ayting-chi, singlim... Eringiz jahli chiqqan paytlarida normadan chekinish hollari ro‘y berarmidi? Masalan, o‘zini idrok etolmay qolish... Hushdan ketish...

– Rustam akamni tushlarimda ko‘raman. Har kuni ko‘raman... Nega ketdim? O‘sha kuni nega ketdi-i-im? Nega-a-a?

RUSTAMNING OXIRGI KUNDALIGIDAN

Yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o‘tar kechasi

Menga nima bo‘ldi? Nega hamma yoq qorong‘i? Tankda yotibman, shekilli... Demak, mina portlagan. Bolalar qani? Xayriddin! Yo‘q... Xayriddin o‘lgan-ku... E-ha... Bo‘ldi! Korizda yotibman. Ana, yonbosh tomondan nur tushyapti. Amallab siljishim kerak. Chiqib olmasam bo‘lmaydi... Bilaman, «dux» poylab turibdi. Qimirladim – otadi... Baribir chiqib ketishim kerak, qayerimdan yaralandim ekan? Avtomatim nega yo‘q?

...Asta-sekin hushimga keldim. Qarasam, uyimda ekanman. Tashqari eshik ochiq. Ostonada cho‘zilib yotibman. Gavdamning yarmisi semon maydonchada, yarmisi sholcha tashlangan kavshandozda... G‘ira ochiq qolgan ichkari eshikdan xira nur tushib turibdi. Amallab o‘rnimdan turdim. Boshim g‘uvullaydi. Bada-nim o‘t bo‘lib yonib ketyapti. Oyoqlarim tosh bog‘langandek og‘ir.

Dasturxonni yig'ishtirilmagan stol ustida stakanga solingan sham lipillab turibdi. Yarmi yonib bo'libdi. Erigan sham quyqalari stakan ichiga oqib tushibdi. Devor tagida chil-chil bo'lib yotgan choynak bo'laklarini, gilamga yopishib qolgan choy shamasini ko'rdim-u, bugun ro'y bergan voqea esimga tushdi. Vujudim bo'm-bo'sh bo'lib qoldi... Bo'm-bo'sh...

Ertalab oyim keldi. Qo'lida bir tugun uzum: bayram qilib xabar olgani kepti. O'zimdanda xafa bo'lib ketdim. Nega onamni ko'rgani men bormayman-da, u kelishi kerak? Qachon odam bo'laman! Shahnoza osh damladi. Anchagacha chaqchaqlashib o'tirdik. Dadam «Dekabrda svidanie beradi. Rustam, albatta, kelsin», deb oyimga ham xat yozgan ekan. Tushdan keyin oyim o'tlanib qoldi. «Bugun qolaqoling, ertaga qudalarangiz ham kelishmoqchi», deb er-xotin harchand qistamaylik, ko'nmadi. Bir xonali katalakda yotib qolishga iymandi, shekilli: – Jon bolam, – dedi yelkanga qoqib. – Yaxshi o'tirgan ekansizlar. Xudoga shukr, ko'nglim joyiga tushdi. Meni Pskentning avtobusiga chiqarib yuborsang, bas. Qorong'i tushmasidan yetib ola qolay.

Shahnozani qayta-qayta bag'riga bosib xayrlashdi. Pastga tushayotganimizda Shahnoza ham o'tlanib qoldi.

– G'ir etib bozorga tushib kelaman, – dedi tushuntirib. – Uyda ho'l meva bilan ko'kat qolmabdi.

«Ertalab o'zim olib kelarman», desam, ko'nmadi. Onamni kuzatib qaytsam, Shahnoza haliyam kelmabdi. Yuragim siqilib, pastga tushdim. Quyosh botgan, siyrak tuman tusha boshlagan, havo sovuq edi. Ko'nglim battar g'ash tortdi. Shuncha bozor qiladimi, odam!

Ko'cha bo'yidagi baqaterak tagiga kelib to'xtagan mashinaga avval e'tibor bermadim. Orqa eshikdan tushayotgan Shahnozaning sarg'ish plashini ko'rganimdan keyingina razm solib qaradim-u, qora mashinani tanidim: Sanjarning «Volga»si! Yuragim noxush urib ketdi. Sanjar narigi eshikdan tushdi. Bashang kiyingan, bo'ynida bo'yinbog'... Mashina orqasiga o'tib, yukxonani ochdi. Xo'jalik sumkasini yerga qo'yib, ochilib-sochilib, bir nimalar dedi. Shahnoza ham, chamasi, g'amza bilan javob qildi. Sanjar Shahnoza tushgan eshikdan mashina ichiga bosh suqdi. Shahnozaga oppoq chinnigullar uzatdi. Nazarimda Shahnoza bo'yagidan ham ochiqroq g'amza bilan kulgandek bo'ldi.

Qanday yetib borganimni bilmayman. Shahnozaning qo‘lidan gullarni yulib oldim-da, mayda-mayda qilib, Sanjarning basharasiga otdim. U rangi gezargancha, bir zum dovdirab turdi-da, «Ahmoq!» – dedi. O‘zimni idrok etolmay qoldim.

Shunisi esimdaki, Sanjar chap berib qoldi. Qo‘lim mashinaning orqa oynasiga qarsillab urildi.

Oyna chil-chil bo‘lib ketdi. Ammo to‘kilib tushmadi. Shahnoza qo‘rquvdan ko‘zlari olayib, bilagimga osildi.

– Keting! – dedi yalinib. – Iltimos, keting, Sanjar aka!

«Sanjar aka»si birpas serrayib turdi-da, rulga o‘tirdi. Mashina besh-olti qadam yurib, bir silkingan edi, orqa oynasi duv to‘kilib ketdi.

Shahnoza ikkovimiz yo‘l chetida ancha turib qoldik. Bayram bo‘lgani uchunmi, odam gavjum, ammo hech kim bizga parvo qilmas edi. Nihoyat, Shahnoza kafti bilan yuzini to‘sgancha uy tomon yugurdi. Birpas ikkilanib turdim-da, men ham uyga yo‘l oldim. Terak tagida turgan sumkaga qo‘l tegizishga hazar qildim. Nazarimda, jigarrang sumka ham, ichidagi narsalar ham haromga o‘xshar edi.

Shahnoza karavotga muk tushib yig‘lab yotgan ekan. Rosti, qilgan ishimdan o‘zim pushaymon bo‘ldim. Yoniga kelib o‘tirdim. Boshini silab yupatgim keldi-yu, g‘ururim yo‘l qo‘ymadi. Televizorni yoqsam, «Axborot» ko‘rsatayotgan ekan. Moskva-dagi harbiy paradni beryapti. Ana, BTRlar, BMPlar, tanklar, raketalar... Qulog‘im ostida portlash sadolari, yarador yigitlarning ohu fig‘oni eshitilgandek bo‘ldi. Televizorni o‘chirib qo‘ydim. Ancha fursat o‘tdi. Shahnoza hamon karavotda hiqillab yotar, yoniga borgim, ko‘nglini ko‘targim kelardi-yu, gapni nimadan boshlashni bilmasdim. Aksiga olib chiroq o‘chib qoldi. Deraza pardasini ochib qaragam, hamma yoqqa zulmat cho‘kibdi. Faqat katta ko‘chadagi simyog‘ochlarda chiroqlar yoniq, ular ham tuman qo‘ynida yaradek xunuk, yaradek og‘riq aralash miltirayotgandek edi.

– Sham bormidi, Shahnoz? – dedim vaziyatni yumshatish ilinjida.

U xohlamay o‘rmidan turdi. Hiqillab yig‘lagancha, oshxonaga kirib ketdi. Taraq-turuq qilib, sham izladi. Anchadan keyin stakanga solingan, lipillab yonayotgan shamni ko‘tarib kirdi. Yi-

g'ishtirib olinmagan dasturxonga qo'ydi. Yig'idan ko'zlari shishib ketgan edi. Achindim. Ichimda o'zimni so'kdim.

– Choy ichaylik, Shahnoz... – dedim sekin.

U keskin burilib, yana oshxonaga kirdi. Choynak ko'tarib chiqdi-da, dasturxon ustiga do'q etib qo'ydi. Choynak qopqog'i sharaqlab silkindi, tumshug'idan choy tomidi.

– Quymaysanmi? – dedim noqulay iljayib.

– Balki, ichirib qo'yishim ham kerakdir? – Endi u yig'lamas, sham yog'dusida ko'zlari g'azabli yonib turardi. – E-ha, – dedi asabiy kulib. – Esimdan chiqibdi: axir siz yosh bolasiz-ku! Notavon go'dak!

Gapidan ko'ra ohangi og'ir botdi. Ichimdan toshib kelayotgan titroqni arang tiyib turardim.

Eshik jur'atsiz taqilladi. Shahnoza shoshilmay borib ochdi. Qorong'i yo'lak tomondan Qurbonoy xolaning ovozi keldi. Shahnoza bilan aylanib-o'rgilib so'rashdi. «Rustamjon o'g'lim yaxshi o'tiribdimi?» dedi. Gap-so'zidan sham so'rab chiqqanini angladim.

...Shahnoza qaytib kelib, yuzini ters o'girgan ko'yi o'tiraverdi. Nimadir deyishim kerak edi.

– Kim kepti? – dedim o'ta bema'ni savol berayotganimni bila turib.

Shahnoza yarq etib o'girildi.

– Voy! Eshitib qoldingizmi? – dedi o'yib oladigan ohang-da. – Sanjar aka keldi! Bayram bahona mashinasida sayr qildirmoqchi ekan. Dilyani o'ynatib zerikibdi. Endi mening galim ekan!

G'azabim qo'zidi. Amallab o'zimni bosishga urinardim. Bilib turibman: hozir urishsak, bunisi – oxirgi janjal bo'ladi.

– Gulni-chi? – dedim labim titrab. – Gulni nega Dilyaga bermabdi?

Shahnoza aftimga chaqchayib, istehzoli kuldi.

– Siz bermaganingizdan keyin u beradi-da! Biron marta gul sovg'a qilganmisiz odam bo'lib?

Titrab ketdim: – Bas! – dedim tahdid bilan.

– Urmoqchimisiz? – Shahnoza o'rnidan sapchib turdi. – Uring! – dedi chinqirib. – Uring! Shundan boshqa nima kelardi qo'lingizdan! Duch kelgan odamga musht ko'tarasiz. Hamma – yomon. Bitta siz – yaxshisiz! O'z ko'nglingizda qahramonsiz!

Adolat o'ratmoqchi bo'lasiz...

Uni bu alpozda birinchi ko'rishim edi. Yuzi g'azabdan xunuklashib ketgan, ko'zlarida alam emas, g'azab ham emas, nafrat yonar, vujudi qaltiragancha avtomatdek to'xtovsiz gapirar edi.

– Nimaga erishdingiz? – dedi hamon chinqirib. – Nimani isbotladingiz? Odamlar sizning adolatingizga tupurgan, eshitdingizmi! Ming marta, million marta! Bundan keyin ham tupuradi, bildingizmi?..

Quloqlarim shang'illab borar, ko'z o'ngim qorong'ulasha boshlaganini sezib turardim.

– Bo'ldi! – dedim nafasim qaytib. – Bo'ldi, Shahnoza... iltimos, Shahnoza... Dunyoda adolat bor-ku! Ozmi-ko'pmi, adolat bor axir...

U dami kesilgandek jimib qoldi. Meni birinchi marta ko'rayotgandek boshimdan oyog'imgacha qarab chiqdi.

– Nima? – dedi ovozini pasaytirib. – Nima dedingiz? – Esdan og'gan odamdek qiyqirib-qiyqirib kula boshladi. – Ha-a, endi tushundim, tushundim! – Yana battarroq qiyqirdi. – Manavi koshonani aytyapsiz! Senga uy olib berdim, demoqchisiz. Shunaqami? Ayting, shuni pesh qilmoqchimisiz? Uy olib berganmish. Voy! Uy olib berganmish! – Jazavasi tutib, qo'sh qo'llab tizzalariga ura ketdi. – Suyunchi beringlar! Bu kishi izlagan adolatini topibdilar!

Hayratdan og'zim ochilib qolgan, nima deyishni, nima qilishni bilmasdim.

Kulib-kulib, charchadi, shekilli, entikkan ko'yi aftimga uzoq tikildi: – Qah-ra-mon! – dedi nafratli istehzo bilan bosh chayqab. – Adolat kurashchisi!.. U quloq-bu qulog'ingiz bilan eshitib oling! Agar adam ispolkomdagi Stepanichmi, go'rmi-ermi, o'shaning jig'ildoniga besh mingni tiqmasa, mana shu tovuq kataginiyam tushingizda ko'radingiz!

Bu safar muzlash barmoqlarimdan boshlanmadi. Oyoq-qo'lim birvarakayiga muzladi-qoldi. Ichimdan otilgan titroq miyanga urildi-yu, boshim bir kosa olovga aylandi.

Esimda yo'q. Avval qaynoq choynakni otib, keyin baqirdimmi, yo oldin baqirib, keyin choynakni otdimmi?.. U jonholatda chap berganini, choynak gilam osig'liq devorga urilib, chil-chil singanini g'ira-shira ko'rdim.

Bo'g'zimdan otilib chiqqan vahshiyona hayqanidan o'zining quloqlarim yorilib ketgudek bo'ldi: – Yo'q-o-o-ol!!!

Uning ketidan yo'lakka otilganim ham elas-elas yodimda.

...Sham tugay deb qoldi. Ichim yonib ketyapti. Havo yetishmayapti... Nega ochilmaydi bu padarla'nat deraza! Mixlab qo'yilganmi, nima balo? Oyna sindimi? Ha-a, tirsagimga tegibdi. Batar bo'lmaydimi! Tashqari zim-ziyo. Yilt etgan chiroq yo'q. Qarg'alar xosiyatsiz fig'on chekadi... Tuman quyuqlashib ketibdi. Yaxshi... Hech kim ko'rmaydi... Achchiq xazon hidi. Kuz hidi... Kuz – o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi... Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi. Erta bahordan bo'tana bo'lib shosha-pisha qirg'og'iga sig'may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoe ketganini tushunib, olamga ma'yus boqadi... Yer-u ko'kni oppoq kafandek tuman chulg'aydi. Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kadi... Simsim yomg'ir yog'adi. To'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi.

...Bilagim achishyaptimi? Hamma yoq qon-ku! Nima qipti: qonni endi ko'rishimmi? Sham tugay deyapti... Tezroq... Daftarni joyiga qo'yishim kerak. Avvalgilarining oldiga...

Men necha yoshga chiqdim o'zi? Yigirma ikkiga? Yo'g'-e, axir men yetmish ikkidaman-ku! Balki, sakson ikkidir! Nima farqi bor?! «Donolar hayotni kuzaturlar jim...»

Tamom! Hammasi tamom bo'ldi... Ajab... Yuragim nega buncha osoyishta? Qilt etsa-chi? E-ha... Axir... Men endi yo'qman-ku. Bu dunyoda borligingdan kim naf ko'r-di-yu, yo'qligingdan kimga ziyon? Oyimga achinyapman. Dadamga... Shahnozaga... Rozi bo'linglar... Onajon... Meni kechiring, oyi!

OPPOQ-OPPOQ QORLAR YOG'DI

Bir haftadan keyin qor yog'di. Avval yomg'ir ezmalanib turdi-da, tushga borib qorga aylandi. Qabristondagi shamdek qotgan teraklar ustida sovuq uchqunlar g'ujg'on o'ynadi. Qor barcha marhumlar qatori devor tagidagi hali tuprog'i sovib ulgurmagan qabrni ham muzdek quchog'iga oldi...

Cho'qqisoqol go'rkov peshin namozini o'qib, hujrasidan chiqdi. Qor qabriston uzra cho'kkan o'lik sukunatni yanayam

chuqurlashtirishga qasd qilgandek unsiz yog‘ar, mozoriston kim-sasiz edi... Go‘rkov devor tagidagi qabr boshida o‘tirgan odamga ko‘zi tushib, yaqin bordi.

Yupun kiyingan yosh juvon qabr ustidagi qorni kafti bilan si-dirib tushirar, sovuqdan qo‘llari qizarib ketgan, qora ro‘moli, yel-kalari qorga belangan, plashining etagi loy edi...

– Unaqa qilmang, qizim, – dedi go‘rkov vazminlik bilan. Ayol tizzalab o‘tirgancha, behush alpozda bosh ko‘tarib qaradi.

– Nega? – dedi hayratlanib.

– O‘zingizni oldirib qo‘yasiz... – Go‘rkov yumshoqlik bilan tushuntirdi. – Marhum ham bezovta bo‘ladi.

– Nega? – Ayol qo‘llari bilan qor changallagan ko‘yi titrab-titrab yig‘lab yubordi. – Nega! – dedi ingrab. – Rustam akam ne-ga o‘ldi? Yaxshi bo‘lgani uchunmi?!

QURBONOIY XOLANING HAR KUNGI TASHVISHLARI

Biqini achishib uyg‘ondi.

– Xudoyim, o‘zingni rahming kelsin... – dedi pichirlab. Uch kun oldin kasali to‘satdan zo‘riqqani esiga tushdi.

Ko‘cha supurib turgan joyida tutib qolsa bo‘ladimi? Og‘riq-ning zo‘ridan a‘zoyi badanidan muzdek ter chiqib, birpasda ikki bukilib qolsa, deng! Xudoyimdan o‘rgilay! Bandasiga atagan dardi ham ko‘p ekan-da. Bo‘lmasa, yoqmas ovqat yegani yo‘q, og‘ir ish qilgani yo‘q...

...Bo‘ynidan «achom» qilib yotgan nevarasining do‘mboq qo‘lchasini avaylab olib, ustiga ko‘rpa tortdi. O‘rnidan sirg‘alib turdi-da, yo‘lakka chiqib, chiroq yoqdi. Shoshilmay tahorat qildi. Gazga choy qo‘yib, nimqorong‘i xonaga qaytib kirdi. Bomdodni o‘qib, o‘tganlarga Allohning rahmatini tiladi. Jumla-mo‘minga imon, salomatlik, yurtga tinchlik so‘radi...


Oshxonaga kirib, choy ichdi. Bir qo‘liga paqir, bir qo‘liga uzun bandli supurgi olib, yana yotoqqa mo‘raladi.

– Umida, – dedi past ovozda. – Bolalar bog‘chaga kech qol-masin.

Umidaning karavoti g‘irchilladi.

– Boravering, – dedi uyqusirab.

Qurbonoiy xola paqir bandini daranglatib yubormaslik uchun



zinalardan ehtiyotkor qadam bosib, pastga tushdi. Kunlar uzayib qolgan edi. Qish bo'yi qoqsuyakdek so'ppayib turgan baqateraklar ko'klam yaqinlashayotganini sezgandek jonlanib qolgan, yalang'och shoxlarini tong shamolida silkitib, o'zini o'zi uyg'otayotganga o'xshar edi. Qirg'og'i betonlangan ariqlar chetida may-salar unib chiqibdi... Munis, ojiz maysalar...

Qurbonoy xola paqirni terak ostiga qo'yib, shig'illatib supurib ketdi. Anchadan keyin non do'koniga mashina keldi. Boshiga eski do'ppi kiygan haydovchi mashina kajavasini ochdi.

– Supuryapsanmi?

Qurbonoy xola Komissarning g'o'ldiragan ovozini eshitib, ishini to'xtatdi.

«Yo'q, o'ynayapman!» deb o'yladi ensasi qotib.

Salom berdi. Komissar changdan qochib, o'n qadamcha narida turardi. Boshida qora shlyapa, egnida qora plash. Qo'lida sut bidon...

– Kuyovingni sudga berdingmi? – dedi Komissar.

– Xudoga soldim!

– To'g'ri qilasan! – Komissar istehzoli iljaydi. – Xudoning sendan boshqa dardi kasali yo'q.

Qurbonoy xola supurgini ko'tarib, ishini davom ettirmoqchi edi, Komissar so'rab qoldi.

– Xabaring bo'lmadimi, anavi bolani o'ldirganlar topildimikan?

– Topilganda nima? – dedi Qurbonoy xola. – O'lganning yosh joni ketdi... Xudo rahmat qilsin...

– Kelin-chi, kelin? Qadami qiyshaymayaptimi? Qurbonoy xola norozi alpozda qarab qo'ydi.

– O'zingiz tuzukmisiz? – dedi boshqa gap topolmay.

– Menmi? – Komissar kuldi. – Xex-xex-xex! Qachon o'lasiz, demoqchimisiz? Ovora bo'lasan! Men o'lmayman! Xex!

1991-1992

MUNDARIJA

Rustamning oxirgi kundaligidan	3
Qurbonoy xolaning har kungi tashvishlari	3
Tergov hujjatidan	9
«Sovuqni yomon ko‘rardilar»	10
Tergov hujjatidan	16
«Hozir kechirim so‘raysan!»	18
Tergov hujjatidan	21
Oqimga qarshi suzganim bo‘lsin!	24
Tergov hujjatidan	34
«Yovvoyilar»	37
«Qulog‘ingni ding qilgin-u, tilingni tiy!»	54
Hamkasblar suhbatidan	64
Rustamning birinchi kundaligidan	65
Tergov hujjatidan	104
Qurbonoy xolaning ertaklaridan	110
Alloh har narsani ko‘rguvchidir	110
Xudo urgan odam	123
Qurbonoy xolaning ertaklaridan	125
Hayotning bosh mazmuni – prinsipiiallik	126
Rustamning ikkinchi kundaligidan	148
Hamkasblar suhbatidan	185
Rustamning uchinchi kundaligidan	185
Kerakli dalil kerakli paytda aytiladi	217
Hamkasblar suhbatidan	221
Tergov hujjatidan	222
Muhabbatning saroyi keng... ..	225
Tergov hujjatidan	228
Rustamning oxirgi kundaligidan	230
Oppoq-oppoq qorlar yog‘di	235
Qurbonoy xolaning har kungi tashvishlari	236

A B A D I Y B A R H A Y O T A S A R L A R

O‘tkir HOSHIMOV

TUSHDA KECHGAN UMRLAR

(roman)

Mas’ul muharrir:

Lolaxon QO‘ZIBOYEVA

Nashrga tayyorlovchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

Badiiy muharrir:

Asaloy ESHONQULOVA

Musahhih:

Lolaxon QO‘ZIBOYEVA

Kompyuterda sahifalovchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

Dizayner:

Feruzbek VOXIDOV

Litsenziya raqami AI № 274. 15.07.2015 yilda berilgan.

Bosishga 2019 yil 05.09 da ruxsat etildi.

Bichimi 84/108 1/32.

Bosma tobog‘i 16 Shartli bosma tobog‘i 19

Garnitura “Times New Roman” offset qog‘ozi.

Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma № 51

Bahosi kelishilgan narxda.

“BOOK MEDIA PLUS” xususiy korxonasida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho‘pon ota ko‘chasi, 6 uy.

“ADAD-PLYUS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent, “Bunyodkor” shoh ko‘chasi 28-uy. 100097

QAYDLAR UCHUN

20000

84 (50) 6
H-#

ISBN 978-9943-5858-6-7



9 789943 585867